broke [brəʊk] *v* pt of **break**².

broken I [ˈbrəʊkən] *v* pp of **break**².

broken II [ˈbrəʊkən] *a* **1.** singan, siniq, buzuq; **2.** buzilgan.

bronze [brɒnz] *a* bronza, bronzadan yasalgan.

brother [ˈbrʌðə] *n* aka; uka.

brought [brɔ:t] *v* *pt, pp of bring*.

brown [braʊn] *a* jiggar rang, malla.

brownish [ˈbraʊnɪʃ] *a* och jiggar rang, och malla.

brush [brʌʃ] *n* 1. cho'tka; mo'yqalam; 2. tozalash.

brush [brʌʃ] *v* 1. cho'tkalamoq, cho'tkalab yuvmoq (tozalamoq); **to** ~ **teeth** tish (cho'tkalab) tozalamoq; 2. (sochni) tara-moq.

bubble [ˈbʌbl] *n* pufak, ko'pik.

bubble [ˈbʌbl] *v* ko'pirmoq, ko'piklan-moq.

bucket [ˈbʌkɪt] *n* paqir, chelak, satil; qovg'a, pastak yog'och paqir (idish).

budget [ˈbʌdʒɪt] *n* budjet.

buffalo [ˈbʌfələʊ] *n* (*pl buffaloes*) *zool.* buyvol.

bug [bʌg] *n* 1. taxtakana, jo'lak, qan-dala; 2. qo'ng'iz, hasharot.

build [bɪld] *v* (*pt, pp built*) qurmoq, solmoq, yasamoq, yaratmoq, bino (bar-po, bunyod, tashkil) qilmoq (etmoq).

builder [ˈbɪldə] *n* binokor, quruvchi; pudratchi.

building [ˈbɪldɪŋ] *n* bino, imorat.

built [bɪlt] *v* *pt, pp of build*.

bulb [bʌlb] *n* 1. *bot.* piyoz, piyozbosh, ildizpoya; 2. nok shakliga ega bo'lgan predmet; **electric** ~ elektr lampochkasi.

Bulgarian [bʌlˈɡeəriən] *a* bolgariyalik.

bull [bʊl] *n* ho'kiz, buqa.

bullet [ˈbʊlɪt] *n* o'q.

bully [ˈbʊli] *v* qo'rqitib qo'ymoq, do'q qilmoq, qo'rqitmoq.

bullying [ˈbʊlɪŋ] *n* qo'rqitish, do'q urish, po'pisa qilish.

bump [bʌmp] *n* to'p (etgan tovush).

bunch [bʌntʃ] *n* bog'lam, bog', dasta; tutam; bir bosh, bir dasta; ~ **of flowers** hir dasta gul; ~ **of grapes** bir bosh uzum.

bunny [ˈbʌni] *n* quyoncha.

burglar [ˈbɜ:glə] *n* quifbuzar o'g'ri.

burn [bɜ:n] *v* (*pt, pp burnt*) 1. o't olmoq, kuymoq, yonmoq; 2. o't oldirmoq, kuy-dirmoq, yondirmoq, yoqmoq.

burnt I [bɜ:nt] *v* *pt, pp of burn*.

burnt II [bɜ:nt] *a* yongan; kuygan.

burst [bɜ:st] *v* (*pt, pp burst*) yorilmoq, sinmoq, darz ketmoq, chatnamoq; port-lamoq, portlab ketmoq.

bury [ˈberi] *v* dafn qilmoq, ko'mmoq.

bus [bʌs] *n* avtobus; ~ **stop** avtobus bekati.

bush [bʊʃ] *n* tup, buta, buta o'simlik; butazor; changalzor; changal.

business [ˈbɪznəs] *n* 1. savdo-sanoat faoliyati; ~ **news** biznes xabarlar; 2. ish, kasbkor, doimiy yumush, mashg'ulot; ~ **card** biznes kartochkasi; 3. savdo korxonasi, firma; 4. ish, vazifa, burch; 5. ish, voqea, hodisa.

businessman [ˈbɪznɪsmən] *n* (*pl busi-nessmen*) (erkak) biznesmen, tadbirkor.

businesswoman [ˈbɪznɪswʊmən] *n* (*pl businesswomen*) (ayol) biznesmen, tad-birkor.

bustle [ˈbʌsl] *n* shovqin-suron, to's-to'polon.

busy [ˈbɪzi] *a* 1. ishi ko'p, ish bilan band, serish; 2. (vaqtga nisbatan) qizg'in, dol-zarb, ishga to'la; 3. (makonga ko'ra) odamga (harakatga) to'la, gavjum, ser-qatnov, hayot qaynagan.

but [bʊt; bʌt] *conj* lekin, ammo, biroq; shunday bo'lsa ham, shunga qaramasdan.

but [bʌt] *prep* -dan boshqa (tashqari, bo'lak).

butcher [ˈbʊtʃə] *n* go'sht sotuvchi, qassob.

butter [ˈbʌtə] *n* saryog'.

butterfly [ˈbʌtəflaɪ] *n* (*pl butterflies*) kapalak, parvona.

button [ˈbʌtn] *n* 1. tugma; 2. knopka, tugma.

buy [baɪ] *v* (pt, pp **bought**) sotib olmoq, xarid qilmoq.

buzz [bʌz] *v* vizillamoq.

by [baɪ] *prep* **1.** yonida, oldida, yaqinida, atrofida, tevaragida; **2.** orqali, tomonidan, yordami bilan; ~ **air mail** avia pochta orqali; **to go home** ~ **bus** uyya avtobus bilan bormoq; **3.** vaqtini (paytni muddatni) bildiradi: -ga, -ga borib, -gacha, -ga qadar; **by the end** oxirida, oxiriga kelib; **4.** -ga muvofiq (binoan, ko'ra), ho'yi-cha; **5.** davomida, ichida.

bye [baɪ] *int* Hozircha (vaqtincha) xayr!, Xayr!

C, c

C, c [si:] ingliz tili alifbosining uchinchi harfi.

cabbage ['kæbɪdʒ] *n* karam.

cabin ['kæbɪn] *n* **1.** kayuta (kemada); **2.** kulba, kichik uy; **3.** samolyot kabinasi.

cabinet ['kæbɪnət] *n* **1.** idish-tovoq qo'yiladigan etajerka, javoncha, shkafcha; **2.** vazirlar mahkamasi.

cable ['keɪbl] *n* **1.** yo'g'on arqon, kanat; **2.** kabel; **3.** telegramma.

café ['kæfeɪ] *n* yemakxona, kafe.

cage [keɪdʒ] *n* qafas.

cake [keɪk] *n* tort, pirog, pirojniy.

calculate ['kælkjuleɪt] *v* hisoblamoq, hisoblab chiqarmoq; sanamoq, hisob-kitob qilmoq.

calculation [kælkju'leɪʃn] *n* hisoblab chiqarish, hisoblash; hisob natijasi.

calculator ['kælkjuleɪtə] *n* kalkulator, hisoblagich.

calendar ['kælɪndə] *n* kalendar, taqvim.

calf [kɑ:f] *n* (*pl calves*) buzoq; (fil, hulg'u va sh.k. ning) yangi tug'ilgan, onasidan ajralmagan holasi.

call [kɔ:l] *v* chaqirmoq; telefon qilmoq.

called [kɔ:ld] *a* ... deb atal(adi)gan.

caller ['kɔ:lə] *n* **1.** telefon qiluvchi; **2.** mehmon, tashrif buyuruvchi.

calm [kɑ:m] *a* (odam haqida) og'ir, vazmin, yuvosh, bezor.

calm down ['kɑ:m daʊn] *phr.* *v* tinchlanmoq, tinchimoq, yupanmoq, ovunmoq, xotirjam bo'lmoq, taskin (orom) topmoq.

camel ['kæməɪ] *n* tuyu.

calmly ['kɑ:mli] *adv* tinchlik (osoyish-talik, xotirjamlik) bilan, bamaylixtotir, bemaolol.

came [keɪm] *v* *pt* of *come*.

camera ['kæməərə] *n* fotoapparat, kino-kamera; **to be on** - video kameraga tushmoq.

camp [kæmp] *n* lager, dam olish maskani, oromgoh.

campaign [kæm'peɪn] *n* kompaniya.

campfire ['kæmpfaɪə] *n* gulxan.

camping ['kæmpɪŋ] *n* (oromgohda) dam olish.

campus ['kæmpəs] *n* maktab, kollej, universitet hududi.

can I [kən, kæn] *modal v* (pt **could**) qila olmoq.

can I¹ [kæn] *n* **1.** konserva bankasi; **2.** bidon, biton; **3.** tunuka quti; **garbage** - axlat qutisi.

can I² [kæn] *v* (oziq-ovqat mahsulotlarini) konservalamoq, konserva qilmoq.

canal [kənəl] *n* kanal.

canary [kə'neəri] *n* (*pl canaries*) kana-reyka.

cancel ['kænsəl] *v* bekor qilmoq, kuchdan qoldirmoq.

cancer ['kænsə] *n* rak, saraton (kasallik).

candidate ['kændɪdət] *n* nomzod.

candle ['kændl] *n* sham.

candy ['kændi] *n* shirinlik, konfetlar.

cannot ['kænət] *modal v* qila olmaslik („**can**“ fe'lining hozirgi zamon inkor formasi).

can opener [kæn 'əʊpnə] *n* konserva ochqich.

canteen [kæn'ti:n] *n* oshxona, bufet.
canvas [kænvəs] *n* brezent (qattiq material).

canyon ['kænjən] *n* kanon.

cap [kæp] *n* 1. bosh kiyim; 2. qopqoq.

capable ['keɪpəbl] *a* 1. qobil, qodir, layoqatli, iste'dodli, qobiliyatli, mohir, uquvli; 2. yo'l qo'yadigan, ruxsat (ijozat) beradigan.

caper ['keɪpə] *v* sakramoq.

capital I ['kæpɪtl] *a* 1. bosh, asosiy; 2. (harf haqida) bosh.

capital II ['kæpɪtl] *n* poytaxt.

Capitol Hill ['kæpɪtl 'hɪl] *n* Kapitoliy minorasi.

captain ['kæptɪn] *n* kapitan.

caption ['kæpʃn] *n* rasm tavsifi.

capture¹ ['kæptʃə] *n* asir olish, asir tushirish; o'lja, qo'lga tushirilgan narsa.

capture² ['kæptʃə] *v* 1. qo'lga olmoq (tushirmoq); asir qilib olmoq, ushlamoq (hibsga olmoq), asir olmoq, bandi qilmoq; 2. tasvirlamoq, izohlamoq, aks ettirmoq.

car [kɑ:] *n* avtomobil.

caravan ['kærəvæn] *n* karvon.

carbonated ['kɑ:bəneɪtɪd] *a* gazlangan.

card [kɑ:d] *n* 1. otkritka, ochiq xat; 2. karton qog'oz; 3. (biror maqsad uchun belgilangan) kartochka, guvoohnoma, билет.

card game ['kɑ:d geɪm] *n* karta o'yini.

cardboard ['kɑ:dbɔ:d] *n* karton.

cardigan ['kɑ:dɪgən] *n* jundan yasalgan tugmali, yoqasiz ust kiyim.

care¹ [keə] *n* 1. g'amxo'rlik, g'amxo'rlik qilish, diqqat, e'tibor, qarab turish, parvarish qilish; **in smb's** ~ birovning qo'lida, qaramog'ida, tarhiyasida; **to take ~ (of)** g'amxo'rlik qilmoq, qaramoq; tashvishini qilmoq, g'amini yemoq; 2. g'am, tashvish, xavotir.

care² [keə] *v* 1. g'amxo'rlik qilmoq; g'amini yemoq, tashvishini qilmoq; 2. xoh-

lamoq, istamoq; **I don't** ~ menga baribir, men uchun farqsiz.

career [kə'riə] *n* kasb.

careful ['keəfl] *a* ehtiyotkor, g'amxo'r; **to be** ~ ehtiyot bo'lmoq.

carefully ['keəfəli] *adv* ehtiyotkorlik bilan, ehtiyot qilib, ehtiyot bo'lib.

careless ['keələs] *a* beparvo, e'tiborsiz, sovuqqon, pala-partish ish qiladigan, diqqat-e'tiborsiz; parvosiz, beg'am.

carelessly ['keələsli] *adv* 1. beparvolik (e'tiborsizlik, sovuqqonlik) bilan; nari-dan-beri, chala-chulpa, chalakam-chatti, pala-partish qilib; ehtiyotsizlik bilan, avaylamay; 2. parvo qilmay, parvoyiga keltirmay; yuzaki, yengiltaklik bilan.

car-free [kɑ:'fri:] *a* mashinasiz, mashinalardan holi.

caring ['keərɪŋ] *a* g'amxo'r, mehribon, jonkuyar, kuyinchak.

carpenter ['kɑ:pɪntə] *n* duradgor.

carpentry ['kɑ:pəntri] *n* duradgorlik ishi.

carpet [kɑ:pɪt] *n* gilam.

carriage ['kæriɪdʒ] *n* 1. fayton, yengil arava; 2. vagon.

carrot ['kærət] *n* sabzi.

carry ['kæri] *v* 1. ko'tarmoq, ko'tarib olmoq; tashimoq, ko'tarib bormoq, eltmoq, olib bormoq; 2. o'z ichiga olmoq, olib yurmoq.

carry out ['kæriəut] *phr.v* amalga oshirmoq, bajarmoq, ijro etmoq, ado etmoq.

cart [kɑ:t] *n* arava.

cartel [kɑ:'tel] *n* kartel (kapitalistik birlashuv turi).

cartoon [kɑ:'tu:n] *n* multiplikatsion film.

carve [kɑ:v] *v* 1. (yog'ochga, suyakka) o'yib yozmoq, o'yib naqsh solmoq; qirqib yasamoq; 2. (qaynatib pishirilgan go'shtni) bo'laklarga kesmoq, to'g'ramoq.

carving [kɑ:vɪŋ] *n* o'ymakorlik, o'yma

naqsh solish; o'yima naqsh; o'yib ishlangan narsalar; o'ymakorlik ishi.

case I [keɪs] *n* **1.** voqea, hodisa; hol, holat, fursat, kez; **in any** – har qanday holatda; **in** – bu holda; **in ~ of (smth.)** agar (biror narsa) sodir bo'lsa; **in the** – imkon bo'lsa; mabodo; munosabat bilan; **just in** – har ehtimolga qarshi, ehtiyot shart; **2.** sudda ko'riladigan ish, jinoiy ish.

case II [keɪs] *n gram.* kelishik.

case III [keɪs] *n* **1.** yashik, quti; chiroyli quticha, nafis sandiqcha; **2.** qin, g'ilof; jild; quti.

cash [kæʃ] *n* naqd pul; **to ~ a postal order** pochta tartibida naqd olmoq.

cashier [kæʃiə] *n* kassir, kassachi.

cassette [kə'set] *n* kasseta, magnit tasma.

cassette recorder [kə'set rɪkɔ:də] *n* magnitafon.

cast [kɔ:st] *v* otmok, uloqtirmok, irg'itmoq, itqitmoq.

castle ['kɑ:sl] *n* qasr, qal'a, saroy, ark, qo'rg'on.

casual ['kæʒuəl] *a* tasodifiy, tasodifan bo'lgan (bo'lib qolgan).

cat [kæt] *n* mushuk.

catalogue ['kætəloʒ] *n* katalog (kitob, surat, eksponat va sh.k. narsalarning ma'lum tartibda tuzilgan ro'yxati).

catastrophe [kə'tæstrəfi] *n* halokat, falokat, mudhish hodisa, fojia.

catch [kætʃ] *v* (pt, pp **caught**) **1.** ushlamoq, tutmoq, ushlab (tutib) olmoq; **2.** (biror kishini noma'qul ish qilayotganda) ko'rib qolmoq, ushlab (tutib) olmoq, jinoyat ustida qo'lga tushirmok (olmoq); **3.** ilintirmok, ilib olmoq (qolmoq), qisib qolmoq; **4.** (ma'noni) anglamoq, fahmlamoq; **to ~ cold** shamollamoq, shamollab qolmoq; **to ~ fire** yona boshlamoq, o't olmoq, o't tushmoq (ketmoq); **5.** yuqtirmok, kasallik orttirib olmoq.

category ['kætəgəri] *n* (pl **categories**) toifa.

caterpillar ['kætəptlə] *n* qurt.

cathedral [kə'thi:drəl] *n* kafedral sobor (ma'muriy cherkov okrugidagi bosh cherkov, katta butxona).

catholic¹ ['kæθlɪk] *a* katoliklarga oid, katolik ...

catholic² ['kæθlɪk] *n* katolik (katoliklar mazhabidagi kishi, ayol).

cattle-farming ['kætl fɑ:mɪŋ] *n* chorvachilik.

caucus [kɔ:kəs] *n* saylovoldi (partiya) yig'ilishi.

caught [kɔ:t] *v* pt, pp of **catch**.

cause¹ [kɔ:z] *n* **1.** sabab; – **and effect** sabab va oqibat; **2.** sabab, vaj, bahona; **3.** ish, masala; **the ~ of peace** tinchlik masalasi.

cause² [kɔ:z] *v* sabab bo'lmoq, tug'dirmok, qo'zg'atmoq.

cave [keɪv] *n* g'or, ungur.

caviar ['kæviɑ:] *n* ikra (baliq tuxumidan tayyorlangan tansiq oziq-ovqat mahsuloti).

CD=compact disk [si:'di:] sidi, kompakt disk.

CD-Rom [si:'di:rom] *n* CD-Rom (kompyuter uchun lazer disk).

ceiling ['si:lɪŋ] *n* shift.

celebrate ['selɪbreɪt] *v* nishonlamoq, bayram qilmoq.

celebrated ['selɪbreɪtɪd] *a* mashhur, nomdor, dongdor.

celebration ['selɪbreɪʃn] *n* bayram.

cell [sel] *n* **1.** turma kamerasi (xonasi); bo'lma, hujra; **2. biol.** hujayra; **3. el.** element (o'zgaras elektr toki manbai).

cell phone ['selfəʊn] *n* uyali telefon.

cement [srment] *n* sement.

cent [sent] *n* sent (=0,01 dollar, gulden, rupiya); **per ~ foiz** (yuzdan bir bo'lak).

centimeter ['sentɪ,mi:tə] *n* AE = **centimetre**.

centimetre ['sentɪ.mi:tə] *n* santimetr (1 metrning yuzdan bir qismi).

central ['sentrəl] *a* markaziy; muhim, markazdagi, o'rtadagi; ~ **heating** markazlashgan isitish tizimi.

centralised ['sentrəlaɪzd] *a* markazlash(tiril)gan.

centre ['sentə] *n* markaz; o'rta; biror narsa to'plangan joy, o'choq, markaz.

century [sentʃəri] *n* (*pl centuries*) asr, yuz yillik vaqt.

ceramics [sɪ'ræmɪks] *n* (*pl ceramics*) sopol, keramika, kulolchilik.

cereal ['sɪəriəl] *n* 1. donli mahsulotlardan tayyorlangan taom; 2. boshqali g'alla o'simligi.

ceremony ['serəməni] *n* (*pl ceremonies*) tantana, marosim, udum.

certain ['sɜ:tɪn] *a* 1. aniq, muayyan, ma'lum, tayinli, tayin; qat'iy; 2. dadil, qat'iy, mahkam, ishonchli; 3. shubhasiz, shak-shubhasiz, begumon, aniq; 4. ba'zi, ha'zi bir.

certainly ['sɜ:tnli] *adv* albatta, turgan gap, shubhasiz, tabiiy, shak-shubhasiz, so'zsiz.

certificate [sə'tɪfɪkət] *n* guvohnoma, shahodatnoma, sertifikat.

chaff [tʃɑ:f] *n* chori, to'pon.

chain [tʃeɪn] *n* zanjir.

chair [tʃeə] *n* 1. stul; 2. majlisni olib boruvchi raisning o'rni.

chairperson [tʃeəpɜ:sn] *n* rais (bahsda, majlisda).

chalk [tʃɔ:k] *n* bo'r.

challenge¹ [tʃælɪndʒ] *n* chaqiriq, da'vat, chorlov.

challenge² [tʃælɪndʒ] *v* (musobaqa, bellashuv va sh.k. ga) chaqirmoq, da'vat etmoq, chorlamoq.

champion [tʃæmpjən] *n* 1. chempion, g'olib; 2. kurashchi, kurashuvchi.

chance [tʃɑ:ns] *n* 1. imkoniyat, qulay fursat (payt, kez, vaqt), imkon; 2. tasodif,

tasodifiy hol; 3. baxtli tasodif; 4. tavakkal, tavakkalchilik.

change¹ [tʃeɪndʒ] *n* 1. o'zgarish; 2. (kiyim va sh.k. haqida) almashtirish, o'zgartirish; 3. qaytim, mayda pul.

change² [tʃeɪndʒ] *v* 1. o'zgar(tir)moq; 2. alish(tir)moq, alish(tir)ib olmoq, almash(tir)moq, ayirboshlamoq, yangila(n)moq; 3. boshqa kiyim kiy(dir)moq, qayta kiyin(tir)moq, kiyimini o'zgartirmoq; 4. (pulni) maydalamoq, maydalab olmoq (bermoq).

channel [tʃænl] *n* kanal (televizion).

chant [tʃɑ:nt] *n* 1. tantavor ruhdagi qo'shiq; 2. (she'riyatda) qo'shiq.

chaotic [keɪ'ɒtɪk] *a* tartibsiz, chalkash, alg'ov-dalg'ov.

chapter [tʃæptə] *n* bob (kitob).

character [kærəktə] *n* 1. xarakter, tabiat, fe'l, xulq, fe'l-atvor; 2. personaj, qahramon (badiiy asarda); 3. biror odam, shaxs; zot, arbob; 4. xususiyat, xossa, fazilat.

characteristic [kærɪktə'rɪstɪk] *n* xarakter, tabiat, o'ziga xos xususiyat.

charcoal [tʃɑ:kəʊl] *n* pista ko'mir.

charge¹ [tʃɑ:dʒ] *n* 1. ko'rsatilgan xizmatlar uchun narx, to'lov, haq; **free of** - bepul, tekin; 2. g'amxo'rlik, g'amxo'rlik qilish; diqqat e'tibor; parvarish qilish; majburiyat; **to be in ~ of** biror narsaga (ishga) ma'sul, javobgar bo'lmoq; **to take ~ of** javobgarlikni o'z zimmasiga olmoq; 3. *el.* zaryad (elektrlangan jismdagi elektr miqdori).

charge² [tʃɑ:dʒ] *v* 1. pul to'lashni talab qilmoq, xizmat haqini so'ramoq; 2. ayblamoq, qoralamoq; 3. topshirmoq, zimmasiga yuklamoq, topshiriq bermoq, vazifa qilib qo'ymoq (topshirmoq); 4. *el.* zaryadlamoq, zaryad bermoq.

charity [tʃærɪti] *n* 1. rahm, shafqat, marhamat; rahmdillik; 2. muhtojlarga yordam, xayr-sahovat, ehson, xayr, sadaqa.

tʃ chin /θ thin /ð the /ʃ she /ʒ usual /h he /m me /n not /ŋ king /l lip /r rat /j yet /w we

chart [tʃɑ:t] *n* **1.** diagramma; **2.** dengiz xaritasi.

chase [tʃeɪs] *v* quvmoq (ketidan).

chat¹ [tʃæt] *n* suhbat; safsata, bekorchi gap.

chat² [tʃæt] *v* suhbatlashmoq, gap sotmoq; aljira-moq, vaysamoq, valdiramoq.

cheap [tʃi:p] *a* arzon, bahosi (narxi) past.

cheaply [tʃi:pli] *adv* arzonga, arzimagan narxga.

cheat [tʃi:t] *n* **1.** firibgarlik, qalloblik, muttahamlik; **2.** muttaham, qallob, firibgar; aldamchi, tovlamachi.

cheat [tʃi:t] *v* muttahamlik (qalloblik, firibgarlik) qilmoq, firib bermoq; aldamoq, tovlamoq.

check¹ [tʃek] *n* tekshiruv, nazorat.

check² [tʃek] *v* **1.** tekshirmoq, tekshirib ko'rmq; **2.** to'xtatmoq, to'xtatib (ushlab, tutib) turmoq.

cheer [tʃiə] *n* ma'qullovchi yoki tabriklovchi xitob, hayqiriq; ~s! ura!

cheerful [tʃiəfʊl] *a* tetik, bardam, dadil; xursand, shod, quvnoq, xushchaqchaq; ~ colours quvnoq, och tusli ranglar.

cheese [tʃi:z] *n* pishloq.

cheeseburger [tʃi:zbɜ:gə] *n* chizburger.

cheetah [tʃi:tə] *n* gepard.

chef [ʃef] *n* oshpaz.

chemical ['kemikəl] *a* kimyoviy; ~ element kimyoviy element; ~ waste kimyoviy chiqindilar.

chemicals ['kemiklz] *n* ximikatlar, kimyoviy mahsulotlar.

chemist ['kemist] *n* aptekachi; kimyogar.

chemist's ['kemists] *n* dorixonona.

chemistry ['kemistri] *n* kimyo.

cheque [tʃek] *n* chek (bank cheki); to pay by ~ chek bilan to'lamoq.

cherry [tʃeri] *n* (*pl cherries*) gilos.

chess [tʃes] *n* shaxmat.

chest [tʃest] *n* **1.** ko'krak, ko'ks, ko'krak qafasi; **2.** yashik, quti, sandiq.

chew [tʃu:] *v* chaynamoq, kavshamoq; yemoq.

chewing gum [tʃu:ɪŋ ɡʌm] *n* saqich.

chick [tʃɪk] *n* jo'ja.

chicken [tʃɪkɪn] *n* (*pl chicken*) tovuq.

chicken pox [tʃɪkɪnpɒks] *n* suvchechak.

chickpea [tʃɪkpi:] *n* no'xat.

chief [tʃi:f] *n* boshliq, rahbar.

child [tʃaɪld] *n* (*pl children*) go'dak, bola, farzand.

child development [tʃaɪld drɪveləp-mənt] *n* bola rivojlanishi.

childhood [tʃaɪldhʊd] *n* bolalik chog'lari, bolalik davri; bolalik.

childminder [tʃaɪldmaɪndə] *n* ota-ona ishda bo'lgan paytda bolalarga qarovchi enaga.

children [tʃɪldrən] *n pl of child* („child“ ning ko'plik shakli) bolalar, yosh bolalar, bola-baqra, bola-chaqa, o'g'il-qizlar, farzandlar.

chill [tʃɪl] *n* sovuq.

chilli pepper [tʃɪlɪpepə] *n* achchiq qizil qalampir, garmdori.

chimney [tʃɪmni] *n* (tutun chiqadigan) mo'ri.

chin [tʃɪn] *n* iyak, engak.

Chinese¹ [tʃaɪni:z] *a* xitoycha, Xitoy ...

Chinese² [tʃaɪni:z] *n* xitoylik; xitoy tili.

chips [tʃɪps] *n* chips (qovurilgan kartoshka).

chocolate [tʃɒklət] *n* shokolad.

choice¹ [tʃɔɪs] *n* **1.** tanlash; **2.** muqobil variant, alternativa; **3.** tanlanadigan narsa yoki kimsa; assortiment, navlar.

choice² [tʃɔɪs] *a* tanlangan, saralangan, sara, eng yaxshi; sarxil.

choir [kwaɪə] *n* xor.

choose [tʃu:z] *v* (*pt chose*; *pp chosen*) tanlamoq, saylamoq; tanlab olmoq.

chop¹ [tʃɒp] *n* **1.** (bolta va sh.k. bilan berilgan) zarba, zarb; chopish, to'g'rash, qiymalash; **2.** to'qmoqlangan go'shtdan tayyorlangan kotlet.

chop² [tʃɒp] *v* chopmoq, to'g'ramoq, qiymalamoq, maydalamoq, kesib (qirqib, to'g'rab) qo'yimoq.

chopstick [tʃɒpstɪk] *n* tayoqcha (Xitoy va b. joylarda ovqat yeyish uchun).

choreography [kɔrɪ'ɒgrəfi] *n* xoreografiya.

chose [tʃəʊz] *v pt of choose*.

chosen [tʃəʊzn] *v pp of choose*.

choyhona [tʃɔɪ'hɒnə] *n* choyxona.

Christmas ['krɪsməs] *n* rojdestvo hayrami.

chrysalis ['krɪsəlɪs] *n* g'umbak (hasharotlamiki).

chubby [tʃʌbi] *a* dumaloq yuzli.

church [tʃɜ:tʃ] *n* cherkov.

cigarette [sɪgə'ret] *n* sigareta.

cinema [sɪnɪmə] *n* kinoteatr.

circle¹ ['sɜ:kl] *n* doira, aylana.

circle² ['sɜ:kl] *v* aylantirib chizmoq.

circular ['sɜ:kjʊlə] *a* **1.** yumaloq, dumaloq, doira (aylana, halqa) shaklidagi; aylanma, doiraviy; **2.** chetlab o'tiladigan, aylanish, aylanma.

circulation [sɜ:kjʊ'leɪʃn] *n* **1.** aylanish, aylanib turish (yurish); **2.** (pul haqida) muomalada bo'lish, ishlatilish; **3.** tiraj (bosil(adi)gan nusxalar soni).

circumstance ['sɜ:kəmstəns] *n* **1.** sharoit, vaziyat, ahvol, hol; **in/under the** ~s ana shunday sharoitda, mavjud sharoitlarda; **in/under no** ~s hech qanday holatda, vaziyatda; **2.** moddiy yoki moliyaviy ahvol; **in reduced** ~s qiyin (og'ir) moddiy ahvolda.

circus ['sɜ:kəs] *n* sirk.

citizen ['sɪtɪzn] *n* fuqaro.

city ['sɪti] *n* (*pl cities*) katta shahar; ~ **council** shahar kengashi.

civilization [sɪvələ'zeɪʃn] *n* sivilizatsiya.

claim¹ [kleɪm] *n* **1.** talab, so'rov, talabnoma; **2.** da'vo; **3.** (aytilgan) fikr, da'vo.

claim² [kleɪm] *v* **1.** talab qilmoq, qat'iy

so'ramoq; **2.** da'vo qilmoq, da'vogar bo'lmoq.

clap [klæp] *v* olqishlab chapak (qarsak) chalmoq, olqishlamoq.

clasp [klɑ:sp] *v* siqmoq, qismoq.

class [klɑ:s] *n* sinf.

classbook [klɑ:sbuk] *n* darslik.

classical ['klæsɪkl] *a* klassik, mumtoz; antiqa, go'zal, an'anaviy, odat (an'ana) bo'lib qolgan; ~ **music** mumtoz musiqa.

classmate ['klɑ:smeɪt] *n* sinfdosh.

classroom ['klɑ:srum, -ru:m] *n* sinfxona.

classroom things ['klɑ:srum θɪŋz] *n* o'quv qurollari.

clause [klɔ:z] *n* **1.** gram. gap (qo'shma gapning bir qismi sifatida); **2.** (shartnomadagi) modda, band.

claw [klɔ:] *n* **1.** tirnoq, changal, chang; **2.** tirnoqli panja; panja, changal.

clay [kleɪ] *n* loy, tuproq, gil.

clean¹ [kli:n] *a* **1.** toza, ozoda, pokiza, tiniq; **2.** yangi, toza, sof, musaffo; **3.** aralashmasiz; toza.

clean² [kli:n] *v* tozalamoq.

cleaner ['kli:nə] *n* farrosh.

clear¹ [kliə] *a* **1.** aniq, ravshan, yaqqol; oydin, yorqin, porloq; **2.** tiniq, shaffof; ochiq, bulutsiz, sof; **3.** aniq, dona-dona, yaqqol, tushunarli, tushuniladigan.

clear² [kliə] *v* tozalamoq.

clearly ['khiəli] *adv* **1.** ochiq, oydin; ravshan, baralla, yaqqol, aniq (qilib); **2.** ma'lum, ravshan, tushunarli, shubhasiz, shak-shubhasiz, ayon, begumoq, aniq.

clerk [klɜ:k] *n* klerk (ba'zi mamlakatlarda: yozuv-chizuv ishlarini olib boradigan kichik xizmatchi; kotib).

clever ['klevə] *a* **1.** aqlli, oqil, miyali, fahm-farosatli, dono, zukko; **2.** talantli, iste'dodli.

cliff [klɪf] *n* tik qoya; osilib turgan qoyatosh.

climate ['klaɪmɪt] *n* iqlim, ob-havo.

climb [klaɪm] *v* tirmashib chiqmoq (daraxt, tog' va b.ga).

climber ['klaɪmə] *n* aspinist.
clinic ['klnɪk] *n* klinika, shifoxona.
clock [klɒk] *n* soat (buyum).
close I [kləʊs] *a* yaqin.
close II [kləʊz] *v* yop(il)moq.
closely [kləʊzli] *adv* puxta qilib, sinchiklab, diqqat bilan, batafsil, mufassal, mukammal.
closet ['klɒzɪt] *n* devoriy (devorga ishlangan) shkaf.
cloth [klɒθ] *n* mato.
clothe [kləʊð] *v* kiydirmoq, kiyintirmoq; kiymoq, kiyinmoq.
clothes [kləʊðz] *n* kiyim, kiyim-kechak, kiyim-bosh, ust-bosh, libos.
clothing ['kləʊðɪŋ] *n* kiyim-bosh; kiyim, kiyim-kechak, kiyim-bosh, ust-bosh, libos, sarpo.
cloud [klaʊd] *n* bulut.
cloudy ['klaʊdi] *a* bulutli.
clown [klaʊn] *n* masxaraboz.
club [klʌb] *n* klub.
cluck [klʌk] *v* qaqqillamoq.
clue [klu:] *n* jumboqning kaliti, uchi.
clutter ['klʌtə] *n* o'ta tartibsizlik, betartiblik, chalkashlik.
coal [kəʊl] *n* ko'mir.
coal-mining ['kəʊl maɪnɪŋ] *n* ko'mir qazish.
coast [kəʊst] *n* qirg'oq, sohil.
coat [kəʊl] *n* palto.
coconut ['kəʊkənʌt] *n* kokos yong'og'i.
cocoon [kə'ku:n] *n* pilla.
code [kəʊd] *n* 1. kod, shifr; 2. kodeks, qonunlar to'plami (majmuasi); ~ **of practice** faoliyat kodeksi.
co-ed [kəʊ'ed] *n* qiz va o'g'il bolalarga bir sinfda ta'lim berish.
coffee ['kɒfi] *n* qahva.
cohesion [kəʊ'hi:ʒn] *n* mustahkamlik, jipslik, bardamlik.
coin [kɔɪn] *n* tanga.
coincidence [kəʊɪnsɪdəns] *n* bir-biriga to'g'ri kelish, mos kelish, muvofiqlik.

cold¹ [kəʊld] *a* sovuq; ~ **drink** salqin (yaxna) ichimlik.

cold² [kəʊld] *n* shamollash.

collaboration [kə'læbə'reɪʃn] *n* hamkorlikda ishlash, hamkorlik.

collar ['kɒlə] *n* yoqa, kichkina yoqa.

collect [kə'lekt] *v* 1. to'plam(moq, yig'(il)moq; kolleksiya to'plamoq; 2. olmoq, birga olib (ola) ketmoq.

collection [kə'lektʃn] *n* 1. to'plam; 2. to'plash, yig'ish; ~ **point** axlat to'planadigan maxsus joy.

collector [kə'lektə] *n* 1. yig'uvchi, to'plovchi; 2. kolleksioner.

college ['kɒlɪdʒ] *n* kollej.

colon ['kəʊlən] *n* ikki nuqta.

colony ['kɒləni] *n* (**pl colonies**) mus-tamlaka.

colour¹ ['kʌlə] *n* 1. rang, tus; ~ **chart** ranglar palitrasi; 2. bo'yoq, rang, tus; 3. betning tusi (rangi); 4. kolorit, ravshanlik, ochiqlik, yorqinlik, ko'zga tashlanadiganlik.

colour² ['kʌlə] *v* bo'yamoq, rang bermoq, rang-barang qilib bo'yamoq.

coloured ['kʌləd] *a* rangli.

colourful ['kʌləfl] *a* rang-barang.

colourless ['kʌlələs] *a* 1. rangsiz, tus-siz; 2. mazmunsiz, qizig'i yo'q.

column ['kɒləm] *n* 1. ustun, ustuncha, ustunsimon tik narsa; 2. stun, ustun, kolonka, grafa, katak, xona.

comb [kəʊm] *n* taroq.

combination [kəmbɪ'neɪʃn] *n* 1. birikma, birikish, birikuv, birlik; 2. birlashish, birlashuv, birlashtirish, ittifoq; 3. shifr; ~ **lock** pinhoni (yashirin) qulf.

combine¹ ['kəmbaɪn] *n* 1. birlashma, uyushma, tashkilot, sindikat; 2. (qishloq xo'jaligida) kombayn.

combine² [kəmbaɪn] *v* birga qo'shmoq, birga qo'shib bermoq, birlashtirmoq.

come [kʌm] *v* (pt **came**; pp **come**) 1. kelmoq; **to** ~ **back** qaytib kelmoq, orqaga

qaytmoq; **to ~ home** uyga kelmoq; **2.** yetib kelmoq (bormoq), yetmoq; **3.** bo'lmog, bo'la boshlamoq, bo'lib qolmoq (ketmoq); **4.** sodir bo'lmoq; **to ~ from a** kelib chiqmoq; **b) ... dan kelmoq; d) ... dan olinmoq; to ~ into being** tashkil topmoq, yuzaga kelmoq; **to ~ up with smth.** biror narsaga javob yoki yechim topmoq.

comedy ['kɒmɪdi] *n* (*pl comedies*) komediya.

comet ['kɒmɪt] *n* kometa, dumli yulduz.

comfort¹ ['kɒmfət] *n* **1.** yupatish so'zlari; taskin, tasalli; yordam, madad, dalda; **2.** komfort (maishiy qulaylik, shinamlik); qulaylik, o'ng'aylik.

comfort² ['kɒmfət] *v* yupatmoq, ovutmoq, tasalli (taskin) bermog.

comfortable ['kɒmfəbl̩] *a* qulay, o'n-g'ay, shinam.

comic ['kɒmɪk] *n* kulgili rasmlar.

comma ['kɒmə] *n* vergul.

command¹ [kə'mɑ:nd] *n* komanda.

command² [kə'mɑ:nd] *v* komanda bermog.

commander [kə'mɑ:ndə] *n* **1.** komandir, qo'mondon; **2.** boshliq, rahbar.

comment ['kɒment] *n* izoh.

commerce ['kɒmɜ:s] *n* tijorat, savdo-sotiq, savdo.

commercial [kə'mɜ:ʃl̩] *a* **1.** tijoratga oid, savdo-sotiqqa oid; savdo ...; **2.** daromad beradigan (keltiradigan), serdaromad; rentabelli, o'z xarajatini o'zi ko'taradigan, ziyon keltirmaydigan.

commit [kə'mɪt] *v* **1.** (xato, jinoyat va sh.k.) qilmoq, sodir etmoq; **2.** ishonib topshirmog, zimmasiga yuklamoq; **3.** o'zini majburiyat va sh.k. bilan bog'lab qo'ymoq.

committee [kə'mɪti] *n* qo'mita (saylanma organ).

common ['kɒmən] *a* **1.** umumiy, hammaga xos (tegishli, taalluqli); ijtimoiy,

jamiyatga (jamoatga) oid, jamiyat ...; **2.** oddiy, hoshqalardan farqsiz, el qatori bo'lgan; hamma qabul qilgan, hammaga ma'qul bo'lgan; rasm bo'lib qolgan; **3.** odatdagi, kundalik, doim bo'lib turadigan, o'rganish bo'lib qolgan; ~ sense to'g'ri (sog'lom) fikr; **it's ~ knowledge** hammaga ma'lum, hamma biladi; **in ~ a** birgalikda, birga, birgalashib, qo'lniqo'lga berib; **b) (with)** (biror narsa, kimsaga) o'xshab, o'xshatib; **to have nothing in ~ with smth./smb.** biror narsa, biror kimsa bilan hech qanday o'xshashligi (umumiyligi) bo'lmaslik; **Common Market** Umumiy bozor.

common law [kɒmən 'lɔ:] *n* umumiy huquq (hakamlar qarori va urf-odatlardan kelib chiqqan Angliya qonunlari).

commonwealth [kɒmənweɪθ] *n* hamdo'stlik.

communicate [kə'mju:nɪkeɪt] *v* **1.** xabar qilmoq, yetkazmoq; **2.** aloqada bo'lmoq, muomala qilmoq, aloqa bog'lamoq; **3.** bir narsadan hoshqasiga ko'chmog, ta'sir etmog.

communication [kə'mju:nɪ'keɪʃn] *n* **1.** aloqa, munosabat, bog'lanish; **2.** kommunikatsiya, aloqa yo'li.

community [kə'mju:nəti] *n* (*pl communities*) hamjamiyat; jamoa, tashkilot.

compact disk [kɒmpækt'dɪsk] *n* kompakt disk.

companion [kə'mpænjən] *n* hamroh.

company ['kʌmpəni] *n* (*pl companies*) **1.** kompaniya, jamiyat; **2.** mehmon; ulfat; ulfatchilik; **3.** iqt. shirkat; sherikchilik

comparative [kə'mpærətɪv] *a* qiyosiy.

compare [kə'mpeə] *v* taqqoslamoq.

comparison [kə'mpærɪsn̩] *n* taqqoslash, qiyoslash; o'xshatish, tenglashtirish;

there is no ~ tengi yo'q, o'xshashi yo'q.

compass ['kʌmpəs] *n* kompas.

compete [kə'mpi:t] *v* musobaqalashmog.

competition [kɒmpə'tiʃn] *n* **1.** raqobat, raqiblik; **2.** musobaqa, bellashuv, kuch sinashuv, kimo'zdi, kimo'zar; konkurs, tanlov.

C competitor [kəm'petɪtə] *n* raqib, raqobat qiluvchi; konkurs qatnashchisi, musobaqa ishtirokchisi.

complain [kəm'pleɪn] *v* shikoyat qilmoq.

complaint [kəm'pleɪnt] *n* shikoyat, shikoyatnoma; zorlanish, nolish; norozilik, arz.

complete¹ [kəm'pli:t] *a* **1.** to'liq, to'la; **2.** tugallangan, mukammal.

complete² [kəm'pli:t] *v* tugatmoq, bitirmoq, tamom qilmoq, oxiriga yetkazmoq, tomomlamoq, tugallamoq.

completely [kəm'pli:tli] *adv* butunlay, batomom, mutlaqo, tamomila, to'la-to'kis.

complex I [kɒmpleks] *a* murakkab.

complex II [kɒmpleks] *n* majmua.

complicate [kɒm'plɪkeɪt] *v* murakkablashtirmoq, chigallashtirmoq.

complicated [kɒm'plɪkeɪtɪd] *a* murakkab, chigal, tushunishga qiyin.

composer [kəm'pəʊzə] *n* kompozitor.

composition [kɒmpə'zɪʃn] *n* **1.** tuzish; yozish; **2.** insho, yozma ish; **3.** ijod, asar (musiqiy va sh.k.); **4.** kompozitsiya (badiiy asarning tuzilishi, qurilishi); **5.** tarkib; **6.** kim. birikma.

compound¹ [kɒm'paʊnd] *n* **1.** aralashma, qorishma, qorishiq, birikma, qo'shilma; **2.** (tilshunoslik fanida) murakkab so'z.

compound² [kɒm'paʊnd] *a* **1.** tarkibli, murakkab, qo'shma; **2.** gram. bog'langan (qo'shma gap).

comprehension [kɒmpri'hensjən] *n* tushunish, anglash, fahmlash.

comprehensive school [kɒmpri'hensɪv 'sku:l] *n* umumta'lim (jamoat) maktabi.

compulsory [kəm'pʌlsɔəri] *a* majburiy, bajarilishi shart bo'lgan.

compute [kəm'pjʊ:t] *v* hisoblamoq, hisoblab chiqarmoq.

computer [kəm'pjʊ:tə] *n* kompyuter; - **game** kompyuter o'yini; - **programmer** kompyuter dasturchisi.

concentrate [kɒnsntreɪt] *v* diqqatni bir narsaga qaratmoq; diqqat-e'tiborni bir yerga to'plamoq; fikrni bir joyga jamlamoq.

concern [kən'sɜ:n] *v* **1.** tegishli bo'lmoq, daxldor (aloqador, taalluqli) bo'lmoq; **2.** qiziqirmoq; **3.** xavotir bo'lmoq, bezovta bo'lmoq, g'am yemoq, tashvishlantirmoq; **as far as I'm ~ed** menga kelsak, men haqimda.

concerning [kən'sɜ:nɪŋ] *prep* haqida, to'g'risida, xususida, yuzasidan, taalluqli, tegishli, doir.

concert [kɒnsət] *n* konsert.

conclude [kən'klu:d] *v* xulosa (natija) chiqarmoq, xulosaga (natijaga) kelmoq; xotima qilmoq; ~**ing paragraph** xulosa yasovchi paragraf.

conclusion [kən'klu:ʒn] *n* **1.** xulosa; **2.** xulosa qism; **3.** xotima, yakun, oxir.

concrete [kɒnkri:t] *n* beton.

condition [kən'dɪʃn] *n* **1.** vaziyat, holat, ahvol; **2.** shart-sharoit, hol; **3.** shart, talab.

conduct [kən'dʌkt] *v* o'tkazmoq.

conductor [kən'dʌktə] *n* **1.** konduktor; **2.** dirijyor.

cone [kəʊn] *n* **1.** konus; **2.** konus shaklidagi (konussimoq) narsa; **3.** g'udda, so'ta (ignabargli daraxtlarning so'tasimon to'pguli).

confederation [kən'fedə'reɪʃn] *n* konfederatsiya, ittifoq.

conference [kɒnfərəns] *n* anjuman, konferensiya; kengash, kengash majlisi.

confetti [kən'feti] *n* (*pl* **confetti**) mayda rangli qog'oz tangachalar.

confidence ['kɒnfɪdəns] *n* **1.** ishonch; ishonish; **2.** maxfiy xabar, sir; **3.** ishonish,

amin bo'lish, ishonch bilan harakat qilish.

confident ['kɒnfɪdənt] *n* dadil, qat'iy, ishonch bilan qilingan, o'ziga ishongan.

confidently ['kɒnfɪdəntli] *adv* ishonch bilan, dadil, qat'iy.

conflict ['kɒnflɪkt] *n* ixtilof, to'qnashuv, janjal, nizo, mojaro.

confuse [kən'fju:z] *v* 1. hijolat qilmoq, hijolatga solmoq, sarosimaga solmoq, dovdiratib qo'yimoq; 2. aralash-tirmoq, aralash-quralash (chalkash-chulkash) qilib yubormoq; adashtirmoq, almash-tirmoq; chalkash-tirmoq, chigallashtirmoq.

confused [kən'fju:zd] *a* 1. chigal, chalkash-chulkash; 2. xijolatda (uyalib) qolgan.

confusion [kən'fju:ʒn] *n* 1. xijolat bo'lish (tortish), uyalib qolish, xijolat (sarosima) ga tushish, dovdirash; sarosima, sarosimalik; 2. chiqallic, chalkashlik; chattoqlik; fikrlashdagi chalkashlik; 3. tartibsizlik, hetarutiblik, ayqash-uyqashlik.

congratulate [kən'grætʃuleɪt] *v* tabrik-lamoq, qutlamoq, muborakbod (tabrik) qilmoq.

congratulation [kəngrætʃu'leɪʃn] *n* tabrik, qutlov.

congress ['kɒngres] *n* kongres.

connect [kə'nekt] *v* bog'la(n)moq, bog'lab qo'yimoq, aloqa bog'lamoq (o'rnatmoq); qo'sh(il)moq, ula(n)moq, birlash(tir)moq.

connection [kə'nekʃn] *n* 1. bog'lanish, aloqa, aloqadorlik, bog'langanlik, bog'liqlik; birikish (ulanish, qo'shilish) joyi, qo'shilgan (ulangan) joy, uloq; 2. aloqa vositasi; 3. (-s) homiyilar, qo'llovchi oshna-og'aynilar, tanish-bilishlik, og'ay-nigarchilik, tanishlar, tanish-bilishlar; 4. qarindosh, urug', qarindoshlik aloqalari.

conqueror ['kɒŋkərə] *n* g'olib, muzaf-far; bosqinchi, istilochi.

conscious ['kɒnʃəs] *a* 1. tushunuvchi,

sezuvchi, biluvchi; his qiluvchi; **to be** - (of) tushunmoq, bilmoq, anglamoq, fahm-lamoq, sezmoq, his qilmoq; 2. sog'lom, aqli-hushi joyida bo'lgan; 3. atayin (atay-lah, bila turib, ko'ra-bila) qilingan; **to be** - xabardor bo'lmoq, bilmoq.

consciousness ['kɒnʃəsnəs] *n* 1. es, hush; **to lose** - hushidan ketmoq, be-hush bo'lib qolmoq; **to recover** - o'ziga (hushiga) kelmoq; 2. anglash, tushunish, tushunib yetish, sezish; 3. onglik, ong; o'zini-o'zi anglash, o'z mohiyatini (o'r-nini, hurchini) tushunish; **national** - milliy o'zligini anglash.

consequence ['kɒnsɪkwəns] *n* natija, oqibat.

Conservative Party [kən'sɜ:vətɪv 'pɑ:ti] *n* Konservativ Partiya.

conservatoire [kən'sɜ:vətwa:] *n* konser-vatoriya.

consider [kən'sɪdə] *v* ko'rib chiqmoq, muhokama qilmoq; puxta o'ylamoq, yax-shilab o'ylab ko'rmoq, chuqur mulohaza qilmoq.

consist [kən'sɪst] *v* (of) ...dan tashkil topmoq, tuzilmoq, iborat bo'lmoq.

consolidation [kən'sɒlɪdeɪʃn] *n* mus-tahkamla(ni)sh; birlashtirish, to'plash; birlashuv, jipslashuv.

consonant ['kɒnsənənt] *n* 1. undosh tovush; 2. undosh harf.

conspirator [kən'spɪrətə] *n* fitnachi, til birliktiruvchi, suiqasdchi.

constituency [kən'stɪtju:nsi] *n* (*pl* *constituencies*) 1. saylovchilar; 2. saylov okrugi.

constitution [kɒnstɪ'tju:ʃn] *n* konstitutsiya.

construction [kən'strʌkʃn] *n* 1. qurilish; qurish, bino qurish; 2. inshoot, hino, imorat, qurilish.

consultant [kən'sʌltənt] *n* 1. konsul-tant, maslahatchi; 2. varch-konsultant.

consumer [kən'sju:mə] *n* iste'molchi; - **goods** keng iste'mol mollari.

consumption [kən'sʌmpʃn] *n* iste'mol; iste'mol qilish, foydalanish, ehtiyojga ishlatish.

contact¹ ['kɒntækt] *n* aloqa; munosabat, bog'lanish; aloqada (muomalada) bo'lish, aloqa (muomala) qilish.

contact² ['kɒntækt] *v* aloqa bog'lamoq.

contain [kən'teɪn] *v* o'z ichiga olmoq.

container [kən'teɪnə] *n* idish, konteyner, maxsus idish.

content [kən'tent] *n* 1. ichidagi narsalar, tarkib; 2. mundarija.

contest [kən'test] *n* 1. bahs, tortishuv, mubohasa; 2. musobaqa, bellashuv, kuch sinashuv, kimo'zar, kimo'zdi.

context [kən'tekst] *n* kontekst (nutq yoki asarning tugal fikr anglatuvchi parchasi).

continent ['kɒntɪnənt] *n* qit'a, mintaqa, materik.

continental [kɒntɪ'nentl] *a* kontinental, mo'tadil (iqlim).

continue [kən'tɪnju:] *v* davom et(tir)moq; **to be -d** davomi bor.

continuous [kən'tɪnjuəs] *a* 1. davomli, uzluksiz, to'xtovsiz, muttasil, surunkali; 2. *gram.* davomli.

continuously [kən'tɪnjuəsli] *adv* uzluksiz, to'xtovsiz, muttasil, doim, hamma vaqt, har doim (vaqt); hamisha, nuqul.

contract [kɒntrækt] *n* shartnoma, bitim.

contrast¹ ['kɒntrɑ:st] *n* farq, tafovut.

contrast² ['kɒntrɑ:st] *v* 1. solishtirmoq, taqqoslamoq, qiyoslamoq; 2. keskin farq qilmoq (ajralib turmoq), zid tushmoq, bir-birining aksi bo'lmoq.

contribute ['kɒntrɪbjʊ:t] *v* yordam bermoq (qilmoq, ko'rsatmoq); hissa qo'shmoq.

control¹ [kən'trəʊl] *n* 1. boshqarish, nazorat, kontrol; **to take ~ of** birovni o'z ta'siri ostiga olmoq, birovga o'z ta'sirini ko'rsatmoq; **to lose ~** nazoratni yo'qotmoq (qo'ldan bermoq); ~ **room**

nazorat xonasi; 2. (~s) boshqarish ri-chaglari; **to be in ~ (of smth.)** (biror vaziyat, holat va sh.k. ni) o'z qo'liga olmoq, o'z ta'siriga olmoq; **to be under ~** nazorat ostida bo'lmoq.

control² [kən'trəʊl] *v* 1. tekshirmoq, nazorat qilmoq; 2. boshqarmoq; 3. (hissiyot va tuyg'ular haqida) tiymoq, bosmoq, to'xtatmoq, o'zini tutmoq.

convenience [kən'vi:niəns] *n* 1. qulaylik, o'ng'aylik; 2. hojatxona.

convenient [kən'vi:niənt] *a* qulay, o'ng'ay, soz, yaxshi.

convention [kən'venʃn] *n* 1. konvensiya (biror maxsus masala yuzasidan davlatlar o'rtasida tuziladigan shartnoma, bitim, kelishuv), shartnoma, ahdnoma; 2. qurultoy, majlis, yig'ilish.

conversation [kɒnvə'seɪʃn] *n* suhbat, gaplashish, so'zlashish.

convert [kən'vɜ:t] *v* 1. boshqa narsaga aylantirmoq, o'zgartirmoq; 2. boshqa dinga kirmoq, boshqa dinni qabul qilmoq.

convince [kən'vɪns] *v* (uzil-kesil) ishon(tir)moq, inon(tir)moq.

cook¹ [kʊk] *n* oshpaz, oshpaz ayol.

cook² [kʊk] *v* 1. taom tayyorlamoq, pishirmoq, ovqat pishirmoq; 2. (taom haqida) qovurilmoq, qaynamoq, pishmoq.

cooker ['kʊkə] *n* gaz plitkasi.

cooking ['kʊkɪŋ] *n* 1. pishirish, taom tayyorlash; 2. tayyorlangan taom, pishiriq.

cooky ['kʊki] *n* (*pl cookies*) AE pecheniy.

cool¹ [ku:l] *a* 1. salqin; 2. sovuqqon, bosiq, og'ir, vazmin.

cool² [ku:l] *v* sovi(t)moq, yaxla(t)moq, salqinla(t)moq, sovub qolmoq; (shuningdek ko'chma ma'noda ham).

cooperate [kəʊ'pəreɪt] *v* hamkorlik qilmoq, hamkorlikda ishlamoq.

cooperation [kəʊ'pəreɪʃn] *n* hamkorlik, hamkorlikda ishlash.

cooperative [kəʊ'pərətɪv] *a* 1. qo'shma, hamkorlikdagi; 2. kooperativ.

cope [kəʊp] *v* qiyinchiliklarga dosh bermoq, yengmoq; qila (bajara, eplay) olmoq, uddalamoq, uddasidan chiqmoq.

copper [kɒpə] *n* mis.

copy¹ ['kɒpi] *n* nusxa, ko'chirma.

copy² ['kɒpi] *v* ko'chirmoq.

cord [kɔ:d] *n* ip, arqon, chilvir.

corn [kɔ:n] *n* 1. don, urug', g'alla; g'alla, don ekinlari; 2. makkajo'xori o'simligi.

corner ['kɔ:nə] *n* 1. burchak; 2. burchak, muyulish.

corner shop ['kɔ:nəʃɒp] *n* kichik savdo do'koni.

corporate ['kɔ:pəreɪt] *a* 1. umumiy; 2. korporatsiyaga oid (qarashli); korporativ, korporatsiya ...

corporation [kɔ:pəreɪʃn] *n* 1. mahalliy o'z-o'zini idora qilish organi; 2. korporatsiya, birlashma.

correct¹ [kə'rekt] *a* 1. to'g'ri, qoidaga muvofiq keladigan, bexato, aniq, rost, haq, chin; 2. munosib, bop, mos, muvofiq.

correct² [kə'rekt] *v* 1. tuzatmoq, to'g'rilamoq; 2. kamchilikni ko'rsatmoq.

correctly [kə'rektli] *adv* to'g'ri usul bilan, durustroq, bexato.

corridor ['kɒrɪdɔ:] *n* yo'lak, koridor.

correspondence [kɒrɪ'spɒndəns] *n* yozishma, xat yozib turish.

corruption [kə'rʌpʃn] *n* 1. buzilganlik, yomon yo'lga kirganlik; yemirilish, buzilish, ishdan chiqish; 2. korrupsiya, sotqinlik, poraga sotilish; 3. chirish, irish, aynish.

cosmopolitan¹ [kɒzmə'pɒlɪtən] *a* kosmopolitizmga oid; kosmopolitizm ruhidagi; kosmopolitik.

cosmopolitan² [kɒzmə'pɒlɪtən] *n* kosmopolit, kosmopolitizm tarafdori.

cost¹ [kɒst] *n* narx, baho.

cost² [kɒst] *v* (pt, pp **cost**) turmoq (narx haqida), narx (qiymat) ga ega bo'lmoq.

costume [kɒstju:m] *n* kiyim, libos; kastum.

cosy [kəʊzi] *a* qulay, o'ng'ay, shinam, orom beradigan.

cottage ['kɒtɪdʒ] *n* kottej.

cotton¹ [kɒtn] *a* paxta ...; paxtadan tayyorlangan (qilingan).

cotton² [kɒtn] *n* paxta; - **cloves** paxta chanoqlari.

cough¹ [kɒf] *n* yo'tal.

cough² [kɒf] *v* yo'talmoq.

could [kəd; kʊd] *modal v* *pt of can* 1.

could be ['kʊdbi] *modal v* bo'lishi mumkin.

council ['kaʊnsɪl] *n* kengash.

councillor ['kaʊnsələ] *n* kengash a'zosi.

count [kaʊnt] *v* sanamoq, hisoblamoq.

countable ['kaʊntəbl] *a* sanaladigan.

counter ['kaʊntə] *n* rasta.

country ['kʌntri] *n* (*pl countries*) 1. mamlakat, davlat; o'lka, yurt, diyor; 2. vatan, ona yurt, tug'ilgan (kindik qoni to'kilgan) joy; 3. qishloq, qishloq joy; 4. joy, yer, o'lka.

country house [kʌntri 'haus] *n* dala hovli, kottej.

countryside ['kʌntrɪsaɪd] *n* qishloq joy.

county ['kaʊnti] *n* (*pl counties*) 1. graflik (Angliyada); 2. okrug (AQShda).

couple ['kʌpl] *n* juft, par; ikki dona, ikkita.

coupon ['ku:pɒn] *n* kupon, talon (biror narsa olish huquqini beruvchi hujjat).

courage ['kʌrɪdʒ] *n* botirlik, jasurlik, mardlik, jasorat; **to have the - of one's (own) convictions** chin insonga xos mardlik ko'rsatmoq.

courageous ['kʌrɪdʒəs] *a* jasur, botir, qo'rqmas, dovyurak; yurakli, jasoratli, jur'atli.

course [kɔ:s] *n* 1. yo'l, yo'nalish, kurs; 2. rivojlanish, borish, davom etish, kechish, o'tish; **in the - of** davomida, jara-

tʃ chin /θ thin /ð the /ʃ she /ʒ usual /h he /m me /n not /ŋ king /l lip /r rat /j yet /w we

yonida; **3.** ovqat (birinchi, ikkinchi ...); **4.** kurs; ~ in **English literature** ingliz adabiyotidan leksiya kursi; **in due** ~ o'z vaqtida, ayni paytida, mavridida, vaqtni boy bermasdan, kechiktirmasdan; **as a matter of** ~ odatdagidek, odatdagicha, odat bo'yicha; **of** ~ albatta.

court I [kɔ:t] *n sport.* kort, tennis maydoni.

court II [kɔ:t] *n 1.* sud; sud zali; ~ **of justice/law** sud; **Supreme** ~ Oliy sud.

courtyard [kɔ:tjɑ:d] *n* ichki hovli.

cousin [kʌzən] *n* amakivachcha, tog'avachcha.

cover¹ [kʌvə] *n 1.* qapqoq, qasmoq, g'ilof; choyshab, o'rin yoping'ichi; 2. muqova, jild; **3.** pana, pana joy.

cover² [kʌvə] *v 1.* o'ramoq, qoplamoq, ustini yopmoq, bekitemoq; **2.** qoplamoq (xarajatlarini); **3.** yashirmoq, bekitemoq, bekitemoq (yashirib) qo'yimoq, pana qilmoq, panalamoq; **4.** qamrab olmoq, ichiga olmoq; **5.** reportaj bermoq, ommaviy axborot vositalarida yoritmoq.

covering [kʌvəriŋ] *n* qapqoq, qasmoq, g'ilof; choyshab, o'rin yoping'ichi; parda, qobiq; po'st, po'stloq.

cow [kau] *n* sigir.

cowboy [kaʊbɔɪ] *n* otliq cho'pon, otliq podachi, kovboy (Shimoliy Amerikada).

crab [kræb] *n* krab (dengiz qisqichbasi).

crack¹ [kræk] *n 1.* yoriq, darz; **2.** qarsqurs, tars-turs, qasir-qusur; **3.** tarsaki, shapaloq; **4.** oqilona mulohaza.

crack² [kræk] *v 1.* yorilmoq, darz ketmoq; **2.** qarsillatmoq, tarsillatmoq, shaqqillatmoq; **3.** sindirmoq, yormoq, parchalamoq.

craft [krɑ:ft] *n* hunarmandchilik.

cranberry ['krænbəri] *n* klukva (qizil, nordon mevali buta va uning mevasi).

crane [kreɪn] *n zool.* turna.

crash [kræʃ] *n 1.* avariya, to'qnashuv,

baxtsiz hodisa; **2.** (ovoz haqida) qattiq, kuchli ovoz, gumburlagan ovoz, qarsqurs; **3.** bankrotlik, inqiroz, barbod bo'lish.

crash² [kræʃ] *v 1.* avariya uchramoq, avariya bo'lmoq, to'qnashmoq; **2.** qattiq ovoz chiqarib, gumburlab yiqilmoq; **3.** (momaqaldiroq haqida) guldiramoq, gumburlamoq; **4.** inqirozga yuz tutmoq, bankrot bo'lmoq.

crater ['kreɪtə] *n* krater; bomba portlagan joyda hosil bo'lgan chuqur.

crayon ['kreɪən] *n* rangli bo'r.

crazy ['kreɪzi] *a 1.* aqlidan ozgan, jinni, savdoyi, telba, devona; **2.** biror narsaga ishqiboz (shaydo, shaydoyi, qattiq berilib ketgan).

cream I [kri:m] *n 1.* tib. krem, malham; **2.** krem (taom ustiga surtiladigan).

cream II [kri:m] *a* oq-sarg'ish rangli.

create [kri'eɪt] *v* yaratmoq, bunyodga keltirmoq, bunyod qilmoq.

creative [kri'eɪtɪv] *a* ijodiy.

creatively [kri:'eɪtɪvli] *adv* ijodiy, ijodkorlik bilan.

creature ['kri:tʃə] *n* jonzot, jonivor.

credit ['kredɪt] *n* kredit, qarz; nasiya.

creep [kri:p] *v* (pt, pp **crept**) emaklamoq, o'rmalamoq.

crept [krept] *v pt, pp of creep.*

crescent ['kresnt] *n 1.* yarim oy; yangi oy, hilol; **2.** yarim oy shaklidagi biror narsa.

crew [kru:] *n 1.* ekipaj, komanda; **2.** brigada; guruh.

cricket ['krɪkɪt] *n sport.* kriket (to'p o'yinining bir turi).

crime [kraɪm] *n* jinoyat, xiyonat.

criminal ['krɪmɪnəl] *n* jinoyatchi, jinoyatkor.

crisp [krɪsp] *n* qovurilgan qirsildoq kartoshka.

criss-crossed ['krɪskrɒst] *a* biri ustiga ikkinchisini ko'ndalang qilib (chalish-

tirib, kesishtirib) qo'yilgan, krest shaklida joylashgan, hir-birini kesib o'tgan.

critical ['krɪtɪkl] *a* **1.** tanqidiy; tanqid ...; tanqid ko'zi bilan qaraydigan, tanqidiy yondashadigan; **2.** keskin, nozik, jiddiy; krituk; tang, og'ir, mushkul, qiyin.

criticism ['krɪtɪsɪzəm] *n* tanqid, tanqid qilish, tanqid ostiga olish; tanqidiy muhokama.

criticize ['krɪtɪsaɪz] *v* tanqid qilmoq.

crocodile ['krɒkədɪl] *n* timsoh.

crop [krɒp] *n* hosil, unum; ekin.

cross¹ [krɒs] *n* krest (o'zaro kesishgan ikki chiziqdan iborat belgi).

cross² [krɒs] *v* **1.** X (eks) qilib chizmoq; **2.** kesib o'tmoq.

crossroads ['krɒsrəʊdz] *n* yo'llar kesishib o'tadigan joy, chorraha.

crossword ['krɒswɜ:d] *n* krossvord.

crow [krəʊ] *n* qarg'a.

crowd [kraʊd] *n* olomon, betartib yig'in (to'da); **a** ~ **of** bir to'da ..., juda ko'p.

crowded ['kraʊdɪd] *a* to'la, to'lgan, zich, liq to'la.

crown [kraʊn] *n* toj.

cruel ['kru:əl] *a* qahri qattiq, shafqatsiz, berahm, qahri, rahmsiz, zolim.

crunch [krʌntʃ] *v* g'archillatib yemoq.

crush [krʌʃ] *v* **1.** ezib yubormoq; **2.** yo'q qilmoq; ~ **down** ezib (g'ijimlab) yubormoq; ~ **out** qirmoq (ezmoq, o'ldirmoq).

cry¹ [kraɪ] *n* **1.** baqiriq, qichqiriq, qiy-qiriq; dod-faryod; **2.** nido, xitob, na'ra; **a** **battle** ~ jangovor xitob (chaqiriq, shior); **3.** yig'lash, yig'i; **to have a good** ~ yig'lab ichini bo'shatib olmoq, yig'lab-yig'lab ovunmoq; **4.** (ho'riga nisbatan) ulish, uvlash; (itga nisbatan) vovullash, akkillash, hurish.

cry² [kraɪ] *v* **1.** yig'lamoq, ko'z yoshi to'kmoq; **2.** baqirmoq, qichqirmoq, qiyqirmoq, dodlamoq, dod solmoq.

cucumber ['kju:kʌmbə] *n* bodring.

cuddle ['kʌdl] *v* bag'riga bosmoq, quchmoq.

cultivated ['kʌltɪveɪtɪd] *a* madaniyatli, tarbiya ko'rgan.

cultural ['kʌltʃərəl] *a* madaniy.

culture ['kʌltʃə] *n* madaniyat.

cup [kʌp] *n* **1.** chashka; **2.** kubok.

cupboard ['kʌbəd] *n* oziq-ovqat, idish-tovoq uchun oshxona javoni.

cure [kjʊə] *v* davolamoq, tuzatmoq, sog'aytirmoq.

curl¹ [kɜ:l] *n* **1.** jingalak soch, zulf, gajak; **2.** jingalak, gajak, spiral, gajak sim; (tutunga nisbatan) pag'a-pag'a, halqahalqa.

curl² [kɜ:l] *v* chirmashmoq, o'ralmoq, chirmalmoq; jingalaklanmoq, jingalak bo'lmoq.

curly ['kɜ:li] *a* **1.** jingalak; chirmashadigan; to'liqinsimoq; **2.** jingalak, qo'n-g'iroq.

currency ['kʌrənsɪ] *n* (*pl* *currencies*) valuta (biror mamlakatning pul tizimi va unga asos qilib olingan pul birligi), pul.

current ['kʌrənt] *a* ayni paytdagi, joriy, hozirgi, hozirgi kundagi.

currently ['kʌrəntli] *adv* hozir, hozirda, hozirgi vaqtda, shu tobda, ayni paytda.

curriculum ['kʌrɪkjʊləm] *n* (*pl* *curricula*) o'quv kursi, o'quv rejasi; ~ **plus** maktab komponentidan tashqari.

curtain ['kɜ:tn] *n* parda.

curve¹ [kɜ:v] *n* egri chiziq.

curve² [kɜ:v] *v* eg(il)moq, buk(il)moq, qayrilmoq, qayirmoq, bukchay(tir)moq.

curved ['kɜ:vd] *a* egilgan, bukilgan, qayrilgan, egik, bukik, qayrilma, qiyshiq, qing'ir, egri-hugri.

cushion ['kʊʃn] *n* yostiqcha.

custom ['kʌstəm] *n* urf-odat, an'ana.

customer ['kʌstəmə] *n* **1.** xaridor; **2.** iste'molchi.

customs ['kʌstəmz] *n* **1.** bojxona; **2.** bojxona boji.

cut¹ [kʌt] *n* **1.** kesik, kesilgan joy, tig'-dan bo'lgan yara; **2.** kesib (qirqib) olingan bo'lak (go'sht); **3.** qisqartirish, ixchamlashtirish.

cut² [kʌt] *v* (pt, pp **cut**) **1.** to'g'ramoq, qiymalamoq, qirqmoq, kesmoq; **2.** sochini olmoq (qirqmoq).

cut down [kʌt,daʊn] *phr.v* kesib tashlamoq.

cute [kju:t] *a* yoqimli, sevimli.

CV (curriculum vitae) [si:'vi:] tarjimai hol.

cycle I ['saɪkl] *n* sikl, davr (ma'lum davr ichida takrorlanib turadigan ish, hodisa, jarayon va h.k.lar majmui).

cycle II ['saɪkl] *v* velosipedda uchmoq.

cyclist ['saɪklist] *n* velosipedchi.

D, d

D, d [di:] ingliz tili alifbosining to'rtinchi harfi.

dad [dæd] *n* dada; ota.

dagger ['dægə] *n* xanjar.

daily ['deɪli] *a* kunlik, kundalik, har kungi, kunda bo'ladigan.

daily ['deɪli] *n* har kunlik gazeta.

dairy ['deəri] *n* (*pl dairies*) yog'-moy ishlab chiqaradigan joy.

damage¹ ['dæmɪdʒ] *n* zarar, ziyon.

damage² ['dæmɪdʒ] *v* zarar yetkazmoq.

damp¹ [dæmp] *n* nam, xax; nam joy.

damp² [dæmp] *v* namlamoq, ho'llamoq.

dance¹ [dɑ:ns] *n* **1.** raqs, o'yin; ~ **company** raqs ansambli; **2.** bal (katta bazm), o'yin-raqs kechasi; **3.** raqs (o'yin)ga moslab yozilgan musiqa.

dance² [dɑ:ns] *v* **1.** raqsqa (o'yinga) tushmoq, o'yinamoq; **2.** sakramoq, sapchimoq; aylanib uchmoq, gir-gir aylanmoq.

dancer ['dɑ:nsə] *n* raqqos, raqqosa, o'yinchi.

danger ['deɪndʒə] *n* havf, xatar, tahlika. **dangerous** ['deɪndʒərəs] *a* xavfli, xatarli, tahlikali, zararli, qaltis, yomon, ziyon yetkazadigan.

dark [dɑ:k] *a* **1.** qora, qoramtir, to'q; **2.** (odamning tashqi ko'rinishiga nisbatan) qora sochli; qorachadan kelgan, bo'g'doy rang; **3.** qorong'i; qorong'ilik (zulmat) bosgan, zim-ziyo, zimiston; **4.** shum, shumxabar, mash'um, mudhish.

darkness ['dɑ:knəs] *n* qorong'ilik, qorong'i; timqorong'ilik, zimiston, zim-ziyo; kechki payt.

data [deɪtə] *n pl of datum* ma'lumotlar, dalillar.

date [deɪt] *n* **1.** sana, oy-kun; davr; ~ **of birth** tug'ilgan kun; **2.** uchrashuv.

date [deɪt] *n* **1.** xurmo; **2.** xurmo daraxti.

datum ['deɪtəm] *n* (*pl data*) berilgan (ma'lum) kattalik, fakt, dalil, ma'lumot.

daughter ['dɔ:tə] *n* qiz.

day [deɪ] *n* **1.** kun, kunduz kun; **2.** bir kechayu kunduz, bir sutka.

day off [deɪ'ɒf] *n* dam olish kuni.

daytime ['deɪtaɪm] *adv* kunduzi.

dead [ded] *a* o'lgan; o'lik.

deaf [def] *a* kar, qulog'i og'ir, garang.

deal [di:l] *n* **1.** bitim, kelishuv; **2.** muomala, mulozamat; **a great -of** ko'p, ancha; **to - with smth./smb.** biror ish yuzasidan kimsa bilan yaqin munosabatda (aloqada, muomalada) bo'lmoq.

dealer ['di:lə] *n* savdogar.

dear [dɪə] *a* **1.** qadrli, aziz, qimmatli; **2.** (maktub boshida) hurmatli, muhtaram; **3.** qimmat.

death [deθ] *n* vafot, o'lim, halokat.

debate [di'beɪt] *n* bahs, munozara.

debate [di'beɪt] *v* bahslashmoq, muhokama qilmoq.

debt [det] *n* burch; qarz.

decay¹ [di'keɪ] *n* **1.** chirish, yemirilish; parchalanish; **2.** inqiroz, tanazzul.

decay² [dr'keɪ] *v* yiringlamoq, chirimoq; ~**ed** chirigan.

deceive [dɪ'si:v] *v* aldamoq, chalg'itmoq; avramoq, tovlamoq; laqillatmoq; -d adashgan.

December [dɪ'sembə] *n* dekabr.

decent [dɪ'sɛnt] *a* **1.** maqbul, ma'qul, qabul qilsa bo'ladigan; **2.** odobli, tartibiyali, tartibli, odamshavanda, vijdonli, insofli, halol.

decide [dɪ'saɪd] *v* ahd qilmoq, qaror qilmoq, xulosaga kelmoq, muayyan bir fikrga (to'xtamga) kelmoq.

decision [dɪ'sɪʒn] *n* qaror, hukm; **to make a** - qaror qilmoq, qarorga (xulosaga) kelmoq, ahd qilmoq.

deck [dek] *n* deng, paluba, paroxod (kema) sahni.

declare [dɪ'kleə] *v* e'lon (ma'lum) qilmoq.

declared [dɪ'kleəd] *a* e'lon (ma'lum) qilingan.

decorate [dɪ'keɪrɪt] *v* bezamoq, bezatmoq.

decoration [dɪ'keɪrɪʃn] *n* bezak, zebziynat, pardoz; beza(ti)sh, yasatish, zeb berish.

decorative [dɪ'keɪrətɪv] *a* **1.** savlat bag'ishlaydigan, fayzli; **2.** bezash (zebziynat berish uchun) xizmat qiladigan.

decrease [dɪ'kri:s] *n* ozaytirish, kichraytirish; kamayish.

decrease [dɪ'kri:s] *v* kamay(tir)moq, ozay(tir)moq.

deep [di:p] *a* **1.** chuqur, teran, mazmunli, asosli, jiddiy; **2.** (tovushga nisbatan) past, yo'g'on; **3.** (rangga nisbatan) to'q, tim; **4.** qattiq, kuchli; **5.** (nafas, nafas olishga nisbatan) chuqur.

deep [di:p] *adv* chuqur, teran, chuqur qilib.

deeply [di:pli] *adv* **1.** juda, juda ham, nihoyat (ortiq) darajada, qattiq; **2.** chuqur.

deer [diə] *n* zool. bug'u.

defeat [dɪ'fi:t] *n* **1.** mag'lubiyat; **to sus-**

tain a - mag'lubiyatga uchramoq; **2.** barbod bo'lish (*reja haqida*); **3.** yo'qqa chiqish (*orzu-umidlar haqida*); **4.** *yur.* bekor qilish.

defeat [dɪ'fi:t] *v* **1.** mag'lubiyatga uchramoq; **2.** barbod qilmoq (*rejalarini*); **3.** puchga chiqarmoq (*orzu-umidlar va b.*); **4.** *yur.* bekor qilmoq.

defence [dɪ'fens] *n* himoya, mudofaa; - **department** mudofaa bo'limi.

defend [dɪ'fend] *v* himoya (muhofaza) qilmoq, yoqlamoq.

define [dɪ'faɪn] *v* **1.** (so'zga nisbatan) ma'no anglatmoq; **2.** belgilamoq, topmoq, aniqlamoq; ta'riflamoq.

definite [dɪ'fɪnət] *a* aniq, yaqqol, ravshan, tushunarli; - **article** *gram.* aniq artikl.

definitely [dɪ'fɪnətli] *adv* **1.** aniq (yaqqol, ravshan, tushunarli) qilib; shubhasiz, shak-shuhhasiz, begumon; **2.** albatta, shunday, bo'lmasachi, shubhasiz.

definition [dɪ'fɪnɪʃn] *n* **1.** ta'rif, tavsif; **2.** aniqlik, ravshanlik, tushunarlilik.

degree [dɪ'ɡri:] *n* **1.** daraja; **2.** daraja, unvon.

delay [dɪ'leɪ] *n* kechikish.

delay [dɪ'leɪ] *v* keyinga surmoq.

delegate [dɪ'leɪɡeɪt] *v* delegat qilib yuhormoq; vakolat bermoq.

delegation [dɪ'leɪɡeɪʃn] *n* delegatsiya.

deliberate [dɪ'lɪbərət] *a* **1.** oldindan o'ylab (mo'ljallab) qo'yilgan; ataylab (qasddan, bilaturib, jo'rttaga) qilingan, g'arazli; **2.** shosh(il)masdan ish (harakat) qiladigan; bamaylixtotir, sekin, ohista.

deliberately [dɪ'lɪbərətli] *adv* **1.** ataylab, jo'rttaga, qasddan; **2.** shosh(il)masdan; bamaylixtotir, sekin, ohista.

delicate [dɪ'lɪkət] *a* **1.** nazokatli, mahoratli, mohir; **2.** latofatli, nozik, go'zal; **3.** quvvatsiz, nozik, nimjon.

delicious [dɪ'lɪʃəs] *a* **1.** mazali, lazzatli, totli, shirin, xushxo'r; **It's ~!** Mazali ekan!; **2.** juda yoqimli (chiroyli), g'oyat go'zal.

deliver [dɪ'lɪvə] *v* yetkazmoq.

delivery [dɪ'lɪvəri] *n* (*pl deliveries*) yetkazish, yetkazib berish.

demand¹ [dɪ'mɑ:nd] *n* ehtiyoj, talab, zarurat.

D demand² [dɪ'mɑ:nd] *v* talab qilmoq, qat-tiq (qat'iy) so'ramoq.

demanding [dɪ'mɑ:ndɪŋ] *a* ko'p kuch talab qiladigan.

democracy [dɪ'mokrəsi] *n* (*pl democ-racies*) demokratiya, demokratik davlat.

democratic [deməkʁætɪk] *a* demokratik.

dentist ['dentɪst] *n* stomatolog, tish shifokori.

department [dɪ'pɑ:tmənt] *n* **1.** bo'lim; kafedra; **2.** boshqarma, muassasa, idora, mahkama; (AQShda) vazirlik.

department store [dɪ'pɑ:tməntstɔ:] *n* universal magazin.

depend [dɪ'pend] *v* (~ **on, upon**) ...ga bog'liq bo'lmoq, izmida (ixtiyorida) bo'lmoq.

dependent [dɪ'pendənt] *a* qaram, tobe.

deposit [dɪ'pɒzɪt] *n* bankka qo'yilgan pul; depozit.

depressed [dɪ'prest] *a* ruhi tushgan, g'amgin, ma'yus, umidsiz.

depressing [dɪ'presɪŋ] *a* yurakni ezadigan (siqadigan), ziq qiladigan, ruhni ezadigan, og'ir, ziq, dilgir, noxush, qayg'uli, azobli, mudhish.

depression [dɪ'presjən] *n* **1.** ma'yuslik, g'amginlik, umidsizlik; **2.** iqt. depressiya, turg'unlik, zaiflanish, kuchsizlanish, yomon ahvolga tushish; **3.** cho'nqir yer ichiga botgan (kirgan) joy, chuqurcha, chuqur; kangak; **4.** (havo bosimi haqi-da) pasayish, kamayish, tushish.

depth [depθ] *n* chuqurlik.

deputy [dɪ'pjəti] *n* (*pl deputies*) **1.** deputat; **2.** o'rinbosar, muovin.

desalination [di:'sælnɪeɪʃn] *n* sho'rsizlantirish.

descend [dɪ'send] *v* **1.** (pastga) tushir-

moq, tushirib qo'ymoq, tushmoq, pasaymoq; **2.** ~ **on, upon** a) tashlanmoq, hamla (hujum) qilmoq; b) kutilmaganda ko'rgani (hol-ahvol so'ragani, yo'qlab) kelmoq, ogohlantirmasdan kelmoq; **3.** **to be ~ed from smb.** chiqmoq, kelib chiqmoq; mansub bo'lmoq.

descendant [dɪ'sendənt] *n* avlod, nasl, urug'.

describe [dɪ'skraɪb] *v* tasvirlamoq, tavsiflamoq, ta'riflamoq.

description [dɪ'skrɪpʃn] *n* tasvir, tavsif, ta'rif, bayon.

descriptive [dɪ'skrɪptɪv] *a* tasvirlovchi, ta'riflovchi, tavsiflovchi.

desert ['dezət] *n* cho'l, dasht, sahro, biyobon.

design¹ [dɪ'zain] *n* **1.** reja; loyiha; chizma; **2.** dizayn, dizayn san'ati; ~ **and technology** dizayn va texnologiya; **3.** bezak, gul, naqsh, shakl; **4.** kompozitsiya; **5.** o'ylab qo'yilgan ish (reja, mo'ljal, niyat, maqsad).

design² [dɪ'zain] *v* **1.** reja (loyiha) tuzmoq, yasamoq; **2.** mo'ljallamoq, atamoq, alab (belgilab, mo'ljallab) qo'ymoq.

desire [dɪ'zaɪə] *n* istak, tilak, xohish.

desk [desk] *n* parta.

dessert [dɪ'zɜ:t] *n* shirinlik (desert).

destination [destɪ'neɪʃn] *n* belgilangan joy, mo'ljal.

destroy [dɪ'strɔɪ] *v* buzmoq, yo'q qilmoq, vayron qilmoq.

destruction [dɪ'strækʃn] *n* buz(il)ish, vayrongarchilik; xarob qilish, yo'q qilinish; halok (nobud) bo'lish, yo'q bo'lish, halokat, yo'qolish.

detail ['di:teɪl] *n* mufassallik, to'lalilik; tafsilot; **to go into ~s** mayda-chuyda tafsilotlarga berilib ketmoq; **in ~** hatafsil, mufassal, to'la, mukammal, ipidan igna-sigacha, butun tafsilotlari bilan.

detailed ['di:teɪld] *a* butun tafsilotlarini o'z ichiga olgan, hatafsil, to'la, mukammal.

detain [dɪ'teɪn] *v* **1.** ushlab (tutib) olmoq, qo'lga tushirmoq, qamamoq, qamoqqa (hibsga) olmoq; **2.** ushlab (tutib) qolmoq, ketishga ruxsat bermaslik.

detective [dɪ'tektɪv] *n* izquvar, detektiv.

detention [dɪ'tenʃn] *n* darsdan so'ng maktabda ushlab qolish.

determination [dɪ'tɜːmɪ'neɪʃn] *n* **1.** aniqlash; **2.** iroda, qat'iylik, qat'iy ishonch.

determine [dɪ'tɜːmɪn] *v* **1.** hal qilmoq; **2.** aniqlamoq.

determined [dɪ'tɜːmɪnd] *a* dadil, jasur, yurakli, jur'atli, tap tortmas, sabotli, matonatli, qat'iyatli, qaytmas.

detest [dɪ'test] *v* nafratlanmoq, yomon ko'rmoq, jirkanmoq.

devastate [dɪ'veɪsteɪt] *v* vayron qilmoq, xarob qilmoq.

devastating [dɪ'veɪsteɪtɪŋ] *a* xarob (vayron) qiladigan, qirg'in keltiradigan, halokatli.

develop [dɪ'veləp] *v* **1.** o's(tir)moq; ongini oshirmoq, yetil(tir)moq, rivojlan(tir)moq, taraqqiy et(tir)moq; **2.** ishlab chiqmoq.

development [dɪ'veləp'mənt] *n* **1.** rivojlanish, yuksalish, taraqqiy etish; taraqqiyot, ravnaq; **2.** yaratish, ishlash, ishlab chiqish.

device [dɪ'vaɪs] *n* qurilma, mexanizm.

devil ['devl] *n* shayton, iblis.

diagram [daɪəgræm] *n* diagramma.

dial [daɪəl] *v* (telefon va sh.k.) raqam termoq.

dialogue ['daɪələg] *n* dialog; so'zlashuv, suhbat.

diamond ['daɪəmənd] *n* olmos.

diary ['daɪəri] *n* (*pl diaries*) kundalik daftar.

dice [daɪs] *n* oshiq, shashqol.

dictate [dɪk'teɪt] *v* **1.** diktant o'qimoq, aytib yozdirmoq; **2.** buyruq (farmoyish) bermoq, buyurmoq, amr qilmoq.

dictation [dɪk'teɪʃn] *n* diktant.

dictionary ['dɪkʃənri] *n* (*pl dictionaries*) lug'at.

did [dɪd] *v* *pt of do*.

die [daɪ] *v* **1.** o'lmoq, o'lib qolmoq (ketmoq), dunyodan o'tmoq, jon bermoq, vafot qilmoq; (gul haqida) so'lmoq, qurimoq, so'nib qolmoq, xazon bo'lmoq; **2.** o'chmoq, so'nmoq, bosilmoq; jimimoq, jimib (to'xtab, so'nib) qolmoq, to'xtamoq.

diet ['daɪət] *n* **1.** oziq, ovqat, taom, oziqlanish, ovqatlanish; **2.** parhez, ovqatlanish tartibi; **to be on a** ~ parhezda bo'lmoq.

differ ['dɪfə] *v* farq qilmoq, ajralib turmoq.

difference ['dɪfrəns] *n* **1.** farq, tafovut, har xillik; farq qilish, tafovut qilish; **2.** kelishmovchilik, noitifoqlik, ixtilof, nifoq.

different ['dɪfrənt] *a* turli, farqli, har xil, turli-tuman.

differently ['dɪfrəntli] *adv* **1.** boshqacha, o'zgacha, bo'lakcha; boshqacha qilib, boshqacha yo'l bilan; **2.** turlicha.

difficult ['dɪfɪkəlt] *a* qiyin, murakkab.

difficulty ['dɪfɪkəlti] *n* (*pl difficulties*) qiyin(chi)lik, og'irlik, mushkullik.

dig [dɪg] *v* (*pt, pp dug*) qazimoq, kavlamoq.

digital ['dɪdʒɪtl] *a* raqamli.

dimension [daɪ'menʃn] *n* o'lchov; **3-al studies** uch o'lchovlik haqidagi fan.

dining room ['daɪnɪŋ ru:m] *n* oshxona.

dinner ['dɪnə] *n* kechki ovqat; **to have** ~ kechki ovqatni yemoq.

dinosaur ['daɪnəsɔː] *n* dinozavr.

diplomacy [dɪ'pləʊməsi] *n* **1.** diplomatiya (hukumatning xalqaro munosabatlarda tutgan yo'li va faoliyati); **2.** muomala bilan ish bitirish, ustamonlik, muomalaga ustalik.

diplomat ['dɪpləmət] *n* diplomat.

direct I [dɪ'rekt] *a* bevosita, to'g'ri.

direct II [dɪ'rekt] *v* **1.** yo'llamoq, yo'l

olmoq; e'tiborni qaratmoq; **2.** boshqarmoq, rahbarlik qilmoq, nazorat qilmoq; **3.** ko'rsatma bermoq, buyurmoq; **4.** nasihat qilmoq, maslahat bermoq; **5.** yo'lni ko'rsatmoq; **7.** dirijorlik qilmoq; **to - an orchestra** orkestrga dirijorlik qilmoq.

D direction [drɛkʃn] *n* **1.** yo'nalish, tomon, taraf; **from all -s** hamma tomondan; **2.** rahbarlik, boshqarish; **3.** ko'rsatma, farmoyish; yo'riqnomaga; **-s for use** foydalanish qoidalari; **4.** boshqaruv, direksiya.

directly [drɛktli] *adv* bevosita, to'g'ridan-to'g'ri.

director [drɛktə] *n* **1.** direktor, rahbar; **2.** rejissor.

directory [drɛktəri] *n* (*pl directories*) manzillar yozilgan kitob, ma'lumotnoma.

dirt [dɜ:t] *n* **1.** iflos, kir, irkit, isqirt; **2.** loy, tuproq.

dirty ['dɜ:ti] *a* iflos, kir, irkit, isqirt, jirkanch.

disadvantage [dɪsəd'vɑ:ntɪdʒ] *n* zarar, nafi (manfaati, afzalligi) yo'qlik; kamchilik.

disagree [dɪsə'grɪ:] *v* **1.** fikrga qo'shilmalik, rozi bo'lmaslik; **2.** urishib (janjallashib) qolmoq, arazlashib qolmoq, sanumanga bormoq; **3.** (hisobot, ma'lumot, bildirish va sh.k. haqida) to'g'ri kelmaslik, muvofiq (munosib, loyiq) bo'lmaslik, qarama-qarshi bo'lmoq, tafovut qilmoq, bir-biriga zid bo'lmoq; **4.** (ovqat yoki obhavo haqida) zararli (ziyonli, yomon) bo'lmoq.

disagreement [dɪsə'grɪ:mənt] *n* **1.** qarashlardagi (fikrlardagi) tafovut, ixtilof, nifoq, kelishmovchilik; **2.** qarama-qarshilik, ziddlik, ziddiyat.

disappear [dɪsə'pɪə] *v* g'oyib bo'lmoq.

disappoint [dɪsə'pɔɪnt] *v* **1.** ixlosini qaytarmoq, ko'ngilni sovutmoq; umidlarni puchga chiqarmoq; **2.** buzmoq, yo'qqa chiqarmoq, chilparchin qilmoq; **to - smb. 's plans** birovning rejasini buzmoq.

disappointed [dɪsə'pɔɪntɪd] *a* ko'ngil qolgan, ranjigan.

disappointing [dɪsə'pɔɪntɪŋ] *a* qanoat hosil qilmaydigan, tasalli (taskin) bermaydigan, quvonchsiz, ko'ngilsiz, noxush, ko'ngilni ranjitadigan (qoldiradigan).

disappointment [dɪsə'pɔɪntmənt] *n* ko'ngil qolish, ko'ngil sovish, ixlosi qaytish; umidsizlik; umidi puchga chiqish.

disapproval [dɪsə'pru:vl] *n* ma'qullamaslik, ma'qullamaydigan fikr.

disapprove [dɪsə'pru:v] *v* ma'qul topmaslik, to'g'ri deb hisoblamaslik, ma'qullamaslik.

disapproving [dɪsə'pru:vɪŋ] *a* ma'qullamagan, ma'qul deb topilmagan, ma'qullamay qilingan, salbiy.

disarmament [dɪs'ɑ:məmənt] *n* qurolsizlan(tir)ish.

disaster [dɪ'zɑ:stə] *n* ofat, falokat, kulfat; musibat, og'ir (mushkul) ahvol.

disastrous [dɪ'zɑ:stəs] *a* falokatli, kulfatli, musibatli.

disc [dɪsk] *n* disk.

discipline¹ [dɪsə'plɪn] *n* **1.** tartib, intizom; **2.** jazo.

discipline² [dɪsə'plɪn] *v* **1.** tartibga, intizomga bo'ysundirmoq, tartib-intizomga solmoq; **2.** jazolamoq, jazo bermoq.

disco [dɪskəʊ] *n* (*pl discos*) diskoteka.

discount [dɪs'kaʊnt] *n* chegirma.

discover [dɪs'kʌvə] *v* kashf qilmoq.

discovery [dɪs'kʌvəri] *n* (*pl discoveries*) kashfiyot.

discuss [dɪ'skʌs] *v* muhokama (muzokara) qilmoq, o'ylashib ko'rmoq, munozara qilmoq, tortishmoq, bahslashmoq.

discussion [dɪ'skʌʃn] *n* muhokama, munozara.

disease [dɪ'zi:z] *n* kasallik, xastalik, dard.

disguise¹ [dɪs'gaɪz] *n* niqob.

disguise² [dɪs'gaɪz] *v* niqoblamoq; yashirmoq.

disgust¹ [dɪs'gʌst] *n* nafrat, nafratlanish, jirkanish.

disgust² [dɪs'gʌst] *v* nafrat hissini uyg'otmoq, nafrat tug'dirmoq.

disgusting [dɪs'gʌstɪŋ] *a* jirkantiradigan, nafratni qo'zg'aydigan, juda xunuk, juda yomon, jirkanch, qabih, yoqimsiz.

dish [dɪʃ] *n* (*pl dishes*) **1.** idish-tovoq; **2.** taom.

dishonest [dɪs'ɒnɪst] *a* insofsiz, diyonatsiz, noinsof, tirriq, vijdotsiz, vijdoni (insofi, diyonati) yo'q.

dishonestly [dɪs'ɒnɪstli] *adv* insofsizlik (diyonatsizlik, noinsoflik, tirriqlik, vijdotsizlik) bilan, pastlik (yaramaslik, ifloslik) bilan; vijdotsizlarcha, uyatsizlarcha, or-nomusini unutib.

dishonesty [dɪs'ɒnɪsti] *n* insofsizlik, diyonatsizlik, noinsoflik, tirriqlik, vijdotsizlik, vijdoni (insofi, diyonati) yo'qlik.

dishwasher [dɪʃwɒʃə] *n* idish yuvish mashinasi.

disk [dɪsk] *n* disk.

diskette [dɪs'ket] *n* disketa (kompyuter uchun).

dislike¹ [dɪs'laɪk] *v* yomon ko'rmoq, nafratlanmoq, yoqirtmaslik.

dislike² [dɪs'laɪk] *n* yoqirtmaslik, xush ko'rmaslik.

dismiss [dɪs'mɪs] *v* **1.** qo'yib yubormoq, tarqatib yubormoq; **2.** ishdan bo'shatmoq, vazifasidan ozod qilish; **to ~ a servant** xizmatkorni bo'shatmoq; **3.** rad qilmoq, chetga surib qo'ymoq; **4.** (*muhokamani*) tugatmoq, yakun chiqarmoq; **to ~ a meeting** majlisni tugatmoq.

disorder [dɪs'ɔ:də] *n* tartibsizlik, besaranjomlik, alg'ov-dalg'ov; *~liness* intizomsizlik.

display¹ [dɪ'spleɪ] *v* **1.** ko'rsatmoq, namoyish qilmoq; **2.** ko'rsatmoq, ochmoq oshkor (fosh) qilmoq; **3.** maqtanmoq, kerilmoq, ko'z-ko'z qilmoq.

display² [dɪ'spleɪ] *n* **1.** ko'rsatish, namoyish qilish; **fashion** - modalar namoyishi; **2.** namoyon qilish, namoyish qilish; **3.** ko'z-ko'z qilish, maqtanchoqlik.

disposable [dɪ'spəʊzəbl] *a* bir marotaba ishlatiladigan.

dispute¹ [dɪ'spju:t] *n* **1.** muzokara, muhokama, bahs; **2.** tortishish, gap tala-shish, janjallashish; **border** - chegara mojarosi.

dispute² [dɪ'spju:t] *v* **1.** muhokama qilmoq, tortishmoq; tortishuvda ishtirok etmoq; **2.** shubha, gumon ostiga olmoq; ikkilanmoq.

dissolve [dɪ'zɒlv] *v* **1.** eri(t)moq; **2.** tarqatmoq, faoliyatni tugatmoq, harham bermoq; **3.** vayron qilmoq; **4.** bekor qilmoq; **to ~ a marriage** nikohni bekor qilmoq.

distance ['dɪstəns] *n* **1.** masofa, ora; uzoqlik, yo'l; vaqt oralig'i; **2.** olislik, uzoqlik, yiroqlik.

distinctive [dɪ'stɪŋktɪv] *a* o'ziga xos, xarakterli.

distribute [dɪ'strɪbjʊ:t] *v* tarqatmoq, yoymoq, taqsimlamoq.

distinguish [dɪ'stɪŋwɪʃ] *v* farq qilmoq, ajratmoq; ajralib turmoq.

district ['dɪstrɪkt] *n* tuman; okrug (AQShda).

disturb [dɪ'stɜ:b] *v* tinchini buzmoq, bezovta qilmoq.

disturbed [dɪ'stɜ:bd] *a* bezovta.

dive [daɪv] *v* sho'ng'imoq.

diver ['daɪvə] *n* g'avvos.

divide [dɪ'vaɪd] *v* bo'lakka bo'lmoq, ajratmoq, bo'lmoq.

diving ['daɪvɪŋ] *n* sho'ng'ish.

division [dɪ'vɪʒn] *n* **1.** *harb.* diviziya; **2.** bo'lish, taqsimlash; **2.** kafedra; bo'lim.

divorced [dɪ'vɔ:st] *a* nikohi buzilgan, ajrashgan, taloq qilingan.

do [du:] *v* (*pt did*; *pp done*) **1.** qilmoq, bajarmoq; **2.** *yordamchi fe'l.*

doctor ['dɒktə] *n* tabib, vrach, shifokor.

document ['dɒkjumənt] *n* hujjat, guvohnoma.

dog [dɒg] *n* kuchuk, it.

doira [dɔɪrə:] *n* doira (musiqiy asbob).

doll [dɒl] *n* qo'g'irchoq.

dollar ['dɒlə] *n* dollar (pul birligi).

dolphin ['dɒlfɪn] *n zool.* delfin.

domestic [də'mestɪk] *a* **1.** uy bilan bog'liq, uyga oid; **2.** ichki; ~ **animal** uy hayvoni.

donation [dəʊneɪʃn] *n* sovg'a, ehson, in'om, tortiq, hadya, tuhfa, nazr.

done [dʌn] *v pp of do.*

donkey ['dɒŋki] *n (pl donkeys)* eshak.

door [dɔ:] *n* eshik.

doorstep ['dɔ:stɛp] *n* bo'sag'a.

doorway ['dɔ:weɪ] *n* eshik oldi, bo'sag'a, kirish yo'li, kiraverish.

dot [dɒt] *n* **1.** nuqta; **2.** kichkina narsa; **3.** kichkina dog', dog'cha.

double ['dʌbl] *a* ikkita.

doubt [daʊt] *n* shubha, gumon, ikkilanish, qat'iyatsizlik, noaniqlik; **no** ~ shubhasiz.

doubt² [daʊt] *v* shubhalanmoq, shubha qilmoq.

down¹ [daʊn] *adv* past tomonga.

down² [daʊn] *prep* past tomonga harakatni anglatadi; **to walk** ~ **the hill** tepalikdan tushmoq.

downhill [daʊn'hɪl] *adv* ostga, pastga, quyiga, pastga qarab, pastga tomon; tog' etagiga, tog' ostiga.

downstairs [daʊn'steəz] *adv* pastda, pastki qavatga (qavatda).

downward¹ ['daʊnwəd] *a* pastga tomon, pastga tushuvchi; yomonlashib boruvchi.

downward² ['daʊnwəd] *adv* **1.** ostga, pastga, quyiga, pastga qarab, pastga tomon, qiyalik bo'ylab; **2.** pasayib (kamayib) boruvchi tomon (ilgarirog'idan keyinrog'iga qarab).

downwards ['daʊnwədz] *adv* = **downward**².

doze [dəʊz] *v* mudramoq.

dozen ['dɔ:zn] *n* o'n ikki, o'n ikkitalik.

draft [dra:ft] *n* eskiz, xomaki (dastlabki) qo'l yozma; xomaki loyiha (reja va h.k.), reja.

drag [dræg] *v* sudramoq, tortmoq.

dragon ['dræɡən] *n* ajdaho.

drama ['drɑ:mə] *n* drama.

dramatic [drə'mætɪk] *a* **1.** dramaga oid, dramatik, drama ...; **2.** og'ir, mushkul, jiddiy, fojiali.

drank [dræŋk] *v pt of drink².*

draught [dra:ft] *n* yelvizak.

draughts ['dra:fts] *n* shashka.

draw I [drɔ:] *v (pt drew; pp drawn)* **1.** rasm solmoq, rasm chizmoq, chizmoq; tasvirlamoq, tasvir etmoq; **2.** sudramoq, tortmoq; **3.** tortib olib chiqmoq, sudrab chiqmoq, sug'urib olmoq; sug'urib tashlamoq (~ **out**); **4.** olmoq (pul, mukofot); **5.** tortmoq, jalb qilmoq (diqqatni); **6.** (axborot, ma'lumotni) topmoq, izlab (axtarib yoki biror yo'l bilan) qo'lga kiritmoq; **7. sport.** durang o'ynamoq; **8.** (xulosa) chiqarmoq; **9.** (qushning) ichak-chavog'ini olib tashlamoq.

draw II [drɔ:] *n* durang.

drawer I [drɔ:] *n* tortma (*stol, javon va b. larda*).

drawer II ['drɔ:ə] *n* chizmach, chizmakash.

drawing ['drɔ:ɪŋ] *n* **1.** rasm chizish, chizma; **2.** rasm.

drawn [drɔ:n] *v pp of draw I.*

dreaddful ['dredfl] *a* juda yomon, rasvo.

dream¹ [dri:m] *n* **1.** tush; **2.** orzu.

dream² [dri:m] *v (pt, pp dreamed or dreamt)* **1.** tush ko'rmoq; **2.** orzu qilmoq, istamoq, tilamoq.

dreamt [dremt] *v pt, pp of dream².*

dreamworld ['dri:mwɜ:lɪd] *n* orzular (xayolot) saltanati.

VOWELS i: see /i any /ɪ dig /e hen /æ fat /ɑ: art /ɒ dog /ɔ: for /u put /u: too /u usual

dress¹ [dres] *n* kiyim, kiyim-bosh; ustki kiyim, ko'ylak, libos, ust-bosh.

dress² [dres] *v* **1.** kiyintirmoq, yasatirmoq; **to ~ a child** bolani kiyintirmoq; **2.** bezamoq, yasatmoq.

dressed [drest] *a* **1.** kiyingan, kiygan, libosdagi; **2.** bezatilgan, yasatilgan, pardozlangan.

dressing gown [dresɪŋgaʊn] *n* xalat.

drew [dru:] *v* *pt of draw* **I**.

dried milk [draɪd 'mɪlk] *n* quritilgan sut.

drill [dri] *n* mashq.

drink¹ [driŋk] *n* ichimlik.

drink² [driŋk] *v* (*pt drank*; *pp drunk*) ichmoq; **~ing water** ichimlik suvi.

drive [draɪv] *v* (*pt drove*; *pp driven*) haydamoq (mashina).

driven [draɪvɪn] *v* *pp of drive*.

driver [draɪvə] *n* haydovchi, shofer.

drizzle¹ ['drɪzl] *n* shivirlab yoqqan mayda yomg'ir.

drizzle² ['drɪzl] *v* maydalab yomg'ir yog'moq.

drop I [drɒp] *n* tomchi.

drop II [drɒp] *v* **1.** tushirib yubormoq; **2.** tushib ketmoq; **3.** tomchilamoq.

droppings [drɒpɪŋz] *n* hayvonlar axlati (tezagi, qumalog'i, qiysi).

drops (medical) [drɒps] *n* (*pl drops*) *tib.* tomchilar.

drought [draʊt] *n* qurg'oqchilik.

drove [drəʊv] *v* *pt of drive*.

drug [drʌg] *n* **1.** dori, dori-darmon, malham; **2.** narkotik moddalar.

drum [drʌm] *n* baraban; nog'ora.

drunk I [drʌŋk] *v* *pp of drink*².

drunk II [drʌŋk] *a* mast, mast-alast.

dry¹ [draɪ] *a* **1.** quruq, qurigan; **2.** qurib (qotib) qolgan, suvi qochgan, qoq; qoqlangan; **3.** (vinoga nisbatan) musallas, spirtsiz, nordon; **4.** zerikarli, qizig'i yo'q, maroqsiz.

dry² [draɪ] *v* quritmoq.

dry cleaner [draɪ kli:nə] *n* kiyimlarni kimyoviy usulda tozalaydigan joy.

duck [dʌk] *n* o'rdak.

duckling ['dʌklɪŋ] *n* o'rdak bolasi, o'rdakcha.

dues [dju:z] *n* soliq, to'lov, boj.

dug [dʌg] *v* *pt, pp of dig*.

dull [dʌl] *a* **1.** anqov, ongsiz, bema'ni; **~ brain** aqli past; **2.** ezilgan, g'amgin; **3.** zerikarli, zerikuradigan; **4.** o'tmas, charxlanmagan.

dumb [dʌm] *a* soqov.

during ['djʊərɪŋ] *prep* davomida, mobaynida, ichida.

dust¹ [dʌst] *n* chang, to'zon.

dust² [dʌst] *v* changni artmoq.

dustbin ['dʌstbɪn] *n* axlat qutisi.

duster ['dʌstə] *n* chang artadigan latta.

duststorm [dʌst'stɔ:m] *n* changli, to'zonli bo'ron.

duty ['dju:tɪ] *n* **1.** burch, xizmat, vazifa; **2.** majburiyat; **3.** navbatchilik; **I am on ~ today** bugun men navbatchi.

dwarf ['dwɔ:f] *n* juda pastbo'y (pak-pakana) odam; pakana, mitti.

dynasty ['dɪnəsti] *n* sulola.

E, e

E, e [i:] ingliz tili alifbosining beshinchi harfi.

each [i:tʃ] *adj, pron* har, har bir, har qaysi; **~ of you** sizlarning har biringiz; **~ other** bir-birini.

eagle ['i:gl] *n* burgut.

ear [ɪə] *n* quloq.

earache ['ɪərəɪk] *n* quloq og'rig'i.

earl [ɜ:l] *n* graf (Angliyada).

early ['ɜ:li] *a* **1.** erta, erta bilan, barvaqt; **2.** bemahal, bevaqt, vaqtidan ilgari.

earn [ɜ:n] *v* **1.** ishlab (mehnat qilib) peshona teri to'kib topmoq; **2.** loyiq bo'lmoq, arzimmoq.

earring [ˈɪərɪŋ] *n* sirg 'a, zirak, boldoq.

earth [ɜːθ] *n* yer.

earthquake [ˈɜːθkwɛɪk] *n* yer qimirlash, zilzila.

easily [ˈiːzɪli] *adv* osonlik bilan, osongina, qiyinchiliksiz, qiynalmay, bema-shaqqat.

east [iːst] *n* sharq.

Easter [ˈiːstə] *n* din. Pasxa (Xristian dinidagi bayram).

eastern [ˈiːstən] *a* sharqqa oid; sharq-dagi; sharqiy.

easy [ˈiːzi] *a* oson, yengil.

eat [iːt] *v* (pt **ate**; pp **eaten**) **1.** yemoq, tanovvul qilmoq, ovqatlanmoq; **2.** yemirmoq (~ **away**, ~ **into**).

eat out [ˈiːtaʊt] *phr.v* ko'chada ovqatlanmoq.

eat up [ˈiːtʌp] *phr.v* yeb qo'ymoq.

eaten [iːtɪn] *v* pp *of eat*.

eating habit [ˈiːtɪŋ ˈhæbɪt] *n* ovqatlanish odati.

echidna [əˈkɪdnə] *n* zool. yexidna.

ecology [ˈiːkɒlədʒi] *n* ekologiya.

economic [ˌiːkəˈnɒmɪk] *a* **1.** iqtisodiy, iqtisodga oid, iqtisod ...; – **growth** iqtisodiy o'sish; **2.** foydali, foyda keltiradigan, daromadli, rentabelli.

economics [ˌekəˈnɒmɪks] *n* iqtisod (o'quv fani); iqtisod, xalq xo'jaligi.

economist [ˈiːkɒnəmɪst] *n* iqtisodchi.

economy [ˈiːkɒnəmi] *n* iqtisod; xo'jalik.

edge [edʒ] *n* chet, qirra.

editor [ˈeditə] *n* muharrir.

editorial [ˈeditɔːriəl] *a* tahrirga oid, tahririy.

editorial [ˈeditɔːriəl] *n* bosh maqola.

educate [ˈedʒukeɪt] *v* ta'lim hermoq.

education [ˈedʒuˈkeɪʃn] *n* ta'lim; tarbiya; ta'lim-tarbiya; ilm, ma'lumot.

effect [ɪˈfekt] *n* **1.** oqibat, natija; **2.** ta'sir, ta'sir etish.

effective [ɪˈfektɪv] *a* **1.** haqiqiy, amaliy, foydali, muvaffaqiyatli; ~ **cooperation**

foydali (*unumli*) hamkorlik; ~ **steps** amaliy qadamlar; **2.** amaldagi, ishlab turgan, kuchga ega bo'lgan (*qonun va h.lar*); to **become** – kuchga kirmoq.

efficiency [ɪˈfɪʃnsi] *n* **1.** samaradorlik, unumlilik, foydalilik; **2.** foydali ish ko'ffitsenti.

efficient [ɪˈfɪʃənt] *a* **1.** samarali, ta'sirli, amaliy; g'ayratli, epchil; **2.** maqsadga muvofiq; ~ **distribution** maqsadga muvofiq taqsimot.

efficiently [ɪˈfɪʃntli] *adv* samardorlik bilan, unumli ravishda.

effort [ˈefət] *n* zo'r berish, harakat qilish; urinish.

egg [eg] *n* tuxum.

eight [eɪt] *num* sakkiz.

eighteen [eɪˈtiːn] *num* o'n sakkiz.

eighth [eɪtθ] *num* sakkizinchi.

eight-pointed star [eɪt ˈpɔɪntɪd ˈstɑː] *n* sakkiz qirrali yulduz.

eighty [ˈeɪtɪ] *num* sakson.

either [ˈaɪðə; iːðə] *adv* ham.

elasmosaur [ˌiːlɒzmuːˈsɔːr] *n* zool. elasmozavr.

elastic I [ɪˈlæstɪk] *n* rezina; rezinalangan tasma; rezinalangan shnur.

elastic II [ɪˈlæstɪk] *a* egiluvchan, qayishqoq, prujinasimon.

elbow [ˈelbəʊ] *n* tirsak.

elder [ˈeldə] *a* katta.

elderly [ˈeldəli] *a* yoshi katta, keksa.

eldest [ˈeldɪst] *a* **1.** „old“ning orttirma darajasi; **2.** (eng) katta, yoshi katta, to'n-g'ich.

elect [ɪˈlekt] *v* saylamoq, tanlamoq, tanlab (saylab) olmoq, saylab qo'ymoq.

election [ɪˈleɪʃn] *n* saylov.

electoral system [ɪˈlektərəl ˈsɪstəm] *n* saylov tizimi.

electric [ɪˈlektɪk] *a* **1.** elektrga oid; **2.** to'lqinlantiruvchi, ajoyib, hayajonlantiruvchi.

electrical [ɪˈlektɪkəl] *a* elektrga oid,

elektr; – **installation** elektrik jihozlarni o'rnatish.

electricity [ɪlektʁɪsɪti] *n* tok, elektr toki.

electronic [ɪlektʁonɪk] *a* elektron; – **engineer** muhandis elektronchi; – **products** elektron mahsulotlar.

electronically [ɪlektʁonikali] *adv* elektron yo'l bilan.

electronics [ɪlektʁoniks] *n* elektronika.

elegant [ˈelɪɡənt] *a* 1. nafis, zebo; 2. bashang (orasta) kiyingan.

element [ˈelɪmənt] *n* 1. element; 2. tarkibiy qism.

elementary school [elɪˈmentri ˈsku:l] *n* boshlang'ich maktab.

elephant [ˈelɪfənt] *n* fil.

elevator [ˈelɪveɪtə] *n* lift.

eleven [ɪˈlevn] *num* o'n bir.

eleventh [ɪˈlevənθ] *num* o'n birinchi.

elm [elm] *n* qayrag'och.

else [els] *adv* yana, tag'in.

e-mail (electronic mail) [iːˈmeɪl] *n* elektron pochta.

embarrass [ɪmˈbærəs] *v* xijolat qilmoq, uyaltirmoq.

embarrassing [ɪmˈbærəsɪŋ] *a* qiyinchilik tug'diradigan, shoshiltirib qo'yadigan, garang qiladigan; – **situation** noqulay holat.

embarrassment [ɪmˈbærəsmənt] *n* xijolat bo'lish (tortish), uyalib qolish, xijolat; shoshib (shoshilib, hovliqib) qolish; gangish, esankirash, dovdirash.

emblem [ˈembləm] *n* ramz, belgi, timsol, gerb.

embroidered [ɪmˈbrɔɪdəd] *a* gul tikib bezatilgan, to'qilgan.

embroidery [ɪmˈbrɔɪdəri] *n* kashtado'zlik, kashta, gul.

emergency [iːˈmɜːdʒənsi] *n* tasodifiy (favqulotda, kutilmagan) hodisa; og'ir (tang, mushkul, qiyin) ahvol.

emotion [ɪˈmɔʊʃn] *n* his-hayojon, hissiy to'lqinlanish.

emotional [ɪˈmɔʊʃnəl] *a* jo'shqin, hayajonli; hayajonlantiruvchi; to'lqinlantiruvchi.

emotionally [ɪˈmɔʊʃnəli] *adv* his-hayojonga (his-tuyg'uga, hissiyotga) berilib, hayajonlanib, to'lqinlanib, jo'shqinlik bilan; his-tuyg'u (hissiy) jihatdan.

emperor [ˈempərə] *n* imperator.

emphasis [ˈemfəsɪs] *n* 1. ifodalilik, jonlilik, ma'nodorlik; 2. urg'u, urg'u belgisi.

emphasize [ˈemfəsaɪz] *v* ta'kidlamoq, uqtirib o'tmoq, diqqatni tortmoq, e'tiborni jalb qilmoq, biror narsaga ahamiyat (e'tibor) bermok.

empire [ˈempaɪə] *n* imperiya.

employ [ɪmˈplɔɪ] *v* 1. ish bermok; 2. foydalanmoq; 3. yollanmoq.

employee [ɪmˈplɔɪi:] *n* xodim, xizmatchi, xodim.

employer [ɪmˈplɔɪə] *n* ish beruvchi, ishga soluvchi, sohibkor.

employment [ɪmˈplɔɪmənt] *n* ish, xizmat.

empty¹ [ˈempti] *a* bo'm-bo'sh, ichi bo'sh, hech narsasi yo'q, bo'sh, quruq, puch.

empty² [ˈempti] *v* bo'shatmoq.

emu [iːˈmju:] *n* zool. emu.

enable [ɪˈneɪbl] *v* 1. imkoniyat bermok; 2. yengillashtirmoq, osonlashtirmok.

enclose [ɪnˈkloʊz] *v* 1. (ichiga) qo'y-mok, solmoq; 2. (yer maydonining) atrofini o'rab qo'y-mok.

enclosed [ɪnˈkloʊzd] *a* yopiq, berk; atrofi o'rab qo'yilgan, o'rab (to'sib) ajratilgan.

enclosure [ɪnˈkloʊzə] *n* 1. atrofi (cheti) o'rab olingan joy; 2. devor, to'siq; g'ov.

encourage [ɪnˈkʌrɪdʒ] *v* ilhom baxsh etmoq, ilhomlantirmok, ruhini ko'tarmok, ruhlantirmok, dalda bermok, otlantirmok.

encouragement [ɪnˈkʌrɪdʒmənt] *n* ma'qullash, qo'llash, quvvatlash, ijobiy baho, maqtov, tahsin; yordam, madad, dalda.

encyclopaedia [ɪnˌsaɪkləˈpiːdiə] *n* qomus, ensiklopediya.

end¹ [end] *n* oxir, nihoya, yakun, poyon, intiho; **at the** ~ oxirida, yakunida; **in the** ~ oxiri, axiyri, pirovardida, oqihattida.

end² [end] *v* tuga(lla)moq, tomomlammoq, tomom bo'lmoq.

ending ['endɪŋ] *n* yakun, nihoya, oxir, poyon, intiho.

enemy ['enəmi] *n* (*pl enemies*) dushman, g'anim, yov.

energetic [enədʒetɪk] *a* g'ayratli, serg'ayrat, serharakat, faol.

energy ['enədʒi] *n* **1.** energiya, quvvat; **2.** kuch, kuchlanish, zo'r berish.

engine ['endʒɪn] *n* **1.** dvigatel, motor; **2.** parovoz.

engineer [endʒɪ'nɪə] *n* **1.** muhandis, injener; **2.** AE mashinist.

engineering [endʒɪ'nɪərɪŋ] *n* texnika, muhandislik ishlari.

English¹ ['ɪŋɡlɪʃ] *a* ingliz, inglizlarga oid.

English² ['ɪŋɡlɪʃ] *n* **1.** ingliz; ingliz xalqi; **2.** ingliz tili

enjoy [ɪn'dʒɔɪ] *v* **1.** maza (huzur, gasht) qilmoq, lazzatlanmoq, zavq olmoq, zavqlanmoq, rohatlanmoq, xush yoqmoq; **2.** ega (sazovor, molik) bo'lmoq, foydalanmoq.

enjoyable [ɪn'dʒɔɪəbl] *a* yoqimli, ko'n-gilli, yoqimtoy, dilkash.

enjoyment [ɪn'dʒɔɪmənt] *n* **1.** xursandchilik, ko'ngil ochish, o'yin-kulgu, huzur-halovat, kayf-safo; rohat, orom, lazzat, maza, gasht, zavq; rohatlanish, huzur (maza) qilish; **2.** bir narsaga egalik, ega bo'lishlik.

enormous [ɪ'nɔ:məs] *a* juda katta, yirik ulkan, azim, mahobatli.

enough [ɪ'nʌf] *a* yetarli, yetadigan.

ensemble [ɒn'sɒmbl] *n* ansambli.

ensure [ɪnʃʊ:] *v* ta'minlamoq, yetkazib bermoq; kafolat bermoq.

entangle [ɪn'tæŋɡl] *v* chalkashtirmoq.

enter ['entə] *v* **1.** kirmoq, ichiga (ichka-

risiga, ichkari) kirmoq; tushmoq, botmoq; qadam qo'ymoq; a'zo bo'lmoq; **2.** (o'quv muassasasiga) kirmoq, joylashmoq, qabul qilinmoq; **3.** (ro'yxatga) kiritmoq, qo'shib qo'ymoq, yozib qo'ymoq, qayd qilmoq.

enterprise ['entəpraɪz] *n* **1.** korxon; **2.** tashabbus, faoliyat, ish.

entertain [entə'teɪn] *v* xursandchilik qilmoq; ko'ngilxushlik qilmoq.

entertainer [entə'teɪnə] *n* estrada artisti, konferansye (dasturni olib boruvchi va ora-sira qiziq gaplar bilan tomoshabinlarni mashg'ul qiluvchi artist).

entertaining [entə'teɪnɪŋ] *a* **1.** qiziq, qiziqarli, maroqli, ko'ngilochar; **2.** qiziq, ajib, g'alati, kulgili, alomat.

entertainment [entə'teɪnmənt] *n* o'yin-kulgi, tomosha.

enthusiasm [ɪn'tʃu:zɪəzəm] *n* shavq-zavq, g'ayrat, ishtiyoq, tashabbus.

enthusiastic [ɪn'tʃu:zɪ'æstrɪk] *a* g'oyat zavqli, zavqqa to'lgan, quvonchli, shavq-zavq (g'ayrat) bilan to'la.

entrance ['entrəns] *n* **1.** kirish joyi (yo'li), kiraverish; **2.** kirish (yoki foydalanish) huquqi, kirish (yoki foydalanish) uchun ijozat, ruxsat.

entry ['entri] *n* **1.** kirish, kirish yo'li; **2.** kirish huquqi; **3.** (kitob, ro'yxatdagi) yozuv, qayd; (lug'atdagi) so'z, maqola.

envelope ['envələʊp] *n* konvert; o'rov, jild.

environment [ɪn'vaɪərənmənt] *n* atrof-muhit.

equal ['i:kwəl] *a* teng, baravar.

equality ['i:kwələti] *n* tenglik, baravarlilik.

equally ['i:kwəli] *adv* teng, bir xil qilib.

equator ['i:kweɪtə] *n* ekvator.

equip ['i:kwɪp] *v* jihozlammoq.

equipment ['i:kwɪpmənt] *n* jihoz, asbob-uskuna; qurol-yarog', aslaha.

era ['ɪərə] *n* era, davr, zamon.

eraser [ˈrɛɪzə] *n* o'chirg'ich.

escalation [ˌɛskəˈleɪʃn] *n* (to'qnashuv haqida) kuchayish, zo'rayish, keskinlashish.

escalator [ˌɛskəˈleɪtə] *n* eskalator, harakatlanuvchan zinapoya.

escape [ɪˈskeɪp] *v* qochmoq, qochib ketmoq.

Eskimo [ˈɛskɪməʊ] *n* (*pl Eskimos*) eskimos (millat).

especially [ɪˈspeʃəli] *adv* ayniqsa.

essay [ˈeseɪ] *n* insho.

establish [ɪˈstæblɪʃ] *v* **1.** qurmoq, yaratmoq; tuzmoq, tashkil etmoq, barpo qilmoq, asos solmoq; **2.** o'rnatmoq, yo'lga qo'yimoq.

estimate¹ [ˈestɪmɪt] *n* baho; baholash, narx qo'yish.

estimate² [ˈestɪmeɪt] *v* baholamoq, baho bermoq, belgilamoq.

etc. = **etcetera** [ˌetˈsetərə] *adv* va hokazolar, va shu kabilar (qisqargan shakli: va h.k., va sh.k.)

etiquette [ˈetɪket] *n* etiket, (kasbiy) odob-xloq qoidalari.

eucalyptus [juːkəlɪptəs] *n bot.* evkalipt.

euro [ˈjʊərəʊ] *n* (*pl euros*) yevro (Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan ko'pchilik mamlakatlarda qo'llaniladigan pul birligi).

evaluate [ɪˈvæljuːeɪt] *v* baholamoq, baho bermoq.

evaluation [ɪˈvæljuːeɪʃn] *n* baholash; baho, fikr.

even I [ˈiːvən] *adv* **1.** hatto, hattoki; hatto... ham; ~ **if** hatto... bo'lgan taqdirda ham, (garchi, garchand) -sa ham; ~ **though** (garchi, garchand) -sa ham, qaramasdan, bo'lsa-da; **2.** (qiyosiy gaplarda) yana, yanada, yana ham.

even II¹ [ˈiːvən] *a* **1.** to'g'ri, tekis; **2.** bir xil; **3.** bir xil darajada; **4.** to'g'ri so'z, sofdil.

even II² [ˈiːvən] *v* tenglashtirmoq, to'g'rilamoq.

evening [ˈiːvniŋ] *adv* kechqurun, kechki payt, kech oqshom; **Good ~!** (kechqurun) Assalomu alaykum!, Xayrli oqshom!

evenly [ˈiːvnli] *adv* **1.** teng, bab-baravar, teng-baravar, tekis, bir me'yorda, bir maromda; **2.** tekislab, silliq qilib, tekis, tep-tekis, silliq, sip-silliq, kaftdek; **3.** birday, baravar, teng, bir xil, bir xilda.

event [ɪˈvent] *n* **1.** voqea, hodisa; **2.** tadbir.

ever [ˈevə] *adv* **1.** qachondir, qachon bo'lmasin; **2.** (*perfekt zamonidagi fe'llar bilan so'roq gaplarda qo'llaniladi*) shu paytgacha, qachondir, ilgari, oldin; **3.** doimiy, davomli; ~ **after/since** o'sha vaqtdan buyon, o'sha vaqtdan beri.

every [ˈevri] *a* **1.** har; har bir, har qaysi; **2.** har xil, har qanday, turli-tuman.

everybody [ˈevrɪbɒdi] *pron* hamma.

every day [ˈevrɪdeɪ] *adv* har kuni.

everyday [ˈevrɪdeɪ] *a* har kuni bo'ladigan, har kungi, kundalik, odatiy.

everyone [ˈevriwʌn] *pron* har bir kishi; hamma, barcha, har kim.

ever-youthful [ˌevəˈjuːθfl] *a* qarimaydigan, eskirmaydigan.

everything [ˈevrɪθɪŋ] *pron* hamma (barcha) narsa, har bir narsa.

everywhere [ˈevriweə] *pron* hamma yerda.

evidence [ˈeɪdɪəns] *n* **1.** dalil; isbot; hujjat; asos; **2.** guvohning aytganlari (ko'rsatmasi).

evil [ˈiːvl] *a* yomon, yaramas, yovuz, halokatli.

exact [ɪɡˈzækt] *a* **1.** talabchan; **2.** aniq, puxta; ~ **meaning** aniq fikr.

exactly [ɪɡˈzæktli] *adv* aniq, roppa-rosa.

exaggerate [ɪɡˈzædʒəreɪt] *v* **1.** ortirib yubormoq, bo'rttirib ko'rsatmoq; **2.** kengaytirmoq.

exam [ɪɡˈzæm] *n* = **examination.**

examination [ɪɡˈzæmɪneɪʃn] *n* **1.** imtihon; **2.** teksirish, tekshiruv, ko'rik.

examine [ɪg'zæmɪn] *v* **1.** tadqiq qilmoq, o'rganmoq, tanishmoq, tekshirmoq, tekshirib ko'rmoq, ko'zdan kechirmoq, ko'rik (tekshiruv)dan o'tkazmoq; **2.** imtihon (sinov)dan o'tkazmoq, imtihon olmoq.

examiner [ɪg'zæmɪnə] *n* imtihon oluvchi.

example [ɪg'zɑ:mpl] *n* misol, namuna; **for** – masalan, misol uchun.

excellent [ˈeksələnt] *a* juda yaxshi (soz), ajoyib, a'lo darajadagi.

except¹ [ɪk'sept] *prep* ...dan tashqari, ...dan boshqa, ...dan bo'lak, mustasno qilganda.

except² [ɪk'sept] *v* inkor (rad) etmoq, chiqarib tashlamoq.

except³ [ɪk'sept] *conj* faqat, ...dan boshqa, hech...; **nowhere else ~ here** faqat shu yerdan boshqa hech yerda yo'q.

exception [ɪk'sepʃn] *n* istisno; **to make an ~ (to)** istisno qilmoq.

excess [ɪk'ses] *a* ortiqcha, ko'p, keradigan ortiq.

exchange¹ [ɪks'tʃeɪndʒ] *n* **1.** alish (tir)ish; almash (tir)ish; **in ~ (for smth.)** ...ning o'rniga olish (almashtirish); **2.** (pulga nisbatan) ayirbosh qilish, ayirboshlash; **3.** valyuta, chet el puli; **4.** birja.

exchange² [ɪks'tʃeɪndʒ] *v* **1.** ayirboshlamoq, alish (tir)moq, almash (tir)moq; **2.** (pulga nisbatan) maydalamoq, maydalab olmoq (bermoq).

excite [ɪk'saɪt] *v* **1.** qo'zg'atmoq, undamoq; **2.** ta'sir qilmoq, hayajonlanmoq, hayajonlantirmoq.

excited [ɪk'saɪtɪd] *a* hayajonli, hayajonlangan, to'liqinlangan; asabiy.

excitement [ɪk'saɪtmənt] *n* hayajon, hayajonlanish.

exciting [ɪk'saɪtɪŋ] *a* hayajonga soluvchi, ajoyib, hayajonli, to'liqinlantiradigan.

exclamation [ˌeksklə'meɪʃn] *n* undov; his-hayajon; ~ **mark** undov belgisi.

exclude [ɪk'sklu:d] *v* chiqarmoq, chiqarib tashlamoq, o'chirmoq, haydamoq.

exclusion [ɪk'sklu:ʒn] *n* **1.** haydaliş (maktab, klubdan); **2.** chiqarib tashlash.

excursion [ɪk'skɜ:ʃn] *n* sayr, sayohat, ekskursiya.

excuse¹ [ɪk'skju:s] *n* **1.** oqlash, bahona, vaj; **2.** uzr, kechirim.

excuse² [ɪk'skju:z] *v* **1.** kechirmoq, avf etmoq; **2.** ozod qilmoq (*ishdan, vazifadan*).

executive [ɪg'zekjʊtɪv] *a* ijroiya, ijro etuvchi, amalga oshiruvchi.

exercise [ˈeksəsaɪz] *n* **1.** mashq; **2.** jismoniy gimnastika mashqi.

exhibition [ˌeksɪbɪʃn] *n* ko'rgazma.

exist [ɪg'zɪst] *v* yashamoq, umr ko'rmoq; jon saqlamoq.

existence [ɪg'zɪstəns] *n* mavjudlik, butun mavjudot, turmush, tirikchilik, hayot.

exit [ˈeksɪt; ˈegzɪt] *n* **1.** chiqish; **2.** teatr sahnadan chiqish.

exotic [ɪg'zɒtɪk] *a* ekzotik.

expand [ɪk'spænd] *v* kengay (tir)moq, tarqa(t)moq, yoy(il)moq.

expansion [ɪk'spænzən] *n* kengayish, kattarish, cho'zilish.

expect [ɪk'spekt] *v* **1.** kutmoq; **2.** umid qilmoq, umid bog'lamoq, umidvor bo'lmoq; **3.** taxmin (faraz) qilmoq, ...deb o'ylamoq, chamalamoq.

expectation [ˌekspek'teɪʃn] *n* **1.** ishonch; **2.** umid, orzu.

expedition [ˌeksprɪdɪʃn] *n* ekspeditsiya.

expel [ɪk'spel] *v* haydamoq, haydab chiqarmoq, quvib yubormoq, dumini tugmoq.

expenditure [ɪk'spendɪtʃə] *n* sarf-xarajat, chiqim, xarj, sarf, buromad; sarf qilish, sarflash.

expensive [ɪk'spensɪv] *a* qimmat, narxi (bahosi) baland, qimmatbaho.

experience¹ [ɪk'sprɪəriəns] *n* tajriba.

experience² [ɪk'sprɪəriəns] *v* amalda sinab ko'rmoq, boshdan kechirmoq, totmoq, chekmoq, his qilmoq (sezmoq).

experiment [ɪk'spɛrɪmənt] *n* tajriba, sinov; sinash, sinab ko'rish.

expert ['ekspɜ:t] *n* ekspert, mutaxassis.

explain [ɪk'spleɪn] *v* tushuntirmoq.

explanation [ɪk'spləneɪʃn] *n* tushuntirish.

explore [ɪk'splɔ:r] *v* tekshirmoq, o'rganmoq.

explorer [ɪk'splɔ:rə] *n* tadqiqotchisi, sayohatchi.

explosion [ɪk'spləʊʒn] *n* portlash.

explosive¹ [ɪk'spləʊsɪv] *a* portlovchi, portlaydigan.

explosive² [ɪk'spləʊsɪv] *n* portlovchi modda.

export ['eksport] *n* chet elga chiqarish (*pul, mol va b.*), eksport qilish, eksport.

export² [eksport] *v* chetga chiqarmoq, eksport qilmoq.

exporter ['eksport:tə] *n* eksport qiluvchi, eksportchisi.

express I [ɪk'spres] *a* shoshilinch; ~ **telegram** shoshilinch telegramma.

express II [ɪk'spres] *v* ifoda etmoq, ifodalamoq, bildirmoq; izhor etmoq.

expression [ɪk'spreʃn] *n* ibora, ifoda (shu bilan birga yuzdagi ifoda ham); ta'bir, gap, so'z; nutq oboroti.

expulsion [ɪk'spʌʃn] *n* haydash (maktabdan, klubdan), badarg'a qilish

extend [ɪk'stend] *v* kengay(tir)moq, uzay(tir)moq.

extensive [ɪk'stensɪv] *a* keng, bepoyon.

extensively [ɪk'stensɪvli] *adv* **1.** keng, katta; **2.** keng ko'lamda, keng ravishda, har tarafdin.

extent [ɪk'stɛnt] *n* **1.** masofa, keng sath (*maydon, joy*); **2.** o'lcham, miqdor; **3.** ko'lam (*bo'y, en va balandlik*), miqyos, daraja.

extra ['ekstrə] *a* qo'shimcha, qo'shimcha qilingan, qo'shimcha ravishda berilgan yoki olingan.

extraction [ɪk'strækʃn] *n* ajratib olish, qazib olish.

extra-curricular [ekstrə kə'ɪrɪkjələ] *a* sinfdan tashqari; o'quv rejasidan tashqari.

extraordinary [ɪk'strɔ:dnri] *a* **1.** g'ayri oddiy; **2.** noodatiy, g'alati.

extreme I [ɪk'stri:m] *n* **1.** keskin, eng oxirgi, chetdagi; **2.** esk. eng oxirgi (so'nggi).

extreme II [ɪk'stri:m] *n* chegara, haddan ortiq holat.

extremely [ɪk'stri:mli] *adv* o'ta, juda ham.

eye [aɪ] *n* ko'z.

eyebrow [aɪbrəʊ] *n* kiprik.

eye glasses [aɪglɑ:sɪz] *n* ko'zoynak.

F, f

F, f [ef] ingliz tili alifbosining oltinchi harfi.

FA [feɪ] = **Football Association** [futbɔ:l ə.səʊsi'eɪʃn] FA = Futbol Assotsiatsiyasi.

fable ['feɪbl] *n* **1.** masal; **2.** uydirma, yolg'on-yashiq, to'qima, afsona.

fabric ['fæbrɪk] *n* gazlama, mato.

FA Cup Final [feɪ kʌpfaɪnl] FA Final Kubogi.

face¹ [feɪs] *n* **1.** yuz, bet, aft, bashara; **2.** chehrasida aks etgan belgi; chehra; **3.** yuz, yuza, bet, sirt, ust, tashqi yuza; fasad (binoning old tomoni, oldi); **4.** (soatga nisbatan) siferblat.

face² [feɪs] *v* **1.** yuz tutmoq, biror tomondan qaragan bo'lmoq; **2.** yuzma-yuz (ro'ba-ro', ro'para) kelmoq, duch kelmoq, to'qnash kelmoq, bevosita xavf ostiga qolmoq (bo'lmoq, turmoq); **3.** (~ **with**) ustini, sirtini qoplamoq (tosh bilan).

facility [fə'sɪlɪti] *v* (*pl facilities*) **1.** qulaylik, o'ng'aylik; xizmat ko'rsatish vositasi; **2.** asbob-uskuna, jihaz, mexanizm, qurilma, moslama.

fact [fækt] *n* **1.** fakt, dalil, isbot; **2.** fakt;

tʃ chin /θ thin /ð the /ʃ she /ʒ usual /h he /m me /n not /ŋ king /l lip /r rat /j yet /w we

bor narsa, bo'lgan voqea; **3.** haqiqat; **in** ~ aslini olganda, haqiqatda.

factory [ˈfæktəri] *n* (*pl factories*) fabrika, zavod.

factual [ˈfæktʃuəl] *a* adolatli, asosli.

fail [feɪl] *v* **1.** (biror narsa) qila olmaslik, uddasidan chiqa olmaslik; **2.** (imtihon va sh.k. haqida) yiqilmoq, o'ta olmaslik.

failure [ˈfeɪljə] *n* **1.** omadsizlik, muvaf-faqiyatsizlik, barbod bo'lish; **2.** (odam haqida) omadsiz, badbaxt; **3.** yetishmov-chilik, yetishmaslik; **crop** ~ ekin bitma-ganlik, unumsizlik, hosilsizlik; **heart** ~ yurak sholi.

faint¹ [feɪnt] *a* **1.** kuchsiz, behol, be-mador, bemajol; **to feel** ~ ko'ngil ayni-moq, behuzur bo'lmoq; **2.** noaniq, rav-shan (yorug') emas, g'ira-shira, qo-rong'i; **3.** kuchsiz, juda oz; **I haven't the** ~ **est idea** o'zgina tasavvurga ham ega emasman.

faint² [feɪnt] *n* behushlik, hushsizlik, hushidan (o'zidan) ketish, behush bo'lib qolish.

faint³ [feɪnt] *v* hushini yo'qotmoq, be-hush bo'lib qolmoq, hushidan (o'zidan) ketib qolmoq.

fair [feə] *a* **1.** adolat yuzasidan qilingan, adolatli, odil, to'g'ri, haq, haqqoniy; **2.** yaxshigina, durust, chidasa bo'ladigan, uncha yomon emas; **3.** (ob-havo haqida) qulay, ochiq, quyoshli; **4.** oq-malla, sar-g'ish.

fairly [ˈfeəli] *adv* **1.** haqqoniy ravishda, odilona, haqqoniylik (odillik, adolat) bi-lan; **2.** yetarli, yetarli darajada, ancha, xiyla, xiylagina; **3.** mutlaqo, chin, horib turgan, butunlay.

fairly [ˈfeəri] (*pl fairies*) schrlab qo'yadigan pari.

fairly tale [ˈfeəntel] *n* **1.** ertak, cho'p-chak; **2.** uydirma, yolg'on-yashiq, to'qima, afsona, bo'lmag'ur gap, safsata.

faith [feɪθ] *n* **1.** ishonch, ishonish,

e'timod, e'tiqod; **2.** va'da, ahd, so'z; **to keep (to break)** ~ va'dada turmoq (va'dani buzmoq); **3.** din; **in good** ~ vijdonan, halollik bilan, ro'yi-rost, to'g'ri.

faithful [ˈfeɪθfl] *a* sodiq, vafoli, vafodor.

fall¹ [fɔ:l] *n* **1.** tushish; **2.** pasayish; **3.** (~s) sharshara; **4.** *AE* kuz.

fall² [fɔ:l] *v* (*pt fell*; *pp fallen*) **1.** yiqil-moq, qulamoq, yiqilib tushmoq, ag'na-moq, ag'darilib tushmoq; tushib ketmoq, tushmoq; **2.** pasaymoq, kamaymoq, ozaymoq, pastroq tushmoq; **3.** pastga tushmoq, tushib ketmoq; **4.** halok bo'l-moq, o'lmoq, ajal topmoq, mag'lub bo'l-moq, mag'lubiyatga uchramoq, buzil-moq, parchalanmoq; **5.** (~ on) to'g'ri kelmoq, tushmoq; **to** ~ **asleep** uxlab qolmoq, uyquga ketmoq; **to** ~ **down/off** yiqilib tushmoq.

fallen [ˈfɔ:lən] *v pp of fall*².

false [ˈfɔ:ls] *a* **1.** yolg'on, noto'g'ri; **2.** soxta, qalbaki.

fame [feɪm] *n* shon-sharaf, shuhrat, mashhurlik.

familiar [ˈfæmiliə] *a* **1.** (~ to) yaxshi tanilgan; **2.** (~ with) xabardor, yaxshi bi-ladigan, bilimdon; **3.** betakalluf, takal-lufsiz.

family [ˈfæməli] *n* (*pl families*) oila.

family tree [ˈfæməliˈtri:] *n* shajara.

famine [ˈfæmɪn] *n* ochlik, ocharchilik.

famous [ˈfeɪməs] *a* mashhur, atqli, dongdor, nomi chiqqan, nom chiqargan.

fan [fæn] *n* **1.** ishqiboz, muxlis, jon-kuyar, tashabbuskor; **2.** yelpig'ich.

fanatic [ˈfænətɪk] *n* fanat, ishqiboz; fidoyi, hiror ish yoki g'oyaga jon dili bilan berilgan odam, mutaassib.

fantastic [ˈfæntæstɪk] *a* ajoyib, g'aroyib.

fantasy [ˈfæntəsi] *n* (*pl fantasies*) ta-savvur, xayolot.

far¹ [fɑ:] *a* uzoq, yiroq, olis; ~ **away** yiroq, uzoq, olis; ~ **from** ... dan uzoq.

far² [fɑ:] *adv* uzoqda, yiroqda; uzoqqa, yiroqqa.

fare [feə] *n* yo'l haqi, chipta.

farm [fɑ:m] *n* ferma.

farmer [fɑ:mə] *n* fermer.

farming [fɑ:mɪŋ] *n* dehqonchilik; ~

page (jurnalda) qishloq xo'jaligi haqidagi sahifa.

farmland [fɑ:mlənd] *n* dehqonchilik (ferma) uchun yer.

farmyard [fɑ:mjɑ:d] *n* ferma hovlisi.

fashion [fæʃn] *n* moda, rasm, odat; ~

page (jurnalda) moda haqidagi sahifa.

fashionable [fæʃnəbl] *a* modadagi, zamonaviy; hammaga rasm bo'lgan.

fast I¹ [fɑ:st] *a* tez, ildam, chaqqon, jadal.

fast I² [fɑ:st] *adv* tez, tezlik (ildamlik, chaqqonlik) bilan, jadal sur'atlar bilan.

fast II [fɑ:st] *n* *din.* ro'za.

fasten [fɑ:sn] *v* 1. mahkamlamoq, bog'lamoq; 2. (oyna va sh.k.ni) qulflamoq; (qo'lqop, yubka va sh.k. ni) to'g'namoq, tugmalamoq tugmasini qadammoq.

fast food [fɑ:stfu:d] *n* tez tayyor bo'ladigan taom.

fast-changing [fɑ:sttʃeɪndʒɪŋ] *a* tez o'zgarib borayotgan.

faster [fɑ:stə] *a* tezroq, ildamroq.

fast-growing [fɑ:stgrəʊɪŋ] *a* tez o'sadigan; tez o'sayotgan, tez rivojlanayotgan.

fat¹ [fæt] *a* 1. a) yog'i ko'p, seryog', yog'li; b) (tana, gavdaga nisbatan qo'llaniladi) semiz; 2. to'kin-sochin, mo'l-ko'l, boy, barakali, farovon.

fat² [fæt] *n* yog'.

fate [feɪt] *n* 1. taqdir, nasiba; 2. halok bo'lish, o'lim.

father [fɑ:ðə] *n* ota.

faucet [fɑ:sɪt] *n* *AE* vodoprovod krani (jo'mragi).

fault [fɔ:lt] *n* 1. ayb, kamchilik, nuqson; 2. ayb, gunoh.

favour [fɛvə] *n* 1. xayrixohlik, moyillik,

ixlos; 2. himoya, homiylik; yoqlash; 3. xizmat, yordam; **do me a ~** -menga yordam qiling; **in - of ...ning** foydasiga; **by ~ of smb.** kimdir orqali.

favourite¹ [fɛvəɪnt] *a* sevimli, yoqimli, yaxshi ko'rgan, yoqtirgan.

favourite² [fɛvəɪnt] *n* sevikli, jonajon, eng yaxshi ko'riladigan odam.

fax [fæks] *n* faks (xat).

fax machine [fæks məʃi:n] *n* faks (aparat).

fear¹ [fiə] *n* qo'rqinch, qo'rquv, vahima, dahshat; qo'rqish, xavfsirash, xavotirlanish, cho'chish, hadiksirash; hadik, xavf.

fear² [fiə] *v* qo'rqmoq, vahimaga tushmoq, cho'chimoq.

feast [fi:st] *n* bayram, shodiyona.

feather [feðə] *n* pat.

feature [fi:tʃə] *n* 1. o'ziga xos xususiyat, fazilat; fe'l-atvor xususiyatlari; 2. (-s) yuzning xushbichimligi (chiroyliligi).

February [februəri] *n* fevral, fevral oyi.

federal [fɛdərəl] *a* federal, federativ, ittifoq ..., ittifoqdosh.

fee [fi:] *n* 1. to'lov, vzos; 2. qalam haqi, gonorar.

feed [fi:d] *v* 1. ovqatlan(tir)moq, ye(dir)moq, ovqat bermoq, boqmoq; 2. (hayvonlar haqida) o'tlamoq.

feedback [fi:dbæk] *n* biror narsa to'g'risidagi fikr-mulohaza.

feel [fi:l] *v* (pt, pp **felt**) 1. his qilmoq; 2. ushlab ko'rmoq; **to ~ afraid** qo'rqmoq; **to ~ angry** achchiqlanmoq; **to ~ ashamed** uyalmoq; **to ~ bored** zenikmoq; **to ~ happy** xursand bo'lmoq; **to ~ nervous** bezovta (xavotir) bo'lmoq; hayajonlanmoq; **to ~ sad** xafa (g'amgin) bo'lmoq; **to ~ thirsty** chanqamoq.

feeling [fi:lɪŋ] *n* his-tuyg'u, sezgi, hissiyot.

feet [fi:t] *n* *pl* of *foot*.

fell [fel] *v* *pt* of *fall*².

felt I [felt] *n* kigiz.

felt II [felt] *v* *pt, pp of feel*.

female¹ [ˈfi:meɪl] *n* 1. ayol; 2. *zool.* urg'ochi, moda, makiyon.

female² [ˈfi:meɪl] *a* ayolga oid, ayolga xos, ayol ...

fence [fens] *n* devor, to'siq; jonli devor.

ferocity [fə'rɒsəti] *n* rahmsizlik, zolimlik, shafqatsizlik, yovuzlik, vahshiylik.

F **ferry** [ˈferi] *n* (*pl ferries*) sol.

fertilizer [ˈfɜ:tilaɪzə] *n* o'g'it, go'ng.

festival [ˈfestəvl] *n* bayram, festival.

fetch [fetʃ] *v* olib kelmoq; yetkazmoq.

fever [ˈfi:və] *n* 1. isitma; 2. (asabiy) qo'z-g'alish.

few¹ [fju:] *a* kam, oz, ozgina, uncha ko'p emas, soni kam.

few² [fju:] *n* kam, ozgina, uncha ko'p emas, soni kam, andak, bir oz.

a few [ə'fju:] *det* bir necha, bir talay, bir qancha.

fiancé [fi'ɒnsɛ] *n* (fransuz tilida) kuyov bo'lmish, qalliq, unashtirilgan yigit.

fictional [ˈfɪkʃənəl] *a* fantastikaga oid, fantastik.

field [fi:ld] *n* dala, dasht.

field trip [fi:ld ,trɪp] *n* ekskursiya, dala sayri.

fierce [fiəs] *a* 1. yovuz, vahshiy, yirtqich, shafqatsiz; 2. kuchli, baquvvat; qattiq, shiddatli.

fifteen [ˈfɪfti:n] *num* o'n besh.

fifth [fɪfθ, fɪftθ] *num* beshinchi.

fifty [ˈfɪfti] *num* ellik.

fig [fɪg] *n* anjir.

fight¹ [faɪt] *n* 1. jang, jang qilish, urush; 2. kurash, olishuv; 3. jangovar ruh; to put up a good ~ mardona kurashmoq, jang qilmoq.

fight² [faɪt] *v* (*pt, pp fought*) 1. urushmoq, jang qilmoq, jang olib bormoq, kurashmoq; 2. so'kishmoq, olishmoq, urushmoq, xafalashmoq.

figure [ˈfɪgə] *n* figura, gavda; ~ skat-ing figurali uchish.

figure out [ˈfɪgəraʊt] *phr.v* 1. hisob-lamoq, hisoblab chiqarmoq; 2. tushunmoq, anglamoq, tushunib yetmoq; fahmlamoq, payqamoq.

file¹ [faɪl] *n* 1. skorosshivatel (ish papkasining turi); 2. hujjatlarni tikib qo'yish; delo (hujjatlar majmui), biror ish, masala yoki shaxsga doir hujjatlar to'plami, shaxsiy delo.

file² [faɪl] *v* qog'ozlarni tikib qo'yimoq; kartotekaga kiritib qo'yimoq.

fill [fɪl] *v* 1. to'ldirmoq, to'lg'izmoq; 2. plombalamoq (tishni).

fill up [ˈfɪlʌp] *phr.v* to'lmoq, to'lib-toshmoq, to'lib ketmoq.

film¹ [fɪlm] *n* 1. kino yoki fotoplyonka; 2. (kino)film.

film² [fɪlm] *v* 1. (kino)filmni suratga olish; 2. (odam haqida) kinoda suratga tushmoq.

filmmaking [ˈfɪlmmeɪkɪŋ] *n* kinofilmni suratga olish, kinofilmlar yaratish.

film star [ˈfɪlmstɑ:] *n* kino yulduzi.

final [ˈfaɪnəl] *a* yakunlovchi, yakuniy, oxirgi, so'nggi, hal qiluvchi, uzil-kesil.

finally [ˈfaɪnəli] *adv* nihoyat, oxiri, axyri; pirovardida, oqibatida, axir.

finance [ˈfɑ:məns] *n* 1. moliyaviy tizim; 2. moliya, mablag'(lar), pul mablag'lari; daromad.

financial [ˈfɑ:nənsɪəl] *a* moliyaga oid, moliyaviy, moliya ...

financially *adv* [ˈfɑ:nənsjəli] mablag'(pul) nuqtayi nazaridan, moliya (mablag', pul) jihatdan.

find [faɪnd] *v* (*pt, pp found*) 1. topmoq, topib olmoq; 2. ochmoq, kashf qilmoq; aniqlamoq; 3. xulosaga (fikrga) kelmoq, ... deb bilmok (hisoblamok, topmoq).

find out [ˈfaɪndaʊt] *phr.v* bilib olmoq.

fine I [faɪn] *a* yaxshi; I'm ~ (OK) men yaxshiman.

fine II¹ [faɪn] *n* jarima.

fine II² [faɪn] *v* jarima solmoq.

fine arts [ˈfainɑːts] *n* nafis sanʼatlar (rassomlik, musiqa va h.k.).

finely [ˈfaɪnli] *adv* **1.** goʻzallik (noziklik, nafosat) bilan, chiroyli qilib; **2.** mayda qilib.

finger [ˈfɪŋgə] *n* barmoq.

finger nail [ˈfɪŋgəneɪl] *n* qoʻl harmogʻidagi tirnoq.

finish¹ [ˈfɪnɪʃ] *n* oxir, yakun, nihoya.

finish² [ˈfɪnɪʃ] *v* **1.** tuga(t)moq, tamom-la(n)moq, tugalla(n)moq, tamom qilmoq, bit(ir)moq, oxiriga yet(kaz)moq, yakun-la(n)moq, tamom boʻlmoq; **2.** (taom haqida) yeb (ichib) boʻlmoq (qoʻymoq), batamom yeb (ichib) bitirmoq; **3.** oʻl-dirmoq, yoʻq qilmoq; juda qattiq char-chatmoq, kuch-quvvatini olmoq, tinkamadorini quritmoq, holdan toydirmoq.

fire¹ [ˈfaɪə] *n* **1.** olov, oʻt; **2.** yongʻin; **3.** pechka.

fire² [ˈfaɪə] *v* **1.** oʻt qoʻymoq, yoqmoq; **2.** oʻt ochmoq, otmoq.

fire brigade [ˈfaɪə brɪˈgeɪd] *n* oʻt oʻchiruvchilar komandasi.

fire service [ˈfaɪəsvɜːsɪs] *n* oʻt oʻchirish xizmati.

fireman [ˈfaɪəmən] *n* (*pl* **firemen**) oʻt oʻchiruvchi.

fireworks [ˈfaɪəwɜːks] *n* mushak, mushakbozlik.

firm I [fɜːm] *n* firma, korxonona.

play² [pleɪ] *v* 1. o'ynamoq; vaqtini chog' qilmoq; shug'ullanmoq; 2. (rol) ijro etmoq, o'ynamoq; (musiqiy asarni) chalmoq; 3. o'zini biror kuyga (holga) solmoq, mug'ambirlik qilmoq; 4. (radio, magnitafon va h.k.larni) yoqmoq, qo'y-moq.

player ['pleɪə] *n* 1. *sport.* o'yinchi, o'yinda qatnashuvchi; 2. (musiqiy asbobni) chaluvchi, musiqachi, sozanda, mashshoq; 3. aktyor.

playground ['pleɪgraʊnd] *n* o'yin maydonchasi (bolalar uchun); sport maydoni (maktabda).

playing card ['pleɪɪŋkɑ:d] *n* o'ynaladigan karta; o'yin kartasi.

pleasant ['pleznt] *a* yoqimli, xush keladigan (yoqadigan), quvontiradigan, xushbo'y; dilrabo, dilbar, juda yaxshi, xo'b, soz; yoqimli, yoqimtoy, istarasi issiq.

pleasantly ['plezntli] *adv* yoqimli, ko'ngilli; dilkashlik bilan; juda yaxshi (soz), yoqimli qilib.

please I [pli:z] *int* iltimos, o'tinch.

please II [pli:z] *v* mamnun (xursand) qilmoq, shod qilmoq; huzur bag'ish-lamoq; **to be ~d** mamnun (xursand, shod) bo'lmoq.

pleased [pli:zd] *a* mamnun, xursand, shod; **to be ~ with oneself** o'z-o'zidan xursand bo'lmoq.

pleasing ['pli:zɪŋ] *a* yoqimli, xush keladigan (yoqadigan), quvontiradigan, xushbo'y; yoqimli, jozihali, jozibador, dilbar, ko'rkam, yoqimtoy, istarasi issiq.

pleasure ['pleʒə] *n* rohat, farog'at, ko'ngil ochish.

plenty ['plenti] *n* mo'l-ko'llik, seroblik, farovonlik, yetarlilik; ~ **of** ko'p, ko'pchilik.

plough [plau] *v* yer haydamoq (ag'dar-moq).

plug [plʌg] *n* 1. tiqin, probka, po'kak; 2. *el.* shtepsel vilkasi.

plum [plʌm] *n* olxo'ri, olxo'ri daraxti yoki mevasi.

plump [plʌmp] *a* semiz, do'mboq, yo'-g'on, to'ladan kelgan.

plural¹ ['plʊərəl] *a* ko'plik.

plural² ['plʊərəl] *n gram.* ko'plik son (shakl).

plus [plʌs] *prep* plus, qo'shuv, qo'shuv alomati.

p.m. [pi:'em] kunduzgi soat 12 dan tunggi 12 gacha bo'lgan vaqt.

pneumonia [nju:'mæniə] *n tib.* zo-tiljam, o'pka yallig'lanishi.

pocket ['pɒkɪt] *n* cho'ntak, kissa, ham-yon.

poem ['pəʊɪm] *n* poema, doston; she'r, she'riy asar.

poet ['pəʊɪt] *n* shoir.

poetic [pəʊ'etɪk] *a* 1. she'riy, she'ri-yatga oid; 2. shoirona, go'zal, nafis, jozibador.

poetry ['pəʊətri] *n* 1. she'riyat; 2. she'r, nazm, she'riy asar.

point I [pɔɪnt] *n* 1. o'tkir uch; uch; nish; 2. o'rin, joy, makon, punkt, nuqta; 3. nuqta; 4. (o'lchov asboblarida) bo'lin-ma, daraja; (shkalada) daraja nuqtasi; 5. masala; 6. ma'no, mazmun, mohiyat; 7. maqsad, niyat, muddao; 8. *sport.* ochko, ball; 9. jihat, tomon, taraf; – **of view** nuqtayi nazar, qarash.

point II [pɔɪnt] *v* 1. (~ **at, to**) (qo'l bilan) ko'rsatmoq, ishora qilmoq; 2. (~ **at, to-wards**) o'qalmoq, to'g'rilamoq, ko'z-lamoq, nishonga (mo'ljalga) olmoq.

point out ['pɔɪnt'aʊt] *phr.v* 1. ko'r-satmoq, ko'rsatib bermoq; 2. ta'kidlab o'tmoq, ta'kidlamoq, uqtirib o'tmoq; ajratib ko'rsatmoq (belgilamoq).

pointed ['pɔɪntɪd] *a* 1. uchi o'tkir,

cho'qqili, uchli, nayzador; 2. tanqid ko'-zi bilan qaraydigan, tanqidiy yonda-shadigan, tanqidiy, o'tkir, achchiq, ki-noyali.

poison¹ ['pɔɪzn] *n* zahar, og'u.

poison² ['pɔɪzn] *v* zaharlamoq; zahar bermoq, zaharlantirmoq.

poisonous ['pɔɪzənəs] *a* zaharli, og'uli.

polar ['pəʊlə] *a* qutbga oid, qutbiy; – **bear** qutb (oq) ayig'i.

pole [pəʊl] *n* 1. qutb; 2. ustun, xoda, uzun tayoq.

police [pə'li:s] *n* politsiya.

policeman [pə'li:smən] *n* (*pl* **police-men**) politsiya xodimi, politsiyachi.

police station [pə'li:s'steɪʃn] *n* politsiya mahkamasi.

policy ['pɒləsi] *n* (*pl* **policies**) 1. si-yosat; 2. kimsaning ish-harakat uslubi; 3. ustamonlik, nayrang; o'ylab (aql bilan) ish qilish.

polio ['pəʊliəʊ] *n tib.* poliomiylit (kasallik).

polish¹ ['pɒlɪʃ] *n* moy, polirovka, sayqal, lak va h.k.

polish² ['pɒlɪʃ] *v* sayqallamoq, sayqal hermoq, polirovka qilmoq, pardoz ber-moq.

polite [pə'laɪt] *a* xushmuomala, odobli, muloyim, silliq, hoadat, adabli; iltifotli, nazokatli; shirin so'z; muomalali, sermu-lozamat, sertakalluf.

politely [pə'laɪtli] *adv* adab (xushmuo-malalik) bilan, muloyim, boadabona; iltifot bilan, nazokat (muloyimlik) bilan, lutfan; sermulozamatlik (sertakalluflik) bilan.

politeness [pə'laɪtnəs] *n* xushmuo-malalik, muloyimlik, boadablik; navozish, adab, nazokat, iltifot, marhamat; sermu-lozamatlik, sertakalluflik.

political [pə'litɪkəl] *a* siyosiy, siyosatga oid, siyosiy tuzum bilan bog'liq bo'lgan.

politically [pə'litɪkəli] *adv* 1. siyosiy

jihatdan; siyosat *yoki* davlat nuqtayi nazaridan; **2.** reja (ehtiyotkorlik, tadbirkorlik) bilan, puxta o'ylab, chuqur mulohaza qilib, andisha (mulohaza) bilan.

politician [pɒlɪtʃɪn] *n* siyosatchi, siyosatdon; siyosiy arbob.

politics [ˈpɒlɪtɪks] *n* **1.** siyosat (**1.** davlat hokimiyatining va partiyaning faoliyati; **2.** ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalar; **3.** kimsaning ish-harakat uslubi); **4.** siyosiy qarashlar, siyosiy maslak.

pollution [pəˈluːʃn] *n* ifloslanish, zaharlanish.

polyester [ˈpɒliɛstə] *n* poliyester.

pomegranate [ˈpɒmɡrænɪt] *n* anor, anor daraxti *yoki* mevasi.

pond [pɒnd] *n* hovuz.

pony [ˈpəʊni] *n* (*pl ponies*) poni (toti, to'pichoq) ot (bichimi kichik, pastak ot).

pool [puːl] *n* havza.

poor [pɔː; puə] *a* **1.** (odam haqida) kambag'al, qashshoq, nochor, bechorahol, faqir; (hosil, ovqat va sh.k. haqida) juda oz (past, kam, nochor); **2.** yomon, sifati past, bo'lmag'ur; **3.** achinarli, ayanchli, kishini achintiradigan, nochor, zaif.

pop [pɒp] *n* *mus.* mashhur musiqa; „pop“ stili; ~ **concert** pop konsert.

popular [ˈpɒpjʊlə] *a* **1.** xalqqa (xalq ommasiga) oid (mansub); ommaviy, xalq ...; **2.** mashhur, taniqli, dongdor, dongi chiqqan; **3.** keng tarqalgan (yoyilgan), ham-maga tarqalgan.

population [ˌpɒpjʊleɪʃn] *n* **1.** aholi, xalq; istiqomat qiluvchi; **2.** *biol.* populatsiya (ko'payish).

porcelain [ˈpɔːslɪn] *n* chinni, forfor; chinni buyum.

porch [pɔːtʃ] *n* ayvon, dahliz.

pork [pɔːk] *n* cho'chqa go'shti.

porridge [ˈpɔːrɪdʒ] *n* kasha, bo'tqa.

port [pɔːt] *n* **1.** port, bandargoh, qo'nalg'a; **2.** port shahar, port.

portrait [ˈpɔːtrɪt] *n* portret, surat, kartina.

position [pəˈzɪʃn] *n* **1.** turgan joyi, o'rni; **2.** vaziyat, ahvol, holat; **3.** ish, vazifa, lavozim, mansab, amal; **4.** kishining jamiyatdagi o'rni, vaziyati.

positive [ˈpɒzɪtɪv] *a* **1.** musbat; **2.** ijobiy; **3.** (odam haqida) dadil, qat'iy, keskin.

possession [pəˈzeɪʃn] *n* mulk, mol-mulk, egalik, bisot.

possessive [pəˈzesɪv] *a* **1.** qizg'anchiq; **2.** *gram.* egalik; ~ **case** egalik kelishigi.

possibility [ˌpɒsɪˈbɪlɪti] *n* imkon, imkoniyat, mumkinlik, ehtimollik, yuz berishi (bo'lishi) mumkinlik, iloj, yo'l.

possible [ˈpɒsɪbl] *a* imkoni bor, bo'lishi mumkin; amalga oshirsa bo'ladigan, ro'yobga chiqadigan; yuz berishi mumkin bo'lgan, bo'lishi ehtimol tutilgan; **to make smth.** ~ biror narsani haqiqatga aylantirmoq (ushaltirmoq, ro'yobga chiqarmoq).

possibly [ˈpɒsəblɪ] *adv* **1.** mumkin qadar, iloji (imkoni) boricha; **2.** ehtimol, balki, obbaholam.

post [pəʊst] *n* pochta.

postage [ˈpəʊstɪdʒ] *n* pochta to'lovi, jo'natish haqi; pochta xarajatlari.

post box [ˈpəʊst bɒks] *n* pochta qutisi.

postcard [ˈpəʊstkɑːd] *n* ochiq xat, pochta otkritkasi.

postcode [ˈpəʊskəʊd] *n* pochta indeksi.

poster [ˈpəʊstə] *n* e'lon, plakat, afisha (tomosha, leksiya va sh.k. haqidagi e'lon).

postman [ˈpəʊstmən] *n* (*pl postmen*) xat tashuvchi, pochtagchi (erkak).

post office [ˈpəʊst ɒfɪs] *n* pochta, aloqa bo'limi.

postwoman [ˈpəʊstwʊmən] *n* (*pl postwomen*) xat tashuvchi, pochtagchi (ayol).

pot [pɒt] *n* tuvak; idish, kastrulka.

potato [pəˈteɪtəʊ] *n* (*pl potatoes*) kartoshka.

potential [pə'tenʃl] *n* salohiyat, imkoniyat, kuch-qudrat.

poultry ['pəʊltri] *n* uy parrandasi, xonaki qush.

poultry-farming [pəʊltri 'fɑ:mɪŋ] *n* parrandachilik, qushchilik.

pound (£) [paʊnd] *n* funt sterling (Angliya pul birligi).

pour [pɔ:] *v* quy(il)moq, to'k(il)moq.

powder [paʊdə] *n* 1. kukun; 2. porox; 3. upa, upa-ilik.

power [paʊə] *n* 1. kuch, qudrat, quvvat; 2. hokimiyat; 3. *el.* tok.

powerful [paʊəfʊl] *a* 1. kuchli, quvvatli, qudratli; 2. azim, ulkan, zo'r; 3. qattiq ta'sir qiladigan, kuchli, katta quvvatga ega bo'lgan.

practical [præktɪkl] *a* 1. amaliyotga oid; amaliy, amaldagi, amalda (turmushda) bo'ladigan; 2. omilkor, ishbilarmon, tajribakor, tajribali, mohir, usta; 3. maqsadga muvofiq, ma'qul, maqbul, foydali, qulay.

practice [præktɪs] *n* 1. amaliyot; *in* ~ amaliyotda, aslida; 2. mashq, mashg'ulot; mashq qilish; malaka, ko'nikma, mahorat.

practise [præktɪs] *v* 1. mashq qilmoq, o'rganmoq, chiniqmoq, amalda ishlat(il)moq, qo'lla(n)moq, tatbiq qil(in)moq; 2. amaliyotda qo'llamoq, amalga oshirmoq, ro'yobga (yuzaga) chiqarmoq; 3. (shifokor va yuristning ishxonadan tashqari ish faoliyati, shu faoliyat doirasidagi kasb-kori haqida) hiror ish, faoliyat (xizmat) bilan shug'ullanmoq.

praise¹ [preɪz] *n* 1. maqtov; 2. maqtov, vasf, tasanno, madh; hamdu sano; **to sing the ~s of** madhiya o'qimoq, ko'klarga ko'tarib maqtamoq.

praise² [preɪz] *v* 1. maqtamoq, tasanno o'qimoq, madh etmoq; 2. ko'klarga ko'tarmoq, maqtamoq, madh etmoq, taran-

num qilmoq, shuhratini (nomini, dongini) olamga yoymoq.

pray [preɪ] *v* 1. ibodat qilmoq, sig'inmoq, duo qilmoq; cho'qinmoq; sajda qilmoq; 2. o'tinib (yolvorib) so'ramoq; iltimos qilmoq, o'tinmoq.

prayer [preɪə] *n* 1. ibodat qilish, namoz o'qish, sig'inish; ibodat, namoz, duo; 2. iltijo, o'tinch, yolvorish; o'tinib (yolvorib, xudoning zorini qilib) so'rash.

precious [preʃəs] *a* 1. qimmatbaho, qimmatli; ~ stones qimmatbaho toshlar; 2. qadri, qadrdon, qimmatli, aziz, sevikli, sevilgan.

predict [prɪ'dɪkt] *v* oldindan aytmoq, bashorat qilmoq.

prediction [prɪ'dɪkʃn] *n* bashorat, ka-romat; oldindan aytish.

prefer [prɪfə:] *v* afzal ko'rmoq, ortiq deb bilmoq, yaxshiroq deb bilmoq, ma'qul ko'rmoq.

preference [prefrəns] *n* afzal ko'rish, ortiq (afzal) deb bilish.

pregnancy [pregnənsi] *n* (*pl* *pregnancies*) homiladorlik, bo'g'ozlik, ikkiqatlik.

pregnant [pregnənt] *a* 1. homilador, bo'yida bor; bo'g'oz, ikkiqat; 2. (oqibatlar va sh.k.) -ga olib boradigan, keltirib chiqaradigan.

preparation [prepe'reɪʃn] *n* tayyorgarlik, tayyorlanish darajasi.

prepare [prɪ'peə] *v* 1. tayyorla(n)moq, hozirla(n)moq, tayyorlanib (tayyor, taxt bo'lib) turmoq, tayyorgarlik (hozirlik) ko'rib turmoq; 2. pishirmoq, tayyorlamoq, pishirib (tayyorlab) qo'yimoq; qilmoq, bajarmoq; tuzmoq.

prepared [prɪ'peəd] *a* tayyorlangan, tayyorgarlik (hozirlik) ko'rgan, tayyor, hozir, shay; tayyorlangan, tayyor (hozir, shay) qilib qo'yilgan; **to be** ~ tayyor bo'lmoq, (biror narsa) qila olmoq.

preposition [pre'pəzɪʃn] *n* gram. predlog.

tʃ chin / θ thin / ð the / ʃ she / ʒ usual / h he / m me / n not / ŋ king / l lip / r rat / j yet / w we

pre-school [prɪ'sku:l] *a* maktabgacha, maktab yoshigacha bo'lgan.

presence ['preznz] *n* hozir bo'lish, bor bo'lish, qatnashish, ishtirok qilish, ishtirok; **in the - of smb.** biror kimsaning ishtirokida; **- of mind** o'zini yo'qotmaslik, o'zini dadil tuta bilish.

present I ['preznt] *a* qatnashayotgan, ishtirok etayotgan, bor bo'lgan.

present II ['preznt] *n* 1. hozir, ayni payt; 2. sovg'a, tuhfa, tortiq, hadya, in'om; **to make/to give a ~ of smth. to smb.** kimgadir biror narsani sovg'a (tortiq, tuhfa, hadya) qilmoq.

present IP ['preznt] *v* 1. taqdim qilmoq, tortiq (hadya, sovg'a) qilmoq, bermoq; 2. tanishtirmoq; 3. yetkazmoq, topshirmoq, qo'liga bermoq, ko'rib chiqish uchun topshirmoq; 4. *teatr.* (spektakl) namoyish qilmoq, ko'rsatmoq, qo'ymoq.

presentation [prezn'teɪʃn] *n* taqdimot, tanishtirish.

preserve [prɪ'zɜ:v] *v* 1. saqlamoq, asramoq, ehtiyot qilmoq; 2. (meva, sabzavotlarni) saqlamoq, konservalamoq, konserva qilmoq.

president ['prezɪdnt] *n* 1. prezident, davlat rahbari; 2. prezident, korxonada, tashkilot va sh.k. larning rahbari.

press¹ I [pres] *n* 1. siqish, qisish; 2. olomon, betartib yig'in; 3. shoshish, shoshilish, shoshma-shosharlik; 4. *tex.* press, iskanja, taxtakach; 5. bosma (bosadigan) stanok, mashina; 6. (ko'ylaklar haqida) dazmollash, dazmol bosish; 7. matbuot; matbuot vakillari.

press² [pres] *v* 1. qismoq, siqmoq, qisib (siqib) qo'ymoq, bosmoq, ezmoq, ezib (siqib) suvini (sharbatini) olmoq; 2. presslammoq, iskanjalamoq, taxtakachlammoq; 3. shoshilmoq, shoshilinch bo'lmoq, kechiktirib bo'lmaslik; **time is -ing** vaqt yo'q, shoshilish kerak; **to be -ed for time** oz vaqti qolmoq, shoshilmoq,

shoshmoq, oshiqmoq; 4. (~ to) siqmoq, qismoq, bosmoq; **to ~ smb. to one's breast** kimnidir bag'riga bosmoq; 5. dazmollamoq, tekislatmoq, dazmol bosmoq.

pressure ['preʃə] *n* 1. bosim; 2. tayziq, qistov, siqiq, siquv; ta'sir; 3. og'ir (mushkul) ahvol.

pretend [prɪ'tend] *n* mug'ambirlik qilmoq, o'zini biror holatga solmoq.

pretty I ['prɪti] *a* (ayol, bolaga nisbatan) dilrabo, dilbar, yoqimli, jozibali, jozibador, ko'rkam, istarasi issiq; yaxshigina, chiroylikkina.

pretty II ['prɪti] *adv* xiyla, ancha, anchagina, yetarli darajada; ko'p, bisyor, talay; ancha-muncha.

prevent [prɪ'vent] *v* oldini olmoq, ehtiyot chorasini ko'rmoq.

previous ['pri:vɪəs] *a* 1. bundan oldingi, avval (burun)gi, o'tgan; 2. bevaqt, bemahal, vaqtidan ilgari, barvaqt; **- to ...gacha, ...dan oldin** (avval, ilgari).

previously ['pri:vɪəsli] *adv* biror narsadan oldin, oldindan, avvaldan, ilgariroq; dastavval, dastlab, avval, oldin; **- to ...gacha, ...dan oldin** (avval, ilgari).

price [praɪs] *n* narx, narx-navo, baho, qiymat; **- cut** narx kamayishi.

pride [praɪd] *n* 1. faxr, iftixor, g'urur; 2. o'z qadriini his qilish; 3. kibr-havo, kibr, g'urur, dimog'dorlik, kekkayish, gerdayish, kolondimog'lik; 4. faxrlanish, mag'rurlanish timsoli.

priest ['pri:st] *n* ruhoniy.

primary [praɪməri] *a* 1. birlamchi, eng ahamiyatli, eng zarur; asosiy, eng muhim; 2. boshlang'ich, dastlabki, ilk, ibtidoiy; **~ school** boshlang'ich maktab (*Br*).

prime [praɪm] *a* 1. eng muhim, asosiy, bosh; 2. a'lo darajadagi, ajoyib, eng yaxshi.

prince [prɪns] *n* shahzoda.

princess [prɪn'ses] *n* malika.

principal [ˈprɪnsəpl] *n* maktab direktori; universitet rektori.

principle [ˈprɪnsəpl] *n* asosiy qonun, qoida.

print¹ [prɪnt] *n* **1.** iz, asar, qoldiq, nishon, tamg'a; **2.** shrift, bosma harf; **small** ~ kichik (mayda) shrift; **3.** (fotosuratda) iz, asar; **in** - a) nashrdan chiqqan (chop etilgan) va sotuvda bo'lgan; b) chop etigan (nashr etilgan) ko'rinishda; **out of** - sotib bo'lingan, sotilib ketgan (chop etilgan nashr haqida).

print² [prɪnt] *v* **1.** bosmoq, bosib chiqarmoq, chop qilmoq; **2.** nashr qilmoq, bosmoq, matbuotda bosib chiqarmoq; **3.** bosma harflarda yozmoq; **4.** tasvirlamoq, aks ettirmoq, iz (asar) qoldirmoq.

printing [ˈprɪntɪŋ] *n* bosish, bosib chiqarish, chop etish, nashr qilish.

printer [ˈprɪntə] *n* **1.** matbaachi, bosmaxona ishchisi; **2.** chop etuvchi qurilma, printer.

prior [ˈpraɪə] *a* oldingi, ilgari, oldin sodir bo'l(adi)gan.

prison [ˈprɪzn] *n* qamoq, qamoqxona.

prisoner [ˈprɪznə] *n* **1.** maxbus; **2.** asir, tutqun.

private [ˈpraɪvət] *a* **1.** xususiy; shaxsiy; **2.** norasmiy.

private school [ˈpraɪvət 'sku:l] *n* xususiy maktab (AQShda); davlat qaramog'idagi maktab (Britaniyada).

privately [ˈpraɪvətli] *adv* yolg'iz, yakka, alohida.

privilege [ˈprɪvəlɪdʒ] *n* imtiyoz, yengillik; ustunlik, ortqlik, afzallik.

privileged [ˈprɪvəlɪdʒd] *a* imtiyozli, imtiyozga ega bo'lgan, yengillik beradigan.

prize [praɪz] *n* mukofot, qo'shimcha haq, sovrin.

probability [ˌprɒbəbɪləti] *n* (*pl probabilities*) ehtimollik, yuz berishi (bo'lishi)

mumkinlik, ehtimol; **in all** ~ ehtimol (ajab emas) shunday bo'lsa, shunday chiqar, shunday bo'lsa kerak, ehtimol.

probable [ˈprɒbəbl] *a* ehtimol, yuz berishi (bo'lishi) mumkin bo'lgan, bo'lishi ehtimol tutilgan; bo'lishi (kutilishi, yo'l qo'yilishi) mumkin, joiz.

probably [ˈprɒbəbli] *adv* ehtimol, balki, aftidan, ...sa kerak.

problem [ˈprɒbləm] *n* **1.** muammo (hal qilinishi lozim bo'lgan jiddiy masala), chigal masala, mushkul vaziyat, og'ir ahvol; **2.** masala.

procedure [prəˈsi:dʒə] *n* bajariladigan ish tartibi, jarayoni.

process I [ˈprəuses] *n* jarayon.

process II [ˈprəuses] *v* ishlov bermoq.

produce [prəˈdju:s] *v* chiqarmoq, ishlab chiqarmoq; yetishtirmoq, tayyorlamoq, yasamoq.

producer [prəˈdju:sə] *n* **1.** ishlab chiqaruvchi; **2.** produsser, mahsulotchi.

product [ˈprɒdʌkt] *n* mahsulot, mahsul, buyum, mol, fabrika mahsulotlari.

production [prəˈdʌkʃn] *n* **1.** ishlab chiqarish, yetishtirish; **2.** mahsulot.

productive [prəˈdʌktɪv] *a* unumli, natija beradigan, serhosil, hosildor.

productively [ˌprɒdʌktɪvli] *adv* samaradorlik bilan, unumli ravishda.

productivity [ˌprɒdʌktɪvɪti] *n* samaradorlik, unumdorlik, serhoslilik, hosildorlik.

profession [prəˈfeʃn] *n* kasb, hunar.

professional¹ [prəˈfeʃnəl] *a* **1.** yuqori malakali, professional; **2.** kasb qilib olgan.

professional² [prəˈfeʃnəl] *n* professional, o'z kasbining mohir ustasi.

profile [ˈprəʊfaɪl] *n* **1.** yon tomondan ko'rinish; yondan ko'rinish; **2.** qisqacha biografik ocherk.

profit [ˈprɒfɪt] *n* **1.** foyda, daromad; **to make a** - foyda qilmoq (olmoq); **2.** naf, foyda, bahra, manfaat.

program¹ [ˈprəʊgræm] *n* 1. elektron hisoblash mashinasi (kompyuter) dasturi; 2. *AE* dastur (konsert, tomosha va sh.k. uchun); 3. *AE* reja, sxema, jadval, kun tartibi.

program² [ˈprəʊgræm] *v* 1. dasturlashtirmoq, elektron hisoblash mashinasi (kompyuter) uchun dastur tuzmoq; 2. *AE* rejalashtirmoq, rejasini tuzmoq.

programme¹ [ˈprəʊgræm] *n* (*AE program*) 1. dastur (konsert, tomosha va sh.k. lar uchun); 2. jadval, reja, kun tartibi.

programme² [ˈprəʊgræm] *v* (*AE program*) rejalashtirmoq, rejasini tuzmoq.

programmer [ˈprəʊgræmə] *n* elektron hisoblash mashinasi (kompyuter) dasturchisi; dasturchi.

progress [ˈprəʊgres] *n* 1. oldinga siljish; 2. o'sish, rivojlanish, yuksalish.

progressive [ˈprəʊgresɪv] *a* ilg'or, taraqqiy etayotgan, taraqqiyparvar, tobora o'sib (ko'payib) boradigan.

project [ˈprɒdʒekt] *n* 1. loyiha, reja; 2. yangi qurilish; qurilish obyekti.

promise [ˈprɒmɪs] *n* 1. va'da, so'z, ahd; 2. perspektiva, istiqbol, kelajak.

promise [ˈprɒmɪs] *v* 1. va'da (so'z) bermoq, va'da qilmoq; 2. darak bermoq, xabar bermoq; ...gan (...gandek) ko'rinmoq.

promising [ˈprɒmɪsɪŋ] *a* kelajagi porloq, istiqbolli.

promote [prəˈmɔ:t] *v* 1. mavqeni (martabani) ko'tarmoq, yuqori lavozimga ko'tarmoq; 2. yordam (ko'mak, madad)lashmoq, rag'batlantirmoq, qiziqtirmoq, taqdirlamoq, qo'llab-quvvatlamoq.

promotion [prəˈmɔ:ʃn] *n* 1. xizmatda (yuqori lavozimga) ko'tarilish, martabasi (mavqeyi) ko'tarilish; 2. ko'maklashish, yordam berish; yordam, madad, dalda; mukofot.

prompt [prɒmpt] *v* pichirlab aytib turmoq, shipshitmoq, suflorlik qilmoq.

prompter [ˈprɒmptə] *n* aytib turuvchi, suflor.

pronoun [ˈprəʊnaʊn] *n* gram. olmosh.

pronounce [prəˈnaʊns] *v* 1. talaffuz qilmoq, aytmoq; 2. (rasman) e'lon qilmoq, hammaga bildirmoq, ma'lum qilmoq; 3. o'z fikrini bayon qilmoq, mulohaza bildirmoq, gapirmoq.

pronunciation [prəˈnʌnsiˈeɪʃn] *n* talaffuz, talaffuz qilish.

proof [pru:f] *n* isbot, dalil.

properly [ˈprɒpəli] *adv* 1. tuzukroq, yaxshiroq, soz, tegishlicha, to'g'ri, bexato; 2. yaxshilab, ishonarli ravishda, puxta.

property [ˈprɒpəti] *n* (*pl* *properties*) 1. mulk, mol-mulk; 2. yer-mulk, yer uchastkasi; 3. xususiyat, xossa, xislat.

proportion [prəˈpɔ:ʃn] *n* proporsiya, mutanosiblik, nisbat.

proportional [prəˈpɔ:ʃənl] *a* teng hajmli, mutanosib.

proposal [prəˈpəʊzəl] *n* 1. taklif, taqdim; loyiha, reja, taxminiy reja, taxmin, chama; 2. oila qurishni (o'z nikohiga o'tishni) taklif qilish.

propose [prəˈpəʊz] *v* 1. taklif qilmoq, taqdim qilmoq; 2. o'z nikohiga o'tishni (o'ziga xotin bo'lishni) taklif qilmoq; 3. ko'zlamoq, niyat qilmoq; mo'ljalldamoq, taxmin qilmoq.

prosperity [prəˈspɛrɪti] *n* istiqbol, kelajak, tole.

prostitute¹ [ˈprɒstɪtju:t] *n* fohisha, buzuq, g'ar.

prostitute² [ˈprɒstɪtju:t] *v* fohishalik (buzuqlik, g'arlik) bilan shug'ullanmoq, fohishalik qilmoq.

prostitution [prɒstɪtju:ʃn] *n* fohishalik, buzuqlik, g'arlik.

protect [prəˈtekt] *v* saqlamoq, himoya (muhofaza) qilmoq, asramoq, qo'riqlamoq.

protection [prəˈtektʃn] *n* himoya; himoya qilish.

protective [prə'tektɪv] *a* himoya (mudofaa) qiladigan, saqlaydigan; pana (ixota) qiladigan, panalovchi; saqlaydigan, ehtiyot qiladigan, saqlovchi, saqlagich; saqlash..., ehtiyot (qilish)...

protein [ˈprəʊtɪn] *n* protein, oqsil.

protest¹ [ˈprəʊtɛst] *n* qat'iy norozilik, norozilik, qarshilik, e'tiroz.

protest² [prə'test] *v* **1.** e'tiroz (qarshi fikr, norozilik) bildirmoq, qarshilik qilmoq (ko'rsatmoq, chiqmoq), so'z qaytarmoq; **2.** jiddiy da'vo (iddao) qilmoq, da'vogar bo'lmoq, isbot qilib gapirmoq, gapirib tasdiqlamoq.

proud [praʊd] *a* **1.** mag'rur, g'ururli, faxrlangan; **2.** manman, dimog'dor, takabbur, kekkaygan, kiborli, gerdaygan; **to be - of smth.** biror narsadan faxrlanmoq (iftixor qilmoq), mag'rurlanmoq (kibrilanmoq, gerdaymoq, kerilmoq).

proudly [ˈpraʊdli] *adv* g'urur (iftixor, viqor) hilan, faxrlanib; mag'rur, mag'rurona, ko'krakni kerib; ulug'vor, ulug'vorlik (mahobat, viqor) bilan, savlat to'kib.

prove [pru:v] *v* isbotlamoq, isbotlab bermoq.

proverb [ˈprɒvɜ:b] *n* maqol.

provide [prə'vaɪd] *v* **1.** ta'minlamoq, ta'min qilmoq; yetkazib bermoq; taqdim qilmoq, havola qilmoq; **2.** ko'zda (nazarda) tutmoq, mo'ljallamoq.

provided [prə'vaɪdɪd] *ej* (tez-tez: ~ **that**) agar, agarda, hordi-yu, modomiki, basharti, mabodo.

P.S. [pi:'es] = **post scriptum** xatdan keyin yoziladigan qo'shimcha yozuv.

psychological [ˌsaɪkə'lɒdʒɪkəl] *a* psixologik, ruhiy.

pterosaur [ˈptɛrəʊsɔːr] *n* zool. pterozavr.

pub [pʌb] *n* pivoxona; gazaxona, yemakxona.

public¹ [ˈpʌblɪk] *a* jamoaga oid, jamoa..., jamiyat..., ijtimoiy...; ~ **opinion** jamoat

fikri; ~ **school** davlat qaramog'idagi maktab (AQShda); xususiy maktab (Britaniyada).

public² [ˈpʌblɪk] *n* **1.** xalq, jamoat, jamoatchilik, xaloyiq; **2.** omma.

publication [ˌpʌblɪkeɪʃn] *n* **1.** nashr qilish, bosib chiqarish; **2.** nashr, bosib chiqarilgan asar.

publicly [ˈpʌblɪkli] *adv* **1.** xaloyiq (jamoat, omma) oldida; yashir(in)masdan, ochiq, ochiqchasiq, ochiqdan-ochiq, oshkora suratda (ravishda); butun xalq bir (hamjihat) bo'lib; **2.** (barcha) odamlar, jamiyat tomonidan; **3.** odamlar (jamiyat, hukumat, davlat) nomidan.

publish [ˈpʌblɪʃ] *v* bosib chiqarmoq, nashr qilmoq, matbuotda e'lon qilmoq; ommalashtirmoq.

publisher [ˈpʌblɪʃə] *n* nashriyot, noshir.

pudding [ˈpuːdɪŋ] *n* pudding.

puffy [ˈpʌfi] *a* semiz, yo'g'on, to'ladan kelgan.

pull¹ [pʊl] *n* sudrash, yetaklash, tortish.

pull² [pʊl] *v* tortmoq, sudramoq.

pullover [ˈpʊləʊvə] *n* pullover, sviter.

pump¹ [pʌmp] *n* nasos, suv-nasos, havonasos.

pump² [pʌmp] *v* bosmoq, dam bermoq, nasos bilan tortmoq.

pumpkin [ˈpʌmpkɪn] *n* oshqovoq, kadi.

punctuation [ˌpʌŋktʃu'eɪʃn] *n* punktatsiya (tinish belgilarini qo'yish tizimi).

punish [ˈpʌnɪʃ] *v* jazolamoq, jazo bermoq.

punishment [ˈpʌnɪʃmənt] *n* jazo.

punt [pʌnt] *n* tagi tekis ensiz qayiq.

pupil [ˈpju:pəl] *n* **1.** o'quvchi; **2.** tarbiyalanuvchi; **3.** anat. ko'z gavhari, qorachig'i.

puppet [ˈpʌpɪt] *n* qo'g'irchoq (teatr uchun).

puppy [ˈpʌpi] *n* (**pl** *puppies*) kuchukcha, kuchuk bolasi.

purchase [ˈpɜ:tʃɪz] *v* xarid qilmoq, sotib olmoq.

tʃ chin /θ thin /ð the /ʃ she /ʒ usual /h he /m me /n not /ŋ king /l lip /r rat /j yet /w we

pure [pjʊə] *a* **1.** toza; sof; **2.** zoti toza.

purity [pjʊərti] *n* tozalik, poklik.

purple [pɜːpl] *a* qizil, qip-qizil, arg'uvon, to'q qizil, qirmizi; binafsha rang, gunafsha rang.

purplish [pɜːplɪʃ] *a* **1.** qizil (qip-qizil, arg'uvon) rangga o'xshash, och qizil; **2.** binafsha (gunafsha) rangga *yoki* nafarmon rangga moyil.

purpose [pɜːpəs] *n* maqsad, muddao, murod, niyat; **on** - atayin, ataylab, jo'rt-taga, qasddan.

purse [pɜːs] *n* hamyon.

push¹ [pʊʃ] *n* **1.** surish, itarish; **2.** *harb.* hujum; **3.** (ishdan) ho'sha(ti)sh, bo'shatilish; **to give smb. the ~** kimnidir ishdan bo'shatmoq.

push² [pʊʃ] *v* **1.** surmoq, itarmoq; **2.** itarib-turib (turtib-surtib) o'tmoq; tiqilib (suqilib) o'tmoq; **3.** biror ishning ketishini tezlashtirmoq (siljitmoq).

put [put] *v* (pt, pp **put**) **1.** qo'yimoq, solmoq, joylamoq, yotqizmoq; **2.** (biror holatga) keltirmoq, solmoq, qo'yimoq; **3.** ifodalamoq, aytmoq, ta'riflamoq, bayon qilmoq; **4.** yozmoq, yozib olmoq (qo'yimoq), qayd qilmoq; kiritib (qo'shib) qo'yimoq.

put back [putbæk] *phr.v* **1.** qaytarib o'z joyiga qo'yimoq; **2.** (soat millarini) orqaga surmoq; **3.** to'xtatmoq, to'xtatib (tutib, ushlab) qolmoq, to'xtatmoq, to'xtatib (tutib, ushlab) turmoq.

put down [putdaʊn] *phr.v* yozmoq, yozib (qayd qilib) qo'yimoq (olmoq).

put in [putɪn] *phr.v* (...ning ichiga) qo'yimoq.

put on [putɒn] *phr.v* **1.** kiymoq, kiyib olmoq; **2.** (chiroq, gaz, radio) ulamoq, qo'yimoq, yoqmoq, yondirmoq, o't oldirmoq.

put out [putaʊt] *phr.v* **1.** (chiroq, olovni) o'chirmoq; **to ~ a fire** yong'inni o'chirmoq; **2.** yoymoq (qanot, qo'llarni).

puzzle [ˈpʌzl] *n* topishmoq, boshqotirma; **to do ~s** boshqotirma yechmoq.

puzzled [ˈpʌzld] *a* o'yga tolgan, boshi qotgan; chalkashib ketgan.

pyjamas [pɛˈdʒɑːməz] *n* pijama.

pyramid [ˈpɪrəˌmɪd] *n* piramida; ehrom.

Q, q

Q, q [kjuː] ingliz tili alifbosining o'n yettinchi harfi.

quack [kwæk] *v* (g'oz haqida) g'aq-g'aqlamoq.

quail [kweɪl] *n* *zool.* bedana.

qualification [kwɒlɪfɪˈkeɪʃn] *n* malaka; biror narsaga yaroqlilik, mahorat.

qualified [kwɒlɪfaɪd] *a* **1.** munosib, bop, mos, muvofiq, yaroqli, yaraydigan; **2.** yetarli ma'lumotga ega bo'lgan, puxta bilimli, bilimdon; malakali, tajribali; **3.** chegaralangan, cheklangan, to'liq (emas) bo'lmagan.

quality [ˈkwɒləti] *n* **1.** sifat; sort; **2.** fazilat, yaxshi xislat, xususiyat.

quantity [ˈkwɒntəti] *n* son, miqdor.

quarrel¹ [ˈkwɒrəl] *n* janjal, mojaro, nizo, adovat.

quarrel² [ˈkwɒrəl] *v* janjallashmoq, urishmoq.

quarter [ˈkwɔːtə] *a* chorak; **It is a ~ past nine** soat to'qqizdan o'n besh daqiga o'tdi.

quarter to ... [ˈkwɔːtətə] ...dan chorak daqiga o'tdi.

queen [kwiːn] *n* qirolicha.

quest [kwɛst] *n* qidirish, izlash.

question [ˈkwɛstʃn] *n* savol, so'roq; - **mark** so'roq belgisi.

question [ˈkwɛstʃn] *v* savol bermoq, so'roq qilmoq.

questionnaire [ˈkwɛstʃənɛə] *n* savolnoma, anketa.

queue [kjuː] *n* navbat.

queue up [ˈkjuːʌp] *phx.v* navhatda turmoq.

quick [kwɪk] *a* tez, chaqqon, ildam, jadal.

quickly [ˈkwɪkli] *adv* tezlik bilan, chaqqonlik bilan, chaqqon-chaqqon.

quid [kwɪd] *n* 1 funt sterling, 1£.

quiet [ˈkwaɪət] *a* 1. tinch, sokin; sekin, asta, ohista 2. vazmin, beozor, ogʻir; 3. kamtar, kamsuqum, kamtarin.

quietly [ˈkwaɪətli] *adv* shovqin solmasdan, jim, jimgina, ohista, asta, tovuhsiz.

quince [kwɪns] *n* behi.

quintuple [ˈkwɪntjʊpl] *n* xamsa, besh doston.

quite [kwɑɪt] *adv* 1. butunlay, tamoman, toʻla, yetarlicha, mutlaqo, juda, gʻoyat; 2. deyarli, qariyb, ancha, maʼlum darajada; ~ **often** koʻp (aksariyat) hollarda, koʻpincha.

quiz [kwɪz] *n* viktorina (savol-javob oʻyini).

quotation [kwəʊteɪʃən] *n* sitata; ~ **marks** qoʻshtirnoq.

R, r

R, r [ɑː] ingliz tili alifbosining oʻn sakkizinchi harfi.

rabbit [ˈræbɪt] *n* tovushqon, quyon.

race [reɪs] *n* 1. yugurish musobaqasi, poyga, kimoʻzar, kimoʻzdi; bellashuv, tortishuv, musobaqa; 2. irq, zot; ~ **horse** chopqir (poygachi, chopagʻon) ot.

race² [reɪs] *v* poygada qatnashmoq (*ot haqida*).

racing [ˈreɪsɪŋ] *n* yugurish musobaqasi.

racket [ˈrækɪt] *n* sport. raketka.

radio [ˈreɪdɪəʊ] *n* (*pl radios*) radio.

radish [ˈrædɪʃ] *n* rediska.

rail I¹ [reɪl] *n* suyanchiq, toʻsiq, panjara.

rail I² [reɪl] *v* panjara bilan oʻrab olmoq.

rail II [reɪl] *v* 1. soʻkishmoq, urishmoq; 2. shikoyat qilmoq.

railroad¹ [ˈreɪlrəʊd] *n* AE temiryoʻli.

railroad² [ˈreɪlrəʊd] *a* temirga oid; temirdan qilingan.

railway [ˈreɪlweɪ] *n* temiryoʻli.

rain¹ [reɪn] *n* yomgʻir.

rain² [reɪn] *v* 1. yomgʻir yogʻmoq; 2. yogʻilmoq, yogʻilib ketmoq.

rainbow [ˈreɪnbəʊ] *v* kamalak.

raincoat [ˈreɪnkəʊt] *n* nam oʻtkazmaydigan plash.

raindrop [ˈreɪndrɒp] *n* yomgʻir tomchisi.

rainfall [ˈreɪnfɔːl] *n* yogʻingarchilik.

raise [reɪz] *v* 1. koʻtarmoq; 2. oshirmoq, orttirmoq, oʻstirmoq; **to** ~ **awareness** tushunib yetishni (anglashni, fahmlashni) rivojlantirmoq, tushunib yetishiga sabab boʻlmoq.

raisin [ˈreɪzn] *n* mayiz.

ran [ræn] *v* *pt* of *run*.

ranch [ˈrɑːntʃ] *n* rancho, ferma.

range¹ [reɪndʒ] *n* 1. soha, doira; 2. qator (*uyalar*); 3. tizma (*togʻ va b.*).

range² [reɪndʒ] *v* 1. qatorga solmoq; 2. tartibga keltirmoq.

rank [ræŋk] *n* martaba, unvon, daraja.

rapid [ˈræpɪd] *a* tez, jadal, ildam; **a** ~ **pulse** tez-tez urish (*puls haqida*); pulsning (tomir urishining) tezlashuvi.

rapidly [ˈræpɪdli] *adv* tezlik bilan, darhol, darrov, tezda.

rare [reə] *a* noyob, kamyob, kamdan-kam.

rarely [ˈreəli] *adv* nodir, kamyob, kamdan-kam uchraydigan, tengi yoʻq.

raspberry [ˈrɑːzbəri] *n* bot. malina.

rat [ræt] *n* zool. kalamush.

rate¹ [reɪt] *n* 1. surʼat, tezlik; 2. baholash; 3. miqdor, marom; 4. daraja, nav, xil, tur.

rate² [reɪt] *v* 1. bahola(n)moq, baho

bermoq; **2.** daraja (nav, xil, tur)larga ajratmoq.

rather [ˈrɔːðə] *adv* **1.** a) (*odatda*: ~ **than**) ...dan ko'ra yaxshiroq, ...ga nisbatan afzalroq; yaxshisi, ma'qulrog'i; afzalroq, a'loroq, yaxshiroq, durustroq; **I would** – men ...ni istar (xohlar) edim; **I'd** – **have a glass of beer** men bir stakan pivo xohlayman; **I would – not (I'd ~ not)** xohlamayman; yo'q, rahmat; (*taklif va sh.k. larni mujmalroq rad etish formulasi*) deyarli, zarur (shart) emas; b) ...dan ko'proq, ko'proq, aksari; to'g'risi, to'g'rirog'i; **it is ~ good than had** bu yomondan ko'ra yaxshiroq; **he ran ~ than walked** to'g'risini aytganda, u yurgandan ko'ra ko'proq yurar edi; **2.** ma'lum darajada, ancha, xila, xilagina; **a ~ cold day** ancha sovuq kun; **3.** a) aksincha, qayta, qaytaga; hech, hech bir, sira, mutlaqo, zinhor; –, **we have won** aksincha, biz yutdik; b) ...ga emas balki, ...ning o'rniga; **to elect a chairman for a year ~ than a term** raisni bir semestrga emas balki bir yilga saylamoq; **4.** bo'lmasachi!; albatta!; turgan gap!; shubhasiz!; **have you been here before? – Rather!** siz bu yerda ilgari bo'lganmisiz? – Albatta!

rating [ˈreɪtɪŋ] *n* baho; reyting.

raw [rɔː] *a* **1.** xom, pishmagan; **2.** xom, ishlanmagan, ishlov berilmagan; ~ **materials** xom ashyo.

ray [reɪ] *n* nur, shu'la, yog'du.

reach [ri:tʃ] *v* **1.** yetib bormoq; yetishmoq, erishmoq; **2.** (~ **for**) qo'lini cho'zmoq, uzalmoq.

react [riːækt] *v* **1.** ta'sirlanmoq; ta'sir qilmoq; **2.** *kim.* reaksiyaga kirishmoq.

reaction I [riːækʃn] *n* ta'sirlanish, sezish (organizmning tashqi ta'sirga javobi).

reaction II [riːækʃn] *n* *siyos.* reaksiya (ijtimoiy taraqqiyotga qattiq qarshilik ko'rsatish va revolutsion harakatni bostirish siyosati).

read [ri:d] *v* (pt, pp **read**) o'qimoq, muতোলা qilmoq.

reader [riːdə] *n* **1.** kitobxon, o'quvchi; **2.** ma'ruzachi.

reading [riːdɪŋ] *n* **1.** o'qish; **2.** bilish, xabardorlik.

ready [redi] *a* tayyor, hozir; **to be ~** tayyor bo'lmoq.

real [riəl] *a* **1.** haqiqiy, chin, chinakam, rostakam; **2.** o'taketgan, borib turgan, g'irt.

realistic [riːəlɪstɪk] *a* amaliy, amaldagi, haqiqiy, chinakam.

reality [riːæləti] *n* (*pl realities*) voqelik, haqiqat, borlik, haqqoniyat, bor narsa, mavjud dalil.

realization [riːələ'zeɪʃn] *n* amalga oshirish, ushalish.

realize [riːəlaɪz] *v* **1.** anglah yetmoq, tushunib yetmoq; **2.** (umid yoki maqsad haqida) amalga osh(ir)moq.

really [riːəli] *adv* rostdan ham, rostdan, chindan, haqiqatan, haqiqatda.

reason [riːzn] *n* **1.** sabab, vaj, bois, bahona; **2.** asos; **3.** aql, fahm, idrok, zehn; aql bilan (o'ylab) ish qilish, mulohazakorlik.

reasonable [riːznəbl] *a* oqilona, o'rta-cha, xolis, ma'qul, yaroqli.

recall [riːkɔːl] *v* eslamoq, xotirlamoq, eslatmoq.

receipt [riːsi:t] *n* kvitansiya.

receive [riːsi:v] *v* **1.** olmoq; **2.** qabul qilmoq.

recent [riːsnt] *a* yaqin kunlardagi, yaqindagi, yaqinda bo'lib o'tgan; yangi paydo bo'lgan (qilingan, ishlangan va h.k.), yangi.

recently [riːsntli] *adv* yaqinda, yaqin kunlarda, shu kunlarda.

reception [riːsepʃn] *n* qabulxona.

recess [riːses] *n* darsda (ishda) tanaffus.

recipe [ˈresɪpi] *n* retsept, tayyorlash usuli.

recipient [rɪ'sɪpiənt] *n* oluvchi, qabul qilib oluvchi.

recognition [ˌrekəɡnɪʃn] *n* 1. tanish, bilish; 2. e'tirof etish, tan olish.

recognize [ˌrekəɡnaɪz] *v* 1. tanimoq; 2. (- as) e'tirof qilmoq, tan olmoq; 3. minnatdorchilik bildirmoq (izhor qilmoq), ijobiy fikr bildirmoq.

recommend [ˌrekəmənd] *v* tavsiya qilmoq, maslahat bermoq.

recommendation [ˌrekəməndɪʃn] *n* tavsiya, maslahat, tavsiyanoma.

reconstruction [ˌri:kən'strʌkʃn] *n* qayta qurish; qayta tiklash.

record¹ [ˈrekɔ:d] *n* sport. rekord.

record² [ˈrekɔ:d] *v* yozib olmoq, qayd qilib qo'yimoq.

recording [ˌrɪkɔ:dɪŋ] *n* yozuv, ovoz yozib olish; ~ studio ovoz yozish studiyasi.

rectangle [ˈrektæŋɡl] *n* to'g'ri burchak.

recycle [ˌri:'saɪkl] *v* qayta ishlamoq, util xom ashyodan boshqa mahsulot ishlab chiqarmoq.

recycled [ˌri:'saɪklɪd] *a* qayta ishlangan, qayta ishlanadigan.

red [red] *a* qizil, alvon, qip-qizil.

Red Crescent [red kresnt] *n* Qizil Yarim Oy Jamiyati.

Red Cross [red 'krɒs] *n* Qizil Xoch Jamiyati.

reddish [ˈredɪʃ] *a* qizg'ish, qizil rangga o'xsash.

redecorate [ˌrɪdekəreɪt] *v* qayta bezamoq, qayta yasatmoq.

redid [ri:'dɪd] *v* *pt* of *redo*.

redo [ri:'du:] *v* (*pt* *redid*; *pp* *redone*) qayta qilmoq, qayta bajarmoq.

redone [ri:'dʌn] *v* *pp* of *redo*.

reduce [rɪ'dju:s] *v* kamaytirmoq, qisqartirmoq, ozaytirmoq.

reduction [rɪ'dʌkʃn] *n* pasaytirish, tushirish, kamaytirish, qisqartirish.

refer [rɪ'fɜ:] *v* 1. (gap orasida) aytib

o'tmoq, tilga olmoq, eslatib o'tmoq; **to ~ to future contact** kelgusidagi aloqa haqida aytib o'tmoq; 2. surishtirmoq, surishtirib ma'lumot to'plamoq; qarab olmoq (qo'yimoq), qarab bilib olmoq; 3. aloqasi (daxli, taalluqli) bo'lmoq, aloqador (daxldor) bo'lmoq.

refill [ri:'fɪl] *v* qayta to'ldirmoq.

reflect [rɪ'flekt] *v* 1. aks et(tir)moq, tasvirlamoq, ifodalamoq; gavdalantirmoq, ko'rsatmoq; 2. o'ylamoq, mulohaza qilmoq.

refreshing [rɪ'freʃɪŋ] *a* 1. tetiklantiradigan, rohatbaxsh; ~ **drink** rohatbaxsh ichimlik; 2. qiziqarli, maroqli.

refrigerator [rɪ'frɪdʒəreɪtə] *n* muzlatgich.

refusal [rɪ'fju:zl] *n* qaytarish, rad etish, rad javobi; voz kechish, kechish; ko'nmaslik, bosh tortish.

refuse¹ [rɪ'fju:z] *n* chiqit, axlat, tashlandiq, chiqindi, supurindi.

refuse² [rɪ'fju:z] *v* rad qilmoq, voz kechmoq.

regeneration [ˌri:dʒənə'reɪʃn] *n* qayta tikla(ni)sh, qayta ishga yaroqli bo'lish.

region [ri:'dʒən] *n* hudud, voha, viloyat.

regional [ri:'dʒənəl] *a* viloyatga oid, viloyat ...; hududiy; mahalliy.

register I [ˈredʒɪstə] *n* (yozish uchun) jurnal.

register II [ˈredʒɪstə] *v* ro'yxat qilmoq, ro'yxatga olmoq.

registered letter [ˌredʒɪstəd 'letə] *n* buyurtmali xat.

registration [ˌredʒɪ'streɪʃn] *n* ro'yxat qilish, ro'yxatdan o'tkazish, ro'yxatga olish.

regular [ˈregjələ] *a* 1. to'g'ri, bir tekis; 2. muntazam; 3. odatdagi, doimiy, har doimgi.

regularly [ˈregjələli] *adv* muntazam, doimiy ravishda, bir maromda (qiyomda).

tʃ chin /θ thin /ð the /ʃ she /ʒ usual /h he /m me /n not /ŋ king /l lip /r rat /j yet /w we

regulation [ˈrɛɡjuːleɪʃn] *n* **1.** tartib, qoida, intizom; **2.** boshqarish, tartibga solish.

rehearse [rɪˈhɜːs] repititsiya qilmoq, mashq qilmoq, tayyorlanmoq.

reign¹ [reɪn] *n* hukm surish, hukmronlik qilish, ustunlik qilish, hukmron (hokim) bo'lish.

reign² [reɪn] *v* hukm surmoq, hukmronlik qilmoq, ustunlik qilmoq, hukmron bo'lmoq.

reindeer [ˈreɪndɪə] *n* *zool.* shimol bugg'usi.

reject [rɪˈdʒekt] *v* rad etmoq, yuz o'girmoq.

relate [rɪˈleɪt] *v* **1.** hikoya so'zlab bermog; **2.** (~ to, with) biror kimsa bilan aloqa o'rnatmoq (bog'lamoq); bog'liq (aloqador) bo'lmoq.

related [rɪˈleɪtɪd] *a* bog'liq, aloqador; taalluqli.

relation [rɪˈleɪʃn] *n* **1.** qarindosh, urug'; **2.** aloqa, munosabat, bog'liqlik, aloqadorlik.

relationship [rɪˈleɪʃnʃɪp] *n* **1.** qarindoshlik, qardoshlik; **2.** aloqa, munosabat, o'zaro bog'lanish.

relative¹ [ˈrɛlətɪv] *n* qarindosh, urug', aymaq, xesh; **a remote** ~ uzoq (urug') qarindosh.

relative² [ˈrɛlətɪv] *a* nisbiy, qiyosiy, o'zaro.

relatively [ˈrɛlətɪvli] *adv* bir qadar, birmuncha; -ga nisbatan, nisbatan, xiyla, ancha; uncha.

relax [rɪˈlæks] *v* bo'shash(tir)moq, susay(tir)moq, yengil tortmoq, taskin topmoq.

relaxed [rɪˈlæksɪd] *a* xotirjam, yumshoq, muloyim.

release [rɪˈliːs] *v* **1.** ozod qilmoq; xalos qilmoq (*qamoqdan*); **2.** yumshatmoq, yengillashtirmoq (*og'riqni, dardni*); **3.** *tex.* ajratmoq, uzib qo'yimoq.

relevant [ˈrɛləvənt] *a* aloqador, ishga oid, taalluqli.

reliable [rɪˈlaɪəbl] *a* ishonchli, ishonarli, ishonsa bo'ladigan.

religion [rɪˈlɪdʒən] *n* din.

religious [rɪˈlɪdʒəs] *a* dinga oid, diniy; ~ **affairs** diniy ishlar; ~ **education** diniy ta'lim.

rely [rɪˈlaɪ] *v* (~ on) suyanmoq, tayanmoq, ishonmoq.

remark¹ [ˈrɪmɑːk] *n* fikr, mulohaza; **to pass a** - o'z fikrini aytmoq.

remark² [ˈrɪmɑːk] *v* ko'rsatib bermog, ko'rmoq, sezmoq.

remarkable [rɪˈmɑːkəbl] *a* **1.** ajoyib, ajablanarli; **2.** mashhur, atoqli, mislsiz, misli ko'rilmagan.

remain [rɪˈmeɪn] *v* qolmoq, biror holatda qolmoq.

remedy [ˈremɪdi] *n* (*pl remedies*) dori, dori-darmon; shifo.

remember [rɪˈmembə] *v* yodda tutmoq, eslamog, xotirada saqlamoq.

remind [rɪˈmaɪnd] *v* eslatmoq, esga solmoq, o'xshamoq, o'xshab ketmoq, o'xshab ko'rinmoq.

remote [rɪˈmɔʊt] *a* uzoq, olis, yiroq; ~ **control** masofadan boshqarish.

removal [rɪˈmuːvəl] *n* **1.** ko'chish (*transport vositasida*); **2.** olib tashlash, yig'ishtirish, yo'q qilish.

remove¹ [rɪˈmuːv] *n* **1.** qadam, bosqich; uzoqlashish darajasi; **at many** ~s uzoq masofada; **2.** o'quvchini keyingi sinfga o'tkazish.

remove² [rɪˈmuːv] *v* **1.** surmoq, surib qo'yimoq, qo'zg'atmoq; **2.** chetlashtirmog; **3.** ayirmog; **4.** olib tashlamog, yo'q qilmoq.

renovate [ˈrenəveɪt] *v* tiklamog, asliga keltirmog, yangilamoq, qayta tiklamog, ta'mir qilmoq.

rent¹ [rent] *n* ijara; ijara haqi.

rent² [rent] *v* ijaraga olmoq (bermog).

repair¹ [rɪ'peə] *n* ta' mir; ta' mirlash; yamash, tuzatish.

repair² [rɪ'peə] *v* **1.** ta' mirlamoq, tuzatmoq, yamamoq; **2.** tuzatmoq, to'g'rilamoq, yaxshilamoq, kam-ko'stini (nuqsonini) yo'qotmoq, noto'g'riliklarni bartaraf qilmoq.

repeat [ri'pi:t] *v* qaytarmoq, takrorlamoq.

repeated [ri'pi:tɪd] *a* takroriy, takrorlangan, takror-takror qilingan.

repeatedly [ri'pi:tɪdli] *adv* bir necha bor, bir necha marta (takror-takror, qayta-qayta).

repetition [rɪpə'tɪʃn] *n* **1.** takrorlash, qaytarish; **2.** qaytariq, takror; **3.** aynan (xuddi) o'zi, o'zginasi.

replace [ri'pleɪs] *v* **1.** o'z joyiga qo'y-moq; **2.** o'rnini egallamoq (olmoq, bosmoq), o'rniga o'tmoq; **3.** ... bilan almashtirmoq (o'zgartirmoq, yangilamoq).

reply¹ [ri'plai] *n* javob.

reply² [ri'plai] *v* javob bermoq (qaytarmoq), javob qilmoq.

report¹ [ri'pɔ:t] *n* **1.** hisobot, xabar, raport, bildirish, bildirishnoma; **2.** reportaj.

report² [ri'pɔ:t] *v* **1.** hisobot topshirmoq, raport bermoq; **2.** (gazeta, radio va televizorda) xabar bermoq; bayonot bermoq; **3.** shikoyat qilmoq.

reported sentence [ri'pɔ:tɪd 'sentəns] *n* o'zlashtirma gap.

reported speech [ri'pɔ:tɪd 'spi:tʃ] *n* o'zlashtirma nutq.

reporter [ri'pɔ:tə] *n* muxbir, reportyor.

represent [reprɪ'zent] *v* **1.** ifodalamoq, ifoda etmoq; aks ettirmoq, bildirmoq; **2.** vakil bo'lmoq, vakil bo'lib qatnashmoq.

representation [reprɪzən'teɪʃn] *n* va-killik; vaqolatxona.

representative [reprɪzəntətɪv] *n* vakil; namoyanda.

reproduce [ri:prə'dju:s] *v* nusxasini yaratmoq.

reptile [rɛptal] *n* *zool.* sudralib yoki o'rmlab yuradigan hayvon.

republic [rɪ'pʌblɪk] *n* respublika; jumhuriyat.

republican [rɪ'pʌblɪkən] *a* respublikaga oid, respublika ...

reputation [rɛpju'teɪʃn] *n* obro', e'tibor, shuhrat, nom.

request¹ [rɪ'kwɛst] *n* iltimos, so'rov, o'tinch; talab, talabnoma.

request² [rɪ'kwɛst] *v* talab qilmoq, qattiq (qat'iy) so'ramoq.

require [rɪ'kwɪə] *v* talab qilmoq, qattiq (qat'iy) so'ramoq.

requirement [rɪ'kwɪəmənt] *n* talab, ehtiyoj.

rescue ['reskju:] *v* qutqarmoq, xalos etmoq.

rescuer ['reskju:ə] *n* xaloskor, qutqaruvchi.

research [ri'sɜ:tʃ] *n* ilmiy ish (tekshirish), tadqiqot.

resell [ri:'sel] *v* (pt, pp **resold**) qayta sotmoq (pullamoq).

reserve [ri'zɜ:v] *n* **1.** zahira, boylik, xazina, rezerv; **2.** qo'riqxona; **3.** *sport.* zahiradagi o'yinchi.

reservoir ['rezəvɔ:ə] *n* suv ombori, zahirasi.

residence ['rezɪdəns] *n* turar joy, yashaydigan (istiqomat qiladigan) joy, qarorgoh.

resident ['rezɪdənt] *n* doimiy istiqomat qiluvchi, fuqaro.

resist [ri'zɪst] *v* qarshilik ko'rsatmoq, e'tiroz bildirmoq.

resistant [ri'zɪstənt] *a* qarshilik ko'rsatuvchi (ko'rsatadigan); chidamli, pishiq, puxta; ~ **materials** chidamli (pishiq) materiallar.

resold [ri:'səuld] *v* pt, pp of **resell**.

resolution [rɛzə'lju:ʃn] *n* **1.** qat'iylik, keskinlik, uzil-kesillik; **2.** qaror, hukm, xulosa, to'xtam; hal etish, bartaraf etish.

R

resource [rɪ'sɔ:s] *n* resurs, manba, boylik, mablag', pul, kapital, imkoniyatlar.

respect¹ [rɪ'spekt] *n* hurmat, e'tibor.

respect² [rɪ'spekt] *v* hurmat qilmoq, e'zozlamq, izzat-ikrom ko'rsatmoq.

respond [n'spɒnd] *v* javob bermoq (qaytarmoq), o'z munosabatini bildirmoq; to'g'ri kelmoq (~ to).

response [rɪ'spɒns] *n* javob, in - to ...ga javoban.

responsibility [rɪ'spɒnsə'bɪlətɪ] *n* (*pl responsibilities*) javobgarlik, ma'suliyat.

responsible [rɪ'spɒnsəbl] *a* javohgar, mas'ul.

rest I¹ [rest] *n* hordiq, dam; **to have a -** dam olmoq.

rest I² [rest] *v* dam olmoq, xordiq chiqarmoq.

rest II [rest] *n* the - **1.** qoldiq; **2.** qolganlar, boshqalar.

restaurant ['restɒrnt] *n* restoran; **to go to a -** restoranga bormoq.

restoration [ˌrestə'reɪʃn] *n* qayta tiklash, ta'mir, ta'mirlash.

restrict [rɪ'strɪkt] *v* cheklamoq, cheklab qo'yimoq, chegaralamoq.

restricted [rɪ'strɪktɪd] *a* chegaralangan, cheklangan; ~ **nature reserve** tabiat qo'riqxonasi.

restriction [rɪ'strɪkʃn] *n* cheklash, chek qo'yish; **without** ~ cheksiz.

restrictive [rɪ'strɪktɪv] *a* cheklaydigan, cheklovchi, chek qo'yadigan.

result¹ [rɪ'zʌlt] *n* natija, oqibat, samara; **without** ~ natijasiz; **as a - of** natijasida, oqibatida.

result² [rɪ'zʌlt] *v* (~ **from**) biror narsa natijasida (oqibatida) kelib chiqmoq, biror narsadan kelib chiqmoq, yuzaga kelmoq, sodir bo'lmoq.

result in [rɪ'zʌlt] *phr.v* ... bilan tugamoq, sabab bo'lmoq.

retail ['ri:teɪl] *n* chakana savdo.

retailer ['ri:teɪlə] *n* chakana savdo qiluvchi.

retain [rɪ'teɪn] *v* ushlab (tutib) qolmoq, saqlab qolmoq, qo'ldan bermasdan tutib qolmoq, yo'qotmaslik.

return¹ [rɪ'tɜ:n] *n* qaytarish, qaytarib berish, qaytib kelish.

return² [rɪ'tɜ:n] *v* qayt(ar)moq, orqaga qayt(ar)moq, qaytib kel(tir)moq.

reuse [rɪ:'ju:z] *v* qayta ishlatmoq, qaytadan foydalanmoq.

revenge¹ [rɪ'vendʒ] *n* qasos, o'ch, intiqom, qasd.

revenge² [rɪ'vendʒ] *v* qasos olmoq, o'ch olmoq, qasadini olmoq.

review [rɪ'vju:] *n* **1.** qaytadan ko'rib, qarab chiqish; **2.** taqriz.

revise [rɪ'vaɪz] *v* **1.** takrorlamq (darsni); **2.** qayta ko'rib chiqmoq; **3.** tekshirib tuzatmoq, to'g'rilamoq, kamchilik (no-to'g'rilik)ni bartaraf etmoq.

revision [rɪ'vɪʒn] *n* takrorlash, qaytarish.

revolution I [ˌrevə'lju:ʃn] *n* **1.** inqilob; **2.** ijtimoiy-siyosiy tuzumdagi keskin o'zgarish; to'ntarish, to'ntarilish.

revolution II [ˌrevə'lju:ʃn] *n* **1.** aylanish, buralish; **2.** (texnik atama) aylanish, obo-rot (mashina va sh.k. larda).

reward [rɪ'wɔ:d] *n* mukofot.

rewrite [rɪ:'raɪt] *v* (*pt rewrote*; *pp rewritten*) ko'chirmoq, qaytadan yozib chiqmoq.

rewritten [rɪ:'raɪtɪn] *v* *pp of rewrote*.

rewrote [rɪ:'rəʊt] *v* *pt of rewrite*.

rhino [raɪnəʊ] *n* (*pl rhinos*) *zool.* karidon.

rhyme [raɪm] *n* **1.** qofiya; **2.** qofiyali, to'rtlik she'r.

rhythm [rɪðm] *n* ritm, vazn, marom, maqom.

ribbon [rɪbən] *n* lenta, tasma.

rice [raɪs] *n* guruch.

rich [rɪʃ] *a* **1.** boy, hadavlat, davlat-

mand; farovon; 2. (ovqatga nisbatan) kuchli; yog'li; 3. (yer haqida) unumli, hosildor, serhosil; 4. (ovoz haqida) yo'g'on, past; (bo'yoqlar haqida) quyuq, to'q.

riches ['rɪtʃɪz] *n* boylar.

rid [rɪd] *v* ozod qilmoq, qutqarmoq, qutulmoq, qutqazmoq.

ride¹ [raɪd] *n* sayr, tomosha (*otga minib, mashinada, velosipedda va b.*).

ride² [raɪd] *v* (pt **rode**; pp **ridden**) 1. otda yurmoq, ot minmoq; 2. vilosiped va h.k.larni minmoq; avtobus, mashina va h.k.larda yo'lovchi bo'lmoq.

ridden ['rɪdn] *v pp of ride².*

riders ['raɪdə] *n* otliq, ot mingan kishi, chavandoz.

ridiculous ['rɪdɪkjələs] *a* kulguli, kulgudan boshqaga arzimaydigan.

right¹ [raɪt] *a* 1. o'ng, o'ng tomondagi; 2. to'g'ri, chin, rost, haq; 3. to'g'ri, qoidaga (haqiqatga) muvofiq keladigan; 4. munosib, bop; qulay, o'ng'ay, mos, muvofiq; **the ~ sort of** to'g'ri keladigan, ma'qul ..., munosib, bop.

right² [raɪt] *adv* 1. o'ng tomonda(ga); 2. aniq, to'ppa-to'g'ri; 3. to'g'ri, durust, qoniqarli ravishda.

right³ [raɪt] *n* 1. to'g'rilik, rostlik, chinlik; 2. huquq, haq; 3. o'ng, o'ng tomon; **on the ~** o'ng tomonda; 4. *siyos.* o'nglar, konservativ g'oya tarafdorlari.

Right. [raɪt] *int* Yaxshi. To'g'ri.

right-wing [raɪt'wɪŋ] *a* *siyos.* o'ng, reaksion, konservativ g'oya tarafdorlari.

ring I [rɪŋ] *n* 1. aylanma yo'l; 2. halqa; uzuk, boldoq; 3. sirk sahnasi (sahnasi), sahna; ring (boks maydonchasi).

ring II [rɪŋ] *v* 1. jiringlamoq, jingillamoq, jarang-jurung qilmoq; 2. (qo'n-g'iroq, telefon va h.k.) jiringlamoq; qo'n-g'iroq chalmoq (qilmoq).

rinse [rɪnz] *v* chaymoq, chayib olmoq.

ripe [raɪp] *a* pishgan, yetilgan.

rise¹ [raɪz] *n* ko'tarish, oshirish, o'stirish, balandroq (yuqoriroq) qilish; **to be on the ~** (*narx-navoni*) oshirmoq, ko'tarmoq.

rise² [raɪz] *v* (pt **rose**; pp **risen**) 1. chiqmoq, yuqorilamoq, o'smoq; turmoq, o'rnidan turmoq; 2. (quyosh, oyga nisbatan) chiqmoq, ko'tarilmoq; 3. yuqoriroq pog'onaga ko'tarilmoq, martabasi oshmoq.

risen ['rɪzn] *v pp of rise².*

risk¹ [rɪsk] *n* 1. xavf, xatar, tahlika; qaltis ish; 2. tavakkal, tavakkalchilik.

risk² [rɪsk] *v* jur'at etmoq, tavakkal qilmoq.

river ['rɪvə] *n* daryo, soy, anhor.

road [rəʊd] *n* yo'l, ko'cha.

roar¹ [rɔː] *n* o'kirish, bo'kirish, na'ra; shovqin, shovqin-suron, g'ovur-g'uvur.

roar² [rɔː] *v* o'kirmoq, bo'kirmoq, baqirmoq.

roaring ['rɔːrɪŋ] *a* sershovqin, shovqinli.

roast [rəʊst] *n* kabob qilingan go'sht; ~ **chicken** duxovkada pishirilgan tovuq.

rob [rɒb] *v* talamoq, o'g'irlamoq.

robber ['rɒbə] *n* o'g'ri, talonchi.

robbery ['rɒbəri] *n* talon-taroj; talonchilik, o'g'irlik, yulish, shilish, tovlash.

robin ['rɒbɪn] *n* *zool.* tog'chumchuq.

robot ['rəʊbɒt] *n* robot.

rock [rɒk] *n* 1. *mus.* rok; 2. qoya; 3. qoyatosh, xarsangtosh.

rocket ['rɒkɪt] *n* raketa.

rod [rɒd] *n* 1. tayoq; 2. qarmoq.

rode [rəʊd] *v pt of ride².*

rodeo ['rəʊdiəʊ, rəʊdeɪ-əʊ] *n* (*pl* **rodeos**) rodeo.

role [rəʊl] *n* 1. rol (sahnada, ekranda ijro etiladigan badiiy obraz); 2. rol, xizmat, ahamiyat, tutgan o'rin.

roll¹ [rəʊl] *n* o'ram, o'ralgan narsa.

roll² [rəʊl] *v* o'ramoq.

roll up ['rəʊlʌp] *phr.v* yumalamoq.

roller [ˈrɒlə] *n* val; rolik.

roller-coaster [ˈrɒlə,kəʊstə] *n* rolle koster (atraksion).

roller-skating [ˈrɒləskeɪtɪŋ] *n* rolikda uchish.

romance [ˈrəʊmæns] *n* **1.** ishq-muhabbat mojarosi, ishqiy sarguzasht; **2.** ishqiy munosabatlar, oshiq-ma'shuqlik; **3.** romantika (kishini ulug'lovchi g'oya va his-tuyg'ular majmui).

romantic¹ [ˈrəʊmæntɪk] *a* **1.** romanga xos (oid); xuddi romandagidek, romanga o'xshagan, roman ..., xayoliy; **2.** ishqiy; **3.** romantik.

romantic² [ˈrəʊmæntɪk] *n* xayolparast.

roof [ru:f] *n* **1.** tom; **2.** hoshpana, panoh, makon, uy-joy, uy.

room [ru:m] *n* **1.** xona; **2.** joy.

rooster [ˈru:stə] *n* xo'roz.

root [ru:t] *n* **1.** ildiz; **2.** o'zak, negiz.

rope [rəʊp] *n* ip, arqon, chilvir.

rose I [rəʊz] *n* atirgul.

rose II [rəʊz] *v* *pt* of *rise*².

rough [rʌf] *a* **1.** dag'al, badhazm; ~ **food** dag'al (badhazm) ovqat; **2.** notekis, past-baland, o'ydim chuqur (*yo'l haqida*); ~ **country** o'ngir-cho'ngir joy; **3.** qo'pol, to'ng, qo'rs; **a** ~ **customer** qo'pol muomalali odam; **4.** ishlov berilmagan, qora; ~ **copy** oqqa ko'chirilmagan qo'l-yozma *yoki* daftar.

roughly [ˈrʌfli] *adv* **1.** qo'pollik bilan; qo'pollik qilib, dag'al, qo'rs, to'rs, qo'pol; xomaki ravishda, xomaki qilib, xomaki; **2.** taxminan, taqriban, taxminiy ravishda.

round¹ [raʊnd] *a* dumaloq, yumaloq, sharsimon, shar shaklidagi.

round² [raʊnd] *adv* **1.** atrofga, tevarakatrofga; atrofda, tevaragida; **2.** orqaga, qarama-qarshi tomonga; aksincha, teskari.

round³ [raʊnd] *prep* atrofida, tevaragida.

roundabout [ˈraʊndəbaʊt] *n* **1.** (avtomobil yo'li o'rtasidagi) aylana; **2.** karusel.

route [ru:t] *n* yo'l, yo'nalish.

routine [ru:'ti:n] *n* muayyan (belgilangan) tartib.

row¹ [rəʊ] *n* qator, saf, ora; **in** ~s qatorlar bilan, qatorlarda.

row² [rəʊ] *v* eshkak eshmoq, eshkak bilan qayiqni yurgizmoq, haydamoq.

row³ I [rəʊ] *n* urush, janjal, nizo, araz; mashmasha, mojaro.

row³ II [rəʊ] *v* urishib (janjallashib, arazlashib) qolmoq, sanu manga bormoq.

royal [ˈrɔɪəl] *a* **1.** qirol ..., qirollikka tegishli (qarashli); **2.** serhasham, dabdabali, shohona.

rub [rʌb] *v* surtmoq, surkamoq, ishqalamoq, ishqamoq.

rubber [ˈrʌbə] *n* **1.** rezina; **2.** o'chirg'ich.

rubbish [ˈrʌbɪʃ] *n* **1.** axlat, chiqindi; **2.** bema'ni (behuda) gap.

rubob [ru'bob] *n* *mus.* rubob.

rude [ru:d] *a* **1.** dag'al, qo'pol, qo'rs, to'ng, to'rs; **2.** ishlanmagan, ishlov berilmagan; xom, chala.

rudely [ˈru:di] *adv* **1.** qo'pollik bilan; qo'pollik qilib, dag'al, qo'pol, qo'rs, to'rs; **2.** qo'pol (jo'n) qilib, beso'naqay qilib; **3.** to'satdan, qo'qqisda, birdan, be-xosdan, daf'atan, nohahon; **4.** taxminan, taqriban, xomaki.

rug [rʌg] *n* gilam, gilamcha, kichkina gilam.

rugby [ˈrʌgbi] *n* *sport.* regbi (futbolning bir turi).

ruin [ru:m] *v* vayron qimoq, xarob qilmoq; buzmoq.

ruins [ru:m] *n* vayrona, xaroba.

rule¹ [ru:l] *n* **1.** qonun, qoida, tartib; **2.** idora qilish, boshqarish, hukmronlik.

rule² [ru:l] *v* boshqarmoq, idora qilmoq.

rule over [ru:l'əʊvə] *phr.* *v* ustidan (tepasidan) hukmronlik qilmoq.

R

ruler I [ˈru:lə] *n* hokim, hukmdor, idora qiluvchi, boshqaruvchi.

ruler II [ˈru:lə] *n* chizg'ich.

run [rʌn] *v* (pt **ran**; pp **run**) **1.** oqmoq (suv); **2.** yugurmoq, chopmoq; **3.** boshqarmoq, idora qilmoq.

run away [ˌrʌnəˈweɪ] *phr.v* qochib ketmoq.

runner [ˈrʌnə] *n* yuguruvchi; chopuvchi, chopish bilan shug'ullanuvchi sportchi.

running [ˈrʌnɪŋ] *n* yugurish, chopish; yugurib-yelish; yugur-yugur, chop-chop, sarsongarchilik, ovoragarchilik.

runny nose [ˈrʌniˌnoʊz] *n* tib. tumov.

rural [ˈruərəl] *a* qishloqqa oid (xos), qishloq ...

rush¹ [rʌʃ] *n* **1.** tez (ildam, jadal) harakat; **2.** shosh(il)ish, shoshma-shosharlik, shoshqaloqlik.

rush² [rʌʃ] *v* shoshilib yurmoq, yelmoq, yeldek uchmoq.

Russian¹ [ˈrʌʃən] *a* **1.** ruslarga oid; ruscha, rus ...; **2.** Rossiyaga oid; Rossiya ...

Russian² [ˈrʌʃən] *n* **1.** rus, rossiyalik; rus kishisi (*yoki* ayoli); **2.** rus tili.

rust¹ [rʌst] *n* zang.

rust² [rʌst] *v* zanglamoq, zang bosmoq.

rusty [ˈrʌsti] *a* zanglagan, zang bosgan.

ruthless [ˈru:θləs] *a* berahm, beshafqat, shafqatsiz, ayovsiz.

ruthlessness [ˈru:θləsnəs] *a* berahmlik, beshafqatlik, shafqatsizlik, bag'ritoshlik.

S, s

S, s [es] ingliz tili alifbosining o'n to'qqizinchi harfi.

sack [sæk] *n* qop, xalta.

sad [sæd] *a* **1.** g'amli, g'amgin, xafa, qayg'uli, g'amga botgan, ma'yus, mungli, hazin; **2.** ayanchli, achinarli, yomon, og'ir.

sadly [ˈsædli] *adv* ma'yus, xafa (g'amgin) ravishda, xafa (ma'yus) bo'lib, g'am-anduh chekib, ma'yuslanib, ma'yuslik (g'amginlik, umidsizlik) bilan.

sadness [ˈsædnəs] *n* xafalik, ma'yuslik, g'amginlik, umidsizlik, qayg'u, hasrat, g'am-g'ussa, anduh, nadomat.

safari [səˈfɑ:ri] *n* safari park.

safe [seɪf] *a* xavfsiz, xavfdan holi, xatarsiz, hexatar, betahlika.

safe [seɪf] *n* seyf, yonmaydigan temir shkaf.

safely [ˈseɪfli] *adv* **1.** xavf-xatardan holi holda, bexatar; muvaffaqiyatli ravishda, muvaffaqiyat bilan, muvaffaqiyatli; **2.** sog'-salomat, beshikast, bus-butun holda.

safety [ˈseɪfti] *n* xavfsizlik, ehtiyotkorlik.

saga [ˈsɑ:gə] *n* saga, rivoyat, doston, qissa.

said [sed] *v* pt, pp of *say*.

sail¹ [seɪl] *n* yelkan.

sail² [seɪl] *v* (yelkanda) suzmoq.

sailor [ˈseɪlə] *n* dengizchi.

saint [seɪnt] *n* avliyo; ~ **Valentine's Day** Avliyo Valentin Kuni (sevishganlar kuni; 14-fevral).

salad [ˈsæləd] *n* salat.

salary [ˈsæləri] *n* (*pl salaries*) maosh, oylik, ish haqi, moyana.

sale [seɪl] *n* **1.** sotuv; savdo, savdo-sotiq; **2.** sotish, o'tkazish; sotilish, o'tish; **3.** „kim oshdi“ qilib sotish; **4.** (arzonlashtirilgan narxda) sotib yuborish.

sales [seɪlz] *a* tijoratga oid; savdo-sotiq bilan bog'liq bo'lgan; tijorat ...

sales assistant [ˈseɪlz əˈsɪstənt] *n* sotuvchi.

salesman [ˈseɪlzmən] *n* (*pl salesmen*) sotuvchi (erkak).

saleswoman [ˈseɪlzwʊmən] *n* (*pl saleswomen*) sotuvchi ayol.

salt [sɔ:lt] *n* tuz.

salty ['sɔ:lti] *a* tuzli, sho'r.

(the) same [seɪm] *a* **1.** o'shaning o'zi, xuddi o'zi, ayni; **2.** bir xil, bir xilda bo'lgan, o'xshash; **the - to you** sizni ham.

sample ['sɑ:mpl] *n* namuna, nusxa; (tahlil qilish uchun) namuna; misol.

sand [sænd] *n* qum.

sandal ['sændl] *n* bosonojka (dastaksiz oyoq kiyimi), sandal, shippak.

sandwich ['sænwɪdʒ] *n* sandwich, hamburger.

sang [sæŋ] *v* *pt* of *sing*.

sanitation [sæni'teɪʃn] *n* sanitariya, tozalik.

sank [sæŋk] *v* *pt* of *sink* *II*.

sat [sæt] *v* *pt*, *pp* of *sit*.

satellite ['sætlaɪt] *n* yo'ldosh, sun'iy yo'ldosh.

satisfaction [sætɪs'fækʃn] *n* qondirish, qoniqish, mamnun bo'lish, lazzatlanish; **to smb.'s** - biror kimsaning talabini qondirish uchun.

satisfactory [sætɪs'fæktəri] *a* qoniqarli, qanoatlanarli, durust, o'rtacha; qondiradigan, qanoatlantiradigan.

satisfied ['sætɪsfaɪd] *a* qoniqqan, qanoatlangan, qanoat hosil qilgan, qongan, mamnun (xursand) bo'lgan, mamnuniyat hosil qilgan.

satisfy ['sætɪsfaɪ] *v* **1.** qoniq(tir)moq, qondirmoq, hajo keltirmoq; **2.** qanoatlanmoq, qanoat hosil qilmoq, mamnun bo'lmoq (qilmoq).

Saturday ['sætədi] *n* shanba, shanba kuni.

sauce [sɔ:s] *n* sous, qayla.

saucepan ['sɔ:spæn] *n* kastrulka.

saucer ['sɔ:sə] *n* likopcha.

sauna ['sɔ:nə] *n* sauna.

sausage ['sɔ:sɪdʒ] *n* kolbasa, sosiska.

save [seɪv] *v* asramoq, saqlamoq; qutqarmoq, xolos qilmoq.

saw I [sɔ:] *n* arra.

saw II [sɔ:] *v* *pt* of *see*.

saxophone [sæksə'fəʊn] *n* *mus.* sak-safon.

say [seɪ] *v* (*pt*, *pp* **said**) **1.** demoq, aytmoq, gapirmoq; **to - goodbye** xayrlashmoq; **2.** ifodalamoq, izhor qilmoq, bildirmoq; **3.** faraz qilmoq, ...deb hisoblamoq; aytaylik, deylilik, faraz qilaylik.

saying ['seɪŋ] *n* maqol.

scale [skeɪl] *n* **1.** masshtab; **2.** o'lcham, miqdor, miqyos, ko'lam, daraja; **to -** masshtabda; miqyosda; **3.** shkala (o'lchov asboblarning daraja ko'rsatkichi); **4.** masshtab leneykasi; **5.** *mus.* gamma (bir pardadan ko'tarilib yoki tushib boruvchi tovushlar majmui).

scandal ['skændl] *n* **1.** janjal, mojaro, janjalli mojaro, mashmasha; **2.** g'iybat, yolg'on-yashiq; gap-so'z, yomonlab gapirish.

scar [ska:] *n* chandiq, tirtiq, yaraning bitgan o'rni.

scare [skeə] *v* qo'rqib ketmoq, rangi o'chmoq.

scarecrow [skeəkrəʊ] *n* (bog', polizda) qo'riqchi, qo'rg'ich.

scared [skeəd] *a* qo'rqib ketgan, rangi o'chgan.

scarf [skɑ:f] *n* sharf, bo'yinbog'.

scary ['skeəri] *a* qo'rqinchli, qo'rqitadigan, dahshatli.

scenario [sɪnɑ:riəʊ] *n* (*pl* **scenarios**) ssenariy.

scene [si:n] *n* sahna, ko'rinish.

scenery ['si:nəri] *n* (*pl* **sceneries**) **1.** dekoratsiya (sahna manzarasini hosil qiluvchi anjom va bezaklar); **2.** ko'rinish, manzara, peyzaj, landshaft.

schedule¹ ['ʃedju:l] *n* jadval, tartib.

schedule² ['ʃedju:l] *v* **1.** oldindan belgilamoq (aniqlamoq, mo'ljalamoq), ko'z ostiga olib qo'yimoq; rejalashtirmoq, reja tuzmoq; **2.** jadval tuzmoq, grafikka (jadvalga) kiritmoq.

scholar ['skɒlə] *n* olim, o'qimishli.

scholarship [ˈskɒləʃɪp] *n* stipendiya.
school [sku:l] *n* 1. maktab, o'quv (ta'lim) muassasasi, yurti; ~ **rules** maktab qoidalari; 2. mashg'ulotlar, darslar (maktabda).

schoolbag [sku:l'bæg] *n* sumka.

schoolchildren [sku:l'tʃɪldrən] *n* o'quvchilar.

schoolmate [sku:l'meɪt] *n* maktabdosh.

science [saɪəns] *n* 1. fan; 2. tabiiy fanlar; 3. kasb, hunar; mahorat, ep; epchilik, ustalik, mohirlik, san'at.

scientific [saɪən'tɪfɪk] *a* ilmiy.

scientist [saɪəntɪst] *n* olim.

scissors [sɪzəz] *n* (*pl scissors*) qaychi.

scold [skəʊld] *v* so'kmoq, urushmoq, koyimoq.

score [skɔ:] *n* (ochkolar) hisobi, natijasi.

score [skɔ:] *v* 1. ochko hisoblamoq; hisob qayd etmoq; 2. ochko yig'moq; **to ~ a goal** gol urmoq.

Scot [skɒt] *a* shotlandcha, shotland.

scrambled eggs ['skræmbəld 'egz] *n* oq va sarig'i aralashtrilib chala pishiriladigan tuxum.

scratch [skrætʃ] *n* 1. tirnalgan (timdalan) joy, tirnoq izi, chaqa; 2. (tovush haqida) g'ijirlagan (g'ichirlagan) tovush, g'irch-g'irch, g'arch-g'uruch, g'ichir-g'ichir, „chirq“ etgan ovoz; 3. qashinish, qashish, tirnash; **up to ~** kerakli (talab etilgan) darajada, yaxshi holatda (ko'rinishda).

scratch [skrætʃ] *v* 1. tirna(l)moq, timdala(n)moq, yumdala(n)moq; 2. qashi(n)moq, qashlamoq; 3. g'ijirlamoq, g'ichirlamoq, g'archillamoq, g'arch-g'urch (g'ajir-g'ujur) qilmoq; ~ **my back and I will ~ yours** sendan ugina, mendan bugina; xizmatga xizmat.

scream [skri:m] *n* chinqiriq, qichqiriq.

scream [skri:m] *v* qichqirmoq, chin-qirmoq.

screen [skri:n] *n* 1. to'siq, g'ov, to's-qinlik; 2. himoya, pana, pana (qiladigan) joy; 3. (televizor yoki kinoda) ekran.

screen [skri:n] *v* 1. pana (himoya) qilmoq, bekkitib (yashirib) qo'yimoq, to's-moq; to'sib turmoq; 2. (ishonchlilik, shubhadan holilik va sh.k. ni) tekshirmoq; 3. (film haqida) ekranlashtirmoq, ekran orqali namoyish qilmoq.

screw [skru:] *n* burama mix.

screw [skru:] *v* huramoq, qayirmoq.

script [skript] *n* 1. yozuv; 2. (ma'ruza, suhbatdagi) ssenariy; matn.

scuba-diving ['sku:badaɪvɪŋ] *n* akvalangda sho'ng'ish.

sculptor [skʌlptə] *n* haykaltarosh.

sculpture ['skʌlptʃə] *n* haykal; haykaltaroshlik.

sea [si:] *n* 1. dengiz, okean, ummon; **by ~** dengiz yo'li bilan, dengiz orqali; **to put to ~** dengizga chiqmoq (jo'namoq, yo'l olmoq); 2. (tez-tez: ~s) to'lqin, po'rtana, baland to'lqin, dolg'a, to'lqinlanish, mavj urish, mavj; **heavy ~s** to'lqinli (to'lqinlanib turgan) dengiz, shiddatli to'lqin (po'rtana).

seabird ['si:bɜ:d] *n* dengiz qushi.

sea fish ['si:fɪʃ] *n* dengiz balig'i.

seafood ['si:fu:d] *n* dengiz oziq-ovqat mahsuloti.

seahorse ['si:hɔ:s] *n* zool. dengiz oti.

search [sɜ:tʃ] *n* 1. qidiruv, qidirish, izlash, axtarish; ~ **engine** qidiruv tizimi (internetda); 2. tintuv, taftish.

search [sɜ:tʃ] *v* 1. qidirmoq, izlamoq, axtarmoq; 2. tintimoq, tintib chiqmoq; axtarib chiqmoq.

seashell ['si:ʃel] *n* dengiz chig'anog'i.

seashore ['si:ʃɔ:] *n* dengiz qirg'og'i.

seaside [si:'saɪd] *n* dengiz bo'yi.

season ['si:zn] *n* yil fasli; fasl, mavsum, davr, sezon.

seat [si:t] *n* o'rin, joy (o'tirish uchun), o'rindiq.

second I ['sekənd] *num* ikkinchi.

second II ['sekənd] *n* sekund, soniya.

secondary ['sekəndri] *a* **1.** ikkinchi darajali; **2.** ikkinchi, ikkilamchi; ~ **school** o'rta maktab.

secondhand [sekənd'hænd] *a* **1.** tutilgan, oldin ishlatilgan; **2.** ikkinchi qo'l (yangilik va sh.k. haqida).

secret¹ ['si:kɾət] *n* sir, maxfiy narsa, yashirin ish yoki gap; **to keep a** – sir saqlamoq; **an open** ~ hammaga ma'lum (oshkor bo'lgan) sir.

secret² ['si:kɾət] *a* **1.** yashirin, pinhoni, maxfiy, sir tutiladigan; ~ **agent** maxfiy xizmat agenti, josus; **2.** jumboqli, sirli.

secretary ['sekritəri] *n* (*pl* **secretaries**) **1.** kotib, kotiba; **2.** (Buyuk Britaniyada) vazir.

secretary bird ['sekritəri 'bɜ:d] *n* **zool.** kotib qush.

secretly ['si:kɾitli] *adv* yashirincha, maxfiy suratda, zimdan, boshqalardan yashirincha, xufiyona, bildirmasdan, sir tutib.

section ['sekʃn] *n* bo'lim, qism, bo'lma.

sector ['sektə] *n* sektor, soha, maydon, guruh.

security [sɪ'kjʊəɾəti] *n* (*pl* **securityies**) **1.** xavfsizlik, bexatarlik; **2.** soqchilar, qo'riqchilar, mudofaachilar; himoya.

see [si:] *v* (*pt* **saw**; *pp* **seen**) **1.** ko'rmoq, qaramoq, tomosha qilmoq; **2.** sezmoq, payqamoq, ko'rmoq, tasavvur (his) qilmoq; tushunmoq, bilmoq, anglamoq, fahmlamoq; **3.** o'ylab ko'rmoq, puxta o'ylamoq; **4.** tasavvur qilmoq, ko'z oldiga keltirmoq, faraz qilmoq; **5.** qaramoq, qarab (ko'z-quloq bo'lib) turmoq, tashvishini qilmoq, g'amini yemoq; **6.** murojaat qilmoq (mutaxassis maslahati uchun); **7.** uchratmoq, ko'rmoq, uchramoq, ko'rishmoq.

See you. *int* Ko'rishguncha.

seed [si:d] *n* urug', urug'lik, don.

seek [si:k] *v* (*pt*, *pp* **sought**) izlamoq, qidirmoq, axtarmoq.

seem [si:m] *v* tuyulmoq, ho'lib ko'rinmoq, nazarida tuyulmoq.

seen [si:n] *v* *pp* *of see*.

see-saw ['si:sɔ:] *n* halvinchak, kacheli.

seldom ['seldəm] *adv* kamdan-kam holatda, har zamonda.

self-governing [self 'gʌvənɪŋ] *a* o'z-o'zini boshqarish (idora qilish), ichki ishlarini o'zi hal qilish.

selfish ['selfɪʃ] *a* xudbin, faqat o'zini o'ylaydigan.

sell [sel] *v* (*pt*, *pp* **sold**) sotmoq, sotib yubormoq.

semester [sɪ'mestə] *n* semestr, yarim yillik.

semicolon [semi'kəʊlən] *n* nuqtali vergul.

semi-desert [semi'dezət] *n* yarim cho'l.

senate ['senət] *n* senat.

senator ['senətə] *n* senator, senat a'zosi.

send [send] *v* (*pt*, *pp* **sent**) **1.** jo'natmoq, yubormoq, yo'llamoq; **2.** biror holatga keltirmoq; **3.** yo'llamoq, yo'naltirmoq, yubormoq, jo'natmoq; otmoq, solmoq, tashlamoq; **4.** (radio haqida) bermoq, eshittirmoq, olib eshittirmoq; **to** ~ **word** xabar bermoq, xabardor (voqif) qilmoq, bildirmoq, ma'lum qilmoq.

send off [send'ɒf] *phr.v* **1.** (xatni, posilkani) jo'natmoq, yubormoq, yo'llamoq; jo'natib (ketkizib) yubormoq; **2.** *sport.* chiqarib yubormoq (maydondan).

send out [send'aut] *phr.v* joy-joyiga tarqatmoq, yubormoq; hammani (joylarga) yubormoq, bor odamni jo'natmoq.

senior ['si:niə] *n* **1.** yoshi katta; ~ **citizens** oqsoqollar; yoshi ulug' fuqarolar; **2.** bitiruvchi o'quvchi.

sensation ['sensetʃn] *n* shov-shuv.

sense [sens] *n* his, tuyg'u, sezgi; **a** ~ **of** **fear** qo'rquv hissi; **a** ~ **of** **humour** yumor hissi.

sensible ['sensəbl] *a* **1.** aqli, farosatli, es-hushli, bama'ni, mulohazali, o'ylab (aql bilan) ish qiladigan; **2.** bilinadigan, seziladigan, sezilarli, bilinarli.

sensitive ['sensətɪv] *a* **1.** sezgir, sezuvchan; ta'sirchan, nozik, hissiyotga beriluvchan; **2.** ta'sirlanuvchan, beriluvchan; biror narsani o'ziga tez oluvchi, moyil, tez ta'sirlanuvchi, hassos; **3.** salga xafa bo'laveradigan, gap ko'tarmaydigan, ta'bi nozik, jizzaki; **4.** yashirin, pinhoniy, maxfiy (sir) tutiladigan.

sent [sent] *v pt, pp of send.*

sentence¹ ['sentəns] *n* **1.** gram. gap; **to make a** – gap yasamoq (tuzmoq); **2.** hukm (sud hukmi), hukmnoma.

sentence¹ ['sentəns] *v* hukm qilmoq, hukm chiqarmoq, jazo belgilamoq, kesmoq.

separate¹ ['seprɪt] *a* **1.** alohida, ayrim, bo'lak, ayrim, ajralgan, ajratib olingan; **2.** maxsus, alohida; **3.** boshqalardan bo'lak, mustaqil, alohida.

separate² ['sepəreɪt] *v* **1.** ajratmoq, ajralmoq, ayirmoq, ayrilmoq; **2.** bir-biridan judo qilmoq, ajratib yubormoq; **3.** bo'lmoq, bo'laklarga (qismlarga) ajratmoq; **4.** ajralishmoq, ayrilishmoq, ayrilmoq, ajralmoq, judo bo'lmoq, o'zaro aloqani uzmoq, ajralishib ketmoq (er-xotin haqida).

separation [sepə'reɪʃn] *n* **1.** ayriliq, hijron, judolik; **2.** ajratish, ajralib chiqish, ayirish, uzish, ayirib (ajratib, uzib) qo'yish, bir-biridan judo qilish, bo'li(ni)sh, taqsimla(ni)sh; **3.** *yur.* er-xotinning alohida turishi, mustaqil yashashi.

separately ['sepə'reɪtli] *adv* boshqalardan ajralgan (ajratilgan) holda, bo'lak qilib (bo'lib), alohida olib, boshqa-boshqa, alohida-alohida, mustaqil ravishda.

September [septembə] *n* sentabr, sentabr oyi.

sequence [sekvens] *n* izchillik, ketma-

ketlik, birin-ketinlik; – **of tenses gram.** zamonlar moslashuvi.

series ['sɪəri:z] *n* (*pl series*) **1.** seriya; **2.** birtalay, bir necha, ancha-muncha, qator; **in** – tartib bo'yicha (bilan), ketma-ket, birin-ketin, paydar-pay.

serious ['sɪəriəs] *a* **1.** jiddiy, qattiq, og'ir; bama'ni, mulohazali; ma'nodor, sermazmun; **2.** xavf tug'diradigan, xavfli, xatarli, tahlikali; **3.** muhim, jiddiy, ahamiyatli, zarur, kerakli.

seriously ['sɪəriəsli] *adv* jiddiy (ravishda), rostdan, chindan, rosti bilan, as-toydil, qattiq; **to take smb./smth.** – biror kimsani (narsani) jiddiy qabul qilmoq (chinga olmoq, chindan dehbilmoq).

servant ['sɜ:vənt] *n* xizmatkor, xizmatchi.

serve [sɜ:v] *v* **1.** ishlamoq, xizmat qilmoq; **2.** (taom) suzmoq, suzib bermoq, keltirmoq, tortmoq; xizmat qilmoq (ko'rsatmoq); **3.** ish qilmoq, mehnat qilmoq, xizmatda bo'lmoq, xizmat qilmoq; **4.** ta'minlamoq, ehtiyojini qondirmoq; **5.** (qarmoqqa nisbatan) belgilangan muddatni o'tamoq, o'tkazmoq, tamom qilmoq.

service ['sɜ:vɪs] *n* **1.** xizmat; xizmat ko'rsatish, servis; **2.** xizmat (yaxshilik) qilish, iltifot ko'rsatish, yordam berish; **3.** (armiyadagi) xizmat.

session ['seʃn] *n* **1.** sessiya; **2.** yig'ilish, kengash, majlis.

set I [set] *n* **1.** komplekt, to'plam, sidra; **2.** televizor, radiopriyomnik; **3.** dekoratsiya (sahna manzarasini hosil qiluvchi anjom va bezaklar); surat (kino) olinadigan maydoncha; **4.** agregat, asbob, pribor, qurilma, mashina, mexanizm; **5.** (tennisda) set.

set II [set] *v* (*pt, pp set*) **1.** qo'ymoq, solmoq, joylamoq, joylashtirmoq, o'rnatmoq, o'rnatmoq; **2.** (vaqt, narxni) belgilamoq, aniqlamoq, tayinlamoq, joriy qilmoq; **3.** (Quyosh haqida) botmoq; **4.** (vazifa, maqsad) qo'ymoq; (dars tayyor-

lash uchun vazifa) bermoq; **5.** (suyuqlik haqida) sovub qotmoq, qotib qolmoq, quyuqlashmoq, qattiqlashmoq, qattiq holga kelmoq; **6.** (qimmatbaho toshlar haqida) opravaga o'rnatmoq, gardishga (ramkaga) solmoq; **7.** (soch haqida) uk-ladga qilmoq, yotqizib taramoq; **to ~ foot on ...ga** oyoq qo'yimoq (bosmoq); **to ~ fire/light/a match to** yoqmoq, yondirmoq, o't oldirmoq, yoqib yubormoq; **to ~ one's teeth on edge** biror kimsaning asabiga tegmoq, jahlini chiqarib yubormoq, qonini qaynatmoq.

set out [set'au] *phr.v* **1.** (g'ayrat bilan) kirishmoq, ish boshlamoq, ishga kirishmoq; **2.** batafsil bayon (hikoya) qilmoq; **3.** sayohatga (safarga) jo'namoq, jo'nab ketmoq, yo'lga chiqmoq, yo'l olmoq.

set up [set'ap] *phr.v* tuzmoq, tashkil qilmoq, barpo qilmoq.

set book [set'buk] *n* imtihonlarga tayyorlanish uchun qo'llanma.

setting [setiŋ] *n* badiiy bezak; dekora-tsiya (sahna manzarasini hosil qiluvchi anjom va bezaklar).

settle [setl] *v* **1.** joylashmoq, o'r-nashmoq, o'r-nashib (joylashib) olmoq, joy-lanmoq, ko'chib borib (kelib) joylashmoq, ko'chmoq (*shuningdek: ~ down*); **2.** tartibga solmoq, yo'lga qo'yimoq, yaxshilamoq; **3.** o'r-nashmoq, joylashmoq, o'r-nashib (joylashib) olmoq, o'tirib olmoq, joylashib o'tirib olmoq; **4.** tushmoq, qoplamoq, cho'kmoq, botmoq, o'tirmoq, tinmoq, inmoq; **5.** hal qilmoq, bir yoqli qilmoq, bartaraf qilmoq, qaror qilmoq, qarorga kelmoq; **6.** bosib qo'yimoq, yengillash-tirmoq, tinchitmoq; **to ~ one's nerves** asabni bosmoq (tinchlan-tirmoq); **7.** (xarajat, soliq va h.k. uchun pul, haq) to'lamoq, to'lab qutulmoq, uzmoq, hisob-kitob qilishmoq, orani ochiq qilmoq; **8.** kelishmoq, bitishmoq, bitimga kelmoq.

settle down [setl'daun] *phr.v* **1.** o'r-nashmoq, joylashmoq, o'r-nashib (joy-lashib) olmoq, o'tirib olmoq, joylashib o'tirib olmoq; **2.** vazminlashmoq, og'ir (vazmin, bosiq) bo'lib qolmoq, quyilmoq, tinchimoq; **3.** kirishmoq, tushmoq (ishga va h.k.).

settler [setla] *n* ko'chib boruvchi, yangi joyga ko'chib kelgan kishi, ko'chmanchi.

seven ['sevn] *num* yetti.

seventeen [sevnti:n] *num* o'n yetti.

seventeenth [sevnti:nθ] *num* o'n yet-tinchi.

seventh ['sevntθ] *num* yettinchi.

seventy ['sevnti] *num* yetmish.

seventieth ['sevntiθ] *num* yetmishinchi.

several ['sevrəl] *a* **1.** bir qancha, bir qa-tor, bir talay; **2.** turli, har xil, turli-tuman.

severe [si'viə] *a* **1.** talabchan, qattiq ta-lab qiladigan, qattiqqo'l, qahri qattiq, berahm, badjahl, qattiq, jiddiy; **2.** (in-tizom, talab va sh.k. haqida) qattiq, shafqatsiz, beshafqat, shiddatli; **3.** (ka-sallik haqida) xavfli, qattiq, og'ir, jiddiy; **4.** (ob-havo haqida) sovuq, og'ir, salqin; **5.** (uslub va sh.k. haqida) oddiy, jo'n, odmi, muayyan uslubdagi, kelishgan, mutanosib.

severely [si'viəli] *adv* talabchanlik (qat-tiqqo'llik) bilan, qattiq talab qilib, qattiq, qat'iy ravishda, qat'iy, keskin, g'azab bilan.

sew [səu] *v* tikmoq, chatmoq, yama-moq; tikib (chatib, yamab) qo'yimoq.

sewing [səuŋ] *n* tikish.

sex [seks] *n* **1. biol.** jins; **2.** seks (jinsiy hayotga, shahvoniy munosabatlarga bog'liq hamma narsa); jinsiy mayl (qiziqish), jinsiy hayot; **3.** jinsiy aloqa, qovushish, qo'shilish; **4.** insonning tashqi jinsiy a'zolari; **5.** erotika, shah-vatparastlik, shahvoniy his, porno-grafiya (jinsiy hayotni behayolarcha tasvirlovchi adabiyot va san'at asarlari).

sexless ['seksləs] *a* 1. erkak yoki urg'ochilik alomati yo'q, jinssiz; 2. sovuq, e'tiborsiz, iltifotsiz, beiliftot.

sexual ['seksjuəl] *a* jinsiy, shahvoniy, jinsiy hayotga oid (bog'liq bo'lgan).

sexually ['seksjəli] *adv* jinsiy jihatdan (tarafdin), jins nuqtayi nazaridan, shahvoniy tarzda.

shade [ʃeɪd] *n* 1. soya, ko'lanka; 2. to'siq, qalqon; lampa qalpog'i, abajur; 3. rang turi, rangdagi nozik farq; anvoyi; 4. sezilar sezilmas farq; 5. biror narsaning arzimas (kichkina) soni, miqdori.

shadow [ˈʃædəʊ] *n* soya, ko'lanka, sharpa.

shake [ʃeɪk] *v* (pt **shook**; pp **shaken**) silkitmoq, silkimoq.

shaken ['ʃeɪkn] *v* pp of **shake**.

shallow [ˈʃæləʊ] *a* sayoz, uncha chuqur bo'lmagan.

shame [ʃeɪm] *n* 1. or, nomus, uyat, sharm, hayo, ibo, uyalish; - **on you!** sizga uyatmasmi?, uyalmaysizmi?!; 2. uyat, sharmandalik, isnod; 3. dilsiyohlik, ranj, taassuf, achinish, o'kinch; **what a ~!** qanday achinarli!, esiz(gina), afsus, attang! vodarig'!

shame [ʃeɪm] *v* 1. uyaltirib (qizartirib) qo'yimoq, uyatga (isnodga) qoldirmoq; uyaltirmoq, izza (o'sal) qilmoq; 2. sharmanda qilmoq, isnod keltirmoq.

shameful [ˈʃeɪmfʊl] *a* uyat, uyatli, uyatga qoldiradigan, sharmanda qiladigan, isnod keltiradigan.

shameless [ˈʃeɪmləs] *a* uyati (yuzi) yo'q, uyatsiz, nomussiz, hayosiz, behayo, sharmanda, beadab.

shampoo [ʃæmˈpuː] *n* 1. shampun; 2. bosh yuvish.

shape [ʃeɪp] *n* 1. shakl, qolip, tashqi ko'rinish, sharpa, kontur; 2. ma'lum bir shakl, tartib; **to take ~** ma'lum bir shaklga kirmoq, aniqroq shakllana bormoq; 3. hol, holat, ahvol; sportchilarga xos ko'-

rinish; **to be in good ~** yaxshi (sportchilarga xos) ko'rinishda bo'lmoq, yaxshi tayyorgarlikka ega bo'lmoq.

shape [ʃeɪp] *v* 1. shaklga kiritmoq yoki kirmoq; 2. aniq shaklga (ko'rinishga) kiritmoq; tartibga solmoq; 3. shakl (ko'rinish) olmoq; bo'lmoq, bo'lib chiqmoq (yetishmoq), chiqmoq, olinmoq, chiqarilmoq; **to ~ well** yaxshi tus olmoq, yaxshi bo'lmoq, haroridan kelmoq; 4. shakllanmoq.

shaped [ˈʃeɪpt] *a* 1. ma'lum bir shaklga ega bo'lgan, shakllangan; 2. (-**shaped**) qandaydir shaklga ega bo'lgan; **murakkab so'zlarning tarkibi sifatida qo'llaniladi**: -**simon**, ...shaklidagi; **egg-shaped** tuxumsimon, tuxum shaklidagi.

shapeless [ˈʃeɪpləs] *a* 1. shaklsiz; 2. (qomat va sh.k. haqida) beso'naqay, beo'xshov, bichimi kelishmagan.

share [ʃeə] *n* 1. bo'lak, qism; hissa, ulush; 2. ishtirok etish, qatnashish, rol, xizmat, ahamiyat, tutgan o'rin; 3. aksiya (pay puli barobariga beriladigan va aksiyadorlar jamiyati ishida qatnashish, uning daromadidan hissa olish huquqini beradigan qimmatbaho qog'oz); pay, badal, vzos.

share [ʃeə] *v* 1. bo'lishmoq, baham ko'rmoq; taqsimlamoq, bo'lib chiqmoq; 2. sherik (hissador) bo'lmoq, hissa (ulush) qo'shmoq.

shark [ʃɑ:k] *n* zool. akula.

sharp [ʃɑ:p] *a* o'tkir, keskir.

shave [ʃeɪv] *v* soqol olmoq, qirmoq.

shawl [ʃɔ:l] *n* (katta) ro'mol.

she [ʃi:,ʃi:] *pron* u (ayollarga nisbatan).

sheep [ʃi:p] *n* (pl **sheep**) zool. qo'y.

sheet [ʃi:t] *n* 1. choyshab; 2. varaq.

shelf [ʃelf] *n* (pl **shelves**) tokcha.

shell [ʃel] *n* qobiq; po'choq.

shellfish [ˈʃel,fɪʃ] *n* (pl **shellfish**) chig'anoq.

shelter [ˈʃeltə] *n* 1. pana, pana joy,

tʃ chin /θ thin /ð the /ʃ she /ʒ usual /h he /m me /n not /ŋ king /l lip /r rat /j yet /w we

S

pana qiladigan joy; **to give** – pana joy bermoq; **2.** boshpana, turar joy, uy-joy, maskan.

shelter² [ˈʃeltə] *v* **1.** boshpana (joy) bermoq, boshpana (turarjoy) topmoq, joylash(tir)moq; **2.** yashir(in)moq, yashirib olmoq, yashirib qo'yimoq, pana qilmoq, o'zini panaga olmoq, biror narsadan himoya qilmoq (himoyalanmoq).

shield [ʃiːld] *n* qalqon; himoya, to'siq, g'ov, himoya (mudofaa) qiluvchi.

shift [ʃift] *n* **1.** o'z joyini (o'rnini) o'zgartirish, ko'chish, o'z joyidan qo'zg'atish; **2.** smena, almashish.

shine [ʃaɪn] *v* (pt, pp **shone**) yarqiramoq; nur sochmoq.

shining [ˈʃaɪnɪŋ] *a* yarqiroq, yaltiroq, charaqlab (nur taratib) turgan.

shiny [ˈʃaɪni] *a* yarqiroq, yarqiragan, yarqirab (charaqlab turgan).

ship [ʃɪp] *n* **1.** kema; **2.** samolyot, kosmik kema.

shipbuilding [ˈʃɪpbɪldɪŋ] *n* kemasozlik, kema(lar) qurish.

shipping [ˈʃɪpɪŋ] *n* **1.** (savdoga oid) flot; **2.** kemachilik; **3.** yuklash, ortish.

shire [ʃaɪə] *n* graflik.

shirt [ʃɜːt] *n* (erkaklar uchun) ko'yлак.

shock¹ [ʃɒk] *n* **1.** urish, turtish, urilish, zarb, zarba; silkinish; **2.** (hissiyot haqida) hayajon, iztirob; ruhiy larza, putur; **3.** (elektr tokiga nisbatan) elektr tokining urishi (zarbasi), elektroshok; **4.** tib. shok (ruhiy ta'sir yoki jismoniy zarba natijasida organizm funksiyalarining og'ir xastalanishi, buzilishi).

shock¹ [ʃɒk] *v* **1.** larzaga keltirmoq, titratmoq, qattiq ta'sir qilmoq, hayajonlantirmoq, hayratda qoldirmoq, lol (qoyil) qoldirmoq; **2.** g'azablantirmoq, jahlini chiqarmoq, qahrini (g'azabini) keltirmoq, uyatga qo'yimoq, hijolatda qoldirmoq; **3.** urmoq, ta'sir qilmoq, zarba bermoq; shokka tushirmoq.

shocking [ˈʃɒkɪŋ] *a* hayratda qoldiradigan, hayajonlantiradigan, juda ajoyib, g'oyat zo'r.

shoe [ʃuː] *n* tuffli.

shoelace [ˈʃuːleɪs] *n* tuffli bog'ichi.

shoemaker [ˈʃuːmeɪkə] *n* poyafzal ustasi, etikdo'z.

shone [ʃəʊn] *v* pt, pp of **shine**.

shook [ʃʊk] *v* pt of **shake**.

shoot [ʃuːt] *v* (pt, pp **shot**) otmoq, o'q uzmoq.

shop [ʃɒp] *n* do'kon.

shopping [ˈʃɒpɪŋ] *n* xarid, bozorliq; **to do the** – xarid qilmoq.

shopkeeper [ˈʃɒpkiːpə] *n* do'kondor, baqqol, attor.

shore [ʃɔː] *n* qirg'oq, sohil.

short [ʃɔːt] *a* **1.** qisqa, kalta, ozgina (vaqt ichida); qisqacha, lo'nda; **2.** past, bo'yi (qaddi) past, pastak, pakana, pastbo'y; **3.** oz, kam, ozgina, ozlik qiladigan.

shorts [ʃɔːts] *n* (*pl shorts*) kalta shim (ishton).

shot I [ʃɒt] *n* **1.** o'q uzish, otish; otilgan o'q ovozi; **2.** urish, zarba berish, zarb, zarba, otish, irg'itish, tashlash, tushirish; **3.** (odam haqida) o'q otuvchi, mergan; **4.** sport. o'yinchi; **5.** urinish, urinib (sinab) ko'rish, harakat qilib ko'rish; **to have a ~ at smth.** biror narsa qilishga urinib (harakat qilib) ko'rmoq; **6.** (raketa dvigatelini) yurgizib yuborish, uchirish; **a moon ~** oyga uchirish; **7.** (to'p haqida) o'q; sport. yadro, cho'yan shar (irg'itish, otish uchun); **8.** surat (fotosurat); kadr (**1.** kino-foto lentadagi har bir ayrim surat; **2.** kinofilmdagi har bir ayrim manzara, epizod); **9.** doza, o'Ichovli miqdor (dori-darmon, nurlanish energiyasi va sh.k. haqida); sanchish, sanchib olish, ukol (qilish), dori yuborish; **10.** novda, shox, nish, kurtak.

shot II [ʃɒt] *v* pt, pp of **shoot**.

should [ʃəd; ʃud] *modal v* **1.** „shall“ ning o'tgan zamon shakli; **2.** 1-shaxs birlik hamda ko'plikni yasovchi ko'makchi fe'l: **a)** o'tgan zamondagi kelasi zamon; **b)** fe'llari o'tgan zamonda bo'lgan „if“li gaplarda „shall“ o'rnida qo'llaniladi; **3.** „if“li gaplarda kelajakda yuz berishi mumkinlik ma'nosida ishlatiladi; **4.** (maslahat berish uchun ishlatiladi) kerak, zarur, lozim, darkor; **5.** ba'zi his-tuyg'uni ifodalovchi iboralarda „that“dan keyin ishlatiladi.

shoulder [ˈʃəʊldə] *n anat.* yelka.

shout [ʃaʊt] *v* qichqirmoq, baqirmoq, qiyqirmoq, hayqirmoq, dod solmoq.

show¹ [ʃəʊ] *n* **1.** namoyish, ko'rgazma; **2.** ko'rsatuv.

show² [ʃəʊ] *v* (pt **showed**; pp **shown**) ko'rsatmoq.

shower [ˈʃaʊə] *n* dush; **to have a ~** dushga tushmoq.

shown [ʃəʊn] *v pp of show*².

show-off [ˈʃəʊɒf] *n* maqtanchoq.

shrank [ˈʃræŋk] *v pt of shrink*.

shrink [ˈʃrɪŋk] *v* (pt **shrank**; pp **shrunk**) qisqarmoq, kichraymoq, toraymoq.

shrunk [ˈʃrʌŋk] *v pp of shrink*.

shut¹ [ʃʌt] *a* yopiq, bekik, qulflab (yopib) qo'yilgan.

shut² [ʃʌt] *v* (pt, pp **shut**) **1.** yop(il)moq, bekit(il)moq, bekitib (yopib) qo'ymoq, bekitib (yopilib) qolmoq; **2.** qattiq qismoq, yummoq; **3.** bekitmoq, yopmoq, ishini to'xtatib qo'ymoq.

shut away [ˌʃʌtəˈweɪ] *phr.v* yashirinmoq, bekinmoq, bekinib (yashirinib) olmoq.

shut down [ˌʃʌtˈdaʊn] *phr.v* **1.** (qorqoq va sh.k. ni) yopmoq, tushirmoq, tashlamoq; **2.** (korxonani) bekitmoq, yopmoq, ishini to'xtatib qo'ymoq; **3.** (mashina) ishini to'xtatmoq; (dastgohni) o'chirmoq.

shy [ʃaɪ] *a* uyatchan, tortinchoq; *iboli*; **to be ~** uyalmoq, iymanmoq, tortinmoq.

sick [sɪk] *a* **1.** kasal, betob, xasta, bemor, nosog'; **2.** ko'ngli ayniyotgan, behuzur bo'layotgan; **he feels ~** uning ko'ngli ayniyapti, u behuzur bo'layapti; **3.** biror narsadan juda to'ygan, g'oyat zerikkan, charchagan, bezgan; **I am ~ and tired of it** bu juda jonimga tegdi, bundan juda bezor bo'ldim; **4.** qayg'uli, g'amgin, ma'yus, xafa; dahshali, qo'rqinchli, mudhish; ~ **humour** achinarli yumor; **5.** sog'inayotgan, qo'msayotgan, sog'inib siqilayotgan, ichikayotgan.

sicken [ˈsɪkən] *v* **1.** kasallanmoq, betoblanmoq, kasal (betob) bo'lib qolmoq, tobi qochmoq; **2.** nafrat uyg'otmoq, jirkantirmoq; nafratlanmoq, jirkanmoq; **3.** ko'ngli aynimoq, behuzur bo'lmoq; ko'nglini aynitmoq, behuzur qilmoq; **4.** ranjimoq, achchig'i (jahli) chiqmoq; ranjitmoq, achchiqlantirmoq, jahlini chiqarmoq.

side [saɪd] *n* **1.** taraf, tomon, yoq; ~ **to ~** u yondan bu yonga; **2.** yon, yonbosh, biqin; yon tomon (taraf); **3.** yoqa, qirra, chekka, lab; (tog' haqida) qiyalik, nishab, yonbag'ir; (daryo haqida) qirg'oq, chet.

sideways [ˈsaɪdweɪz] *adv* yon bilan, yon tomonlab, yon tomoni bilan.

sight¹ [saɪt] *n* diqqatga sazavor joy, tomoshagoh.

sight² [saɪt] *v* ko'rib qolmoq.

sign¹ [saɪn] *n* **1.** belgi; **2.** imzo.

sign² [saɪn] *v* **1.** imzo chekmoq, qo'l qo'ymoq, imzolab tasdiqlamoq; **2.** qo'l bilan imo (ishora) qilmoq, belgi (ishora) qo'ymoq.

sign out [ˈsaɪnaʊt] *phr.v* chiqmoq, o'chmoq, chiqib ketmoq (mehmonxona va sh.k.dan).

signal¹ [ˈsɪgnəl] *n* **1.** signal; belgi; **2.** signal beruvchi qurilma.

signal² [ˈsɪgnəl] *a* **1.** misli yo'q (ko'rilmagan), mislsiz, ajoyib, nihoyatda ajoyib, muhim, ahamiyatli, katta ahamiyatga ega

bo'lgan; **2** – **failure** to'la muvaffaqiyatsizlik; **2**. signalga oid; signal beradigan; signal...

signal³ ['sɪgnəl] *v* **1**. signal bermoq, xabar bermoq; **2**. dalolat (darak, xabar) bermoq, anglatmoq, ko'rsatmoq, bildirmoq.

signature ['sɪgnətʃə] *n* imzo, qo'l.

silence ['saɪləns] *n* **1**. jimjitlik, tinchlik, sokinlik, sukunat; **2**. sukut saqlash.

silent ['saɪlənt] *a* **1**. kamgap, indamas, gapirmas; **2**. jimjit, tinch, osoyishtasokin, sukunatdagi; ohista, shovqinsiz; **3**. (harf haqida) o'qilmaydigan, talaffuz qilinmaydigan.

silk [sɪlk] *n* ipak, pilla; shoyi mato.

silkworm ['sɪlkwɜ:m] *n* ipak qurti.

silly ['sɪli] *a* **1**. axmoq, tentak; befarosat, befahm, kaltafahm; **2**. noma'qul, bema'ni, o'yلامasdan qilingan, axmoqona.

silver¹ ['sɪlvə] *a* **1**. kumushga oid; kumushdan qilingan, kumush ...; **2**. kumushdek; kumushsimon; kumushrang.

silver² ['sɪlvə] *n* **1**. kumush, nuqra; **2**. kumush (nuqra) tangalar; **3**. kumush buyumlar.

similar ['sɪmələ] *a* o'xshash, o'xshagan, singari; **to be** ~ o'xshamoq, o'xshash bo'lmoq.

similarity ['sɪmɪ'lærɪti] *n* (*pl* **similarities**) o'xshashlik.

simple ['sɪmpl] *a* oddiy, sodda, oson, jo'n.

simply ['sɪmpli] *adv* **1**. faqat, xolos; turgan-bitgani; shunchaki; **2**. atigi, faqat.

simulator ['sɪmjʊ:leɪtə] *n* simulator.

since I [sɪns] *cj* **1**. o'sha vaqtdan buyon (beri); **2**. madomiki, hamonki; sababli, uchun.

since II [sɪns] *prep* ...dan beri, ...dan buyon (boshlab).

sincere [sɪn'sɪə] *a* samimiy, ochiqko'ngil.

sincerely [sɪn'sɪəli] *adv* samimiyat bilan, ochiq ko'ngillik bilan.

sincerity [sɪn'sɪərəti] *n* samimiylik, samimiyat, ochiq ko'ngillik.

sing [sɪŋ] *v* (*pt* **sang**; *pp* **sung**) **1**. ashula (qo'shiq) aytmoq, kuylamoq; **2**. (she'riyatda) madh qilmoq (etmoq), tarannum etmoq.

singer ['sɪŋə] *n* qo'shiqchi, ashulachi, hofiz, xonanda.

singing ['sɪŋɪŋ] *n* **1**. ashula aytish; **2**. sayrash.

single ['sɪŋɡl] *a* **1**. birdan-bir, yolg'iz, yakkayu-yagona; **2**. bittalik; toq; **3**. ayrim, alohida, yakka, tanho; **4**. yolg'iz, bo'ydoq, uylanmagan, oilasiz, turmushga chiqmagan, so'qqabosh; **5**. bir yo'nalish uchun yaroqli; **6**. bir kishi uchun mo'ljallangan.

single sex ['sɪŋɡlseks] *n* bir jinsdagi (qiz va o'g'il bolalarga alohida ta'lim berish).

singular ['sɪŋɡjələ] *a* *gram.* birlik..., birlikdagi.

singular ['sɪŋɡjələ] *n* *gram.* birlik, birlik son.

sink I [sɪŋk] *n* rakovina.

sink II [sɪŋk] *v* (*pt* **sank**; *pp* **sunk**) cho'kmoq, g'arq bo'lmoq, cho'ktirmoq.

sir [sɜ:] *n* ser, taqdir, janob (murojaat shakli).

sister ['sɪstə] *n* opa, singil.

sit [sɪt] *v* (*pt*, *pp* **sat**) o'tirmoq.

Sit down. ['sɪtdaʊn] *int* O'tir(ing).

site [saɪt] *n* **1**. o'rnashgan (turgan) joy, joylashgan yer, turgan joyi, o'rmi; **2**. joy, o'rin, makon, imorat solish uchun joy, uchastka.

situate ['sɪtʃueɪt] *v* joylashmoq, joylashgan bo'lmoq.

situated ['sɪtʃueɪtɪd] *a* **1**. joylashgan, o'rnashgan, manzil qurgan, qandaydir tarzda joylashgan (o'rnashgan); **2**. qandaydir holatlarda (sharoitlarda) bo'lgan.

situation [sɪtʃu'eɪʃn] *n* **1**. sharoit, vaziyat, holat, ahvol; **2**. o'rnashgan (ishg'ol qilgan) joy, turar joy, joylashgan yer,

o'rin, joy, makon; **3.** ish, vazifa, lavozim, mansab, amal, o'rin.

sit-up ['sitʌp] *n sport.* o'tirib turish mashqi.

six [siks] *num* olti.

sixteen [siks'ti:n] *num* o'n olti.

sixteenth [siks'ti:nθ] *num* o'n oltinchi.

sixth [siksθ] *num* oltinchi.

sixtieth [siks'tiθ] *num* oltmishinchi.

sixty [siks'ti] *num* oltmish.

size [saɪz] *n* **1.** katta-kichiklik, kattalik, o'lcham, miqdor, hajm, ko'lam; **2.** (kiyim-kechak va poyabzal haqida) o'lcham; **3.** format, hajm, o'lcham.

skate¹ [skeɪt] *n sport.* konki.

skate² [skeɪt] *v sport.* konki(da) uchmoq.

skeleton ['skelɪtn] *n anat.* skelet.

ski¹ [ski:] *n sport.* chang'i.

ski² [ski:] *v sport.* chang'i uchmoq.

skiing ['skiɪŋ] *n* **1.** chang'i sporti; **2.** chang'ida yurish (uchish).

skilful ['skɪfl] *a* **1.** mohir, usta, mahoratli, ustasi farang, ishbilarmon, omilkor, uquvli; **2.** ustalik bilan qilingan, mohirona (san'atkorona) ishlangan.

skilfully ['skɪfləli] *adv* mohirona, san'atkorona, mahorat (mohirlik, ustalik, uquv) bilan.

skill [skɪl] *n* **1.** malaka, mahorat, san'at, ustalik, mohirlik, tajriba; **2.** ixtisos, kasb, hunar; **3.** iste'dod, qobiliyat, layoqat.

skilled [skɪld] *a* **1.** tajribali, ishbilarmon, omilkor, uquvli, mohir, usta, mahoratli, ustasi farang; **2.** ixtisosli, malakali, yuqori malaka talab etadigan.

skin [skɪn] *n* **1.** teri; **2.** (hayvonlar haqida) teri, charm, ko'n; mo'yna; **3.** (meva, sabzavotlar haqida) po'st, po'stloq, po'choq; nozik (yupqa, parda) po'st.

skip [skɪp] *v* sakramoq, sapchimoq.

skirt [skɜ:t] *n* yubka (kiyim).

skull-cap ['skʌlkæp] *n* do'ppi.

sky [skai] *n* osmon, ko'k, samo, falak.

skyscraper ['skaɪskreɪpə] *n* osmon-o'par bino.

slang [slæŋ] *n* sleng; jargon.

slave I [sleɪv] *n* **1.** qul, banda, bandi, asir, tutqin; **2.** (g'oya, o'zganing xohishi va sh.k. ning) qurboni, quli, asiri, bandasi; ~ **to fashion** moda qurboni; **3.** pastkash (palid) xushomadgo'y, laganbardor, laganbardor (xushomadgo'y) malay, xizmatkor.

slave II [sleɪv] *v* holi-joni qolmay charchaguncha ishlamoq, zo'r bermoq, jon-jahdi bilan urinmoq, kuchanmoq, chiranmoq.

slavery [sleɪvəri] **1.** qullik, qullik tuzumi; tutqunlik, asorat; **2.** quldorlik, qullarga egalik; **3.** og'ir (qiyin, mashaqqatli), majburiy mehnat; **4.** odat, xohish va sh.k. ga qullarcha bo'ysunish.

sledge¹ [sledʒ] *n sport.* chana.

sledge² [sledʒ] *v sport.* chanada uchmoq.

sleep [sli:p] *v* (pt, pp **slept**) uxlamoq, orom olmoq.

sleepy ['sli:pi] *a* **1.** seruyqu, uyqudan bosh ko'tarmaydigan, uyquchi; **2.** uyqusiragan, uyqu bosgan; **3.** lanj, karaxt, sust, lohas.

sleeve [sli:v] *n* **1.** yeng; **2.** *tex.* vtulka; **3.** patrubok (truboprovod, rezervuar va sh.k. lardan chiqarilgan, tarmoqlangan qisqa truba); **to have/to keep smth. up one's** ~ xayolida (dilida, ko'nglida) turmoq, bo'lmoq; **to laugh up one's** ~ sezdirmasdan (zimdan, bildirmasdan) kulmoq.

sleeved [sli:vd] *a* yengli, yengi bor bo'lgan; **short** ~ kalta yengli.

slept [slept] *v pt, pp of sleep.*

slice [slais] *n* burda, tilim; **a - of** bir burda...

slid [slɪd] *v pt, pp of slide.*

slide [slɑɪd] *v* (pt, pp **slid**) sirg'anmoq, sirpanmoq, toymoq.

slight [slait] *a* 1. kelishgan, xushbichim, xushqad, qomati raso; nafis, nozik, bejirim; mo'rt, sinuvchan, tez sinadigan, uvalanuvchan; 2. pishiq (puxta, mustahkam) emas, bo'sh, zaif, nimjon, kuchsiz; 3. kuchsiz, jiddiy bo'lmagan, arzimas, arzimagan, ahamiyatsiz, juz'iy, kichkina; **a ~ cold** yengil shamollash; **not in the -est** sira, hech, aslo, hech bir, zarracha ham; 4. oz, kam, sal, sal-pal, ozgina, yengilgina; 5. yuzaki, past, sayoz, yengil-yelpi, uncha chuqur (teran) bo'lmagan.

slightly [slaitli] *adv* ozgina, bir oz, andak, sal, sal-pal, xiyol, sekingina, yengilgina; ~ **built** nozik (zaif, nimjon) jussa, sumbat; nozikkina, ozg'ingina.

slim I [slim] *a* 1. nafis, nozik, bejirim, kelishgan, xushbichim, xushqad, qomati raso; 2. uncha ko'p (katta) bo'lmagan, ozgina, bir oz, andak; **a ~ hope** unchalik qat'iy bo'lmagan ishonch; ozgina umid.

slim II [slim] *v* ozmoq, etdan tushmoq (tushirmoq), ozishga harakat qilmoq.

slip I [slip] *n* sirg'anish, sirpanish, toyish; **to give smb. the ~** kimsadan sekingina qochmoq, qochib ketmoq, quyon bo'lmoq.

slip I² [slip] *v* 1. sirg'anmoq, sirpanmoq, toymoq; toyib (sirg'anib, sirpanib) ketmoq; 2. lip etib kirib (yoki chiqib) ketmoq; lip etib o'tib olmoq, sezdirmay kirmoq, hekinib kirib olmoq; **to ~ one's mind** esdan (yoddan) chiqmoq, xayoldan ko'tarilmoq; **let ~ a** (imkoniyat va sh.k. larni) qo'ldan boy bermoq; **b**) og'zidan chiqib ketmoq, bexosdan aytib yubormoq.

slip II [slip] *n* 1. uzun ensiz tilim, tasma; **a ~ of paper** qog'oz tilimi (qirqimi); 2. (o'simlik haqida) yangi novda, shox, bo'toq, qalamcha; 3. (odam haqida) kichkinagina nozik jon (odam); **a ~ of a girl** ozg'ingina (oriqqina) qizcha.

slipper ['slipə] *n* shippak, uybob tuflı.

slippery ['slipəri] *a* sirpanchiq, sirg'an-chiq.

slogan ['sləʊgən] *n* shior.

slope¹ [sləʊp] *n* 1. qiyalik, nishab, yonbag'ir; qiyama tog' (tepalik), qiya tog' yoki tepalik yon bag'ri; 2. qiyalik, nishablik, nishab.

slope² [sləʊp] *v* 1. egilmoq, engashmoq, bukilmog; og'moq, quyi solinmoq, qiyalamoq; qiya qilib suyab yoki tirab qo'ymoq; 2. egmoq, engashtirmoq; 3. bildirmasdan (sekingina) qochib qolmoq, quyon bo'lmoq (*shuningdek: - off*).

slow¹ [sləʊ] *a* 1. sekin, asta, sust; 2. sustkash, sekin harakat qiladigan, lanj; imillagan, imirsilagan; 3. (soat haqida) orqada qoladigan, sekin yuradigan; 4. zehni past, anqov, befahm; 5. zerikarli, ziq (diqqat) qiladigan, qizig'i yo'q.

slow² [sləʊ] *adv* sekinlik bilan, sekin, asta; shoshilmay, imillab.

slow³ [sləʊ] *v* (tezlik va sh.k. haqida) sekinlash(tir)moq, sekinla(t)moq, susay(tir)moq, pasay(tir)moq, kamay(tir)moq, tush(ir)moq (~ **down, up**).

slow down [sləʊ'daʊn] *phr.v* 1. tezlikni kamaytirmoq; 2. sekinlashtirmoq, sekinlatmoq, susaytirmoq, pasaytirmoq, kamaytirmoq.

slow down [sləʊdaʊn] *n* 1. sekinlashish, sustlashish, tormozlanish, to'xtab qolish; 2. ish sur'atining susayishi.

slowly [sləʊli] *adv* sekinlik bilan, sekin, asta; shoshilmay, imillab.

small [smɔ:l] *a* kichik, kichkina, mayda.

small-scale [smɔ:l 'skeɪl] *a* kichik hajmdagi (ko'lamdagi).

smart [smɑ:t] *a* 1. zebo, orasta; kelishgan, xushbichim; 2. topag'on, ustamon; aqlli, tez tushunadigan, fahmli; 3. (harakatga nisbatan) keskin, qattiq, shiddatli, zo'r, kuchli; 4. yuksak ta'v va modaga javoh beradigan, dabdabali, hashamatli.

smell¹ [smel] *n* hid, is.
smell² [smel] *v* hid taratmoq, (chiqarmoq).
smile¹ [smaɪl] *n* kulgi, tabassum.
smile² [smaɪl] *v* **1.** kulmoq, jilmaymoq, tabassum qilmoq; **2.** kulib (kulgi bilan) ifodalamoq; **3.** iltifot (marhamat) bilan qaramoq; ma'qullamoq, tahsinlamoq.
smithy ['smɪði] *n* temirchilik ishxonasi (sexi).
smoke¹ [sməʊk] *n* tutun.
smoke² [sməʊk] *v* **1.** tutamoq; **2.** chekmoq.
smoking ['sməʊkɪŋ] *n* chekish.
smooth¹ [smu:θ] *a* **1.** tekis, tep-tekis, silliq; **2.** bir tekis, bir maromdagi, ravon, silliq, mayin, ohista, shoshmasdan; tinch, jimjit, sokin; **3.** bir xil, bir turdagi, o'xshash; **4.** taxir (achchiq) emas, shirin, kuchsiz, ta'sirsiz, uncha mast (ta'sir) qilmaydigan (vino va sh.k. haqida); **5.** xushomadgo'y, laganhardor, yaltoq, tilyog'lama, ayyor, tulki; **6.** usta, ustamon, uddaburon, olg'ir; **a** ~ **salesman** ustamon sotuvchi.
smooth² [smu:θ] *v* (*shuningdek*: ~ **down**, ~ **out**, ~ **away**, ~ **over**) **1.** tekislatmoq, silamoq, silab-siypab qo'yimoq, silab silliq-lamoq, tekislab qo'yimoq; **2.** (*shuningdek*: ~ **down**) tinchi(t)moq, tinchlan(tir)moq, yupatmoq, yupanmoq, ovutmoq, ovunmoq; **3.** yumshatmoq, eritmoq, muloyim (yumshoq, mayin) qilmoq.
smoothly [smu:θli] *adv* **1.** tekislab, silliq qilib, tep-tekis, sip-silliq; **2.** bir tekisda, bir maromda, ravon, silliq, mayin, ohista, shoshmasdan.
snack [snæk] *n* tamaddi, yengilgina ovqatlanish.
snail [sneɪl] *n* zool. shilliqqurt.
snake [sneɪk] *n* zool. ilon.
sneeze [sni:z] *v* aksirmoq, aksa urmoq.
snooze [snu:z] *n* qisqa tush.
snore [snɔ:] *v* xurrak otmoq.

snorkel [snɔ:kəl] *n* naycha; g'avvos trubkasi.

snow¹ [snəʊ] *n* qor.

snow² [snəʊ] *v* qor yog'moq.

snow leopard [snəʊ'lepəd] *n* zool. qor qoplani.

Snow White ['snəʊwaɪt] *n* Qorqiz.

snowball [snəʊbɔ:l] *n* qor to'pi.

snowman [snəʊmæn] *n* qor odam.

snug [snʌg] *a* qulay, shinam.

so¹ [səʊ] *adv* **1.** shunday, demak, shunday ekan, shunday qilib; **2.** shu darajada, shu qadar, shunchalik; **3.** shu tarzda, shu ravishda.

so² [səʊ] *cj* **1.** shunday ekan (qilib), shuning uchun, shu sababli; **2.** ...shi uchun.

so far [səʊ fa:] *adv* shu paytgacha (vaqtgacha, damgacha, choqqacha).

so many [səʊ meni] *det* qanchadir, faloncha.

so that [səʊ ðæt] *cj* ...shi uchun, maqsadida.

soak [səʊk] *v* namlamoq, ho'llamoq, nam qilmoq, ivitmoq.

soap [səʊp] *n* sovun.

soccer ['sɒkə] *n* sport. futbol.

sociable [səʊʃəbl̩] *a* **1.** kirishimli, hamsuhbat, dilkash; **2.** do'stona munosabatdagi, do'stona, samimiy.

social [səʊʃl] *a* ijtimoiy; jamiyatga (jamoaga, jamoatchilikka) oid.

socially ['səʊʃəli] *adv* **1.** ijtimoiy jihatdan, jamiyat nuqtayi nazaridan; **2.** sinfiy tomondan; jamiyatda tutgan o'rniga ko'ra; **3.** norasmiy holatda (ravishda, tarzda), do'stona munosabat-larcha.

social sciences [səʊʃl'saɪnsɪs] *n* ijtimoiy fanlar.

social security [səʊʃl'sɪ'kjʊərəti] *n* ijtimoiy ta'minot.

social worker [səʊʃl'wɜ:kə] *n* patronaj yordamchisi.

society [sə'saɪəti] *n* (*pl societies*) **1.** jamiyat; **2.** jamoatchilik, jamoat.

sociology [səʊsi'ɒlədʒi] *n* sotsiologiya, jamiyatshunoslik.

sock [sɒk] *n* paypoq.

sofa [səʊfə] *n* divan.

soft [sɒft] *a* yumshoq, mayin.

soft drink [sɒft drɪŋk] *n* spirtsiz ichimlik.

soften [sɒfn] *v* yumsha(t)moq, muloyimlash(tir)moq, yumshoq (muloyim, mayin) bo'lmoq, qilmoq.

soft-hearted [sɒft'hɑ:tɪd] *a* ko'ngli yumshoq, ko'ngilchan, rahmdil.

softly [sɒfli] *adv* muloyim (mayin)gina, muloyimlik (mayinlik) bilan, muloyim (yumshoqqina) qilib, yumshoq ohangda, ohista.

software [sɒftweə] *n* dasturiy ta'minot (*kompyuter uchun*).

soil [sɔɪl] *n* yer, tuproq.

sold [səʊld] *v* *pt, pp of sell*.

soldier [səʊldʒə] *n* askar; harbiy xizmatchi.

sole [səʊl] *n* **1.** oyoq kafti; **2.** tufli tagligi, tagcham.

solely [səʊlli] *adv* faqatgina, atigi, yolg'iz.

solid [sɒlɪd] *a* qattiq; mahkam, pishiq, puxta; chidamli, mustahkam.

solidify [sə'lɪdɪfaɪ] *v* **1.** qotmoq, qattiqlashmoq, qattiq holga kelmoq; **2.** mustahkamlamoq, mahkamlamoq.

solo [səʊləʊ] *a* *mus.* yakka, bir kishi tomonidan ijro etiladigan.

solution [sə'lu:ʃn] *n* yechim (masala, muammoning).

solve [sɒlv] *v* yechmoq, hal qilmoq, to'g'ri javob topmoq.

some¹ [səm; sʌm] *a* ba'zi, ayrim.

some² [səm, sʌm] *pron* ba'zi; - **of them** ularning ba'zilari (ayrimlari).

some³ [səm, sʌm] *det* bir nechta (oz).

somebody [sʌmbədi] *pron* kimdir, birov, allakim, biror kishi.

someone [sʌmwʌn] *pron* kimdir, birov, allakim, qandaydir bir kishi.

something [sʌmθɪŋ] *pron* nimadir, qandaydir bir narsa; biror narsa.

sometimes [sʌmtaɪmz] *adv* ba'zan, ba'zida, onda-sonda, vaqti-vaqti bilan, har zamonda.

somewhere [sʌmweə] *pron* biror yer (joy).

son [sʌn] *n* o'g'il.

song [sɒŋ] *n* **1.** qo'shiq, ashula, o'lan; **2.** ashula aytish; sayrash.

soon [su:n] *adv* tezda (yaqin orada), tez kunda, hademay, ko'p o'tmay, darrov; **as - as ...** bilanoq, ...zahoti, ...zamon; **as - as possible** iloji boricha tezroq.

sore [sɔ:] *a* og'riqli.

sorry [sɒri] *v* achinmoq, rahmi kelmoq; **I'm -** kechirasiz, uzr; **Sorry** kechirasiz.

sort¹ [sɔ:t] *n* **1.** nav, tur, xil, ko'rinish; **2.** kishi, shaxs.

sort² [sɔ:t] *v* saralamoq, xillamoq, navlarga, xillarga ajratmoq.

sought [sɔ:t] *v* *pt, pp of seek*.

soul [səʊl] *n* **1.** qalb, ko'ngil, yurak; jon, ruh; **2.** mohiyat, tub (asosiy) ma'no, ajralmas (daxlsiz) xususiyat; asosiy (eng muhim, markaziy) shaxs; **3.** odam, kishi, jon; **a simple -** soddadil odam, go'l odam; **to keep body and - together** uchini uchiga arang yetkazmoq, arang tirikchilik o'tkazmoq, qo'l uchida kun ko'rmoq.

soulful [səʊfl] *a* **1.** samimiy, dilkash, jonajon; **2.** xumor, nozli; horg'in; - **look (sigh)** xumor ko'z bilan qarash; horg'in nigoh (xo'rsinish).

soulless [səʊləs] *a* jonsiz, o'lik; shafqatsiz, berahm, bag'ri tosh.

soum [su:m] *n* so'm (pul birligi).

sound¹ [saʊnd] *n* tovush, ovoz, sado, sas, un; shovqin, g'ovur-g'uvur, shovshuv.

sound² [saʊnd] *v* **1.** ovoz (tovush) chiqarmoq, sado bermoq, jaranglamoq,

yangramoq; **2.** taassurot uyg'otmoq, ...bo'lib tuyulmoq, ...ga o'xshab ko'rinmoq.

soup [su:p] *n* sho'rva.

sour [sauə] *a* nordon, achchiq.

source [so:s] *n* manba, asos, negiz; boshi, boshlanish joyi.

south¹ [sauθ] *a* janubga oid; janubiy, janub ...; janubga qaragan.

south² [sauθ] *adv* **1.** janubga; **2.** (shamol haqida) janubdan, janubiy.

south³ [sauθ] *n* **1.** janub, janub tomon (taraf); **2.** janub, (iqlimi) issiq o'lka, janub tomonda joylashgan mamlakat, davlat yoki qit'a.

south-east [sauθi:st] *n* janubi-sharq.

southern ['sʌðən] *a* janubga oid; janubiy, janub ...; janubga (janubiy o'lkalarga) xos.

southerner ['sʌðənə] *n* janub kishisi, janublik.

south-west [sauθwest] *n* janubi-g'arb.

south-western [sauθwestən] *a* janubi-g'arbiy, janubi-g'arbdagi, janubi-g'arb tomondagi, janubi-g'arb ...

souvenir [su:vəniə, 'su:vəniə] *n* esdalik uchun sovg'a, suvenir.

sovereign [sɒvrɪn] *a* suveren, mustaqil, erkin, hur.

sovereignty [sɒvrənti] *n* suverenitet, mustaqillik.

sow [sau] *v* (pt **sowed**; pp **sown**) sepmoq, sochmoq, ekmoq.

sowed [səʊd] *v* pt of **sow**.

sown [səʊn] *v* pp of **sow**.

space [speɪs] *n* **1.** fazo, bo'shliq; keng sath, maydon; **2.** vaqt oralig'i; o'rtadagi masofa, oralig; **3.** masofa, ora; uzoqlik, yo'l; **4.** kosmos, olam, koinot; fazoviy bo'shliq.

spacecraft [speɪskra:ft] *n* kosmik kema.

space race [speɪsreɪs] *n* kosmik musobaqa.

spaceship [speɪsʃɪp] *n* kosmik kema.

spade [speɪd] *n* belkurak.

spaghetti [spə'ɡeti] *n* spagetti.

Spanish¹ ['spæniʃ] *a* Ispaniya va ispanlarga oid, ispancha, ispan...

Spanish² ['spæniʃ] *n* **1.** ispan tili; **2.** ispaniyalik.

spat [spæt] *v* pt, pp of **spit²**.

speak [spi:k] *v* (pt **spoke**; pp **spoken**) gapirmoq; to ~ to ...bilan gaplashmoq.

speaker [spi:kə] *n* **1.** ma'ruzachi, notiq, so'zlovchi, gapiruvchi; va'zxon; **2.** radiokarnay.

special ['speʃl] *a* maxsus, ixtisoslashtirilgan; o'ziga xos, alohida.

specialist [speʃəlɪst] *n* mutaxassis.

specialized (specialised) [speʃəlaɪzd] *a* ixtisoslashtirilgan, maxsus maqsad uchun belgilangan, maxsus.

specially [speʃəli] *adv* **1.** maxsus, ataydan, atayin; **2.** boshqacha, o'zgacha, alohida, g'oyat.

specialty [speʃəlti] *n* (pl **specialties**) mutaxassislik, ixtisos, soha.

specific [spə'sɪfɪk] *a* **1.** o'ziga xos, alohida, o'zgacha; maxsus, ixtisoslashtirilgan.

spectator ['spekteɪtə] *n* tomoshabin.

speech [spi:tʃ] *n* **1.** nutq, so'zlash (gapi-rish) qobiliyati, til; **2.** nutq uslubi, talaf-fuz; **3.** xalq oldida so'zlanadigan nutq, so'z, chiqish (nutq, qap, bayonot va h.k.), nutq (notiqniki).

speed [spi:d] *n* tezlik; temp.

spell [spel] *v* (pt, pp **spelled/spelt**) xarflab aytmoq yoki yozmoq.

spelling ['speliŋ] *n* imlo, orfografiya.

spelt [spelt] *v* pt, pp of **spell**.

spend [spend] *v* (pt, pp **spent**) **1.** sarflamoq, sarf qilmoq, xarajat qilmoq; **2.** (vaqt) o'tkazmoq; **3.** ishlatib tugatmoq, bitirmoq, tamom (sop) qilmoq, quritmoq.

spent [spent] *v* pt, pp of **spend**.

spice [spaɪs] *n* **1.** maza berish va xushbo'y qilish uchun ovqatga solinadigan

tʃ chin / θ thin / ð the / ʃ she / ʒ usual / h he / m me / n not / ŋ king / l lip / r rat / j yet / w we

ziravor, dorivor (mas., gorchitsa, zira, murch va sh.k.); **2.** o'tkir hid, xushbo'y hid; **3.** o'tkirlik, ta'sirchanlik, ta'sirlilik, qiziqlik.

spice² [spais] *v* **1.** dorivor ziravor solmoq, qo'shmoq; **2.** qiziq tus (ohang) bermoq, jilo bag'ishlamoq.

spicy [spaisi] *a* **1.** ziravor solingan, dorivorli, ziravorli; **2.** o'tkir, xushta'm, hidi yaxshi, xushbo'y, muattar; **3.** keskin, jiddiy, zo'r, o'ziga jalb qiluvchi, qiziq, ajoyib.

spider [ˈspaidə] *n* o'rgimchak.

spill [sprɪl] *v* (pt, pp **spilt** or **spilled**) to'k(il)moq, to'kib yubormoq.

spilt [sprɪlt] *v* pt, pp of **spill**.

spin¹ [spɪn] *n* **1.** aylan(tir)ish, aylanma harakat qilish; **2.** uzoq davom etmagan (qisqa) sayr *yoki* safar; **to go for a** – **in a car** avtomobilda aylanib kelmoq.

spin² [spɪn] *v* (pt, pp **spun**) **1.** aylan(tir)moq, bura(l)moq, g'ildira(t)moq, pirilla(t)moq, gir-gir aylan(tir)moq, aylanib uchib yurmoq (parvoz qilmoq); **2.** yigirmoq; eshmoq, pishitmoq, chiyir-moq.

spinach [ˈspɪnɪdʒ] *n* bot. ismaloq.

spirit¹ [ˈspɪrɪt] *n* **1.** ruh, jon; **in** – xayolida, fikrida, farazida, ko'nglida, ko'ksida, ichida, o'zicha; **2.** ruh, xayoliy sharpa, ko'lanka, arvoh; **3.** ruhiy (ma'naviy) kuch; g'ayrat, shijoat, faollik, kuch-quvvat; qat'iyat, jasorat, jur'at, qat'iylik, dadillik; **4.** kayfiyat, dimog', avzo, hafsala, ruhiy holat; **to be in high (low)** –s ko'tarinki (tushkun) kayfiyatda, ruhda bo'lmoq.

spirit² [ˈspɪrɪt] *v* tetiklashtirmoq, jonlantirmoq; dalda bermoq, ruhlantirmoq, ko'nglini (ruhini) ko'tarmoq, tasalli bermoq; g'ayratini oshirmoq, otlantirmoq, g'ayratlantirmoq (*shuningdek:* ~ **up**).

spirited [ˈspɪrɪtɪd] *a* **1.** qizg'in, jo'shqin, g'ayratli, dolzarb, ruhli, jonli, chaqqon;

2. (-**spirited**) *murakkab so'zlarning tarkibiy qismi sifatida* ...ruhdagi, ...kayfiyatdagi; **high** – qizg'in, jo'shqin, g'ayratli, yuragida o'ti bor, o't, olov; **low** – ruhi tushgan, g'amgin, ma'yus.

spiritual [ˈspɪrɪtʃuəl] *a* **1.** aqliy, ruhiy, ma'naviy; **2.** diniy, xurofiy; **3.** muqaddas, aziz, tabarruk, ilohiy; **4.** ulug'vor, ulug'sifat, ko'tarinki, olijanob, yuksak, buyuk.

spit¹ [spɪt] *n* tupuk, so'lak, so'lakay.

spit² [spɪt] *v* (pt, pp **spat**) tupurmoq, tupurib tashlamoq.

spite [spat] *n* kek, adovat, xusumat; **in** – **of** ...ga qaramasdan, qaramay.

splash¹ [splæʃ] *n* **1.** shaloplash, shappillash; **2.** sachratish, sochish, sepish.

splash² [splæʃ] *v* **1.** shalopla(t)moq, shappilla(t)moq; **2.** soch(il)moq, sachra(t)moq, purkamoq.

split¹ [splɪt] *n* bo'lak, kesik.

split² [splɪt] *v* (pt, pp **split**) bo'laklarga ajratmoq, bo'lmoq, tarqatmoq.

spoil [spɔɪl] *v* (pt, pp **spoilt** or **spoiled**) buz(il)moq, yomonlash(tir)moq, ayni(t)moq.

spoilt [spɔɪlt] *v* pt, pp of **spoil**.

spoke [spəʊk] *v* pt of **speak**.

spoken [ˈspəʊkən] *v* pp of **speak**.

spokesperson [ˈspəʊkspɜːsn] *n* vakil; guruh nomidan gapiruvchi kishi.

sponsor¹ [ˈspɒnsə] *n* homiy, qo'llab-quvvatlovchi.

sponsor² [ˈspɒnsə] *v* homiylik qilmoq, qo'llab-quvvatlamoq.

spoon [spuːn] *n* qoshiq.

spoonful [spuːnful] *n* bir qoshiq ...

sport [spɔːt] *n* sport; **to do** – sport bilan shug'ullanmoq.

sports kit [spɔːtskɪt] *n* sport kiyimi, jihozi.

sports news [spɔːts'njuːs] *n* sport xabarlari.

sportsman [ˈspɔːtsmən] *n* (*pl sportsmen*) sportchi.

sports wear [spɔ:ts'weə] *n* sport kiyimi.

spot [spɒt] *n* dog', xol.

sprang [sprɪŋ] *v* *pt* of **spring II**.

spray¹ [spreɪ] *n* **1.** suvning mayda tomchilari, suv changi; **2.** purkagich; aeroxol.

spray² [spreɪ] *v* purkamoq, sepmoq, (suyuqlikni) changitmoq.

spread [spred] *v* (*pt*, *pp* **spread**) tarqa(t)moq, yoz(il)moq, yoy(il)moq, to'sha(l)moq; ~**ing wings** ikki yoqqa keng yozilgan qanotlar.

spring I¹ [sprɪŋ] *a* ko'klamdagi, bahorgi, bahori; bahor ...

spring I² [sprɪŋ] *n* bahor, ko'klam.

spring II¹ [sprɪŋ] *n* *n* sakrash, sapchish.

spring II² [sprɪŋ] *v* (*pt* **sprang**; *pp* **sprung**) sakramoq, sapchimoq, irg'imoq.

sprint [sprɪnt] *v* qisqa masofaga yugurmoq.

sprout¹ [spraut] *n* o'simta, o'siq, yangi novda (shox, butoq).

sprout² [spraut] *v* kurtak (quloq) chiqarmoq, nish urmoq; o'smoq, unmoq.

sprung [sprɪŋ] *v* *pp* of **spring II**.

spun [span] *v* *pt*, *pp* of **spin**².

spy¹ [spaɪ] *n* josus, ayg'oqchi.

spy² [spat] *v* **1.** josuslik (ayg'oqchilik) qilmoq; **2.** izlamoq, qidirmoq.

square¹ [skweə] *a* to'rtburchak, kvadrat.

square² [skweə] *n* **1.** kvadrat; **2.** maydon.

square kilometre (sq.km) ['skweə'kiləmi:tə] *n* kvadrat kilometr.

squeeze [skwi:z] *v* siqmoq, qismoq.

squirrel ['skwɪrəl] *n* olmaxon.

stadium ['steɪdiəm] *n* sport stadion, o'yingoh, o'yin maydoni.

staff [stɑ:f] *n* xodimlar, kadrlar.

staff room [stɑ:fru:m] *n* xodimlar (o'qituvchilar) xonasi.

stage I¹ [steɪdʒ] *n* teatr, sahna; teatr faoliyati; ~ **director** rejissor; ~ **set** deko-

ratsiya (sahna manzarasini hosil qiluvchi anjom va bezaklar); surat (kino) olinadigan maydoncha.

stage I² [steɪdʒ] *v* **1.** (pyesa) qo'ymoq; sahnalashtirmoq; **2.** tashkil qilmoq, uyush-tirmoq, amalga oshirmoq.

stage II [steɪdʒ] *n* bosqich, muddat, pog'ona.

stain [steɪn] *n* **1.** dog'; **2.** isnod, dog'; **3.** bo'yoq modda, bo'yoq, rang.

stair [steə] *n* **1.** zinapoya, pog'ona; **2.** (*odatda*: ~s) zina, pillapoya.

staircase ['steɪkeɪs] *n* **1.** narvon, shoti, zina, pillapoya; **2.** zina marshi (zining ikki supa yoki qavat o'rtasidagi qismi).

stamp [stæmp] *n* **1.** shtamp (to'rtburchak muhr), muhr; **2.** tamg'a, belgi, muhrcha, tamg'acha; **3.** tovar ustidagi yorliq *yoki* qo'rg'oshin tamg'a; **4.** marka.

stand¹ [stænd] *n* **1.** turgak, ustun; tagga qo'yiladigan taglik, poya; veshalka, ilgak; **2.** laryok, do'kon, kioska, do'koncha; palatka, do'kon; **3.** tribuna (stadionda yoki namoyishgohlarda tomoshabinlar o'tiradigan joy); tribunadagi tomoshabinlar; **4.** o'rin, joy, makon, vaziyat, tutgan o'rin, pozitsiya; **to take a - on** biror masala yuzasidan pozitsiyani egallamoq; **5.** pozitsiya, nuqtayi nazar, tutilgan yo'l, fikr; **6.** (avtomobil, velosipedlarning) to'xtash joyi.

stand² [stænd] *v* (*pt*, *pp* **stood**) **1.** tik vaziyatda bo'lmoq, tik turmoq; **2.** (o'rnidan) turmoq; **3.** joylashtirmoq, o'rnatmoq; **4.** hiror joyda turmoq (joylashgan bo'lmoq); **5.** o'zini tutib turmoq; oyoq ustida o'tkazmoq; **6.** chidamoq, toqat qilmoq; **7.** (taklif, fikr, mulohazaga nisbatan) o'zgarishsiz qol(dir)moq, o'z kuchida qol(dir)moq; **8.** mehmon qilmoq, siylamoq.

stand for ['stændfɔ:] *phr.v* **1.** anglatmoq; **2.** yoqlamoq, qo'llamoq, qo'llab-quvvatlamoq.

Stand up. ['stændʌp] *int* O'ringizdan turing.

standard¹ ['stændəd] *n* standard; andaza, o'lchov, me'zon; qat'iy belgilangan miqdor (me'yor).

standard² ['stændəd] *a* **1.** normal, norma doirasidagi, standartga mos (muvofig) bo'lgan, standartga javob beradigan, standart; **2.** hamma qabul qilgan, hammaga ma'qul bo'lgan, rasm bo'lib qolgan; tipovoy; namunali, namuna bo'ladigan.

standardise (standardize) ['stændədaɪz] *v* standartizatsiya qilmoq, standartlamoq, bir standartga solmoq.

star [stɑ:] *n* **1.** yulduz; **2.** sayyora; **3.** yulduz, mashhur sportsmen (va sh.k.); **4.** yulduzcha.

starch [stɑ:tʃ] *n* kraxmal.

stare¹ [steə] *n* tikilib (diqqat bilan) qarash, ko'z tikish.

stare² [steə] *v* diqqat bilan (tikilib) qaramoq, tikilmoq, tikilib qolmoq, ko'z tikmoq.

start¹ [stɑ:t] *n* **1.** seskanish, cho'chib tushish; **2.** silta(ni)sh, siltov, sapchish; **3.** ibtidosi, boshi, avvali; **4.** *sport.* start, start joyi; **5.** jo'nash, yo'lga chiqish, yo'l olish.

start² [stɑ:t] *v* **1.** boshla(n)moq; **2.** kirishmoq.

starting point ['stɑ:tɪŋ pɔɪnt] *n* boshlanish nuqtasi.

starve [stɑ:v] *v* **1.** ochlikdan azob chekmoq *yoki* o'lmoq; **2.** juda och bo'lmoq, och qolmoq.

state I¹ [steɪt] *a* davlatga oid (qarashli), davlat ...

state I² [steɪt] *n* **1.** davlat, mamlakat; **2.** shtat (ba'zi mamlakatlarda: federatsiya tarkibiga kiradigan har bir mustaqil o'lka).

state II [steɪt] *n* holat, vaziyat, sharoit.

state III [steɪt] *v* **1.** bayon qilmoq, ifoda

etmoq; bildirmoq, izhor qilmoq, aytmq; aniq ifoda qilmoq, ta'riflamoq; **2.** qayd qilmoq, ta'kidlamoq, tasdiqlamoq.

statement ['steɪtmənt] *n* **1.** (aytilgan) fikr, bayonot; axborot, xabar; **2.** rasmiy hisobot; vedomos.

statesman ['steɪtsmən] *n* davlat arbobi.

station ['steɪʃn] *n* **1.** bekat; vokzal; to'xtash joyi; **2.** markaz, punkt.

statistics ['stætɪstɪks] *n* statistika, statistik raqamlar.

statue ['stætʃu:] *n* haykal.

status ['steɪtəs] *n* **1.** ijtimoiy ahvol; **2.** *yur.* status, huquqiy holat (belgisi haq-huquq); fuqarolik holati.

statute ['stætʃu:t] *n* qonun chiqarish ishi; statut; nizom, qonun, tartibot; – **law** parlament tomonidan qabul qilingan qonun.

stay [steɪ] *v* **1.** qolmoq, hiror joydan jilmaslik (ketmaslik); **2.** (vaqtinchalik) joylashmoq, to'xtamoq, qo'nmoq, joylashib olmoq; (vaqtinchalik) birovnikida yashamoq; mehmon bo'lmoq (~ **at, with**); **3.** chidamoq, bardosh bermoq, mahkam turmoq; **4.** (biror holat yoki ahvolda) qolmoq, o'zgarmay turmoq, saqlanib qolmoq.

stay up ['steɪʌp] *phr.v* uxlagani odatdagidan kech yotmoq.

steadily ['stedɪli] *adv* **1.** mahkamlab, pishiq (chidamli, puxta, mustahkam) qilib, qat'iyat (ishonch) bilan; **2.** birdek, bir tekis, bir xilda, uzluksiz (to'xtovsiz) ravishda, muttasil; **3.** stabil (barqaror, turg'un) holatda, mustahkamlik bilan; **4.** og'irlik (vazminlik, bosiqlik) bilan.

steady ['stedi] *a* **1.** mahkam, pishiq, chidamli, mustahkam, barqaror, qat'iy, ishonchli; **2.** birdek, bir tekis, bir xil, bir me'yordagi (maromdagi); uzluksiz, to'xtovsiz, muttasil, surunkali; **3.** sobit, stabil, barqaror, turg'un, o'zgarmas, mustahkam, muntazam, birdek (bir xilda)

turadigan; **4.** og'ir, vazmin, bosiq, fe'li yaxshi.

steak [steɪk] *n* (qovurish uchun) go'sht *yoki* baliq bo'lagi; bifshteks.

steal [sti:l] *v* (pt **stole**; pp **stolen**) o'g'irlamoq, o'g'irlab olmoq.

steam¹ [sti:m] *n* bug', par.

steam² [sti:m] *v* bug'la(n)moq, parlan(tir)moq.

steel [sti:l] *n* **1.** po'lat; **2.** qilich, shamshir, tig'.

steep [sti:p] *a* **1.** tik, tikka, tikka ko'tarilgan, keskin; **2.** haddan tashqari, ortiq darajadagi, o'ta, oshirib (bo'rtirib) ko'rsatilgan; **3.** haddan tashqari oshgan, ko'tarilgan, juda baland (narx haqida).

steeply [sti:pli] *adv* **1.** tik, tikkasiga, tikka; keskin; **2.** haddan tashqari, juda, juda ham, nihoyatda, g'oyatda, ortiq darajada.

steepness [sti:pnes] *n* tiklik, tikkalik, tik joy, tik qiyalik, o'r.

steer [stiə] *v* **1.** (kema, avtomashinani) boshqarmoq, yurgizmoq, haydamoq; **2.** rioya qilmoq, amal qilmoq, yo'lidan bormoq, ...ga qarab (bilan) ish tutmoq; qattiq turmoq; **3.** boshqarmoq, idora etmoq.

steering wheel ['stiəriŋwi:l] *n* rul chambaragi; shturval (kema, samolyot, kombayn kabilarning rul chambari).

stem¹ [stem] *n* **1.** tana, poya; shoxcha, band, dasta; **2.** o'zak; **3.** qadah (va sh.k.) ning oyoqchasi; **4.** gram. negiz.

stem² [stem] *v* chiqmoq, kelib chiqmoq, mansub bo'lmoq, paydo bo'lmoq, vujudga (yuzaga) kelmoq (~ **from**).

step¹ [step] *n* **1.** qadam, odim; **2.** zinapoya, pog'ona; **3.** daraja, bosqich; **4.** tadbir, chora, qadam

step² [step] *v* **1.** qadamlamoq, qadam (odim) tashlamoq, oyoq qo'yimoq (bosmoq); **2.** bir necha qadam tashlamoq; **will you ~ inside?** marhamat kiring!

step aside [stepə'saɪd] *phr.v* **1.** chetlanmoq, o'zini chetga olmoq, chetga chiqib turmoq; **2.** ko'ch. boshqalarga yo'l bermoq.

stepfather [step,fɑ:ðə] *n* o'gay ota.

stepmother [step,mʌðə] *n* o'gay ona.

stereo¹ ['steriəu] *a* stereofonik, stereofoniyaga oid.

stereo² ['steriəu] *n* (*pl* **stereos**) stereofonik radio, magnitafon.

steward [stju:əd] *n* **1.** stuard (yo'lovchi kemasidagi ofitsiant); bort kuzatuvchisi; **2.** nazoratchi, boshqaruvchi.

stewardess ['stju:ədɪs] *n* (ayol) stuardessa; bort kuzatuvchisi.

stick I [stɪk] *n* kaltak, tayoq; hassa, aso; *a - of chalk* bir bo'lak bo'r.

stick II [stɪk] *v* (pt, pp **stuck**) **1.** sanchmoq, suqmoq, tiqmoq, qadamoq; **2.** yelimplamoq, yopish(tir)moq.

stick out [stɪk'ʌʊt] *phr.v* **1.** chiqib qolmoq, chiqib (ko'rinib) turmoq; **2.** ochiqoydin (ayon, oshkor, aniq) bo'lmoq, bo'lib turmoq.

sticky ['stɪki] *a* yopishqoq, shilimshiq.

stiff [stɪf] *a* **1.** qattiq; tarang; egilmaydigan, bukilmaydigan, egilmas, bukilmas; **2.** qiyin (imtihon va sh.k.); **3.** (narxlar haqida) juda baland; (talablar haqida) haddan tashqari; **4.** (jazo haqida) qattiq, og'ir.

stiffen ['stɪfn] *v* **1.** qattiq, egilmas (bukilmas) qilmoq; **2.** sovumoq, qotmoq, sovub qotmoq.

stiffly ['stɪfli] *adv* sovuqqina, iltifotsiz; rasman, jiddiy ravishda, yasama, zo'raki, zo'rma-zo'raki.

still I¹ [stɪl] *n* jimlik, jimjitlik, sukunat, tinchlik, osoyishtalik; **in the ~ of the night** sokin (osoyishta) tunda.

still I² [stɪl] *a* **1.** qimirlamaydigan, harakat qilmaydigan, harakatsiz, tinch, jim, jimjit, sokin, turg'un; **2.** tinch, sokin, tovushsiz, shovqin-suronsiz; **3.** (ichimlik

tʃ chin /θ thin /ð the /ʃ she /ʒ usual /h he /m me /n not /ŋ king /l lip /r rat /j yet /w we

haqida) ko'piklanmaydigan, vijillamaydigan, gazlanmagan; ~ **waters run deep** = hamma gap pismiقدan chiqadi, pismiقدan ko'p ish keladi, pismiقدan qo'rqulik.

still II [stɪl] *adv* hanuz, hali ham, haligacha, hamon, shu paytgacha (vaqtgacha, damgacha, choqqacha, mahalgacha).

still III [stɪl] *ej* shunga qaramay (qaramasdan), har holda.

sting¹ [stɪŋ] *n* **1.** (ari, chayon va sh.k.da) nish, nayza; *ko'ch.* piching, achchiq (qattiq) gap, zaharxanda; o'tkirlik, kuchlilik; **2.** tishlash, chaqish, chaqib olingan joy; (gazanda o't va sh.k. sababli) kuygan (qizargan) joy, kuyuk; **3.** azob, uqubat, jafo, aziyat, ozor; **a - of conscience** vijdon azobi.

sting² [stɪŋ] *v* (pt, pp **stung**) **1.** nayzasini sanchmoq, chaqmoq; kuydirmoq, achishtirmoq; **2.** qattiq og'ritmoq, azob bermoq, azoblamoq.

stir¹ [stɜː] *n* **1.** qimirla(t)ish, silki(ti)sh, tebratish; **2.** kovlash, kovlashtirish, aralashtirish, qorishtirish; **3.** yugur-yugur, qiy-chuv, to'polon; betartib harakat, hovliqish; **to make a -** qiy-chuv qilib yubormoq; umumiy qiziqish uyg'otmoq.

stir² [stɜː] *v* **1.** qimirla(t)moq, tebratmoq, tebranmoq, silkitmoq, silkinmoq; joyidan silji(t)moq; **2.** kovlamoq, kovlashtirmoq, aralash-tirmoq, qorishtirmoq; chayqatmoq, chayqaltirmoq (*shuningdek: ~ up*); **3.** (*shuningdek: ~ up*) to'liqinlantirmoq, hayajonga solmoq, hayajonlantirmoq.

stir up [ˈstɜːrʌp] *phr.v* **1.** harakatga solmoq, g'ayratga mindirmoq, jonlantirmoq, qimirlatmoq, uyg'otmoq, qo'zg'atmoq; **2.** buzuqlik qilmoq, nizo chiqarmoq.

stirrup [ˈstɜːrʌp] *n* **1.** uzangi; **2. anat.** o'rta quloqning eshituv suyakchalaridan biri.

stitch¹ [stɪtʃ] *n* **1.** chokning (qaviqning) bir yo'li (bitta baxyasi); **2.** (tikilgan narsada) chok, baxya, tikilgan joy; **3.** (to'r to'qishda) ilmoq, halqa; **4.** bir oz, sal, andak, salgina, sal-pal; **5.** kuchli og'riq, biqindagi sanchiq (yugirishda); **6. tib.** chok chizig'i, chok; qo'shilish chizig'i.

stitch² [stɪtʃ] *v* **1.** tikmoq; **2.** qavimoq, qaviq qilmoq; **3.** gul tikib bezamoq, tikmoq; **4. tib.** tikmoq, choklamoq (yarani).

stock [stɒk] *n* **1.** zapas, qo'r; jamg'arma; **2.** kapital, mablag', sarmoya; aksiya; ~ **market** qimmatli qog'ozlar bozori.

stole [stəʊl] *v* *pt of steal.*

stolen [stəʊlɪn] *v* *pp of steal.*

stomach [ˈstʌmək] *n* *anat.* oshqozon; qorin.

stomachache [ˈstʌmək-ɛɪk] *n* *tib.* oshqozon, qorin og'riq.

stone [stəʊn] *n* **1.** tosh; **2.** danak, don; **3.** qimmatbaho tosh; **4.** stoun (14 funt yoki 6,35 kg ga teng og'irlik o'lchov birligi).

stood [stuːd] *v* *pt, pp of stand*².

stop¹ [stɒp] *n* **1.** bekat; **2.** to'xtam, to'xtash joyi, pauza.

stop² [stɒp] *v* **1.** to'xta(t)moq, to'xtab qolmoq; barham bermoq, chek qo'yimoq; **2.** ushlab qolmoq, tutib qolmoq, qaytarmoq, to'xtatib qolmoq; **3.** joylashmoq, qo'nmoq, (mehmonxona va sh.k. larda) joylashib olmoq; mehmon bo'lmoq.

store¹ [stoː] *n* **1.** zahira, qo'r, g'amlab qo'yilgan narsa; **2.** ombor, omborxonona; **3.** univermag; **4.** do'kon, savdo do'koni.

store² [stoː] *v* **1.** g'amlamoq, g'amlab (hozirlab) qo'yimoq, ajratib (olib, saqlab, asrab) qo'yimoq; **2.** ombor (omborxonona)da saqlamoq.

storey [ˈstoːrɪ] *n* (*pl storeys*) qavat.

storm [stoːm] *n* to'fon, bo'ron.

story [ˈstoːrɪ] *n* (*pl stories*) **1.** hikoya; povest, qissa; **2.** ko'rgan-kechirganlar,

tarix; naq, rivoyat, ertak, cho'pchak; 3. uydirma, yolg'on; to'qima, afsona, yolg'on-yashiq (bo'lmag'ur) gap; 4. gazeta materiali.

storyteller ['stɔ:ri:tələ] *n* hikoyanavs, hikoya aytuvchi.

stove [stəʊv] *n* pech, pechka; oshxona (gaz) plita.

straight¹ [streɪt] *a* to'g'ri, to'ppa-to'g'ri.

straight² [streɪt] *adv* 1. to'g'ri, to'ppa-to'g'ri; ochiqdan-ochiq, ochig'ini; 2. darhol, tezda, darrov, bir onda, shu (o'sha) zahoti (~ away).

straightaway [streɪtəweɪ] *a* tez, kechiktirilmaydigan, oshig'ich.

straighten ['streɪtn] *v* to'g'rila(n)moq, rostla(n)moq, tekisla(n)moq.

straightforward [streɪt'fɔ:wəd] *a* 1. to'ppa-to'g'ri, to'xtamay, bevosita; 2. ochiq, oshkora, ro'yirost, dangal; 3. oddiy, sodda.

strange [streɪndʒ] *a* 1. g'alati, qiziq, g'ayrioddiy, odatdagidan boshqacha, noodatiy; 2. notanish, yot, begona.

strap¹ [stræp] *n* 1. kamar, tasma, qayish; 2. (mato, metall, plastir) tilim, tasma; tilim-tilim narsa, uzun narsa.

strap² [stræp] *v* 1. kamar (tasma, qayish) bilan bog'lamoq, bog'lab qo'ymoq; 2. kamar (tasma, qayish) bilan qamchilamoq, savalamoq; 3. bintlamoq, bint bilan bog'lamoq (bog'lab qo'ymoq).

strawberry ['strɔ:bri] *n* (*pl strawberries*) bot. qulupnay.

stream ['stri:m] *n* 1. ariq; jilg'a; 2. oqim.

street ['stri:t] *n* ko'cha.

streetcar ['stri:tka:] *n* tramvay.

streetlight ['stri:tlaɪt] *n* svetofor.

strength ['streŋθ] *n* 1. kuch, quvvat, tinka, mador, majol, darmon; 2. kuch (quvvat) manbai; 3. mahkamlik, mustahkamlik, salohiyat; 4. kuchli tomon (xislat).

strengthen ['streŋθn] *v* kuchay(tir)moq, zo'ray(tir)moq, osh(ir)moq.

stress I [stres] *n* 1. siquv, siqiq; bosim, tig'izlik, keskinlik, tanglik; 2. *tib.* stress (qattiq hayajon, ruhiy zarba); 3. urg'u (so'z urg'usi); urg'u berish; 4. ahamiyat, mohiyat, e'tibor; muhimlik.

stress II [stres] *v* ta'kidlamoq, uqtirib o'tmoq; urg'u bermoq, alohida e'tibor bermoq.

stressful ['stresfl] *a* dolzarb, qizg'in, bor kuch va g'ayrat bilan qilinayotgan.

stretch¹ [stretʃ] *n* 1. cho'zi(li)sh, uzaytirish, yozi(li)sh, 2. zo'r g'ayrat, diqqat-e'tibor, qizg'inlik; 3. keng sath, maydon, joy; masofa, ko'lam; 4. vaqt oralig'i; 5. jazo muddati; **at a** ~ to'xtamasdan, bir nafas olishda, bir zo'r berishda, bir yo'la.

stretch² [stretʃ] *v* 1. cho'zmoq, uzaytirmoq, yozmoq, uzatmoq; 2. cho'zilmq, yoyilmoq; 3. orttirib (bo'rttirib) ko'rsatmoq, mubolag'a qilmoq; 4. (tana yoki tana qismlari haqida) kerishmoq, uzanmoq, kerilmoq; **to** ~ **one's legs** yurib oyoqning chigilini yozmoq, sayr qilmoq, aylanib yurmoq.

stricken [strɪkn] *v* *pp of strike²*.

strict [strɪkt] *a* 1. talabchan, qattiqqo'l; qattiq, jiddiy; 2. aniq, mutlaqo, qat'iy.

strictly ['strɪktli] *adv* qat'iy, qat'iy ravishda, qattiq, qat'iy, katta aniqlik bilan, juda aniq.

strike¹ [straɪk] *n* 1. urish, turtish, zarb, zarba; 2. ish tashlash; **a general** ~ umumiy ish tashlash; **to be on** ~ ish tashlamoq; **to go on** ~ ish tashlash e'lon qilmoq; 3. (neft, ruda, ko'mir va sh.k.lar mavjud bo'lgan) kon ochish.

strike² [straɪk] *v* (*pt, pp struck; pt struck; pp stricken*) 1. zarba bermoq; shikast (talofat) yetkazmoq; 2. harakatga keltirmoq; chaqmoqlab (chaqmoq bilan) yondirmoq; (gugurtni) chaqmoq; (soat haqida) hong (zang) urmoq; 3. miyaga (kallaga) kelmoq; 4. ish tashlamoq; ish tashlash e'lon qilmoq.

strike out [ˈstraɪk aʊt] *phr.v* o'chirmoq, o'chirib tashlamoq, chizib tashlamoq.

string [strɪŋ] *n* arqon, chilvir, ip.

strip¹ [stri:p] *n* **1.** tilim, tasma, tilim-tilim narsa, uzun narsa; lenta, tasma; **2.** uchib qo'nish maydonchasi; **3.** *sport.* (qilich-bozlik uchun) yo'lka; **4.** uzunchoq yer bo'lagi; **5.** (gazetada) rasmlardan iborat hikoya.

strip² [stri:p] *v* **1.** shilmoq, shilib olmoq (ajratmoq) (~ **off, from**); **2.** yechinmoq, kiyimlarini yechmoq; yechmoq, yechib qo'ymoq (tashlamoq); **3.** biror narsadan mahrum (judo) qilmoq, biror narsani tortib olmoq, olib qo'ymoq (~ **of**).

strip cartoon [ˈstri:pka:tʊ:n] *n* (*odatda: -s*) komiks (umumiy mazmun bilan bog'langan, har biriga qisqa-qisqa matnlar berilgan rasmlar seriyasi).

stripe [straɪp] *n* **1.** taram-taram yo'l, yo'l-yo'l chiziq; **2.** *harb.* ustiga qo'yib tikilgan narsa, nashivka; shevron, uqa.

striped [straɪpt] *a* yo'l-yo'l, ola-bula, olabayroq.

stroke I [strəʊk] *n* **1.** urish, turtish, zarb, zarba; **2.** *tib.* talvasa, jazava, xuruj, xuruj qilish, tutib qolish; shol, falaj; **3.** kutilmagan holat; **4.** (yurak) urishi, tepishi; **5.** soatning urishi, chalishi, zangi, bongi; **on the ~ of ten** soat o'nga hong urganda (zang chalganda); **6.** usul, yo'l, qadam; **7.** *tex.* (porshening) bir yurishi.

stroke II [strəʊk] *v* **1.** (qo'l bilan) silamoq; siypamoq, silab-siypamoq; erkala(t)moq, navozish qilmoq; **2.** maqtamoq, xushomad qilmoq; **3.** ko'ndirmoq, unatmoq, rozi qilmoq, ko'nglini topib unatmoq, silah-siypab ko'ndirmoq.

stroll¹ [strɔ:l] *n* sayr, tomosha, aylanib yurish (kelish); **to go for a ~ /to take a ~** sayr qilmoq, aylanib (tomosha qilib) yurmoq.

stroll² [strɔ:l] *v* sayr qilmoq, aylanib (tomosha qilib) yurmoq, kezmoq.

strong [strɒŋ] *a* **1.** kuchli, baquvvat; zabadast; **2.** mahkam, pishiq, mustahkam, qattiq; **3.** sog'lom, baquvvat; **4.** (ichimlik haqida) quyuq; kuchli, o'tkir; **5.** (ta'm haqida) o'tkir, dimog'ni yoradigan.

strongly [ˈstrɒŋli] *adv* kuch bilan; mahkam tutib, mustahkam qilib; dadil, jasur, qat'iy, qat'iyat (dadillik, jasurlik) bilan, jasurona.

strong-minded [ˈstrɒŋmɑɪndɪd] *a* aqlli, erkin (mustaqil) fikrlovchi; g'ayratli, serg'ayrat, faol, dadil, jasur, yurakli, jur'atli, ikkilanmaydigan.

struck [strʌk] *v* *pt, pp of strike*².

structure¹ [ˈstrʌktʃə] *n* **1.** tuzilma, tuzilish, tuzum; **2.** bino, imorat, inshoot, qurilish.

structure² [ˈstrʌktʃə] *v* qurmoq, bino qilmoq, barpo etmoq, tuzmoq, tashkil etmoq, yaratmoq.

struggle¹ [ˈstrʌɡl] *n* **1.** kurash, kurashish; jang, olishuv; **2.** zo'r g'ayrat, diqqat-e'tibor, zo'r berish, tirishish, kuch.

struggle² [ˈstrʌɡl] *v* **1.** kurashmoq, jang qilmoq, olishmoq, talashmoq; **2.** barcha kuchlarni ishga solmoq, bor kuchi bilan harakat qilmoq.

stuck [stʌk] *v* *pt, pp of stick II*.

student [ˈstju:dənt] *n* talaba, tolib; o'quvchi.

study¹ [ˈstʌdi] *n* (*pl studies*) **1.** o'qish, o'qib o'rganish; tadqiq qilish; ilmiy tekshirish, tadqiqot; **2.** (*studies*) o'quv fanlar, darslar, o'qishlar, mashg'ulotlar; **3.** kabinet, o'quv xonasi.

study² [ˈstʌdi] *v* (*pt, pp studied*) **1.** o'qimoq, o'rganmoq, shug'ullanmoq; **2.** tekshirmoq, tadqiq qilmoq, o'rganib chiqmoq.

stung [stʌŋ] *v* *pt, pp of sting*².

stunt [stʌnt] *n* akrobatik tryuk, nomer; hunar, fokus; ~ **man** (kinoda) dublor.

stupid [ˈstju:pɪd] *a* **1.** axmoq, jinni,

tentak; 2. hefarosat, kaltafahm, esi past, anqov, beaql.

style [stail] *n* 1. stil, uslub; 2. usul, odat, tarz; 3. fason, moda, urf; 4. did, ta' b.

stylish [stailiʃ] *a* modaga o'ch, modali; bashang, orasta, bashang (orasta) keyingan.

subject [ˈsʌbdʒɪkt] *n* 1. mavzu; sabab; ish; masala; 2. mustaqil fan sohasi; fan; 3. fuqaro; 4. gram. ega; 5. obyekt (faoliyat predmeti, mavzui va sh.k.).

submit [səbmit] *v* ko'rib chiqish uchun bermoq, bermoq (hujjat).

subsist [səb'sɪst] *v* yashamoq, kun ko'rmoq, hayot kechirmoq.

substance [ˈsʌbstəns] *n* 1. modda; 2. materiya, substansiya; 3. asl (tub) ma'no, mohiyat, mazmun, mag'iz; **in** – aslida, aslini olganda, haqiqatda; 4. bisot, mol-mulk, davlat, boylik, mol-dunyo.

subtract [səb'trækt] *v* mat. ayirmoq.

subtraction [səb'trækʃn] *n* mat. ayirish.

subtropical [ˌsʌb'trɒpɪkl] *a* subtropik.

suburb [ˈsʌbɜ:b] *n* 1. shahar atrofi, shahar chekkasi; 2. –s shaharga tutashgan posyolka.

subway [ˈsʌbweɪ] *n* 1. tunnel, yer osti yo'li; 2. metro.

succeed [sək'si:d] *v* 1. maqsadga erishmoq, erishmoq, yetishmoq, muvaffaq bo'lmoq, qo'lga kiritmoq; 2. muvaffaqiyat qozonmoq, muvaffaqiyatli rivojlanmoq, gullamoq, yashnamoq, taraqqiy qilmoq, ravnaq topmoq; 3. kimsa yoki narsaning izidan (ketidan, orqasidan) hormoq; 4. merosxo'r bo'lmoq, voris (valiahd, davomchi, davom ettiruvchi) bo'lmoq.

success [sək'ses] *n* 1. muvaffaqiyat, yutuq, omad; **to wish smb.** – kimsaga omad, muvaffaqiyat tilamoq; 2.: **to be a** – muvaffaqiyatga erishmoq; **the plan was a** – reja amalga oshdi.

successful [sək'sesfl] *a* muvaffaqiyatli; muvaffaqiyat bilan tugagan, yaxshi natijali.

successfully [sək'sesfəli] *adv* muvaffaqiyat (yaxshi natija) bilan.

such [sʌtʃ] *det* shunaqangi, shunday, shunchalik, bu (shu) xildagi, bunday, bunga o'xshash; – **as** kabi; misol uchun, masalan.

suck [sʌk] *v* 1. so'rmoq; 2. so'rmoq, shimmoq.

sudden [ˈsʌdn] *a* to'satdan yuz bergan, kutilmagan, tasodifiy, nogahoniy.

suddenly [ˈsʌdnli] *adv* to'satdan, qo'q-qisidan, birdan, bexosdan, dabdurustdan, ittifoqo, banogoh, nogahon, nogoh, lop etib.

suffer [ˈsʌfə] *v* 1. qiynalmoq, azob chekmoq, azoblanmoq; (kasallik va sh.k. ga) yo'liqmoq, chalinmoq, kasallik bilan og'rirmoq; 2. (talafot, zarar) ko'rmoq, chekmoq; biror yetishmovchilikdan qiynalmoq; uchrarmoq, yo'liqmoq, duchor bo'lmoq; **to** – **a defeat** mag'lubiyatga uchrarmoq; 3. chidash (dosh, hardosh) bermoq, chidamoq, sabr (toqat) qilmoq.

suffer from [ˈsʌfəfrəm] *phr.v* (bosh og'riq va sh.k. dan) qiynalmoq, azob chekmoq.

sufferer [ˈsʌfərə] *n* 1. jafokash, zahmatkash, alamdiyda; 2. *yur.* jabrlangan, jabr (yoki zarar) ko'rgan odam; jafo chekkan (azob tortgan) kishi; jabrlanuvchi.

suffering [ˈsʌfərɪŋ] *n* 1. jismoniy (ruhiy) qiynalish, qiynoq, dard, azob, azob-uqubat; jafo, aziyat, ozor; 2. qiynalalyotgan, azob chekayotgan, azoblanyotgan.

sugar [ˈʃʊgə] *n* shakar, qand.

suggest [sədʒest] *v* taklif qilmoq, taqdim qilmoq, o'rtaga tashlamoq.

suggestion [sədʒestʃən] *n* 1. taklif; 2. maslahat; 3. asar, alomat; 4. (gipnoz haqida) inontirish yo'li bilan davolash.

tʃ chin /θ thin /ð the /ʃ she /ʒ usual /h he /m me /n not /ŋ king /l lip /r rat /j yet /w we

suit I [su:t; sju:t] *n* 1. libos, kiyim-kechak, kiyim-bosh, ust-bosh; kastum; 2. komplekt (bir butunni tashkil qilgan narsalarning to'liq to'plami, raso yig'indisi); 3. da'vo; sudda ko'riladigan ish; **to follow** – namunaga ergashmoq, taqlid qilmoq, o'xshatmoq; ergashmoq.

suit II [su:t; sju:t] *v* 1. talabga javob bermoq, mos kelmoq, qulay bo'lmoq, to'g'ri (ma'qul) kelmoq, qoniqtirmoq, qanoatlantirmoq; – **yourself** istaganingizni qiling; 2. foydali, (yaroqli, kerakli) bo'lmoq 3. munosib bo'lmoq, mos kelmoq, yarashmoq; 4. loyiq (mos, muvofiq) kelmoq, to'g'ri kelmoq; 5. moslamoq, moslashtirmoq, muvofiqlashtirmoq.

suitable ['sju:təbl] *a* mos, muvofiq, loyiq, munosib, bop; qulay, o'ng'ay; yaroqli, yaraydigan.

suitcase ['sju:tkeis, 'su:tkeis] *n* jama-don.

suited ['su:tid] *a* mos, muvofiq, to'g'ri keladigan, loyiq; munosib, bop; qulay, o'ng'ay; layoqatli, yaroqli, yaraydigan.

sulphur ['sʌlfə] *n* kim. oltingugurt.

sum [sʌm] *n* 1. yig'indi; 2. *mat.* arifmetik masala; **to do** ~s masala yechmoq.

sumalak [sʊmʌ'lɑ:k] *n* sumalak (bahor fasli ta'omi).

summarise (summarize) ['sʌməraɪz] *v*

S 1. jamlamoq, yig'indisini chiqarmoq, yakuniy (jami) hisobni chiqarmoq; umumlashtirmoq, xulosalamoq, yakun yasamoq; 2. qisqacha hayon etmoq.

summary ['sʌməri] *n* (*pl* **summaries**) qisqacha bayon (mazmun, yakun), qisqa xulosa; konspekt; ma'lumot.

summer ['sʌmə] *n* yoz.

summit ['sʌmɪt] *n* 1. cho'qqi, uch, tepa; 2. oliy darajadagi uchrashuv, sammit.

sun [sʌn] *n* 1. Quyosh; 2. quyosh, of-tob, kun.

sunbathe ['sʌnbeɪð] *v* quyoshda (qu-yosh nurida) toblanmoq.

Sunday ['sʌndi] *n* yakshanba, yak-shanba kuni.

sundial ['sʌndaɪl] *n* quyosh soati.

sung [sʌŋ] *v* *pp* of **sing**.

sunglasses ['sʌŋglɑ:sɪz] *n* quyoshdan himoya qiluvchi ko'zoynak.

sunk [sʌŋk] *v* *pp* of **sink II**.

sunken ['sʌŋkən] *a* 1. cho'kib (botib) ketgan, cho'kkan, botgan, suvga g'arq bo'lgan; 2. botiq, cho'kik, ichiga botib (kirib) ketgan, kirtaygan; – **eyes** kirtayib qolgan ko'zlar.

sunlight ['sʌnlaɪt] *n* quyosh (oftob) nuri, yog'dusi, yorug'ligi.

sunny ['sʌni] *a* quyoshli.

sunshine ['sʌnʃaɪn] *n* (charaqlagan) quyosh yorug'ligi, quyosh nuri.

superior [su:'piəriə] *a* 1. ortiq, ustun, yuqori, oliy; 2. katta, hosh, starshiy; 3. yuqori sifatli, oliy, a'lo, juda yaxshi; 4. o'zini ustun qo'yadigan, manman, kek-kaygan, dimog'dor, kolondimog'; 5. son yoki sifat jihatdan ortiq, ortiq darajadagi.

superlative [su:'pɜ:lətɪv] *n* *gram.* ort-tirma daraja.

supermarket ['su:pə:mɑ:kɪt] *n* super-market.

superstitious [su:pə'stɪʃəs] *a* xurofotga berilgan, irim-sirimlarga ishongan.

supper ['sʌpə] *n* kechki ovqat.

supply¹ ['sʌplai] *n* (*pl* **supplies**) 1. ta'minlash, ta'minot; 2. oziq-ovqat; yetkazish, olib borish (kelish); 3. zahira, g'amlab qo'yilgan narsa (mas., oziq-ovqat); 4. *iq.* taklif.

supply² ['sʌplai] *v* (*pt*, *pp* **supplied**) 1. ta'minlamoq, ta'min qilmoq, yetkazib bermoq; 2. (kamchilikni, o'rnini) to'ldirmoq, qoplamoq, (talab, ehtiyojni) qondirmoq.

support¹ ['səpɔ:t] *n* 1. yordam, madad; ta'minot; 2. tirgovich, tirgak, suyanchiq; 3. kun kechirishga zarur bo'lgan pul (mablag').

support² [sə'pɔ:t] *v* **1.** ushlab turmoq, ko'tarib turmoq, suyamoq; qo'llab-quvvatlamoq; **2.** (oilani) hoqmoq, qaramoq; (moddiy) yordam bermoq, ko'maklashmoq; **3.** himoya qilmoq, yon bermoq, yoqlamoq.

supporter [sə'pɔ:tə] *n* **1.** tarafdor, yoqlovchi; **2.** oila boshlig'i, boquvchi.

supporting [sə'pɔ:tɪŋ] *a* **1.** ushlab (tutib, suyab) turuvchi, ko'tarib (tirab) turuvchi, suyovchi, tayanch...; tirkak, tirgovuch; **2.** yordamchi, ko'makchi.

supportive [sə'pɔ:tɪv] *a* **1.** ushlab (tutib, suyab) turuvchi, ko'tarib (tirab) turuvchi, suyovchi, tayanch...; tirkak, tirgovuch; **2.** yordamchi, ko'makchi.

suppose¹ [sə'pəuz] *cj* -sa edi, qani endi, koshki edi; ... deb faraz qilaylik, deylik, aytaylik.

suppose² [sə'pəuz] *v* **1.** taxmin qilmoq, ... deb o'ylamoq, chamalamoq; **2.** faraz qilmoq, hisoblamoq, ... deb o'ylamoq, bo'lishi mumkin deb hisoblamoq; **3.** ma'lum majburiyatlarga ega bo'lmoq; biror ish qilishi majburiy (shart) bo'lmoq.

supreme [su:'pri:m] *a* **1.** oliy, bosh, yuqori; **2.** ulug', buyuk, oliy, mo'tabar.

sure [ʃʊə, ʃɔ:] *a* ishonchi komil; **to be** ~ ishonchi komil bo'lmoq; ishonch hosil qilmoq; **are you** ~? ishonchingiz komilmi?; **to make** ~ **of/that** ishonch hosil qilmoq.

Sure. [ʃʊə, ʃɔ:] *int* Albatta.

surface ['sɜ:fɪs] *n* **1.** yuz, yuza, sirt, bet, ust; **2.** tashqi tomon, tashqi ko'rinish; **3.** yer ustidagi (yuzidagi, betidagi).

surname ['sɜ:neɪm] *n* familiya.

surprise¹ [sə'praɪz] *n* **1.** ajablanish, hayron qolish; **2.** kutilmagan holat (hodisa), kutilmagan sovg'a (narsa, yan-gilik), surpriz.

surprise² [sə'praɪz] *v* hayron (hayrat-da) qol(dir)moq, ajablan(tir)moq, lol qol(dir)moq, hayron bo'lmoq.

surprised [sə'praɪzd] *a* ajablangan, hayratlangan, hayron qolgan.

surprising [sə'praɪzɪŋ] *a* **1.** ajoyib, ajablanarli, hayratlanarli, hayron (tong) qoldiradigan, aqlni shoshiradigan; juda ham yaxshi, juda soz; **2.** kutilmagan, kutilmaganda yuz (ro'y) bergan, to'satdan bo'lib qolgan, nogahoniy.

surprisingly [sə'praɪzɪŋli] *adv* hayron qolarli darajada, juda ham, g'oyat, o'taketgan darajada, nihoyat.

surround¹ [sə'raʊnd] *n* **1.** o'rash, o'rab olish, ramkaga solish, rom, ramka, hoshiya; chet, chekka, hoshiya, jiyak, ma-g'iz; **2.** qurshov, qamal; qamal qilish.

surround² [sə'raʊnd] *v* o'rab (qurshab, qamrab, o'rta)g'a olmoq, atrofni o'ramoq, ihota qilmoq; (devor bilan) aylan-tirib o'rab olmoq; o'ramoq.

surrounding [sə'raʊndɪŋ] *a* yaqin (yon-ma-yon) joylashgan, qo'shni, yonma-yon; o'rab olgan, o'rab turuvchi, atrofda-gi, yon-veridagi.

surroundings [sə'raʊndɪŋz] *n* **1.** atrof, tevarak; tevarak-atrofdagi joylar; **2.** o'rab olgan muhit, sharoit.

survey¹ ['sɜ:veɪ] *n* tekshirish, tekshiruv; ko'zdan kechirish, ko'rik.

survey² ['sɜ:veɪ] *v* **1.** ko'zdan kechir-moq, ko'rib chiqmoq; **2.** ko'rikdan o'tkaz-moq, tekshirmoq; tekshirib chiqmoq.

survive [sə'vaɪv] *v* **1.** tirik qolmoq, omon (sog'-salomat, butun) qolmoq; **2.** biror kimsadan (zamonadoshlari va sh.k.dan) ko'p, ortiq yashamoq; **3.** hayotni (yashashni, bor bo'lishni, mavjudlikni) davom ettirmoq; saqlanmoq, saqlanib (omon) qolmoq.

survivor [sə'vaɪvə] *n* **1.** tirik qolgan, omon (sog'-salomat, butun) qolgan; **2.** boshqa me'rosxo'rdan uzoq umr ko'rgan, tirik qolgan yagona me'rosxo'r.

suspect¹ ['sʌspekt] *n* shubha ostiga olingan *yoki* shubhali odam.

suspect² [ˈsʌspekt] *a* shubhali, shubha tug'diradigan, ishonch hosil qilib bo'lmaydigan.

suspect¹ [sə'spekt] *v* **1.** shubhalanmoq, shubha (gumon) qilmoq, gumonsiramoq, gumondor bo'lmoq; **to - smb. of murder** biror kimsani qotillikda gumon qilmoq; **2.** taxmin (faraz, gumon) qilmoq, deb o'ylamoq; **3.** biror narsaning chinligiga (rostligiga) ikkilanmoq, biror narsaga ishonmaslik.

suspicion [sə'spɪʃn] *n* **1.** shubha, gumon; **to be under -** shubha (gumon) qilinmoq; **2.** oz-moz, bir oz, sal-pal, andak, jindak; boshqacha (qo'shimcha) ta'm, boshqa narsadan yuqqan yoqimsiz ta'm; tus, ohang, alomat, belgi, asar.

suspicious [sə'spɪʃəs] *a* **1.** shubha bilan qaraydigan, shubha (gumon) qiladigan, ishonmaydigan, gumonsiraydigan; badgumon; **2.** shubhali, shubha tug'diradigan; **a - character** shubhali shaxs.

swallow I [ˈswɒləʊ] *n* *zool.* qaldirg'och.

swallow II¹ [ˈswɒləʊ] *n* yutish, yutib yuborish.

swallow II² [ˈswɒləʊ] *v* yutmoq, yutib yubormoq.

swam [swæm] *v* *pt of swim*.

swan [swɒn] *n* *zool.* oq qush

Swan Lake [ˈsɒwn leɪk] *n* Oqqush Ko'li.

swap [swɒp] *v* almashtirmoq, ayirboshlamoq.

sway [swei] *v* **1.** u yoqdan bu yoqqa silkinmoq, tebranmoq; chayqalmoq; **2.** kimgadir, nimagadir ta'sir etmoq (ko'rsatmoq).

swear [sweə] *v* (*pt* **swore**; *pp* **sworn**) **1.** so'kinmoq, qarg'anmoq, so'kmoq, haqorat qilmoq, qarg'amoq; xudoga shak keltirmoq, shakkoklik qilmoq; behayo (beodob) gaplar gapirmoq, og'zidan bodi kirib shodi chiqmoq; **2.** qasamyod qilmoq, qasam (ont) ichmoq, so'z bermoq;

3. qasam (ont) ichishga majbur qilmoq; qasamyod qilishga olib kelmoq; **4.** qasamyod qilib ko'rsatma bermoq; **5.** qasamyod qilmoq, ont (qasam) ichmoq.

swearing [ˈsweərɪŋ] *n* haqoratli so'z, so'kish so'zlari, beodob gap, behayo ibora, so'kinish, so'kish, haqorat.

swearword [ˈsweəwɜːd] *n* so'kish, haqorat, haqoratli so'z, so'kish so'z.

sweat¹ [swet] *n* ter.

sweat² [swet] *v* terlamoq, ter bosmoq.

sweater [ˈswetə] *n* sviter (kiyim).

sweep [swi:p] *v* (*pt, pp* **swept**) **1.** supurmoq, supurib-sidirmoq; **2.** yeldek yugurmoq (uchmoq), yeldek uchib bormoq.

sweet¹ [swi:t] *a* **1.** shirin; **2.** (hid, ko'rinish haqida) shirin, yoqimli.

sweet² [swi:t] *n* **1.** shirinlik, qand-qurs; **2.** shirinlik, ovqatdan keyin tanovvul qilinadigan shirin taom.

sweetcorn [ˈswi:tkɔ:n] *n* shakarli mak-kajo'xori.

sweetheart [ˈswi:tha:t] *n* **1.** suyukli kishi, sevimli kishi; oshiq, ma'shuq, mahbub, xushtor, yor; ma'shuqa, mahbuba; **2.** (murojaat qilishda) qadrli, qadrdon, qimmatli, aziz; azizam, jonim.

swell¹ [swel] *n* **1.** mavj, jimirlash, to'liqinlanish, to'liqin; **2.** (tovushning) kuchayishi va tezda kuchsizlanishi; **3.** shish, qavariq, g'urra, shishgan joy, o'sma; **4.** qavariq joy, qavariq, do'ng; tepalik, balandlik, baland joy, supacha; **5.** mo'tabar zot, katta (mansabdor) odam, nufuzli kishi.

swell² [swel] *v* (*pt* **swelled**; *pp* **swollen** *or* **swelled**) **1.** havoga to'lmoq, damlanmoq; hajman yiriklashmoq, bo'kmoq, nam tortmoq, nam tortib shishmoq; shishmoq, shishib ketmoq, g'urra bo'lmoq; **2.** yuqorilamoq, balandlashmoq, ko'tarilmoq, oshmoq; **3.** hissiyotlar bilan to'lib-toshmoq; **4.** (yelkanlar haqida)

shishirmoq, do'mbira qilmoq; 5. o'zini katta tutmoq (olmoq), gerdaymoq, kek-kaymoq; kibrlanmoq, manmanlik qilmoq; 6. (tovush haqida) o'smoq, oshmoq, kuchaymoq, zo'raymoq.

swelling ['swelɪŋ] *n* 1. shish, qavariq, g'urra, shishgan joy, o'sma; 2. shishish, shishib ketish, g'urra bo'lish; ko'pchish, bo'rtish, shishish, bo'kish; nam tortib shishish; 3. (daryo suvining) ko'tarilishi; 4. qavariq joy, qavariq, do'ng; tepalik, balandlik, baland joy, supacha; 5. o's-(tir)ish, osh(ir)ish, ko'pay(tir)ish; 6. to'lish, toshish, to'lib-toshish.

swept [swi:p] *v pt, pp of sweep*.

swim [swɪm] *v (pt swam; pp swum)* 1. suzmoq; 2. suzib o'tmoq.

swimmer ['swɪmə] *n sport*. suzuvchi.

swimming ['swɪmɪŋ] *n sport*. suzish.

swimming bath ['swɪmɪŋbɑ:θ] *n* cho'milish uchun (yopiq) basseyn.

swimming costume ['swɪmɪŋkɒstjəm] *n* cho'milish kastumi.

swimming pool ['swɪmɪŋpu:l] *n* cho'milish uchun (ochiq) basseyn.

swimming trunks ['swɪmɪŋtrʌŋks] *n* plavki (suzganda kiyiladigan kalta, tor trusik).

swimsuit ['swɪmsu:t] *n* cho'milish kastumi.

swing [swɪŋ] *v (pt, pp swung)* u yoqdan bu yoqqa silkinmoq, tebranmoq; chayqal(tir)moq.

switch¹ [swɪtʃ] *n* o'chirib yoqish tugmasi.

switch² [swɪtʃ] *v* o'zgar(tir)moq, almash(tir)moq.

switch off ['swɪtʃɒf] *phr.v* 1. (tok va sh.k. larni) o'chirmoq; 2. o'chib qolmoq.

switch on ['swɪtʃɒn] *phr.v* 1. (tok, motor, radio va sh.k. larni) yoqmoq, qo'shmoq; 2. o'chib qolmoq.

swollen ['swɒln] *v pp of swell*².

sword [sɔ:d] *n* qilich, shamshir, xanjar.

swore [swɔ:] *v pt of swear*.

sworn [swɔ:n] *v pp of swear*.

swum [swʌm] *v pp of swim*.

swung [swʌŋ] *v pt, pp of swing*.

syllable ['sɪləbl] *n gram*. bo'g'in.

symbol ['sɪmbl] *n* 1. ramz, emblema, shartli belgi, timsol; 2. belgi, alomat, ishora.

symbolise (symbolize) ['sɪmbəlaɪz] *v* ramzni anglatmoq.

sympathetic [sɪmpəθetɪk] *a* 1. rahmdillik, xayrixohlik bilan (rahmi kelib, achinib) qilingan, rahm-shafqatli; xayrixohona; 2. boshqalarga yaxshilik istovchi, xayrixoh, mehribon, oqko'ngil.

sympathise (sympathize) [sɪmpəθaɪz] *v* 1. achinmoq, rahmi kelmoq, rahm (shafqat) qilmoq, hamdard bo'lmoq; xayrixohlik bildirmoq; 2. yaxshi munosabatda bo'lmoq, xayrixohlik (mehribonlik) bilan munosabatda bo'lmoq; xush ko'rmoq, yaxshi ko'rmoq, yoqtirmoq.

sympathizer [sɪmpəθaɪzə] *n* tarafdor, yoqlovchi, xayrixoh.

sympathy [sɪmpəθi] *n (pl sympathies)* 1. achinish, rahmi kelish, hamdardlik, rahm, shafqat; xayrixohlik, yoqlash; 2. garmonik, o'zaro moslik, monandlik, muvofiqlik, uyg'unlik, bir-biriga to'g'ri (mos) kelish; 3. xush ko'rish, yaxshi ko'rish, yoqtirish, ixlos, mayl, rag'bat.

synchronise (synchronize) [sɪŋkrənaɪz] *v* sinxron qilmoq, bir-biriga moslamoq; ~d **swimming** sinxron suzish.

syringe [sɪ'rɪndʒ] *n tib*. shpris.

system ['sɪstəm] *n* 1. tizim; sistema; 2. tartib, usul, yo'l; 3. tuzum, tuzilish.

systematic [sɪstɪ'mætɪk] *a* muntazam, doimiy.

systematize [sɪstɪ'mətaɪz] *v* sistemalamoq, sistemaga (tartibga, tizimga) solmoq, keltirmoq.

T, t

T, t [ti:] ingliz tili alifbosining yigirmanchi harfi.

table¹ ['teɪbl] *a* stolga qo'yiladigan, stol ustida turadigan, stol ...; stol (dasturxon) atrofidagi; ziyofatda aytiladigan.

table² ['teɪbl] *n* 1. stol; 2. ovqat, taom; 3. stol atrofidagi kishilar yoki ulfatlar; birga (bir dasturxonda) ovqatlanuvchilar, hamtovoqlar; 4. jadval; tabel, ro'yxat.

table cloth ['teɪblklɒθ] *n* dasturxon.

tablet ['tæblɪt] *n* dori (tabtodka); **to take a ~** dori ichmoq.

tabloid ['tæblɔɪd] *n* ixchamlashtirilgan gazeta.

tadpole ['tædpəʊl] *n* itbaliq (qurbaqa bolasi).

tail [teɪl] 1. *n* dum, quyruq; 2. *v* kimnidir ta'qib qilmoq.

tailor ['teɪlə] *v* kiyim tikuvchi.

take [teɪk] *v* (pt **took**; pp **taken**) 1. olmoq; ega bo'lmoq, egallamoq, o'rtirmoq, yutmoq, ichmoq, iste'mol qilmoq; **to ~ for a walk** sayrga olib chiqmoq; **to ~ a tablet** dori ichmoq; 2. egallamoq, bosib olmoq, istilo qilmoq, ishg'ol qilmoq, qo'lga kiritmoq; 3. o'zlashtirmoq, egallab (o'ziniki qilib) olmoq, ruxsatsiz olmoq; olib qo'ymoq, olib ketmoq, tortib olmoq; 4. kuzatmoq, kuzatib qo'ymoq; 5. ayirmoq, olib tashlamoq, ayiruv amalini bajarmoq; 6. (chidash, bardosh, sabr, toqat va h.k.larni) talab qilmoq; (vaqt, joyni) band qilmoq, olmoq; 7. yozmoq, yozib olmoq (qo'ymoq), qayd qilmoq, ro'yxatga olmoq, ro'yxatdan o'tkazmoq; 8. suratga (rasmga) olmoq; **to ~ a photo** suratga olmoq; 9. faraz qilmoq, hisoblamoq, ...deb o'ylamoq, ...deya tushunmoq; **to ~ care of smb.** kimgadir g'amxo'rlik qilmoq; **to ~ part in smth.** biror

narsaga ishtirok etmoq, qatnashmoq; **to ~ place** sodir (voqe) bo'lmoq, yuz bermoq, kelib chiqmoq; **to ~ pleasure in smth.** biror narsadan rohatlanmoq, rohat olmoq, zavqlanmoq.

take after [teɪk 'ɑ:ftə] *phr.v* (biror kimsaga) o'xshamoq, o'xshash (o'xshagan) bo'lmoq.

take away [teɪk ə'weɪ] *phr.v* 1. olib qo'ymoq, olib tashlamoq; birga olib (ola) ketmoq; olib ketmoq; 2. ketmoq; yugurmoq, chopmoq; 3. tortib olmoq, olib qo'ymoq; 4. hisobdan chiqarmoq, (hisobdan) olib tashlamoq, ayirmoq.

take back ['teɪkbæk] *phr.v* qaytarib olib bormoq, qaytarib olmoq.

take off ['teɪkɒf] *phr.v* (kiyimni) yechmoq.

take over [teɪk'əʊvə] *phr.v* 1. (lavozim va sh.k. ni) boshqa kimsadan qabul qilib olmoq; (rahbarlik va sh.k. ni) o'z zimmasiga olmoq; 2. (**from**) taqlid qilib o'rganib olmoq, qabul (meros) qilib olmoq, ota-bobosidan (nasldan) o'tmoq; 3. (transport vositasida) o'tkazib qo'ymoq, olib o'tmoq; olib borib bermoq, eltmoq, eltib qo'ymoq, yetkazib bermoq; 4. (so'z va sh.k. larni) keyingi qatorga ko'chirmoq.

takeover ['teɪkəʊvə] *n* 1. o'rin almashish, smena; smena vaqtida mudofaa pozitsiyasini topshirish; 2. (davlat) to'ntarilishi; hokimiyatni qo'lga olish; 3. kompaniyalarning bir-biriga qo'shilishi; (kompaniya va sh.k. larning aksiyalarini sotib olish yo'li bilan ularni) o'ziniki qilib olish, o'zlashtirib olish.

take-away food ['teɪkəweɪfud] *n* olib ketish uchun taom.

take away restaurant [teɪkəweɪ'rest-rɒnt] *n* taomini olib ketsa bo'ladigan restoran.

taken [teɪkn] *v* pp of **take**.

tale [teɪl] *n* 1. ertak, matal; 2. hikoya.

talented [ˈtæləntɪd] *a* talantli, iqtidorli, iste'dodli.

talk¹ [tɔ:k] *n* suhbat, musohaba.

talk² [tɔ:k] *v* **1.** (– **to**) gapirishmoq, gaplashmoq, so'zlashmoq, suhbatlashmoq, so'zlashib o'tirmoq, hangomalashmoq, gurunglashmoq; **to** ~ **online** internetda to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilmoq; **2.** biror tilda gapirmoq; **3.** valdiramoq, aljiramoq, vaysamoq; **4.** gap-so'z (mish-mish gap) tarqatmoq.

talkative [ˈtɔ:kətɪv] *a* sergap, vaysaqi.

tall [tɔ:l] *a* **1.** baland, daroz, novcha, bo'ychan, barvasta; **2.** (faloncha) bo'yli, (faloncha) balandlikdagi.

tame [teɪm] *a* xonaki; qo'lga o'rgatilgan.

tank [tæŋk] *n* sisterna; bak.

tap I [tæp] *n* jo'mrak.

tap II¹ [tæp] *n* yengil urib (qoqib) qo'yish.

tap II² [tæp] *v* yengil urib (qoqib, taqqillatib) qo'ymoq.

tape¹ [teɪp] *n* **1.** tasma; lenta; **2.** magnitafon letnasi; magnitafon yordamida yozib olingan yozuv (ovoz, qo'shiq va sh.k.); **3.** sport. finish lentasi.

tape² [teɪp] *v* **1.** tasma bilan bog'lamoq; **2.** magnitafon yordamida (ovoz, qo'shiq va sh.k.ni) yozib olmoq.

tape-player [ˈteɪpˌpleɪə] *n* magnitafon.

target [ˈtɑ:ɡɪt] *n* **1.** nishon, mo'ljal; **2.** maqsad, niyat.

task [tɑ:sk] *n* **1.** vazifa, topshiriq; **2.** burch, vazifa, majburiyat.

taste¹ [teɪst] *n* **1.** ta'm, maza; **2.** tatib ko'rish; **3.** did, ta'b.

taste² [teɪst] *v* **1.** tatib ko'rmoq; **2.** ta'm (maza) bermoq.

tasty [ˈteɪsti] *a* mazali, tolli.

taught [tɔ:t] *v* *pt, pp of teach.*

tax¹ [tæks] *n* **1.** soliq, o'lpon; yig'im; poshlina, boj; **to impose/ to levy a** – **on smb., smth.** biror kimsaga, narsaga soliq

solmoq; **2.** xarajatlar; **3.** AE (jamiyat, kasaba uyushmasi va sh.k. larda) a'zolik badallari.

tax² [tæks] *v* **1.** soliq solmoq; soliqqa tortmoq; **2.** yur. taksa (baho) belgilamoq, baho qo'ymoq, (jarima, xarajatlar, zararlar) hajmini aniqlamoq *yoki* belgilamoq; **3.** sinamoq, sinab ko'rmoq, sinovdan o'tkazmoq; **to** – **one's patience** biror kimsaning jig'iga tegmoq, g'ashini keltirmoq; **4.** (– **with**) ayblamoq, ayblab (aybdor sifatida) jazoga tortmoq, jazoga hukm qilmoq, mahkum qilmoq; **5.** AE (jamiyatda, kasaba uyushmasida) a'zolik badallarini olmoq (yig'moq, undirmoq).

taxation [tæks'eɪʃn] *n* **1.** soliq solish; soliqqa tortish; **2.** soliq hajmi; **3.** soliqdan tushgan daromad.

tax-free [tæks'fri:] *adj* soliq to'lovidan ozod qilingan.

taxi [tæksi] *n* taksi.

taxi-driver [tæksi'draɪvə] *n* taksi haydovchi.

tea [ti:] *n* choy.

teach [ti:tʃ] *v* (*pt, pp taught*) o'rgatmoq, o'qitmoq, ta'lim bermoq; **to** – **smb. a lesson** aql o'rgatib qo'ymoq, adabini (ta'zirini) bermoq; **to** – **smb. discipline** kimsani intizomga o'rgatmoq.

teacher [ˈti:tʃə] *n* **1.** o'qituvchi, muallim(a), ustoz; **2.** ustoz, murabbiy, nazariya, ta'limot asoschisi, ma'naviy ustoz.

teaching [ˈti:tʃɪŋ] *n* **1.** o'qitish, o'rgatish, dars berish, ta'lim berish, ta'lim; **2.** (–s) nazariya, ta'limot; doktrina.

team [ti:m] *n* komanda, jamoa.

teapot [ˈti:pɒt] *n* choynak.

tear I [tɪə] *n* **1.** ko'z yoshi, yosh; **2.** (–s) qayg'u, g'am-g'ussa, hasrat, dard-alam, anduh.

tear II¹ [tiə] *n* **1.** uzilish, buzilish, yorilish, uzilgan joy, yoriq; **2.** yirtiq joy, yirtiq, teshik; **3.** shoshi(li)sh, shoshma-shosharlik, shoshqaloqlik; **4.** AE aysh-

Λ cup /ɜ: tʊrn /ə about /eɪ say /əʊ bone /aɪ fine /aʊ now /oɪ boy /tə near /eə hair /uə tour

ishrat, mayxo'rlik; **5.** quturish, g'azabga kelish (minish), qattiq g'azab.

tear II² [təə] *v* (pt **tore**; pp **torn**) **1.** yirt-(il)moq, yor(il)moq, yirtilib (yorilib) ketmoq, yirtib (yorib) yuhormoq, uz(il)moq; **2.** sug'urib (tortib, yulib) olmoq, sug'urib (yulib) tashlamoq; uzmoq, uzib olmoq (yubormoq) (~ **away/off/out/up**); **3.** yelday uchib bormoq (kelmoq); yelmoq, yelday uchmoq.

teardrop ['tiədɒp] *n* yosh, ko'z yoshi, bir qatra yosh, bir tomchi ko'z yoshi.

tearful ['tiəfl] *a* **1.** yig'loq(i), chakagi ochiq, seryig'i; **2.** g'amli, g'amgin, achinarli, mungli, hazin.

tear-gas ['tiəgæs] *n* ko'zni yoshlantiruvchi (ko'zdan yosh oqizadigan) gaz.

tease [ti:z] *v* masxara (mazax) qilmoq, ermak qilmoq.

teaspoon ['ti:spu:n] *n* choyqoshiq.

technical ['teknɪkl] *a* **1.** texnikaviy, texnik; sanoatda (yoki texnikada) ishlatiladigan; **2.** maxsus, alohida; biror sohaga oid (xos) bo'lgan, sohaviy, soha...; **3.** mohir, usta, mahoratli, yuksak texnikaga erishgan, ustasi farang; mohirona; **4.** (~s) maxsus atamalar (terminlar).

technicality [teknɪkæləti] *n* (*pl* **technicalities**) **1.** ishning texnik tomoni, jihati; **2.** alohida xarakter (xususiyat); **3.** rasmiyat, rasmiyatchilik, texnik tafsilot; **4.** (~ies) sohaviy terminologiya.

technically ['teknikli] *adv* **1.** texnik tomondan, texnik jihatdan; **2.** maxsus, alohida ma'noda; **3.** rasman, rasmiy jihatdan, rasmiyat nuqtayi nazaridan.

technician [teknɪʃn] *n* **1.** texnik; texnika fanlari bo'yicha mutaxassis; **2.** o'z ishining ustasi; mutaxassis; **3.** laborant yoki laborant ayol, laborantka; **4.** *harb.* texnika qo'shinlari serjanti.

technics ['tekniks] *n* **1.** texnika, asbob-uskuna, mashinalar; texnika fanlari; **2.** =

technique; **3.** = **technology**; **4.** sohaviy terminologiya; **5.** texnik tafsilotlar.

technique [tek'ni:k] *n* **1.** texnika, asbob-uskuna, mashinalar, texnik jihozlar; apparatura, apparatlar; **2.** texnika, ish usuli (professional priyomlar majmui), texnik mahorat, maxsus usullarni egalash; **3.** biror narsani bajarish usuli; **4.** texnikaviy usul; uslub, usul, metod, metodika.

technologic [teknə'lɒdʒɪk] = **technological** [teknə'lɒdʒɪkl] *a* **1.** texnologik, texnologiyaga oid, texnologiya...; **2.** texnikaga oid; texnika(viy), texnika...; **3.** maxsus, alohida; biror sohaga oid (xos) bo'lgan, sohaviy, soha... .

technologist [teknə'lɒdʒɪst] *n* **1.** texnik, texnika fanlari bo'yicha mutaxassis, texnolog; **2.** muhandislik va texnika ishlari bo'yicha ishchi; muhandis-ishlab chiqaruvchi.

technology [teknə'lɒdʒi] *n* (*pl* **technologies**) **1.** texnika, asbob-uskuna, mashinalar; texnik va amaliy fanlar; **2.** ilmiy apparatura (apparatlar); **3.** texnika, ish usuli (professional priyomlar majmui), maxsus (alohida) usullar; **4.** texnologiya (materialga ishlov berish usullari va shu usullar tavsifi); **5.** sohaviy terminologiya.

teddy bear ['tedibeə] *n* ayiq (o'yinchoq).

teen [ti:n] *a* o'smir, o'smirlar (o'spiring) o'ld, o'smirlar (o'spirinlar) ..., o'smirlik (o'spirinlik)

teenager [ti:n'eɪdʒə] *n* o'smir, o'spirin.

teeth [ti:θ] (*pl of* **tooth**) tishlar.

telecommunications [telɪkə'mju:nɪ'keɪʃnz] *n* telekommunikatsiya, masofaviy aloqa.

telegram ['telɪgræm] *n* telegramma; ~ **form** telegramma blanki.

telephone [telɪfəʊn] *n* telefon; ~ **box** telefon budkasi; ~ **directory** telefon kitobi.

T

telescope [ˈtelɪskəʊp] *n* teleskop.

television [ˈtelɪvɪʒn] *n* 1. televideniye;
2. televizor.

tell [tel] *v* (pt, pp **told**) 1. aytmoq, aytib bermoq; **to - lies** aldamoq, yolg'on gapirmoq; 2. ma'lumot (axborot) bermoq; 3. buyurmoq; maslahat bermoq.

temper¹ [ˈtempə] *n* 1. fe'l, xulq, fe'l-atvor, xarakter, tabiat; 2. ruhiy holat, kayfiyat, dimog', avzo; **to be in a good (bad)** - yaxshi (yomon) kayfiyatda bo'lmoq; 3. jahli tezlik, qiziqqonlik; **to fly/to get into a -** qizishmoq, jahli (achchig'i) chiqib ketmoq, qoni (zardasi) qaynamoq; 4. o'zini dadil tutish, o'zini tuta bilish, o'zini yo'qotmaslik; **to keep one's -** o'zini tutmoq, o'zini tuta bilmoq; **to lose one's -** o'zini yo'qotmoq, esankirab qolmoq.

temper² [ˈtempə] *v* 1. cheklamoq, chek qo'ymoq, tiyib qo'ymoq, tiymoq, bosmoq, to'xtatmoq; 2. (metall haqida) toblamoq.

temperament [ˈtempərəmənt] *n* 1. fe'l, xulq, fe'l-atvor, xarakter, tabiat; 2. mijoz, temperament; 3. serg'ayratlik, jo'shqinlik, qizg'inlik, ehtiros, zavq, shavq, ishtiyoq; 4. injiqlik, tantiqlik, tajanglik.

temperamental [ˈtempərəmentl] *a* 1. tabiatida bor, tabiatan, jinidan; 2. otashin, jo'shqin, serzavq, sho'x; 3. bir xil turmaydigan, bekorga (salga) lovullab ketadigan, yengil; tashqi ta'sirlarga beriluvchan, ta'sirchan; 4. (mashina, qurilma va sh.k. lar haqida) yomon, notekis ishlaydigan, injiq.

temperate [ˈtempərət] *a* 1. o'zini (nafsin) tiygan, nafsi tiyiq, sabr-qanoatli, o'rtacha, o'rtamiyona, mo'tadil, evida (bo'lgan); 2. (iqlim haqida) mo'tadil, issiq ham sovuq ham emas; 3. o'zini tuta biladigan, vazmin, og'ir, bosiq, sipo.

temperature [ˈtempərətʃə] *n* harorat, issiqlik.

temple [ˈtempl] *n* ibodatxona.

temporarily [ˈtempərəli] *adv* vaqtinchacha, uzoq bo'lmagan muddatda.

temporary [ˈtempəri] *a* vaqtinchalik, doimiy bo'lmagan, muvaqqat.

ten [ten] *num* o'n.

tend I [tend] *v* 1. tarbiya (parvarish) qilmoq, g'amxo'rlik qilmoq, g'amini yemoq, jon kuydirmoq, qaramoq, qarab (ko'z-quloq bo'lib) turmoq; (kasallarga) qaramoq; 2. qo'ri(qla)moq, ko'z-quloq bo'lib saqlamoq; 3. boshqarmoq, boshida bo'lmoq, rahbarlik qilmoq; 4. (~ on, ~ upon) xizmatkorlik qilmoq.

uncertain [ʌn'sɜ:tn] *a* 1. shubha tug'diradigan, ishonib bo'lmaydigan, no-anig, tushunib bo'lmaydigan, mujmal, qorong'i; 2. noma'lum, noaniq, notayin; 3. ishonmaydigan, ishonchsiz, ikkilanuvchi, jur'atsiz, qat'iyatsiz; 4. o'zgaruvchan, ishonib bo'lmaydigan.

uncertainly [ʌn'sɜ:tnli] *adv* 1. shubha bilan, shubhalanib, ishonqiramadan; 2.

ishonmasdan, ishonchsizlik bilan, ikkilanib, jur'atsizlik bilan, qat'iyatsiz ravishda.

uncertainty [ʌn'sɜ:tnti] *n* (*pl uncertainty*) **1.** ishonchsizlik, ishonchsizlik bilan qilinadigan harakat, ikkilanish, ishonmaslik, jur'atsizlik, qat'iyatsizlik; **2.** noaniqlik, noma'lumlik, notayinlik.

unchanged [ʌn'tʃendʒd] *a* o'zgaragan, o'zgarishsiz qolgan.

uncle ['ʌŋkl] *n* tog'a, amaki.

uncomfortable [ʌn'kʌmfəbl] *a* **1.** qulayligi yo'q, noqulay, nobop, qulaysiz; shinamsiz; **2.** hijolat tortuvchi, noqulaylik sezuvchi, uyaluvchi.

uncomfortably [ʌn'kʌmfəbli] *adv* **1.** noqulay holda, noqulay, o'ng'aysiz; **2.** hijolat tortib, uyalib.

unconscious [ʌn'kɒnʃəs] *a* **1.** hushidan ketgan, hushsiz, hushini yo'qotgan, his qilmaydigan, sezmaydigan; **2.** bexosdan (hilmasdan) qilingan, tasodifiy; g'ayri-ixtiyoriy, beixtiyor, ixtiyorsiz; **3.** biror narsani tushunmaydigan, anglamaydigan, bilmaydigan, fahmlamaydigan.

unconsciously [ʌn'kɒnʃəsli] *adv* g'ayri-ixtiyoriy ravishda, beixtiyor, ixtiyorsiz, bilmasdan.

unconsciousness [ʌn'kɒnʃəsnəs] *n* behush holat, hushsizlik, behushlik

uncontrollable [ʌnkən'trəʊləbl] *a* **1.** sarkash, qo'lga o'rgatib bo'lmaydigan, bo'y bermaydigan, tiyib (bosib, to'xtatib) bo'lmaydigan, shiddatli, kuchli; **2.** boshqarib bo'lmaydigan, nazoratdan chiqqan.

uncontrollably [ʌnkən'trəʊləbli] *adv* **1.** sarkashlik bilan, bo'y bermasdan, shiddat bilan; **2.** boshqarib bo'lmas darajada.

uncontrolled [ʌnkən'trəʊld] *a* **1.** boshqarib bo'lmaydigan, yo'lga solib bo'lmaydigan; **2.** nazoratsiz.

uncountable [ʌn'kauntəbl] *a* sanab bo'lmaydigan, sanalmaydigan, sanoqsiz; **an** - **noun** sanalmaydigan ot.

uncover [ʌn'kʌvə] *v* **1.** (qopqoq va sh.k. larni) olmoq, olib qo'ymoq; **2.** ochmoq, oshkor (ma'lum) qilmoq, fosh qilmoq, kashf qilmoq; **3.** boshyalang bo'lmoq.

undeniable [ʌndɪ'naɪəbl] *a* rad qilib bo'lmaydigan, e'tirozga o'rin qoldirmaydigan, shubha tug'dirmaydigan, shubhasiz, shak-shubhasiz, begumon, aniq.

undeniably [ʌndɪ'naɪəbli] *adv* aniq, shak-shubhasiz.

under¹ ['ʌndə] *a* **1.** pastki, ostki, quyi; pastda, biror narsaning ostida joylashgan; **2.** bo'ysunadigan, tobe, qaram, quyi, pastki.

under² ['ʌndə] *adv* **1.** quyiga (da), pastga (da), quyi (past) tomonga, tubanda, pastida, ostida; quyi(roq); **2.** (hattoki) kamroq, ozroq; **3.** yoshroq, kichikroq.

under³ ['ʌndə] *prep* ushbu predlog quyidagi ma'nolarni ifodalaydi: **1.** biror predmet tagida joylashganlikni: tagida, ostida, tagiga, ostiga, tagidan, ostidan; - **the bed** karavot tagida; **2.** biror predmetning quyi qismida yoki bevosita uning ostida joylashganlikni: ostida, etagida, yonida, yaqinida, atro-fida, bo'sag'asida; **the village lies** - **a mountain** qishloq tog' etagida joylashgan; **3.** yuk, og'irlik, bosim, ta'sir, xavf va sh.k. lar ostida bo'lishlikni: ostida, ta'sirida; - **the pressure** bosim ostida; - **the threat of smth.** biror narsaning havfi ostida; **4.** biror kimsaning buyrug'i, rahbarligi, kuzatuvi, homiyligi va sh.k. lar ostida bo'lishlikni: ostida, qo'l ostida; **to fight** - **smb.** biror kimsaning buyrug'i bilan jang qilmoq; - **the British flag** Britaniya bayrog'i ostida; **5.** biror ijtimoiy tuzum, davr, hukmronlik va sh.k.ga murojaatni: ostida, davrida, vaqtida, paytida, zamonida; - **the Roman Empire** Rim imperiyasi davrida; **6.** ma'lum holat yoki sharoitlarda bo'

tʃ chin /θ thin /ð the /ʃ she /ʒ usual /h he /m me /n not /ŋ king /l lip /r rat /j yet /w we

lishlikni: ostida, bilan, tufayli; ~ **such (any) conditions** bunday (har qanday) sharoitlarda; ~ **the circumstances** ana shu (mavjud) sharoitlarda; **7. qonun, qoida, shartnoma va sh.k. ga muvofiq ekanlikni**: bo'yicha, binoan; ~ **agreement** kelishuv bo'yicha; ~ **the terms of the treaty** shartnoma shartlariga binoan; **8. nom (tez-tez o'ylab chiqarilgan), taxallus ma'nosini**: ostida, bilan; ~ **an assumed name** o'ylab chiqarilgan nom ostida; ~ **a pen-name** taxallusi bilan; **9. miqdoridan ozlikni**: kamroq, ozroq, pastroq; ~ **£5** besh funtdan kamroq; ~ **cost** narxidan past; **10. ancha erta yosh**: -gacha bo'lgan, -dan kichik bo'lgan; **children ~ six years of age** olti yoshgacha (yoshdan kichik) bo'lgan bolalar; **books for ~ tens** o'n yoshgacha bo'lgan bolalar uchun kitoblar; **to be ~ age** balog'at yoshida bo'lmaslik; **11. biror me'yor, belgilangan o'lcham, miqdor va sh.k. lardan kamlikni**: kamroq, ozroq, pastroq; **the loaf is ~ weight** bu buxananing og'irligi me'yordan kam; ~ **one's breath** past ovoz bilan, shipshitib, shivirlab; ~ **one's nose! ~ the (very) nose of smb.** biror kimsaning burni ostida, shundoqqina oldida.

under- ['ʌndə-] *pref ushbu old qo'shimcha so'zlar yasashda quyidagi hollatlarda qo'llaniladi*: **1. biror narsaning ostida, quyi qismida joylashganlikni ifodalashda**: **under-deck** quyi paluba; **underline** tagiga chizmoq, tagini chizib qo'yimoq; **undermine** tagidan (ostidan) qazimoq, kovlamoq, tagini (ostini) kovlamoq; **2. bo'ysunishni (tobelikni), uncha ahamiyatli emaslikni ifodalashda**: **under-clerk** kichik klerk; **underpart** ikkinchi darajali rol; **undersecretary** vazir o'rinbosari; **3. yetarli (kifoya, to'liq) darajada emaslikni ifodalashda**: **underdeveloped** hali

o'sib yetilmagan, yaxshi o'smagan; **underemployment** noto'la bandlik (ish bilan ta'minlanganlik).

undercharge [ʌndə'tʃɑ:dʒ] *v* **1.** juda ham past narx olmoq *yoki* belgilamoq; **2. harb.** kam o'q-dori bilan o'qlamoq.

underclothes [ʌndə'kləʊðz] *n* ichki (ich) kiyimlar.

undercoat [ʌndə'keɪt] *n* **1. tex.** gruntlash (bo'yoq ostidan); **2.** boshqa bir kiyim ostidan kiyiladigan kurtka (kalta kamzul) *yoki* pidjak (kastum).

undercook [ʌndə'kʊk] *v* to'la (yetarli darajada) pishirmaslik, yaxshi pishirmaslik.

undercover [ʌndə'kʌvə] *a* yashirin, maxfiy, sir tutiladigan, sirli; **an ~ agent** maxfiy agent.

undercurrent [ʌndə'kʌrənt] *n* **1.** suvosti oqimi; **2. ko'ch.** yashirin g'oya, fikr; dildagi (miyadagi) fikr, birovga aytilmagan (oshkor) qilinmagan o'y-xayol.

undercut [ʌndə'kʌt] *v* (pt, pp **undercut**) **1.** tagidan qirqmoq (kesmoq); **2.** bahoni pasaytirmoq; (boshqa raqobat-chilarga nisbatan) ancha past bahoda sotmoq.

under-deck [ʌndə'dek] *n* quyi paluba.

underdeveloped [ʌndə'di'veləpt] *a* hali o'sib yetilmagan, yaxshi o'smagan; kam rivojlangan.

underdog [ʌndə'dɒg] *n* **1.** omadsiz, baxti (omadi) yo'q odam; kuchsiz (zaif) tomon (mamlakat, komanda, sportchi); **2.** nohaqlik (adolatsizlik) qurboni; hamma narsadan mahrum (bebahra) qilingan odam, xo'rlangan odam.

underdone [ʌndə'dʌn] *a* to'la (yetarli darajada) pishirilmagan, yaxshi pishirilmagan, chala (sal-pal, ozgina) qovurilgan (go'sht haqida).

underemployed [ʌndə'ɪm'plɔɪd] *a* **1.** noto'la ish kuni *yoki* oyi bilan bandlik; qisman ishsiz (ish bilan ta'minlanganlik);

2. o'zining (yuqori) malakasiga to'g'ri kelmaydigan ishni bajarayotgan.

underemployment [ʌndəɪm'plɔɪmənt] *n* **1.** (ish kuchining) noto'la bandlik (ish bilan ta'minlanganlik); **2.** noto'liq (yarin) ish kuni; **3.** (yuqori) malakaga to'g'ri kelmaydigan ish (ishchining).

underestimate¹ [ʌndə'restɪmət] *n* yetarlicha baho bermaslik.

underestimate² [ʌndə'restɪmeɪt] *v* kam baho bermoq, yetarlicha (munosib) baho bermaslik.

underfoot [ʌndə'fʊt] *adv* **1.** oyog'i ostida, pastda; **2.** tobelikda, bo'ysundirib, nazorat ostida.

undergo [ʌndə'gəʊ] *v* (pt **underwent**; pp **undergone**) **1.** boshdan kechirib (totib ko'rib) bilmoq, boshdan kechirmoq, totib ko'rmoq, chekmoq, his qilmoq; **2.** uchramoq, yo'liqmoq, duchor (mubtalo) bo'lmoq, qilmoq; **to ~ an operation** operatsiya bo'lmoq.

undergone [ʌndə'gɒn] *v* pp of **undergo**.

undergraduate [ʌndə'grædʒuət] *n* oxirgi kurs talabasi (tolibi).

underground¹ [ʌndə'graʊnd] *n* **1.** tagzamin, ishlanadigan tuproq ostidagi yer qatlami; **2.** metropoliten; yer osti yo'li; **to go by the ~** metroda bormoq; **3.** maxfiy tashkilot; yashirin (maxfiy) ish.

underground² [ʌndə'graʊnd] *a* **1.** yer ostidagi, yer ostida joylashgan, yer ostida olib boriladigan, yerosti; **2.** yashirin, maxfiy, sir tutiladigan, sirli, nolegal.

underground³ [ʌndə'graʊnd] *adv* **1.** yer ostidan (tagidan); **2.** yashirincha, maxfiy ravishda, bekitib, zimdan, xufiya, bildirmay; **to go ~** yashirincha (maxfiy suratda) ketmoq.

undergrowth [ʌndə'grəʊθ] *n* o'rmondagi butalar (yetilmagan daraxtlar).

underhand¹ [ʌndə'hænd] *a* yashirin, maxfiy, sir tutiladigan, sirli; pinhoni.

underhand² [ʌndə'hænd] *adv* yashirincha, yashiriqcha, bildirmay, sezdirmay, zimdan, orqasidan, ketidan, orqavoratdan.

underlain [ʌndə'leɪn] *v* pp of **underlie**.

underlay [ʌndə'leɪ] *v* pt of **underlie**.

underlie [ʌndə'leɪ] *v* (pt **underlay**; pp **underlain**) **1.** (biror narsaning tagida) yotmoq; **2.** (biror narsaning) asosida, zamirida yotmoq.

underline [ʌndə'leɪn] *v* **1.** (matnda) tagiga chizmoq, tagiga (tagini) chizib qo'yimoq; **2.** alohida ahamiyat (e'tibor) bermoq, ... deb qaramoq, ayirib (alohida qilib) ko'rsatmoq, ta'kidlamoq, uqtirub o'tmoq.

underlying [ʌndə'laɪɪŋ] *a* **1.** (biror narsa ostida) yotgan; **2.** asosida (negizida, zamirida) yotgan; **3.** ko'zda (nazarda) tutilgan, yashirin, maxfiy, pinhoni, sir tutilgan, ichidagi, zamiridagi.

undermentioned [ʌndə'menʃənd] *a* quyida qayd etilgan, quyida eslatib o'tilgan.

undermine [ʌndə'maɪn] *v* **1.** tagidan (ostidan) kovlamoq, qazimoq; tagini (ostini) kovlamoq; **2.** tagidan yuvib (o'yib, kamar qilib) ketmoq, yuvib ketmoq; **3.** (obro', mavqe va sh.k. larni) tushirmoq; **4.** zarar (putur) yetkazmoq, zaiflashtirmoq, holdan toydirmoq, sil-lasini (madorini) quritmoq.

undermost [ʌndə'məʊst] *a* eng pastki; eng past.

underneath¹ [ʌndə'ni:θ] *a* **1.** pastki, ostki, quyi, etakdagi, pastroqda *yoki* quyida joylashgan; **2.** yashirin, maxfiy, sir tutiladigan, sirli; pinhoni.

underneath² [ʌndə'ni:θ] *adv* quyiga (da), pastga (da), quyi (past) tomonga, tubanda, pastida, ostida; quyi(roq); pastidan, ostidan, tagidan.

the underneath³ [ʌndə'ni:θ] *n* (biror narsaning) pastki qismi *yoki* tomoni.

underpaid¹ [ˌʌndəˈpeɪd] *a* yetarli darajada to‘lanmagan; kam to‘lanadigan.

underpaid² [ˌʌndəˈpeɪd] *v pt, pp of underpay.*

underpants [ˌʌndəˈpænts] *n* ishton (erkaklamniki); trusik, kalta ishton (erkaklamniki).

underpart [ˌʌndəˈpɑ:t] *n* 1. pastki (ostki, quyi) qism; 2. ikkinchi darajali rol.

underpass [ˌʌndəˈpɑ:s] *n* 1. temir yo‘l ko‘tarmasi ostidagi o‘tish joyi; 2. ko‘chadagi yerosti yo‘li, piyoda yurishga mo‘ljallangan tunnel.

underpay [ˌʌndəˈpeɪ] *v* (pt, pp **underpaid**) (biror ish uchun) kam haq to‘lamoq; yetarli miqdorda to‘lamaslik.

underprivileged [ˌʌndəˈprɪvələdʒd] *a* 1. imtiyoz (yengillik)lardan mahrum bo‘lgan, huquqlardan kamroq foydalana-digan; 2. kambag‘al, qashshoq, nochor, faqir, bechorahol, yashash uchun zarur puldan mahrum bo‘lgan (ajralgan).

underrate [ˌʌndəˈreɪt] *v* kam baho bermoq, yetarlicha (munosib) baho bermaslik, nazar-pisand qilmaslik.

undersecretary [ˌʌndəˈsekrətəri] *n* 1. vazir o‘rinbosari yoki yordamchisi; 2. (BMTning) Bosh Kotib o‘rinbosari.

undershirt [ˌʌndəˈʃɜ:t] *n* AE ich ko‘y-lak; mayka.

underside [ˌʌndəˈsaɪd] *n* ost, tub, (predmetning) paski, ostki, quyi qismi.

undersign [ˌʌndəˈsaɪn] *v* imzo chekmoq, qo‘l qo‘ymoq.

undersigned [ˌʌndəˈsaɪnd] *a* quyida (tubanda) qo‘l qo‘yuvchi (qo‘ygan); **we the** – biz tubanda qo‘l qo‘yuvchilar.

undersized [ˌʌndəˈsaɪzd] *a* 1. kichraytirilgan, pasaytirib (kamaytirib) yuborilgan; 2. juda kichkina, pastbo‘y, pastak; pakana, past bo‘yli.

undershirt [ˌʌndəˈskɜ:t] *n* ichki yubka.

understand [ˌʌndəˈstænd] *v* (pt, pp **understood**) 1. tushunmoq; **to give to** –

tushuntirib qo‘ymoq; 2. fahmlamoq; anglamoq, tushunib yetmoq; ko‘z oldiga keltirmoq; 3. ko‘zda (nazarda) tutmoq; o‘ylamoq, hisoblamoq; ...deb bilmoq (tushunmoq, anglamoq).

understandable [ˌʌndəˈstændəbl] *a* tushunarli, tushunib bo‘ladigan, tushuniladigan.

understandably [ˌʌndəˈstændəbli] *adv* tushunarli qilib, aniq, ravshan, ochiq-oydin.

understanding [ˌʌndəˈstændɪŋ] *n* 1. tushunish, anglash, fahmlash; 2. itti-foqlik, inoqlik, totuvlik, hamjihatlik, muvosa; bir-birini tushunish, hamfikrlik; 3. bitim, kelishuv; **to come to an** – kelishmoq, bitishmoq, bitimga kelmoq; 4. shart; **on the** – **that** sharti bilan, shu shart bilan.

understate [ˌʌndəˈsteɪt] *v* 1. kichraytirib (kamaytirib) yubormoq, ko‘rsatmoq; 2. o‘z fikrini tiyqlik bilan bayon qilmoq (gapirmoq); o‘z fikrini oxirigacha aytmaslik.

understatement [ˌʌndəˈsteɪtmənt] *n* 1. kichraytirib (kamaytirib) yuborish, ko‘rsatish; 2. o‘z fikrini tiyqlik bilan bayon qilish (gapirish).

understood [ˌʌndəˈstʊd] *v pt, pp of understand.*

understudy [ˌʌndəˈstʊdi] *n* (*pl* **understudies**) 1. (teatrd) dublor; 2. rolni yod olayotgan (yosh) aktyor.

undertake [ˌʌndəˈteɪk] *v* (pt **undertook**; pp **undertaken**) 1. hoshlamoq, kirishmoq, qilmoq; 2. (majburiyat, vazifani) o‘z bo‘yniga olmoq; 3. kafil bo‘lmoq, kafolat bermoq, kafilligini olmoq, ishontirmoq, garantiya bermoq.

undertaken [ˌʌndəˈteɪkən] *v pp of undertake.*

undertaker [ˌʌndəˈteɪkə] *n* dafn (qilish) byurosi xo‘jayini.

undertaking [ˌʌndəˈteɪkɪŋ] *n* 1. tashab-

bus, faoliyat, ish; 2. korxon; zavod; 3. majburiyat; kafolat, garantiya; 4. dafn (qilish) byurosi.

undertone [ˈʌndətəʊn] *n* 1. yarim ton, yarim ovoz; **to speak in an** ~ yarim ovozda gapirmoq; 2. (rang haqida) rang turi, rangdagi nozik farq; 3. yashirin ma'no, tagma'no, ostma'no, tubma'no.

undertook [ˈʌndə'tʊk] *v pt of undertake*.

undervalue [ˈʌndə'vælju:] *v* 1. kam baho bermoq, yetarlicha (munosib) baho bermaslik, juda past baho bermoq; 2. qard-qimmatini tushirmoq (ketkizmoq), beqadr (xor) qilmoq.

underwater¹ [ˈʌndə'wɔ:tə] *a* suv ostida bo'ladigan, suv ostidagi, suvosti; ~ **warfare** *harb.* suvosti urushi.

underwater² [ˈʌndə'wɔ:tə] *adv* suv ostida, suv ostiga, suv ostidan.

underwear [ˈʌndəweə] *n* „underclothes“ ga qarang.

underweight [ˈʌndə'weɪt] *a* normadan kam vaznga (og'irlikka) ega bo'lgan, yengil.

underwent [ˈʌndəwent] *pt of undergo*.

underwork [ˈʌndə'wɜ:k] *v* 1. yetarli darajada ishlov bermaslik; 2. kam ishlamoq; 3. ancha past haq uchun ishlamoq; 4. ish bilan yetarli darajada band qilmaslik, yetarli darajada ish (vazifa) yuklamaslik.

the underworld [ˈʌndə'wɜ:ld] *n* 1. do'zax, jahannam; 2. jinoyatchilar doirasi; 3. jamiyatdagi razil kishilar.

undesirable¹ [ˌʌndɪ'zəɪərəbl̩] *a* yoqimsiz (xush ko'rilmagan, yoqmaydigan) shaxs.

undesirable² [ˌʌndɪ'zəɪərəbl̩] *a* 1. xush ko'rilmagan (kelmaydigan), yoqmaydigan, nomaqbul, yoqimsiz; 2. to'g'ri (mos) kelmaydigan, noqulay; 3. shubhali, shubha tug'diradigan, ishonib bo'lmaydigan, dargumon.

undestroyable [ˌʌndɪ'strɔɪəbl̩] *a* buzib bo'lmaydigan, buzilmas, metindek mustahkam, qattiq, mahkam.

undetermined [ˌʌndɪ'tɜ:mɪnd] *a* 1. noaniq, mujmal, dudmol, ochiq qolgan, hal qilinmagan, yechilmagan; 2. ikkilanuvchi, ikkilanadigan, jur'atsiz, qat'i-yatsiz, lanj.

undeveloped [ˌʌndɪ'veləpt] *a* 1. rivojlanmagan, taraqqiy etmagan, o'smagan; 2. (fotoplyonka haqida) proyavit (proyavka, tasviri ko'rinadigan) qilinmagan, yuvilmagan.

undid [ʌn'dɪd] *v pt of undo*.

undignified [ˌʌndɪɡnɪfaɪd] *a* o'z qad-rini (obro'sini, e'tiborini), salobatini yo'qotgan.

undisciplined [ˌʌn'dɪsɪplɪnd] *a* intizomsiz, tartibsiz; itoatsiz, so'zga (gapga) kirmaydigan, qulqosiz.

undisclosed [ˌʌndɪs'kɔʊzd] *a* 1. ochilmagan, ochib tashlanmagan, fosh qilinmagan; sirli, maxfiy, pinhoni; 2. topilmagan, noma'lum, ma'lum bo'lmagan; **an** ~ **source** noma'lum manba.

undiscovered [ˌʌndɪs'kʌvəd] *a* 1. ochilmagan, kashf qilinmagan, tekshirilmagan, o'rganilmagan, tadqiq qilinmagan; 2. topilmagan, noma'lum, ma'lum bo'lmagan.

undistilled [ˌʌndɪ'stɪld] *a* distillanmagan, soflanmagan, tozalanmagan.

undistinguishable [ˌʌndɪ'stɪŋɡwɪʃəbl̩] *a* (~ **from**) farqlab bo'lmaydigan (biror narsadan).

undistinguished [ˌʌndɪ'stɪŋɡwɪʃt] *a* 1. farqlab (farq qilib, ajratib) bo'lmaydigan, noaniq, mujmal, qorong'i; 2. sezilmaydigan, bilinmaydigan, ko'rinmaydigan; 3. o'riacha, o'rta-miyona.

undivided [ˌʌndɪ'vaɪdɪd] *a* 1. bo'linmagan, taqsimlanmagan, qismlarga ajratilmagan, butun, yaxlit; 2. bir yerga to'plangan, bir narsaga qaratilgan (jalb

tʃ chin /θ thin /ð the /ʃ she /ʒ usual /h he /m me /n not /ŋ king /l lip /r rat /j yet /w we

etilgan), diqqat-e'tiborli; ~ **attention** diqqat-e'tiborning bir yerga to'plan-ganligi (bir narsaga qaratilganligi); **3.** ajralmas, bo'linmas, ajratib bo'lmay-digan, ayrilmas.

unemployment [ˌʌnɪm'plɔɪmənt] *n* ishsizlik, ishchilarning ishsiz qolishi.

unending [ˌʌn'endɪŋ] *a* **1.** cheki yo'q, cheksiz, uzundan-uzoq, tugamaydigan, oxiri (poyoni) yo'q; **2.** boqiy, abadiy, mangu, umrbod.

unendurable [ˌʌnɪn'djʊərəbl] *a* chidab (toqat qilib) bo'lmaydigan, juda kuchli (yomon, og'ir), qattiq.

unenviable [ˌʌn'enviəbl] *a* havas (hasad) qilarli emas, yaxshi emas, achinarli, qiyin, og'ir.

unequal [ˌʌni:kwəl] *a* **1.** teng (baravar) emas, teng bo'lmagan, tengsiz; **2.** (~ to) to'g'ri (loyiq, mos, bop, muvofiq) kel-maydigan, nomuvofiq, nomunosib, noloyiq; **3.** huquqiy jihatdan tengsiz, teng (baravar) huquqqa ega bo'lmagan, teng huquq bermaydigan, adolatsiz, nohaq.

unequally [ˌʌni:kwəli] *adv* teng (baravar) bo'lmagan holda, tengsizlarcha, bir ko'z bilan qaramay.

unerring [ˌʌn'ɜ:rɪŋ] *a* **1.** xatosiz, bexato, benuqson, beayb, xatosiz (bexato) qi-lingan, xato qilmaydigan, yanglishmay-digan; **2.** aniq, to'ppa-to'g'ri, ishonchli.

unessential [ˌʌn'ɛsɪntʃl] *a* uncha aha-miyati yo'q, unchalik ahamiyatli (muhim) emas, ikkinchi darajali, juz'iy, arzimaz, arzimagan.

uneven [ˌʌni:vən] *a* **1.** notekis, bir te-kisda bo'lmagan, g'adir-budur, past-baland, o'nqir-cho'nqir; **2.** teng (baravar) emas, teng bo'lmagan, tengsiz; **3.** *mat.* toq, juft emas.

unexcelled [ˌʌnik'seld] *a* hech kim (hech narsa) oldiga tusholmaydigan, teng kelolmaydigan.

unexpected [ˌʌnɪk'spektɪd] *a* kutil-magan, kutilmaganda yuz (ro'y) bergan, to'satdan (birdan, qo'qqisdan) bo'lib qolgan, kutilmagan, tasodifiy.

unexpectedly [ˌʌnɪk'spektɪdli] *adv* birdaniga, to'satdan, tasodifan, kutil-maganda, favqulodda.

unexperienced [ˌʌnɪk'spɪrɪənst] *a* **1.** tajribasiz, tajribasi yo'q, tajriba orttir-magan; **2.** (vaziyat, fakt haqida) sinal-magan, sinashta bo'lmagan, ishonchsiz.

unexperimented [ˌʌnɪk'spɛrɪmɛntɪd] *a* tajriba (sinov) bilan tekshirib ko'rilma-gan, sinashta bo'lmagan.

unfair [ˌʌn'feə] *a* **1.** adolatsiz, nohaq; **2.** vijdonsiz, noinsof, insofsiz, diyonat-siz.

unfairly [ˌʌn'feəli] *adv* **1.** adolatsizlik bilan, nohaq; **2.** vijdonsizlarcha, noin-soflarcha, insofsizlik orqasida.

unfairness [ˌʌn'feənəs] *n* **1.** adolat-sizlik, nohaqlik; **2.** vijdonsizlik, noin-sofliq, insofsizlik, diyonatsizlik.

unfaithful [ˌʌn'feɪθfl] *a* **1.** vafosiz, be-vafo, aldanchi, xiyonatkor, makkor, munofiq; **2.** *din.* dinga (Xudoga) ishon-maydigan, dinsiz, dahriy; g'ayridin.

unfaithfulness [ˌʌn'feɪθflnəs] *n* be-vafolik, vafosizlik, xoinlik, xiyonat, xiyonatkorlik, makkorlik, munofqlik.

unfamiliar [ˌʌnfə'mɪliə] *a* **1.** notanish, yot, begona; **2.** (~ with) bilmaydigan, ilgari ko'rilmagani, boshdan kechiril-magan, notanish.

unfashionable [ˌʌnfəʃnəbl] *a* **1.** mo-dadan qolgan (chiqqan), eskirgan; **2.** hashamatsiz, dabdabasiz, oddiy.

unfasten [ˌʌn'fɑ:sn] *v* **1.** yechmoq, yechib qo'yimoq, tugmasini (ilgagini, bog'ichini) yechmoq; **2.** bo'shatmoq, yechmoq, bo'shatib qo'yimoq (yubor-moq); **3.** (qulfni, qulflangan narsani) ochmoq.

unfastened [ˌʌn'fɑ:snd] *a* **1.** yechilgan,

yechib qo'yilgan, tugmasi (ilgagi, bo'g'ichi) yechilgan, bo'shatilgan; 2. yopilmagan, ochiq qoldirigan; ochiq.

unfavourable [ʌn'feivərəbl] *a* 1. noqulay, nomuvofiq, nobop, yomon, salbiy; 2. yoqimsiz, yomon, sovuq; xunuk, ko'rimsiz, ko'rksiz, chiroyli emas.

unfinished [ʌn'fɪnɪʃt] *a* 1. tugallanmagan, yakunlanmagan, nihoyasiga (oxiriga) yetkazilmagan; 2. dag'al, ishlanmagan, ishlov berilmagan.

unfit [ʌn'fɪt] *a* 1. yaroqsiz, ishga yaramaydigan, ishdan chiqqan, nobop, nomunosib, nomuvofiq; 2. noqobil, qilolmaydigan, qo'lidan kelmaydigan, uddasidan chiqa olmaydigan; 3. sihati yomon, sog'lig'i qochgan, kasalmand, nosog'; (sog'liq jihatdan) layoqatsiz.

unfit² [ʌn'fɪt] *v* ishdan chiqarmoq, yaroqsiz holga keltirmoq, ishga yaramaydigan qilib qo'ymoq; diskvalifikasiya qilmoq, mahrum qilmoq.

unfold [ʌn'fəʊld] *v* 1. yoz(il)moq, yoy(il)moq, och(il)moq, yech(il)moq, kengay(tir)moq; cho'zilib (yoyilib) yotmoq; 2. (reja, o'yab qo'yilgan niyatni) ochmoq, oshkor qilmoq, ma'lum qilmoq.

unforeseen [ʌn'fɔ:'si:n] *a* kutilmagan, o'ylanmagan, xayolga ham kelmagan, nogahoniy, tasodifiy, oldindan nazarga olinmagan, oldindan ko'zda tutilmagan, mo'ljalga olinmagan.

unforgettable [ʌn'fə'getəbl] *a* unutilmas, unutilmaydigan, esdan chiqmaydigan (chiqarilmaydigan), ajoyib.

unforgivable [ʌn'fɔ:gɪvəbl] *a* kechirilmaydigan, kechirib bo'lmaydigan, kechirilmas, uzrsiz.

unfortunate¹ [ʌn'fɔ:'tʃənət] *n* baxti (omadi) yo'q odam, ishi o'ngmagan (toleyi past) odam, omadsiz; baxtsiz (be-baxt) odam, baxti (manglayi) qora, sho'r-peshana, bechora, sho'rlik.

unfortunate² [ʌn'fɔ:'tʃənət] *a* 1. bebaxt,

badbaxt, baxtsiz, baxti qora, toleyi past, sho'r-peshana, sho'rlik; 2. qoniqarsiz, yaxshi (muvaqqiyatli) chiqmagan, ko'ngildagidek bo'lmagan, nomuvofiq, noo'rin; **an - remark** noo'rin tanbeh.

unfortunately [ʌn'fɔ:'tʃənətli] *adv* baxtga qarshi, afsuski, ming afsuski.

unfounded [ʌn'faʊndɪd] *a* asossiz, dalilsiz, asoslanmagan, noo'rin, tagi puch.

unfriendly [ʌn'frendli] *a* 1. xush (yaxshi) ko'rmaydigan, yoqirmaydigan, yomon ko'radigan, dushman, dushmanlarcha; 2. noqulay, nomuvofiq, nobop, yomon, salbiy.

ungainly [ʌn'geɪnli] *a* bichimi kelishmagan, qovushmagan, beso'naqay, beo'xshov, qo'pol.

ungraceful [ʌn'greɪsfl] *a* nafis (nozik, latif, go'zal) emas, nafosatsiz, nazokat-siz, kelishmagan, beso'naqay.

ungracious [ʌn'greɪʃəs] *a* 1. nazo-katsiz, qo'pol, dag'al, qo'rs, behurmatlikni bildiradigan (ifodalaydigan), sovuq, iltifotsiz, bemehr; 2. yoqimsiz, ko'ngilsiz, yomon, jirkanch, xunuk.

ungrateful [ʌn'greɪtfl] *a* 1. yaxshilikni bilmaydigan, qadr-qimmatiga yetmaydigan, ko'mamak, nonko'r, oqibatsiz; 2. yoqimsiz, ko'ngilsiz, yomon, jirkanch, xunuk.

unguarded [ʌn'gɑ:dɪd] *a* 1. parvosiz, beparvo, beg'am, ketini (oqibatini) o'yalamay ish qiladigan, ehtiyotsizlik bilan ish tutadigan, ehtiyotsiz; 2. qo'riqlanma(ydi)gan, qorovulsiz, qo'riqchisiz; himoya qilinmagan, himoyasiz.

unhappily [ʌn'hæpɪli] *adv* 1. xafa bo'lib, baxtsizlarcha, baxtsiz, achinarli darajada, ayanchli; 2. baxtga qarshi, afsuski, ming afsuski.

unhappiness [ʌn'hæpɪnəs] *n* baxtsizlik, musibat, falokat, ofat, balo, fojia.

unhappy [ʌn'hæpi] *a* 1. baxtsiz, bebaxt,

badbaxt, baxti qora; sho'rpeshana; **2.** g'amga botgan, g'amgin, xafa, ma'yus, qayg'uli; **3.** ko'ngildagidek bo'lmagan, o'rinsiz, noo'rin, chakki; bemavrid; **an-remark** noo'rin tanbeh.

unhealthy [ʌn'helθi] *a* **1.** xasta, nosog'lom, kasalmand; **2.** (sog'liqqa) zararli, xavfli; **3.** nosog'lom, yomon, buzuq; **an ~ interest** buzuq maqsad.

unheard [ʌn'hɜ:d] *a* **1.** eshitilmagan; eshitilmas, eshitilmaydigan, eshitib bo'lmaydigan; **2.** tinglanma(ydi)gan, o'z fikrini aytish imkoniyatidan mahrum bo'lgan.

unheard-of [ʌn'hɜ:dv] *a* **1.** quloq eshitmagan, eshitilmagan, misli ko'ril-magan, mislsiz, ajoyib; **2.** noma'lum, ma'lum bo'lmagan.

unhook [ʌn'huk] *v* **1.** uzmoq, uzib (ajratib) qo'ymoq, ajratmoq; ilgakdan olmoq; **2.** (ko'ylakdan ilgakni) yechmoq, yeshib qo'ymoq, bo'shatmoq.

uni- ['ju:nɪ-] *pref* murakkab so'zlarda bir, bittalik, yakka *degan ma'nolarni anglatadi*; **uniform** bir xil, bir qolipdagi, bir taxlitdagi; **unilateral** bir tomonlama, bir tomonli; **univalent** bir valentli.

unicorn ['ju:nɪkɔ:n] *n* bir shoxli hayvon (afsonaviy).

unicycle ['ju:nɪsaɪkl] *n* bir g'ildirakli velosiped.

unidentified [ʌnaɪ'dentɪfaɪd] *a* tanilmagan, noma'lum, ma'lum bo'lmagan; **an - flying object** noma'lum uchuvchi jism, NUJ.

unification [ju:nɪfɪ'keɪʃn] *n* **1.** birlashish, birlashuv, birlashtirish; birlashma, uyushma; **2.** unifikatsiyalash, bir xillash-tirish, bir xil qilish.

unified ['ju:nɪfaɪd] *a* umumiy, yagona; birlashgan, birlashtirilgan, birgalikdagi, qo'shma; **a ~ command** *harb.* birlashgan qo'mondonlik.

uniform¹ ['ju:nɪfɔ:m] *n* **1.** formal kiyim;

rasmiy kiyim, forma; **2.** *harb.* obmundirovaniye, formal kiyim-kechak.

uniform² ['ju:nɪfɔ:m] *a* doim bir xil, bir zayldagi, bir xilda (qolipda) bo'lgan, bir xil, bir qolipdagi, bir taxlitdagi.

uniform³ ['ju:nɪfɔ:m] *v* **1.** bir xillash-tirmoq, bir xil qolipga keltirmoq; **2.** formal kiyim kiymoq.

unify ['ju:nɪfaɪ] *a* (pt, pp **unified**) **1.** birlashtirmoq, birga qo'shmoq, birlashtirib (qo'shib) yubormoq; **2.** unifikatsiya qilmoq, unifikatsiyalash-tirmoq, bir xil shaklga keltirmoq, bir xil qilmoq.

unilateral [ju:nɪ'lætərl] *a* bir tomonlama, bir tomonli; - **disarmament** bir tomonlama qurolsizlanish.

unimportant [ʌnɪm'pɔ:tnt] *a* ahamiyatsiz, unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan, ahamiyati yo'q, arzimaz, arzimagan, arzimaydigan, juz'iy, kichkina.

uninformed [ʌnɪn'fɔ:md] *a* **1.** bexabar, xabarsiz, axborot (ma'lumot) berilmagan, xabardor qilinmagan, bildirilmagan; **2.** uncha (yetarlicha) bilmaydigan, yaxshi bilmaydigan, hexabar, xabari (bilimi) yo'q, bilimsiz.

uninhabitable [ʌnɪn'hæbɪtəbl] *a* yashash uchun yaramaydigan, yashab bo'lmaydigan.

uninhabited [ʌnɪn'hæbɪtɪd] *a* odam (aholi) yashamaydigan, kishi qadami yetmagan.

uninhibited [ʌnɪn'hɪbɪtɪd] *a* erkin, bemalol, bamaylixotir (yurish-turish, xulq, nutq va sh.k. haqida).

unintelligent [ʌnɪn'telɪdʒənt] *a* **1.** nodon, johil, omi; bilimsiz, biror sohadan xabarsiz, bilmaydigan, tushunmaydigan; **2.** aqlsiz, miyasiz, fahm-farosatsiz; **3.** aql (farosat) bilan qilinmagan.

unintelligible [ʌnɪn'telɪdʒəbl] *a* noaniq, chaplashib ketgan, tushunib bo'lmaydigan, tushunarsiz.

unintentional [ʌnɪn'tenʃnəl] *a* qasd-

dan (atayin, jo'rttaga) qilinmagan, bilmadan qilingan, beg'araz, beixtiyor, tasodifiy.

unintentionally [ʌnɪn'tenʃnəli] *adv* qasddan (atayin, jo'rttaga) qilinmasdan, bilmadan, beg'arazlarcha, beixtiyor ravishda, tasodifan.

uninterested [ʌn'ɪnrəstɪd] *a* **1.** (~ in) biror narsaga qiziqmagan, qiziqish uyg'otmagan, biror narsaga qiziqmay qolgan, ishi (ishtiqoqi) yo'q; **2.** biror (yoki hamma) narsaga beparvo (befarq) qaraydigan, befarq, beparvo, bee'tibor, loqayd.

uninterrupted [ʌnɪntə'raptɪd] *a* **1.** to'xtatib (uzib, kesib, bo'lib) bo'lmaydigan; **2.** uzluksiz, to'xtovsiz, muttasil, surunkali.

union ['ju:njən] *n* **1.** birlashish, birlashuv, qo'shilish, qo'shilma, birikma; **2.** birlashma, birlik, ittifoq; **military** ~ harbiy ittifoq; **3.** uyushma (ijtimoiy tashkilot), kasaba uyushmasi; **4.** hamohanglik, uyg'unlik, muvofiqlik, hamjihatlik, murosa; **5.** talabalar klubi; **6.** (*davlat bayrog'idagi*) birlashganlik, qo'shilganlikni bildiruvchi emblema.

Union Jack [ju:njən 'dʒæk] *n* „Yunion Jek“ (*Buyuk Britaniyaning davlat bayrog'i*).

unique [ju:'ni:k] *a* **1.** o'z turida yagona; tanho, tengsiz, mislsiz; **2.** o'ziga xos, alohida, maxsus; favqulotda, turfa; **3.** boshqalarga o'xshamagan, boshqalardan farq qiladigan, boshqacha, o'zgacha, g'alati, ajib, g'aroyib, ajoyib, ajablanarli, hayron (tong) qolarli, hayratomuz.

unisexual [ju:niseks] *a* **1.** har ikkala jins uchun yaroqli (mo'ljallangan), bir jinsli (odatda kiyim haqida); **2.** jinsi jihatdan farqlab bo'lmaydigan.

unison [ju:nɪsn] *n* **1.** unison (bir xil balandlikdagi bir necha ovoznining o'zaro mosligi yoki ohangdoshligi); **2.** ko'ch.

hamohanglik, uyg'unlik, muvofiqlik, hamjihatlik, murosa; **in** ~ **with** (biror narsa, kimsa)ga muvofiq, binoan.

unit [ju:nɪt] *n* **1.** bir, birlik, butun; **2.** o'lchov birligi; **3.** *harb.* qism, bo'linma; **4.** *tex.* agregat, seksiya, qism, blok; element, tarkibiy qism; **5.** protsessor; **6.** blok; **power supply** ~ blok pitaniye.

unite [ju:'naɪt] *v* **1.** qo'sh(il)moq, birik(tir)moq; **2.** birlash(tir)moq, birga qo'sh(il)moq.

united [ju:'naɪtɪd] *a* **1.** birlash(tiril)gan, qo'shilgan, qo'shma; **United Nations Birlashgan Millatlar Tashkiloti**; ~ **services** *harb.* harbiy kuchlarning hamma turi, harbiy kuchlar; **2.** birga (birgalikda) olib boriladigan, birgalikdagi, umumiy; **a** ~ **effort (action)** umumiy kuch (harakat); **3.** do'st, ahil, inoq, totuv; **a** ~ **family** ahil (totuv) oila.

unity [ju:'nəti] *n* **1.** birlik, birga qo'shilganlik; **2.** ittifoqlik, inoqlik, totuvlik, murosa; **to live in** ~ totuvlik bilan (ahil, inoq bo'lib) yashamoq; **at** ~ **with** ...ga muvofiq, binoan; **3.** mustahkam birlik, birlashganlik, jipslik, birdamlik, hamjihatlik, birlik; **national** ~ milliy birlik.

universal [ju:nɪvɜ:səl] *a* **1.** umumiy, yalpi, ommaviy, barchaga baravar taalluqli; ~ **and complete disarmament** umumiy va to'liq qurolsizlanish; **2.** keng tarqalgan; **3.** dunyo (jahon) miqyosidagi, (butun) dunyo..., (butun) jahon...; olamshumul, jahonshumul; **4.** universal, hartomonlama, haryoqlama, har xil ishga (har narsaga) yaraydigan.

universally [ju:nɪvɜ:səli] *adv* hamma (har) joyda, har (hamma) yerda, har (hamma) yoqda.

the universe [ju:nɪvɜ:s] *n* koinot, olam, jahon, borliq, fazo.

university [ju:nɪvɜ:səti] *n* (*pl universities*) universitet, dorilfunun, oliygoh, oliy o'quv yurti.

unjust [ʌn'dʒʌst] *a* **1.** adolatsiz, nohaq; **2.** noto'g'ri, xato.

unkind [ʌn'kaɪnd] *a* zolim, shafqatsiz, johil, yomon, yovuz; jahli yomon, bad-jahl, qo'pol, qo'rs; **that's very - of you** bu siz tomondan juda yomon.

unkindly [ʌn'kaɪndli] *adv* **1.** gap ko'tarmay, xafa bo'lib, jizzakilik bilan; **2.** ichi qoralik bilan, dushmanlarcha, yomon, dag'allik (qo'rslik) bilan, sovuq, iltifot ko'rsatmay.

unknown¹ [ʌn'nəʊn] *a* **1.** notanish, noma'lum, o'rganilmagan; **2.** (odam haqida) yot, begona, notanish.

unknown² [ʌn'nəʊn] *n* **1.** (the ~) noma'lum, o'rganilmagan, sinalmagan, boshdan kechirilmagan, ko'rilmagan narsa; (odam haqida) notanish odam, begona, yot; **2. mat.** noma'lum kattalik.

unlawful [ʌn'lɔ:fl] *a* **1.** noqonuniy, g'ayriqonuniy, qonunga qarshi, qonunga xilof, qonunga to'g'ri kelmaydigan; **2.** nikohsiz.

unleash [ʌn'li:ʃ] *v* **1.** itni bo'shatib (qo'yib, yechib) yubormoq; **2. ko'ch.** yo'l ochmoq, imkon bermoq, sharoit yaratmoq; erk bermoq; **to - an arms race** qurollanish poygasini boshlab yubormoq; **to - war** urush boshlab yubormoq.

unless [ʌn'les] *conj* agar (agarda, basharti, mabodo, bordiyu) ...masa.

unlike¹ [ʌn'laɪk] *a* **1.** o'xshamaydigan, o'xshash emas, boshqacha, o'zgacha; **2.** ...dek emas; bir xil (baravar, teng, birdek) bo'lmagan.

unlike² [ʌn'laɪk] *prep* **1.** o'xshamas, xos bo'lmagan; **2.** ...dan farqli o'laroq (ravishda); **he, ~ his father, is tall** otasidan farqli o'laroq, u uzun bo'yli.

unlikely¹ [ʌn'laɪkli] *a* haqiqatga to'g'ri kelmaydigan (xilof), haqiqatdan uzoq, odam ishonmaydigan, aqlga to'g'ri kelmaydigan, mumkin bo'lmagan, ehtimoldan uzoq, mahol; dargumon.

unlikely² [ʌn'laɪkli] *adv* gumon, dargumon, shubhali, ehtimoldan uzoqroq; **not - g'oyat** ehtimol.

unlimited [ʌn'lɪmɪtɪd] *a* **1.** cheklanmagan, chek qo'yib (cheklab) qo'yilmagan, cheksiz; **2.** chegarasi (oxiri, poyoni) yo'q, cheksiz, chegarasiz, bepoyon; **3.** haddan tashqari, ortiq darajadagi, o'ta, cheksiz ko'p, behihoya.

unload [ʌn'ləʊd] *v* **1.** yukdan (yukni tushirib) bo'shatmoq, yukni tushirmoq; **2.** yuki tushirilmoq, yukdan bo'shamoq; **3.** (ruhini) yengillatmoq, (ko'nglini) tinchitmoq, taskin toptirmoq; **4. harb.** o'qini chiqarib olmoq, o'qsizlantirmoq; **5. av.** (bomba) tashlamoq.

unlock [ʌn'lɒk] *v* **1.** (kalit bilan) ochmoq; **2.** fosh qilmoq, ma'lim (oshkor) qilmoq, ochmoq; **3.** uzmoq, ajratmoq, ayirmoq, uzib (ajratib, ayirib) qo'yimoq.

unloose [ʌn'lʊ:s] *v* **1.** bo'shatmoq, bo'shashtirmoq, bo'sh qo'yimoq; **2.** ozod qilmoq, ozodlikka chiqartmoq.

unloosen [ʌn'lʊ:sn] „unloose“ga qarang.
unluckily [ʌn'lʌkɪli] *a* baxtga qarshi, afsuski, ming afsuski.

unlucky [ʌn'lʌki] *a* **1.** muvaffaqiyatsiz, o'ngmagan, o'ngidan (baroridan) kelmagan, omadi yo'q, omadsiz, hech (sira) ishi yurishmagan (o'ngmagan); **2.** baxtsiz, bebaxt, baxti qora, toleyi past, peshanasi sho'r.

unmade [ʌn'meɪd] *a* hali yasalmagan (qilinmagan); tayyorlanmagan, (karavot haqida) solinmagan, to'shalmagan.

unmanned [ʌn'mænd] *a* **1.** (odamlar bilan) to'lmagan; **2.** odamsiz, aholisiz, kimsasiz, odam (aholi) yashamaydigan, kishi qadami yetmagan; **3. tex.** avtomatik ravishda ishlaydigan, avtomatik, avtomat; **4. av.** uchuvchisiz.

unmarked [ʌn'mɑ:kt] *a* **1.** bilinmagan, ko'rinmagan, ko'zga tashlanmagan; **2.** belgilanmagan, belgi qo'yilmagan.

unmarried [ʌn'mæɹɪd] *a* uylanmagan, oilasiz, bo'ydoq; *erga tegmagan, turmushga chiqmagan.*

unmask [ʌn'mɑːsk] *v* **1.** niqobini olib tashlamoq, fosh qilmoq; oshkor qilmoq, ochib tashlamoq; **2.** niqobni, gazniqobni yechmoq.

unmentionable [ʌn'menʃənəbl] *a* eslatib bo'lmaydigan, taqiqlangan, taqiq (man) qilingan, taqiqlab qo'yilgan.

unmistakable [ʌnmɪ'steɪkəbl] *a* xatosiz (bexato) qilingan, yanglishilmagan, hexato, to'ppa-to'g'ri, aniq, shak-shubhasiz, o'z-o'zidan ko'rinib turgan.

unmistakably [ʌnmɪ'steɪkəbli] *adv* xatoga yo'l qo'ymay, yanglishmay, xato qilmay, xatosiz, bexato, to'ppa-to'g'ri.

unmoved [ʌn'muːvd] *a* **1.** qo'l tegizilmagan, qo'l urilmagan, o'rnidan qo'z-g'atilmagan; **2.** sabotli, matonatli, mahkam, qat'iy.

unnatural [ʌn'nætʃrəl] *a* **1.** notabiiy, tabiiy bo'lmagan, tabiatda bo'lmagan; **2.** noodatiy, g'alati, ajib; **3.** g'ayritabiiy.

unnaturally [ʌn'nætʃrəli] *adv* odatdigidan tashqari, g'alati qilib, g'ayritabiiy ravishda.

unnecessary [ʌn'nesəsəri] *a* keraksiz, foydasiz, befoйда, bekor, behuda, ortiqcha, ehtiyojidan ortiq.

unnoticed [ʌn'nəʊtɪst] *a* bilinmagan, ko'rinmagan, ko'zga tashlanmagan, e'tibor berilmagan, e'tiborsiz qoldirilgan.

unobtrusive [ʌnəb'truːsɪv] *a* kamtarin, kamsuqum, xira (shilqim, sulloh) emas.

unofficial [ʌnə'fɪʃl] *a* g'ayrirasmiy, norasmiy.

unofficially [ʌnə'fɪʃəli] *adv* norasman, norasmiy ravishda.

unpäck [ʌn'pæk] *v* **1.** ochmoq, (o'rovdan, yashikdan) ochib olmoq; yechilmoq, ochilmoq, yechilib (ochilib) ketmoq; **2.** (arava va sh.k. lardagi) yukni tushirmoq, yukdan bo'shatmoq; **3.** ma'

nosini tushuntirib bermoq, (shartli belgi va sh.k. larni) rasshifrovka qilmoq, topib o'qimoq.

unpaid [ʌn'peɪd] *a* **1.** to'lanmagan, haqi berilmagan; **2.** pulsiz, bepul, tekin; **3.** haq (to'lov) olmaydigan.

unperformed [ʌnpə'fɔːmd] *a* **1.** bajarilmagan, qilinmagan, ijro etilmagan, amalga oshirilmagan; **2.** (rol haqida) o'ynalmagan, ijro etilmagan; (pyesa haqida) sahnaga qo'yilmagan.

unplanned [ʌn'plænd] *a* **1.** rejalashtirilmagan, ko'zda tutilmagan; **2.** rejadandan tashqari bo'lgan.

unpleasant [ʌn'pleznt] *a* yoqimsiz, yomon, ko'ngilsiz, noxush, sovuq, xunuk, qo'lansa, bemaza.

unpleasantly [ʌn'plezntli] *adv* yoqimsizlik bilan, jirkanch (iflos, nafratlantiradigan) tarzda; yoqimsiz, beyoqim, noxush, sovuq, xunuk.

unplug [ʌn'plʌg] *v* vilkani rozetkadan sug'urib olmoq.

unpopular [ʌn'pɒpjələ] *a* ommabop emas; mashhur emas, tanilmagan.

unpopularity [ʌnpɒpjʌlə'retɪ] *n* ommabop emaslik; mashhur emaslik, tanilmaganlik.

unpopulated [ʌn'pɒpjuleɪtɪd] *a* odamsiz, aholisiz, kimsasiz, odam (aholi) yashamaydigan, kishi qadami yetmagan.

unpractical [ʌn'præktɪkl] *a* **1.** ishning ko'zini (turmushning ilmini) bilmaydigan, tajribasiz, no'noq; **2.** biror maqsadga muvofiq bo'lmagan (to'g'ri kelmaydigan); nomuvofiq, nobop, behuda.

unpractised [ʌn'præktɪst] *a* **1.** tajribada (amalda) qo'llanmagan, sinab ko'rilmagan; **2.** tajribasi yo'q (kam), tajriba ko'rmagan (orttirmagan), tajribasiz, malakasiz.

unprecedented [ʌn'presɪdntɪd] *a* hech ko'rilmagan, misli yo'q (ko'rilmagan), tengi yo'q, tengsiz, mislsiz, benazir.

U

unpredictable [ˌʌnpriˈdɪktəbl̩] *a* oldindan aytib (bashorat qilib) bo'lmaydigan, nima bo'lishini, kelajakni oldindan (taxminan) aytib bo'lmaydigan.

unprepared [ˌʌnpriˈpeəd] *a* ma'lum tayyorgarlik ko'rmagan, maxsus tayyorlanmagan; tayyor (taxt) emas, tayyorlanmagan.

unprincipled [ˌʌnpriˈnsɪpld] *a* 1. prinsipsiz, qat'iy prinsipi, maslak-maqsadi yo'q, tuturiqsiz, betayin; vijdotsiz, insofsiz, diyonatsiz; 2. noprinsipial, muayyan prinsiplarga asoslanmagan.

unproductive [ˌʌnpɹədʌktɪv] *a* samarasiz, barakasiz, foydasiz, unumsiz, behuda, kammahsul, unumi (samarasi) kam (yoki oz), u qadar foyda (naf) keltirmaydigan.

unprofessional [ˌʌnpɹəˈfeʃnəl] *a* 1. kasbga ega bo'lmagan, kasbsiz; 2. havaskor, professional bo'lmagan, noprofessional; 3. ma'lum bir kasb etikasiga to'g'ri kelmaydigan.

unprofitable [ˌʌnpɹɒfɪtəbl̩] *a* foydasiz, foyda keltirmaydigan, befoyda, o'z xarajatlarini qoplamaydigan, norentabel.

unpromising [ˌʌnpɹɒmɪsɪŋ] *a* kelajagi porloq bo'lmagan, umid bog'lab bo'lmaydigan, umidsiz.

unpronounced [ˌʌnpɹəˈnaʊnst] *a* talaffuz qilinmaydigan; (harf haqida) tovushsiz, o'qilmaydigan.

unprotected [ˌʌnpɹəˈtektəd] *a* 1. himoya (pana) qilinmagan, ochiq qoldirilgan, ochiq, yopilmagan; 2. himoyachisiz, o'jiz, hechora, qo'llab-quvvatlovchisi (homiysi) bo'lmagan (yo'q); 3. zirh (bron) bilan qoplanmagan, zirhlanmagan.

unprovoked [ˌʌnpɹəˈvəʊkt] *a* ig'vo (g'alamislik) qilinmagan, ig'vo (g'alamislik) orqali biror nojo'ya harakat qilinmagan, sababsiz.

unqualified [ˌʌnkwɒlɪfaɪd] *a* 1. tegishli tayyorgarlik yoki malakaga ega bo'lmagan;

2. talabga javob bermaydigan; 3. vakolatsiz, vakolati (haddi, haqqi, huquqi) yo'q, haddi sig'maydigan; 4. so'zsiz, e'tirozsiz, pisandasiz, qat'iy; **an** – **support** so'zsiz qo'llab-quvvatlash.

unquestionable [ˌʌnkwɛstʃənəbl̩] *a* shubha tug'dirmaydigan, shubhasiz, shaksiz, shak-shubhasiz, begumon, aniq, rad qilib bo'lmaydigan, e'tirozga o'rin qoldirmaydigan.

unquestionably [ˌʌnkwɛstʃənəbli] *adv* tortishmay, shak-shubha qilmay, shubhasiz, shak-shubhasiz, begumon, aniq.

unravel [ˌʌnrævl̩] *v* 1. (ip va sh.k. larni) yechmoq, yozmoq, bo'shatmoq; 2. (maxfiy sir va sh.k. larni) topmoq, tushuntirib bermoq.

unreal [ˌʌnrɪəl] *a* 1. noreal, haqiqatda yo'q, xayoliy, fantastik, tasavvurdagi, tasavvuriy; 2. haqiqiy bo'lmagan, yasama, soxta, qalbaki, sun'iy.

unrealistic [ˌʌnrɪəˈlɪstɪk] *a* noreal, haqiqatda yo'q, xayoliy, fantastik, norealistik, realizmga xos bo'lmagan (asoslanmagan).

unreasonable [ˌʌnrɪːznəbl̩] *a* 1. aqli yo'q, beaql, aqlsiz, kaltafahm, o'ylamasdan ish qiladigan, yengiltak; 2. o'y-lamay qilingan, muhokama (mulohaza) qilib ko'rilmagan, bemulohaza, nomaqul, bema'ni; 3. (narx-navo, tarif va sh.k. lar haqida) o'ta, haddan tashqari; benihoya darajadagi, cheksiz; haddan tashqari yuqori.

unreasonably [ˌʌnrɪːznəbli] *adv* 1. o'y-lamay, muhokama (mulohaza) qilib ko'rmay, tentaklarcha; 2. (narx-navo, tarif va sh.k. lar haqida) o'ta darajada, haddan tashqari; haddan tashqari yuqori qilib.

unreasoning [ˌʌnrɪːznɪŋ] *a* aqli yo'q, beaql, aqlsiz, kaltafahm, o'ylamasdan ish qiladigan, yengiltak; bemulohaza.

unrecognizable [ˌʌnˈrɛkəɡnaɪzəbl̩] *a*

tanib bo'lmaydigan, tanib bo'lmas darajada o'zgargan.

unrefined [ʌnrɪ'faɪnd] *a* **1.** (aralashmalardan) tozalanmagan, oqlanmagan; **2.** dag'al, qo'pol, silliqqlanmagan, saydallanmagan, tarashlanmagan.

unrelated {ʌnrɪ'reɪtɪd} *a* **1.** bog'lanmagan, aloqador emas, aloqasi bo'l-magan; **2.** qarindosh emas, begona; **3.** aytilmagan, hikoya qilinmagan.

unrelenting [ʌnrɪ'leɪntɪŋ] *a* **1.** ayamaydigan, shafqatsiz, beshafqat, rahmsiz, berahm, qahrli, qahri qattiq; **2.** qattiq, bir so'zli, qat'iy; qat'iyatli, qaytmas, chekinmas, hukilmas, ashaddiy; **3.** bo'shshamaydigan, susaymaydigan, dolzarb, qizg'in.

unreliable [ʌnrɪ'raɪəbl] *a* ishonchsiz, ishonib (orqa qilib) ho'lmaydigan, ishonarli emas.

unreported [ʌnrɪ'pɔ:tɪd] *a* **1.** xabar qilinmagan, ma'lum qilinmagan, xabari berilmagan; **2.** (hisobot haqida) taqdim qilinmagan; **3.** (kasallik haqida) ro'y-xatga olinmagan.

unreserved [ʌnrɪ'zɜ:vɪd] *a* **1.** o'zini tuta (tiya) olmasdan qilingan; o'zini tuta (bosa) olmaydigan; **2.** ko'ngildagini yashirmaydigan, ko'ngli samimiy, ochiq ko'ngil; **3.** chegaralanmagan, cheksiz, chegarasiz, to'liq, to'la; **4.** bronlab band qilinmagan, oldindan buyurtma berilmagan.

unrest [ʌn'rest] *n* **1.** bezovtalik, notinchlik, xavotirlik, iztirob, hayajon, tashvish; **2.** tartibsizlik, g'alayon, qo'zg'olon, tug'yon, isyon, alg'ov-dalg'ov.

unrestricted [ʌnrɪ'strɪktɪd] *a* chegaralanmagan, cheksiz, chegarasiz.

unrivalled [ʌn'raɪvɪd] *a* tengi yo'q, teng kelolmaydigan, hech kim (hech narsa) oldiga tusholmaydigan.

unroll [ʌn'rɔ:ʊl] *v* **1.** yoymoq, yozmoq, ochmoq, yozib (yoyib) yuhormoq; **2.**

yoyilmoq, yozilmoq, ochilmoq, yozilib (yoyilib, ochilib) ketmoq.

unruly [ʌn'ru:li] *a* **1.** kuchli, shiddatli, asov, quturgan; **2.** bo'ysunmas, bo'y-sunmaydigan, itoatsiz, quloqsiz, quloq solmaydigan, so'zga kirmaydigan.

unsafe [ʌn'seɪf] *a* **1.** xavfli, xatarli, qaltis; **2.** ishonchsiz, ishonarli emas, ishonib bo'lmaydigan; **3.** xavfga yo'liq-tiradigan, xavf ostiga qoldiradigan.

unsaid [ʌn'sed] *a* aytilmagan, ifoda etilmagan, talaffuz qilinmagan; **to leave smth.** ~ chala (noto'la) aytmoq, nimalarnidir aytmay (yashirib) qoldirmoq, indamay (javob bermay) turmoq.

unsalted [ʌn'sɔ:lɪd] *a* tuzlanmagan, sho'rlanmagan, tuz qo'shilmagan.

unsanctioned {ʌn'sæŋkʃənd} *a* **1.** taqiplangan, man qilingan, ruxsat etilmagan, ijozat berilmagan; **2.** (qonun haqida) tasdiqlanmagan, tasdiq etilmagan; (shartnoma haqida) ratifikatsiya qilinmagan, tasdiqlanmagan.

unsatisfactory [ʌn.sætɪs'fæktəri] *a* qoniqarsiz, qanoatlanirmaydigan, talabga javob bermaydigan.

unsatisfied [ʌn'sætɪsfaɪd] *a* qoniq-magan, qanoat hosil qilmagan, qanoatlanmagan.

unsavoury [ʌn'seɪvəri] *a* **1.** mazasi yo'q, mazasiz, hemaza, totli emas, shirin emas; **2.** yoqimsiz, yomon, ko'ngilsiz, noxush, jirkanch; **an** ~ **character** jirkanch shaxs.

unscathed [ʌn'skeɪðd] *a* zarar (shikast) topmagan, eson-omon, ziyon-zaxmatsiz, beshikast; **to go** ~ eson-omon chiqmoq (~ **away from**).

unscientific [ʌnsaɪən'tɪfɪk] *a* ilmiy bo'lmagan, fanga asoslanmagan, g'ayri-ilmiy.

unscramble [ʌn'skræmbəl] *v* **1.** tarkibiy qismlarga ajratmoq, parchalamoq; **2.** (qandaydir bir noaniq, mujmal narsani)

[ʃ chin /θ thin /ð the /ʃ she /ʒ usual /h he /m me /n not /ŋ king /l lip /r rat /j yet /w we

U

yechmoq, oydinlashtirmoq, tushunarli qilmoq; **3.** (telefon yoki radiotelefon orqali uzatilgan shifrlangan xabarni) ras-shifrovka qilmoq, topib o'qimoq.

unscREW [ʌn'skru:] *a* (vintlarni) burab chiqarmoq (chiqarib olmoq), burab bo'shatmoq.

unscrupulous [ʌn'skru:pjələs] *a* vij-donsiz, insofsiz, noinsof, diyonatsiz; prinsipsiz, qat'iy prinsipi, maslak-maqsadi yo'q, tuturiqsiz, betayin.

unseemly [ʌn'si:mlɪ] *a* **1.** nomunosib, noloyiq, yarashmaydigan, noma'qul; nojo'ya (xulq haqida); **2.** to'g'ri kelmaydigan, kelishmaydigan; o'rinsiz, no'rin, chakki, bemavrid.

unseen [ʌn'si:n] *a* **1.** ko'rinmas, ko'zga ko'rinmaydigan (chalinmaydigan); **2.** ko'rilmagan, ko'zga tashlanmagan, e'tibor berilmagan, e'tiborsiz qoldirilgan.

unselfish [ʌn'selfɪʃ] *a* o'zini o'ylamaydigan, xudbin emas, o'z manfaatini ko'zlamaydigan, ta'ma qilmaydigan, beg'araz, xolis.

unsettle [ʌn'setl] *v* **1.** tartibni buzmoq; izdan (yo'ldan) chiqarmoq; **2.** (osh-qozon va sh.k. larni) ishdan chiqarmoq; **3.** siljitmoq, surmoq, qo'zg'atmoq, joyini almashtirmoq, ko'chirmoq.

unsettled [ʌn'setld] *a* **1.** (ob-havo haqida) o'zgaruvchan, o'zgarib (aynib) turadigan; **2.** to'lanmagan (hisob, veksel); **3.** tashvishli, xavotirli, betinch, notinch, beorom, bezovta; **4.** (tortishuv, bahs haqida) hal qilinmagan, yechimi topilmagan, hartaraf qilinmagan; **5.** aholisi yo'q, kimsasiz, odam ko'chib kelmagan.

unshakeable [ʌn'ʃeɪkəbl] *a* og'ishmaydigan, qaytmaydigan, qattiq, mustahkam, sabotli, barqaror.

unsightly [ʌn'saɪtlɪ] *a* chiroyli emas, xunuk; ko'rimsiz, ko'rksiz, yomon; badbashara, badburush.

unskilled [ʌn'skɪld] *a* **1.** (ish haqida)

maxsus malaka talab qilmaydigan, qora, og'ir; **2.** o'rgatilmagan, o'qitilmagan; ish bilmaydigan, ishning uddasidan chiqa olmaydigan, mahoratsiz, noshud; tajribasiz, malakasiz.

unsmiling¹ [ʌn'smaɪlɪŋ] *a* kulmaydigan, jiddiy, tund, qo'rs, dag'al.

unsmiling² [ʌn'smaɪlɪŋ] *adv* kulmasdan, jiddiy.

unsophisticated [ʌnsə'fɪstɪkətɪd] *a* **1.** oddiy, sodda, tabiiy, sun'iy emas; **2.** ochiq ko'ngil, soddadil, sofdil, sodda, ko'ngilchan; **3.** (texnik ashob, apparaturlar haqida) qiyin emas, uncha murakkab bo'lmagan, sodda, oddiy.

unsound [ʌn'saʊnd] *a* **1.** sihati yomon, sog'ligi qo'chgan, kasalmand, nosog', betob, xasta, kuchsiz, ojiz, zaif; **2.** mahkam (mustahkam) emas, ishonib (orqa qilib) bo'lmaydigan, ishonchsiz; **3.** chirik, chirigan, irigan, sasigan, aynigan, buzilgan; **4.** (g'oya, fikrlar haqida) asos-siz, asoslanmagan, yanglish, xato, noto'g'ri.

unspeakable [ʌn'spi:kəbl] *a* **1.** (so'z bilan) ifodalab bo'lmaydigan, ta'riflab (tavsiflab, tushuntirib) bo'lmaydigan; **2.** gapirib (aytib, talaffuz qilib) bo'lmaydigan, odobdan tashqari, beadab, uyat, axloqsiz; **3.** (og'riq haqida) juda yomon; juda qattiq, nihoyatda kuchli.

unspecialized [ʌn'speʃəlaɪzd] *a* ixtisoslashtirilmagan, maxsus maqsad uchun belgilanmagan (moslanmagan).

unspecified [ʌn'spesɪfaɪd] *a* aniq belgilanmagan (o'rnatilmagan), to'g'ri aniqlanmagan; aniqlanmagan, oydinlashtirilmagan.

unspoken [ʌn'spəʊkn] *a* aytilmagan, so'zlanmagan; so'zlar bilan ifodalanmagan.

unspotted [ʌn'spɒtɪd] *a* **1.** xol-xol (olachipor, chavkar) emas, hexol, xolsiz; **2.** (obro' haqida) dog' tushmagan, gard

tegmagan, hadnom bo'lmagan, sof, pok, beg'ubor.

unstable [ʌn'steɪbl] *a* **1.** qattiq (mahkam) emas, omonat, bo'sh; liqildoq, liqillab (qimirlab, chayqalib) turadigan; **2.** doimiy bo'lmagan, o'zgaruvchan, o'zgarib turadigan; **3.** stabil emas, no-stabil, o'zgaruvchan, beqaror.

unsteady [ʌn'stedi] *a* **1.** turg'un emas, omonat, bo'sh; liqildoq, liqillab (qimirlab, chayqalib) turadigan; **2.** doimiy bo'lmagan, o'zgaruvchan, o'zgarib turadigan, beqaror.

unstressed [ʌn'strest] *a* **1.** (so'z, bo'g'in haqida) urg'usiz; **2.** ta'kidlanmagan, alohida urg'u berilmagan, ajratib ko'rsatilmagan.

unstuck [ʌn'stʌk] *a* **1.** (reja, niyat haqida) chippakka (puchga) chiqqan, barbod bo'lgan, muvaffaqiyatsizlikka uchragan; **to come** ~ chippakka (puchga) chiqmoq, barbod bo'lmoq; **2.** yelimi ko'chgan, ko'chib ketgan, ko'chib tushgan.

unstudied [ʌn'stʌɪdɪd] *a* **1.** o'rganilmagan, tekshirilmagan; **2.** tabiiy.

unsuccessful [ʌnsək'sesfl] *a* **1.** muvaffaqiyatsiz, o'ngmagan, o'ngidan (baroridan) kelmagan; **2.** baxti (omadi) yo'q, toleyi past, omadsiz, baxtsiz, ishi o'ngmagan (yurishmagan).

unsuitable [ʌn'su:təbl] *a* to'g'ri (mos, muvofiq) kelmaydigan, nomuvofiq, nomunosib, nohop, noloyiq, yaroqsiz, layoqatsiz, yaramaydigan, nobop.

unsure [ʌn'ʃʊə; ʌn'ʃɔ:] *a* **1.** ishonib (orqa qilib) bo'lmaydigan, ishonchsiz; **2.** noaniq, aniq bo'lmagan; **3.** ishonmaydigan, gumonsiraydigan, ishonmovchi, gumonsirovchi, ikkilanadigan, ikkilanuvchi, qat'iyatsiz.

unsurmountable [ʌnsəmauntəbl] *a* yengib (bartaraf qilib, o'tib) bo'lmaydigan, zo'r, kuchli.

unsuspecting [ʌnsə'spektɪŋ] *a* gumonsiramaydigan, shubhalanmaydigan, ishonuvchan, inonuvchan.

untamed [ʌn'teɪmd] *a* qo'lga o'rgatilmagan, o'rgatilmagan, yovvoyi; bo'y-sundirilmagan.

untangle [ʌntæŋɡl] *v* (chigal, tugun kabilarni) yechmoq, yozmoq, bo'shatmoq.

untapped [ʌn'tæpt] *a* qo'l urilmagan, tegilmagan, foydalanilmagan, ishlatilmagan, zaxiradagi; ~ **resources** ishlatilmagan zaxiralari.

unthankful [ʌn'θæŋkfl] *a* yaxshilikni bilmaydigan, qadr-qimmatiga yetmaydigan, ko'rnamak, nonko'r, oqibatsiz.

unthinkable [ʌn'θɪŋkəbl] *a* tasavvur qilib bo'lmaydigan, aqlga sig'maydigan (to'g'ri kelmaydigan), aql bovar qilmaydigan, mumkin bo'lmagan.

unthinking [ʌn'θɪŋkɪŋ] *a* **1.** hech narsani o'ylamaydigan, mulohazasiz, yengiltak, yengil, ketini (oqibatini) o'ylamaydigan, havoyi, betayin; **2.** ongsiz, beong, aqli yo'q, beaql, aqlsiz; **3.** (nigoh, qarash va sh.k. haqida) ma'nosiz, bo'm-bo'sh.

untidiness [ʌn'taɪdɪnəs] *n* **1.** ifloslik, kirlik, isqirtlik, irkitlik, isliqilik, pala-partishlik; **2.** tartibsizlik, betartiblik, ayqash-uyqashlik, to's-to'polon.

untidy [ʌn'taɪdi] *a* **1.** iflos, kir, isqirt, irkit, isliqi, pala-partish; **2.** tartibsiz, betartib, ayqash-uyqash, to's-to'polon; hesaranjom, besarishta.

untie [ʌn'taɪ] *v* **1.** yechmoq, bo'shatmoq, ochmoq, yechib (bo'shatib) olmoq (qo'y moq, yubormoq); **2.** ozod qilmoq, qo'yib (yechib) yubormoq, bo'shatmoq.

until [ʌn'tɪl; ən'tɪl] *prep* ...gacha, ...ga qadar, ...ga davor; **it rained ~ four o'clock** soat to'rtgacha yomg'ir yog'di.

until² [ʌn'tɪl; ən'tɪl] *conj* **1.** (toki) ...maguncha; **he walked slowly ~ he was out of sight** (toki) ko'zdan yo'qolmaguncha

u sekin yurib bordi; 2. ...dan keyin, ...dan so'ng; **he did not arrive ~ the concert was over** u (faqatgina) konsert tugagandan keyin keldi; 3. ...guncha; toki ...guncha; **he gripped the iron bar ~ his fingers were white** u temir to'sinni shunday mahkam ushladiki, uning bar-moqlari oqarib ketdi.

untimely¹ [ʌn'taimli] *a* 1. bevaqt, bemahal, bemavrid, vaqtidan ilgari, barvaqt; vaqtidan ilgari yuz bergan; **an ~ death** bevaqt o'lim; 2. o'z vaqtida qilinmagan, o'rinsiz, noo'rin, chakki, bemavrid.

untimely² [ʌn'taimli] *adv* 1. barvaqt, vaqtidan ilgari; bemahal, bevaqt, erta; 2. o'z vaqtida qilinmasdan, bemavrid, chakki, noo'rin.

untiring [ʌn'taɪərɪŋ] *a* charchamas, hormas, tolmas, hormas-tolmas, tinmaydigan, toliqmaydigan, serg'ayrat, doimo birdek zo'r, bo'shshamaydigan, susaymaydigan.

untold [ʌn'təʊld] *a* 1. aytilmagan, ta'riflab (tavsiflab, tushuntirib, aytib) bo'lmaydigan, ta'rifga sig'maydigan; 2. hisobsiz, behisob, son-sanoqsiz, behad, beadad, hisobiga (sanog'iga) yetib bo'lmaydigan, hisobi yo'q.

untouchable [ʌn'tʌtʃəbl̩] *a* 1. tegilmaydigan, tegib bo'lmaydigan; 2. tanqid qilib bo'lmaydigan; 3. ushlab ko'rganda yoqimsiz; 4. yetishib (erishib) bo'lmaydigan, yoniga borib (yaqinlashib, yo'l-lab) bo'lmaydigan.

untouched [ʌn'tʌtʃt] *a* 1. tegilmagan, qo'l urilmagan (tegizilmagan); 2. ta'sir qilmagan, beparvo, bee'tibor, loqayd.

untoward [ʌntə'wɔ:d] *a* 1. baxtsiz, omadsiz, noqulay, nomuvofiq, nobop, yomon; 2. o'rinsiz, noo'rin, chakki, bemavrid, noto'g'ri.

untreated [ʌn'tri:tɪd] *a* davolanmagan (kasallik va sh.k. haqida).

untrue [ʌn'tru:ɪ] *a* 1. yolg'on, noto'g'ri; 2. xato, yanglish; 3. vafosiz, bevafo; **to be ~ to smb.** biror kimsaga bevafoqlik qilmoq.

untruth [ʌn'tru:θ] *n* yolg'on, nohaq (yolg'on, noto'g'ri) gap, ish va h.k.

untruthful [ʌn'tru:θfl̩] *a* noto'g'ri, xato, yanglish, yolg'on, yolg'ondakam, soxta, yasama, qalbaki.

unusable [ʌn'ju:zəbl̩] *a* yaroqsiz, layoqatsiz, yaramaydigan, ishlatib (qo'l-lab) bo'lmaydigan.

unused [ʌn'ju:zd] *a* ishlatilmagan, foydalanilmagan, qo'llanmagan, ishlatilmayotgan, foydalanilmayotgan.

unused to [ʌn'ju:st tə] *a* biror narsaga hali odatlanmagan, o'rganmagan, o'rganma olmagan.

unusual [ʌn'ju:zʊəl] *a* 1. noodatiy, odatdagidan boshqacha, g'aroyib, hayratomuz; g'alati; 2. kamdan-kam uchraydigan, noyob, nodir; 3. juda yaxshi, a'lo, soz, ajoyib, juda soz.

unusually [ʌn'ju:zʊəli] *adv* 1. boshqalarga o'xshamasdan, o'zgacha tarzda, hayratda qoldirib; 2. favqulotda, juda.

unveil [ʌn'veɪl] *v* 1. yoping'ich, pardani yechmoq (olib tashlamoq); 2. (reja va sh.k. ni) ochmoq, fosh qilmoq, ma'lum (oshkor) qilmoq; 3. (haykal, yodgorlik haqida) tantanali ravishda ochmoq.

unverified [ʌn'verɪfaɪd] *a* 1. tekshirilmagan, tekshirib ko'rilmagan; tasdiqlanmagan; 2. yur. tasdiqlanmagan, guvohlik berilmagan.

unvoiced [ʌn'vɔɪst] *a* 1. aytilmagan, ifoda etilmagan, talaffuz qilinmagan; 2. (fonetikada) unsiz, jarangsiz.

unwanted [ʌn'wʌntɪd] *a* 1. tashlandiq, tashlab ketilgan, qarovsiz; 2. istalmagan, xohlanmagan, kerak bo'lmagan.

unwarranted [ʌn'wɒrəntɪd] *a* 1. o'zbo-shimchalik bilan qilingan, noqonuniy,

qonunga xilof (qarshi); **2.** asossiz, dailisiz, asoslanmagan, to'g'ri deb bo'l-maydigan, noo'rin, o'rinsiz.

unwelcome [ʌn'welkəm] *a* **1.** istalmagan, xohlanmagan, chaqirilmagan, taklif etilmagan, aytilmagan, o'zi kelgan; **2.** noxush, ko'ngilsiz, yoqimsiz.

unwell [ʌn'wel] *a* sihati yomon, sog'lig'i qoqchgan, kasalmand, nosog'.

unwieldy [ʌn'wi:ldi] *a* **1.** qo'pol, beso'naqay, katta, bahaybat, og'ir, vazmin; **2.** beso'naqay, lapanglagan, epchil (chaq-qon) emas, imillagan, shalviragan.

unwilling [ʌn'wɪlɪŋ] *a* **1.** maylsiz, yoq-tirmaydigan; mayli (havasi, ishtiyoqi) bo'lmagan; **2.** istar-istamas qilingan; **3.** o'jar, qaysar, sarkash.

unwillingly [ʌn'wɪlɪŋli] *adv* xohlamay, istamay, istar-istamas, xohishi bo'lmay.

unwind [ʌn'waɪnd] *v* (pt, pp **unwound**) **1.** yoz(il)moq, chuvatmoq, chuvalmoq, xomi(t)moq, chuvalib ketmoq, yech(il)moq; **2.** tinchimoq, tinchlanmoq, ko'ngli xotirjam bo'lmoq, taskin topmoq; bo'sshashmoq, erkin his qilmoq.

unwise [ʌn'waɪz] *a* o'ylamasdan ish qiladigan, yengiltak, axmoq, aqlsiz, be-aql.

unwitnessed [ʌn'wɪtnəst] *a* **1.** guvohning ko'rsatmalari bilan tasdiqlanmagan; **2.** ko'zga tashlanmaydigan, ko'rinmaydigan, kishi bilmas, bilinmaydigan, ko'rinmas.

unwitting [ʌn'wɪtɪŋ] *a* **1.** (biror narsani) bilmaydigan; **2.** (xatti-harakat haqida) bexosdan (bilmasdan, beg'araz) qilingan, tasodifiy, beixtiyor, qasddan (ataylab) qilinmagan; g'ayriixtiyoriy.

unworthy [ʌn'wɜ:ði] *a* **1.** past, pastkash, tuban, qabih, manfur, jirkanch, razil, yaramas; **2.** (of) (biror narsaga) no'loyiq, nomunosib, arzimaydigan; **3.** hech qanday qadri yo'q, beqadr, hech narsaga arzimaydigan.

unwound I [ʌn'waʊnd] *a* **1.** buralmagan, dam solinmagan; **2.** yozilgan, chuvalgan, yechilgan; chuvalib (yozilib) ketgan.

unwound II [ʌn'waʊnd] *v* pt, pp of **unwind**.

unwrap [ʌn'ræp] *v* sochib tashla(n)-moq, ag'dar-to'ntar qilmoq (bo'lmoq), yoz(il)moq, och(il)moq, o'rovni (o'ramni) ochmoq, yechmoq.

unwritten [ʌn'rɪtɪn] *a* **1.** yozilmagan, yozib olinmagan; og'zaki; **2.** odat bo'lib qolgan, odat tusiga kirgan, yozilmagan; **3.** yozib to'ldirilmagan, yozib bitirilmagan (tugatilmagan, tamom qilinmagan).

unzip [ʌn'zɪp] *v* **1.** molniyani (zanjirimon yopqichni) yechmoq; **2.** (birovning) qarshiligini yengmoq; **3.** masalani hal qilmoq (yechmoq); (biror narsani) muvaffaqiyatli yakunlamoq.

up¹ [ʌp] *n* katta shaharga, poytaxtga *yoki* shimolga boradigan poyezd, avtobus (va sh.k.); **up and down** naridan-beri qarab chiqish, ko'z yugurtirib chiqish; **ups and downs** a) baland-pastliklar; b) parvozlilar va qulashlar; taqdirning bevafoqligi (o'zgaruvchanligi); **on the up** ko'tarilayotgan; o'sayotgan; **on the up and up** a) halol, pok, vijdonli, ko'ngli ochiq, samimiy, ochiq ko'ngil; b) gullayotgan, gullab-yashnayotgan, o'sayotgan.

up² [ʌp] *a* **1.** (poyezd, avtobus va sh.k. haqida) katta shaharga, poytaxtga *yoki* shimolga borayotgan; **an up train** poytaxt (va sh.k. ga) borayotgan poyezd; **2.** yuqoriga ko'tarilayotgan; **3.** o'sayotgan, yaxshilanayotgan, rivojlanayotgan; **the up trend** o'sishga, yuksalishga intilish (mayllik).

up³ [ʌp] *adv* **1.** tepaga, yuqoriga, tepa (yuqori) tomonga; **2.** ustida, yuqorida, balandda, tepada, osmonda; **the plane**

tʃ chin /θ thin /ð the /ʃ she /ʒ usual /h he /m me /n not /ŋ king /l lip /r rat /j yet /w we

is **up** samolyot osmonda; **3. ish-harakatning yuqoriga yo'nalganligini bildiradi**; **to get up** o'rnidan turmoq; **to be/to stay up** bedor bo'lmoq, uxlagani yotmaslik; **4. (shahar, poytaxt yoki biror markaz)ga**; **to go up to town** shaharga bormoq; **5. mamlakat, hududning uzoq yeriga, janubdan shimolga, daryoning yuqorisiga, degan ma'nolarni ifodalaydi**: (hududning) uzoq joyiga; ...ga; ...bo'ylab; **to go up North** shimolga bormoq; **to sail up the river** daryo bo'ylab yuqoriga suzmoq; **6. narxning oshishi, bahoning ko'tarilishi va sh.k. ma'nolarni anglatadi**: **coffee is up** qahva qimmatlashdi; **7. ish-harakat, shovqin va sh.k. larning yanada shiddatligini anglatadi**: **speak up!** qattiqroq gapiring! **to stir up the people** xalqni ko'tarmoq (oyoqqa turg'izmoq); **8. ish-harakatning tugaganligini, uni oxiriga yetkazishni anglatadi**: oxirigacha, to'liq, butunlay, batamom; **to eat up** hammasini (oxirigacha) yeb qo'yimoq; **time is up** vaqt tugadi; **up and down** orqaga va oldinga, u yoq bu yoqqa; hamma yerda (yoqda), har yerda (yoqda); **up and about** (kasallikdan so'ng) oyoqqa turgan; **to be up against smth./smb.** biror kimsa, narsa bilan to'qnashib ketmoq; **to keep up with smb./smth.** biror kishi, narsadan orqada qolmaslik; **to be up to smth.** azm (jazm) qilmoq, bostlamoq, kirishmoq; **what is up?** nima bo'ldi? **it is up to you** sizning ishingiz, xohishingiz; bilganingizni qiling.

up⁴ [ʌp] *prep predlog vazifasida quyidagilarni anglatadi*: **1. pastdan yuqoriga qaragan harakatni**: (bo'ylab) yuqoriga, ustiga, tepasiga, yuqorisiga; **to go up a ladder** narvon bilan yuqoriga ko'tarilmaq; **to climb up a tree** daraxtga chiqmoq; **2. markaz tomon yoki biror predmet bo'ylab yo'nalgan harakatni**

ifodalaydi: bo'ylab, yoqalab; **to walk up and down the room** xona bo'ylab u yoqdan bu yoqqa yurmoq; **up and down the city** butun shahar bo'ylab; **3. biror narsaning tepasida joylashganlikni bildiradi**: ustida; **the cat is up the tree** mushuk daraxtning ustida o'tiribdi.

up⁵ [ʌp] *v* **1.** ko'tarmoq; **2.** (narx va sh.k. larni) ko'tarmoq, oshirmoq; **3.** (mahsulot ishlab chiqarish va sh.k. larni) kuchaytirmoq; **4.** irg'ib turmoq, dik etib turmoq, sapchib turmoq; **5. AE fe'l ma'nosini kuchaytirish uchun qo'llaniladi**; **to up and do smth.** biror narsani to'satdan (kutilmaganda) qilib qolmoq; **he up and married** u shartta uylandi qo'ydi; **he upped and died** u to'satdan o'lib qoldi.

up-and-coming [ʌpən'kʌmɪŋ] *a* **1.** umid bag'ishlaydigan, kelajagi porloq; **2.** g'ayratli, serg'ayrat, uddaburon, epchil, tashabbuskor.

upbringing [ʌpbriŋɪŋ] *n* tarbiya, ta'lim, ta'lim-tarbiya.

upcoming [ʌp'kʌmɪŋ] *a* **1.** yaqinlashayotgan, kirib kelayotgan, boshlanayotgan, kelayotgan, yaqinda bo'ladigan; **2.** umid bag'ishlaydigan, kelajagi porloq.

update [ʌp'det] *v* **1.** zamonaviylashtirmoq, takomillashtirmoq; **2.** yangi ma'lumotlar bilan ta'minlamoq.

upgrade [ʌp'greɪd] *v* **1.** (lavozimini) oshirmoq, ko'tarmoq; ancha yuqori haq to'lanadigan ishga o'tkazmoq; **2.** (mahsulotning) sifatini oshirmoq; **3.** zamonaviylashtirmoq, takomillashtirmoq.

upheaval [ʌphi:v] *n* **1.** siljish; **2.** keskin burilish, o'zgarish; **3.** (geologiyada) qatlamlarning siljishi.

upheld [ʌp'held] *v pt, pp of uphold*.

uphil¹ [ʌphɪl] *n* do'nglik, do'ng joy, tepalik; **on the ~** do'nglikda, tepalikda.

uphill² [ʌphɪl] *a* **1.** toqqa borayotgan (chiqayotgan); **2.** qiyin, mushkul, murakkab; **an ~ task** mushkul vazifa.

uphill² [ʌp'hɪl] *adv* toqqa, toqqa qarab; **to go/to walk** – toqqa bormoq (chiqmoq).

uphold [ʌp'həʊld] *v* (pt, pp **upheld**) **1.** ushlab (tutib, suyab) turmoq, ko'tarib turmoq; **2.** himoya qilmoq, rag'batlantirmoq, qo'llab-quvvatlamoq, ma'naviy yordam ko'rsatmoq; **3.** tasdiqlamoq; **4.** ma'qullamoq, ma'qul deb topmoq; **5.** ko'tarmoq.

upholster [ʌp'həʊlstə] *v* qoplamoq (mebelni).

upholstery [ʌp'həʊlstəri] *n* **1.** qoplash, sirish, qoplamalik (jildbop) material; jild, qoplama; **2.** gulqog'oz yopishtirish yoki drapirovkachilik kasbi, hunari.

upkeep [ʌpki:p] *n* **1.** (doim shay, ishga yaroqli holda) tutmoq, saqlamoq; ta'mir, xizmat ko'rsatish, qarab turish; **2.** tutib turish (saqlash), xizmat ko'rsatish qiy-mati.

upland¹ [ʌplənd] *n* **1.** (odatda: ~s) tog'li mamlakat; tog'lik; **2.** mamlakatning tog'li qismi.

upland² [ʌplənd] *a* **1.** tog'da (balandlikda) joylashgan; tog'dagi, tog'li, tog'...; **2.** dengizdan uzoqda, mamlakat ichkari-sida joylashgan.

uplift [ʌp'lɪft] *v* **1.** ko'tarmoq; yoqori-latmoq, balandlatmoq; **2.** kayfiyatni ko'tarmoq, dalda (madad) bermoq, ruh-lantirmoq, ko'nglini (ruhini) ko'tarmoq.

upon [ə'pɒn] *prep* **1.** „on II“ ga qarang; **2.:** **to come** ~ a) (biror kimsaga, narsaga) duch kelmoq, duch kelib qolmoq; b) (biror kimsaning) boshiga tushmoq, yopirilmog; tashlanmoq, hamla (hujum) qilmoq; **3.** *yuqoriga qarab harakat yoki yuqorida joylashganlikni bildiradi* (**upon** ning o'rnini egallaydi); ~ **a mountain** tog'da, tog' ustida; **he jumped ~ the horse** u ot ustiga sakradi; **4.** *ba'zi geografik nomlarda:* ~dagi; **Stratford** ~ **Avon** Eyvondagi Stratford; **Kingston** ~ **Thames** Temzadagi Kingston; **once** ~

a time bir kun, bir zamon, kunlardan bir kun, bir vaqtlar, bir zamonlar, qachonlardir (odatda ertakning boshida).

upper¹ [ʌpə] *n* **1.** botinkaning tumshug'i, uchi; **2.** (~s) *getr* (to'piqdan bol-dirgacha bekitib turadigan issiq oyoq kiyimi yoki qo'ni), gamash (boldirdan tovongacha qoplab turadigan, oyoq kiyim ustidan tushirib kiyiladigan issiq paypoq); **2.** yuqori jag' yoki yuqori tish.

upper² [ʌpə] *a* **1.** yuqori, yuqorigi, ustki, yuqoridagi, tepadagi, balanddagi, tepasidagi; **2.** (lavozim, amal bo'yicha) oliy, bosh, eng yuqori; ~ **class** yuqori tabaqadagilar, aristokratlar, oqsuyaklar; **to have/ to get the ~ hand** yengmoq, yengib chiqmoq, yutmoq, g'alabaga erishmoq; **to gain the ~ hand over smb.** biror kimsani (musobaqada) yutmoq.

upper case [ʌpə'keɪs] *n* bosh harflar.

uppercut [ʌpə'kʌt] *n* *sport.* apperkot, pastdan berilgan zarba (boksda).

uppermost¹ [ʌpə'məʊst] *a* **1.** eng yuqoridagi, eng balanddagi, eng baland (yuqori); **2.** ortqlik qiladigan, ustunlik qiladigan, ustun keladigan; **to be** ~ ortiq bo'lmoq, ustun kelmoq, ustun (hukm-ron) bo'lmoq, ustunlik qilmoq.

uppermost² [ʌpə'məʊst] *adv* **1.** tepada, yuqorida, ustida, uchida; yuqoriga, balandga, tepaga; **2.** avvalambor, avvalo, hammadan avval, birinchi navbatda.

upright¹ [ʌpraɪt] *a* **1.** vertikal yo'nalishdagi, vertikal, tik; **2.** rostgo'y, to'g'ri, dangal, to'g'riso'z, halol, pok, vijdonli, adolatli, odil, haqqoniy.

upright² [ʌpraɪt] *adv* egilmagan holda, tik holatda, vertikal (tik) yo'nalishda, tikkasiga, tikka qilib, turg'izib; **to keep/ to stand/ to hold** ~ tik, tikka turmoq.

uprising [ʌpraɪzɪŋ] *n* **1.** qo'zg'alon, g'alayon, isyon; **2.** (Quyosh haqida) chiqish, ko'tarilish.

uproar [ʌprɔ:] *n* **1.** shovqin, shovqin-

suron g'ovur-g'uvur, shov-shuv, qiy-chuv; **2.** tartibsizlik, g'alayon, isyon, al-g'ov-dalg'ov; **to create/to cause an** – tartibsizlikni keltirib chiqarmoq; **3.** birdan ko'tarilish (qahqaha va sh.k. haqida).

uproarious [ˈʌprɔːriəs] *a* **1.** shovqinli, shovqin-suronli, qizg'in; **2.** juda kulgili; qattiq kulgini qistatadigan.

uproot [ˈʌpruːt] *v* **1.** sug'urib (yulib) olmoq, ildizi bilan sug'urib olmoq; **2.** yashash joyidan majburlab ko'chirib yubormoq; **to** – **smb. from his home** biror kimsani uydin haydamoq, biror kimsani o'z joyini tashlab ketishga majbur qilmoq; **3.** tag-tomiri bilan yo'q qilmoq, barham bermoq, ildizini (tuxumini) quritmoq.

upset¹ [ˈʌpset] *n* **1.** tartibsizlik, besaran-jomlik; (reja va sh.k. larning) barbod bo'lishi, puchga chiqishi; **2.** kasal (betob) bo'lib turish, mazasi qochish, tobi aynash; **a stomach** ~ oshqozonning kasallanishi, ishdan chiqishi.

upset² [ˈʌpset] *a* **1.** bezovta, tashvishli; xafa, ta'bi xira, ko'ngli g'ash, dili xufton (qorong'i), yuragiga qil sig'maydigan; **to be/ to get** – **about smth.** biror narsadan ta'bi xira bo'lmoq, achchig'i (jahli) chiqmoq; **2.** (oshqozon haqida) ishdan chiqqan, mazasi qochgan.

upset³ [ˈʌpset] *v* (pt, pp **upset**) **1.** ag'dar(il)moq, to'ntar(il)moq; **2.** (tartibni) buzmoq; puchga chiqarmoq, barbod qilmoq, buzmoq; **to** ~ **smb's plans** biror kimsaning rejalarini barbod qilmoq; **3.** ruhiy osoyishtalikdan chiqarmoq, xafa (dilini siyoh) qilmoq, dilini og'ritmoq, ranjitmoq, diliga ozor bermoq; **4.** sog'liqni (ayniqsa oshqozonni) ishdan chiqarmoq; **5.** (musobaqalarda, saylovlarda) kutilmaganda mag'lubiyatga uchratmoq.

upshot [ˈʌpʃɒt] *n* **1.** yechim, oqibat, yakun, natija, pirovardi, oxiri; **in the** ~ oxir, axiyr, oxir oqibat, pirovardida. oqibatda;

2. natija, xulosa; **to come to the** – xulosaga kelmoq.

upside [ˈʌpsaɪd] *n* yuqori tomon *yoki* qism; (biror narsaning) yuzasi, yuza qismi.

upside down [ˈʌpsaɪd ˈdaʊn] *adv* **1.** ostin-ustun, ag'dar-to'ntar, ayqash-uyqash, oyog'i osmonda (osmondan); **2.** tartibsiz holga, betartib ko'rinishga, to's-to'polon.

upstairs¹ [ˈʌpsteəz] *a* yuqorida, yuqoridagi qavatda joylashgan.

upstairs² [ˈʌpsteəz] *adv* **1.** yuqoriga, yuqori qavatga; **2.** (zinapoyadan) yuqoriga qarab; **to go/ to walk** ~ (zinapoyadan) yuqoriga ko'tarilmoq.

upstairs³ [ˈʌpsteəz] *n* yuqoridagi qavat.

upstream¹ [ˈʌpstriːm] *a* **1.** oqim bo'yicha yuqorida joylashgan; **2.** oqimga qarshi suzayotgan, harakat qilayotgan.

upstream² [ˈʌpstriːm] *adv* **1.** oqim bo'yicha yuqoriga; **2.** oqimga qarshi.

upsurge¹ [ˈʌpsɜːdʒ] *n* tez ko'tarilish, oshish, o'sish, rivojlanish; **an** ~ **of anger** g'azabdan portlash.

upsurge² [ˈʌpsɜːdʒ] *v* oshmoq, o'smoq, balandlamoq, yuksalmoq, ko'tarilmoq.

uptight [ˈʌptʌɪt] *a* juda hayajonlangan, to'lqinlangan, asabiy, tajang.

up-to-date [ˈʌptəˈdeɪt] *a* **1.** hozirgi kundagi (zamonadagi), zamonaviy, eng yangi; **2.** zamonaviy talablarga mos keladigan; zamon bilan hamnafas; **to bring smb.** ~ kimsani so'nggi voqealar tafsiloti bilan xabardor qilmoq; **to bring smth.** – eng so'nggi ma'lumotlarni (misol uchun ma'ruzaga) kiritmoq.

upturn¹ [ˈʌptɜːn] *n* **1.** yuksalish, rivojlanish, o'sish, taraqqiy etish, yaxshilanish; **2.** (narx va sh.k. haqida) o'sish, oshish; **3.** o'ta tartibsizlik, chalkashlik, aralash-quralashlik, besaranjomlik.

upturn² [ˈʌptɜːn] *v* **1.** to'ntarmoq,

ag'darmoq, ag'darib (to'ntarib) qo'y-moq; **2.** (ko'z va sh.k. larni) yuqoriga ko'tarmoq; **3.** tartibsiz holga keltirmoq, ayqash-uyqash qilib tashlamoq.

upturned [ʌptɜːnd] *a* yuqoriga huralgan *yoki* yo'nalgan.

upward [ʌpwəd] *a* yuqoriga qarab harakat qilayotgan *yoki* yo'nalgan; **an ~ movement of prices** narxlarning o'sishi.

upwards [ʌpwədz] *adv* **1.** tepaga, yuqoriga, tepaga (yuqoriga) qarab; **2.** ...dan ortiq, ...dan ko'p, ...dan katta; **children of six years old and ~** olti yosh va undan katta bolalar; **3. (~ of)** ...dan ortiq, yuqori; **~ of an hour** bir soatdan ortiq.

uranium [jʊ'reiniəm] *n kim.* uran.

Uranus [jʊərənəs; jʊ'reinəs] *n* Uran (sayyora).

urban [ɜːbən] *a* shaharga oid, shahar...

urge [ɜːdʒ] *n* istak, mayl, xohish, (biror ish qilishga) undaydigan sabab, (biror ishni) ko'ngilga solgan narsa; zo'r istak (ishtiyok).

urge² [ɜːdʒ] *v* **1.** (*tez-tez*: ~ on) majbur qilmoq (etmoq), haydamoq, haydab bormoq, qistamoq, shoshirmoq; **2.** (*uzil-kesil*) ishontirmoq, qattiq turib ma'qullamoq, bajartirmoq, qildirmoq; qattiq (qat'iy) talab qilmoq; **3.** ko'tarib chiqmoq, o'rtaga tashlamoq; himoya qilmoq, yoqlamoq; ilgari surmoq, yurishtirmoq.

urgency [ɜːdʒənsi] *n* **1.** oshig'ichlik, shoshilinch, zudlik, qistalanglik, zud zarurlik, kechiktirib bo'lmaslik; **a matter of great ~** shoshilinch masala; **2.** juda ham keraklik, borib turgan zarurat; **in case of ~** boshqa iloji topilmay qolganda; juda bo'lmaydigan bo'lsa, juda bo'lmasa.

urgent [ɜːdʒənt] *a* **1.** oshig'ich, shoshilinch, kechiktirib bo'lmaydigan, zudlik bilan qilnadigan, juda zarur, zud; **2.** juda ham kerak, juda zarur; **3.** qattiq

turib kurashuvchi, o'jar, qat'iy, qat'iyatli; jonga tegadigan, bezor qiladigan, xira, shilqim.

urgently [ɜːdʒəntli] *adv* oshig'ich (shoshilinch) ravishda, zudlik bilan, tezlik bilan, hech kechiktirmasdan.

urinate [jʊə'reɪnt] *v* siymoq, yozilmoq, bo'shanmoq.

urine [jʊərin; jʊəraɪn] *n* siydik, pe-shob.

urn [ɜːn] *n* **1.** ko'zacha, kuvacha; **2.** elektr samovar *yoki* qahva qaynatadigan idish.

us [əs, ʌs] *pron* **1.** „we“ ning obyektiv kelishigi: bizni, bizga; **2.** biz.

usable [jʊːzəbl] *a* qo'llashga (ishlatishga) yaroqli, yaraydigan; qo'llab (ishlatib) bo'ladigan.

usage [jʊːsɪdʒ] *n* **1.** qo'llash, tatbiq qilish, ishlatish, foydalanish, ishga solish; **in accordance with the general ~** hammaga rasm bo'lgan amaliyotga binoan (muvofiq); **2.** (so'zlar, iboralar va sh.k. haqida) iste'molda bo'lish; **3.** muomala, munosabat; **rough ~** qo'pol muomala; **4.** odat, udum, urf-odat, taomil.

use¹ [juːs] *n* **1.** foydalanish, ishga solish, qo'llash, tatbiq qilish, ishlatish, iste'mol qilish; qo'llanish, ishlatilish, tatbiq etilish; **to be in ~** iste'molda bo'lmoq, amalda ishlatilmoq; **to be (to fall) out of ~** iste'moldan chiqib qolmoq; **to come into ~** iste'molga kirmoq; **to make ~ of smth.** biror narsani ishlatmoq, qo'llamoq, iste'mol qilmoq, biror narsadan foydalanmoq; **2.** biror narsadan foydalana olish qobiliyati *yoki* huquqi; **to lose the ~ of smth.** biror narsaga egalik qilish qobiliyatini yo'qotmoq; **3.** maqsad, vazifa, topshiriq; **a machine with many ~s** ko'p maqsadlarda qo'llaniladigan stanok; **4.** foyda, naf, manfaat; **to be of (no) ~** foydali (befoyda) bo'lmoq; **it's no ~ doing smth.** biror narsani qilish-

tʃ chin / θ thin / ð the / ʃ she / ʒ usual / h he / m me / n not / ŋ king / l lip / r rat / j yet / w we

dan ma'no yo'q, biror narsa qilish befoyda bo'lmoq; **is there any ~ ?** arziydimi?; **to have no ~ for a)** biror narsaga muhtoj bo'lmaslik; b) biror kimsani yoqtirmaslik, biror kimsaga toqat qila olmaslik, biror kimsadan nafratlanmoq.

use² [ju:z] **v** 1. ishlatmoq, foydalanmoq, qo'llamoq, tathiq qilmoq; **to ~ one's brains/ one's wits** miyani (aql, kalla, fahm-farosatni) ishlatmoq; 2. foydalanmoq, ehtiyojga ishlatmoq, sarf qilmoq, sarflamoq; 3. o'z manfaati yo'lida ishlatmoq, foydalanmoq, qo'llamoq; 4. (biror kimsa bilan) biror tarzda muomala qilmoq, muomalada bo'lmoq, munosabatda bo'lmoq; **to ~ smb. well (ill)** biror kimsa bilan yaxshi (yomon) muomalada bo'lmoq; 5. o'tmishda biror narsa qilish odati bo'lmoq; **I ~d to go there** men odatda u yerga borar edim; **it ~d to be thought that...** odatda ..., deb hisoblanar edi.

use up [ju:zʌp] **phr v** 1. batamom sarf qilmoq, ishlatib (sarf qilib) yubormoq, sarflab (xarjlab, ishlatib) tamomlamoq, ishlatib qo'yimoq; 2. qattiq charchatmoq, kuch-quvvatni olmoq, tinka-madorni quritmoq, holdan toydirmoq, behol (bema'jol) qilmoq; **I'm used up** mening umuman kuchim qolmadi.

used [ju:zd] **a** 1. ishlatilgan, foydalanilgan, ishga solingan, qo'llanilgan; 2. tutilgan, ishlatilgan (mas., kiyilgan), eski, eskirgan, puturi ketgan, to'zgan.

used to [ju:st tə; ju:st tu:] **a** biror narsaga o'rganib qolgan, ko'nikkan, ko'nikib ketgan.

useful [ju:sfl] **a** 1. foydali, foyda qiladigan (keltiradigan), kerakli, yaroqli; **a ~ person** foydali odam; 2. qobiliyatli, iste'dodli, iqtidorli; maqtovga loyiq (arziydigan).

useless [ju:sləs] **a** 1. foyda bermaydigan, foydasiz, befoyda, foydasi (nafi) yo'q, behuda, natijasiz, bekor, zoye;

a ~ attempt behuda urinish; 2. yaramaydigan, yaroqsiz, layoqatsiz; hech narsaga qobiliyati (layoqati) yo'q; **to be ~ at smth.** biror narsaga qobiliyati yo'q bo'lmoq.

user [ju:zə] **n** 1. foydalanuvchi; 2. mijoz, iste'molchi, iste'mol qiluvchi.

usher¹ [ʌʃə] **n** 1. biletor, chipta tekisiruvchi (tomoshaxonalarda), kapeldiner (tomoshabinlarning chiptasini tekshiruvchi, zalda tartib saqlovchi teatr xodimi); 2. darvoza (eshik) qorovuli, darvozabon, shveysar, darbon.

usher² [ʌʃə] **v** olib kirmoq, boshlab kirmoq, kuzatmoq, kuzatib bormoq (qo'yimoq), hamroh (yo'ldosh) bo'lib bormoq (**~ in/into**).

usherette [ʌʃəret] **n** biletorsha, chipta tekisiruvchi ayol (tomoshaxonalarda), kapeldiner ayol.

usual [ju:zuəl] **a** 1. odatdagi, doim bo'lib turadigan; **as ~** odatdagiday, odat bo'yicha; 2.: **the ~ (thing)** gapirish, qilish, ichish, yeyish (va sh.k.) uchun odatda qabul qilingan narsa.

usually [ju:zuəli] **adv** odatga ko'ra, odatda, ko'proq, ko'pincha.

utensil [ju:'tensl] **n** 1. turli idishlar, idish-tovoq, asbob-anjom, ashqol-dashqol; **kitchen ~s** oshxona idishlari, qozon-tovoqlar; 2. asbob; (**~s**) asbob-anjomlar, buyumlar.

uteri [ju:təraɪ] **n pl of uterus.**

uterus [ju:tərəs] **n (pl uteruses or uteri) anat.** bachadon.

utilise, utilize [ju:təlaɪz] **v** foydalanmoq, ishlatmoq, ishga solmoq, qo'llamoq, utilizatsiya qilmoq, foydali suratda ishlatmoq.

utility [ju:'tɪləti] **n (pl utilities)** 1. foydalilik, foydasi horlik, foydasi bo'lishlik, qulaylik, ixchamlik, amaliy jihatdan yaxshilik; **of no ~** befoyda, behuda, foydasi (nafi) yo'q; 2. foydali narsa;

VOWELS i: see / i any / ɪ dig / e hen / æ fat / ɑ: art / ɒ dog / ɔ: for / u put / u: too / u usual

3. (-ies) kommunal xizmatlar; umumiy foydalanish faoliyati.

utility room [ju:'tɪlətɪrʊm] *n* qo'shimcha xona.

utmost¹ ['ʌtməʊst] *a* 1. ortiq darajadagi, haddan tashqari, g'oyat, nihoyatda, be-nihoya, juda; **the** ~ **degree** o'ta daraja; 2. eng uzoq, eng chekka.

utmost² ['ʌtməʊst] *n* (**the** ~) eng ko'p (katta) qism, aksariyat, bo'lishi mumkinlik chegarasi; **to do one's** ~ qo'lidan kelgan hamma ishni qilmoq (bor imkoniyatini ishga solmoq); **at the** ~ eng ko'p (katta) qism, aksariyat; **to the** ~ juda, juda ham, nihoyatda, g'oyat darajada, oxir(i)-gacha, oxirgi darajagacha, imkoni bori-cha, mumkin qadar.

utopia [ju:'təʊpiə] *n* xomxayol, amalga oshmaydigan orzu.

utter¹ ['ʌtə] *a* to'liq, to'la, mutlaqo, chin, borib turgan, butunlay; **an** ~ **idiot** qip-qizil tentak (ahmoq).

utter² ['ʌtə] *v* 1. (ovoz, tovush) chiqarmoq; talaffuz qilmoq; 2. aytmoq, bildirmoq, ifodalamoq, ifoda etmoq, izhor (bayon) qilmoq, aytib bermoq; **to** ~ **a declaration** bayonot bermoq.

utterance ['ʌtərəns] *n* 1. talaffuz qilish, aytiş, so'zlar bilan ifodalash; 2. mulohaza, fikr; fikr bildirish; **public** ~ jamoat oldida chiqish, xalq oldida chiqib so'zlash.

utterly ['ʌtəli] *adv* g'oyat, nihoyatda, haddan tashqari, ortiq darajada, mutlaqo, tamomila, batamom, tamoman, favqulotda, juda ham, o'ta.

U-turn ['ju:tə:n] *n* 1. burilish, muyulish, aylanish; 2. *ko'ch.* (reja, niyat, maqsadlarni) qaytadan ko'rish, yangidan qarab chiqish.

Uzbek¹ ['ʊzbək] *a* o'zbek(lar)ga oid; o'zbek...; o'zbekcha.

Uzbek² ['ʊzbək] *n* 1. o'zbek; o'zbek ayoli; 2. o'zbek tili.

V, v

V, v [vi:] ingliz tili alifbosining yigirma ikkinchi harfi.

vacancy ['veɪkənsɪ] *n* (*pl vacancies*) 1. bo'shliq, bo'sh joy; **to stare into** ~ bir nuqtaga (bo'shliqqa) tikilib qolmoq; 2. band qilinmagan joy, bo'sh joy; 3. vakansiya, bo'sh o'rin, hech kim band qilmagan lavozim; **to fill a** ~ bo'sh turgan o'rinni (vakansiyani) to'ldirmoq; 4. befarq qarash, beparvolik, e'tiborsizlik; jonli fikr yoki zo'r qiziqishning yo'qligi; ma'nosizlik, bema'nilik.

vacant ['veɪkənt] *a* 1. bo'sh, to'ldiril-magan; 2. band qilinmagan, band bo'l-magan, bo'sh; **a** ~ **seat** (teatr va sh.k. larda) bo'sh o'rin; 3. (lavozim, vazifa haqida) vakant, bo'sh, hech kim band qilmagan; **a** ~ **position** vakansiya, bo'sh o'rin, hech kim band qilmagan lavozim; 4. (qarash, boqish haqida) beparvo, parvosiz; pari-shonxotir, xayoli qochgan; ma'nosiz, mazmundsiz; loqayd, befarq; ~ **face** befarq, loqayd chehra.

vacantly ['veɪkəntli] *adv* befarq, beparvo, e'tiborsizlik bilan; ma'nosiz, bema'ni; parishonxotirlik bilan.

vacate ['vəkeɪt; vəkət; 'veɪkeɪt] *v* 1. (kvartira va sh.k. larni) bo'shatmoq; ko'chib ketmoq, boshqa joyga ko'chib o'tmoq; 2. (lavozimdan) bo'shamoq, chetlashmoq; iste'foga chiqmoq; 3. *harb.* evakuatsiya qilmoq, xavfli joydan ko'chirmoq.

vacation ['vəkeɪʃn] *n* 1. tark etish, tashlab ketish, ozod qilish, bo'shatish (~ **of**); 2. o'quv ta'tili; **to be on** ~ ta'tilga chiqmoq; 3. mehnat ta'tili.

vaccinate ['væksɪneɪt] *v* *tib.* vakcina bermoq (yubormoq), emlamoq (~ **against**).

vaccination ['væksɪneɪʃn] *n* *tib.* vaksi-na berish (yuborish), emlash.

U
V

vaccine [ˈvæksi:n] *n* *tib.* vaksina, emlik.
vacuum I [ˈvækjuəm] *n* **1.** *fiz.* vakuum (berk idish ichidagi, havoning yoki gazning siyraklashgan holati); havo siyraklashgan bo'shliq; havosiz bo'shliq; **2.** bo'shliq, bo'sh joys; **to fill the** – bo'shliqni to'ldirmoq.

vacuum II [ˈvækjuəm] *v* changyutkich bilan tozalamoq.

vacuum cleaner [ˈvækjuəm ˌkli:nə] *n* changyutkich.

vacuum flask [ˈvækjuəm ˌflɑːsk] *n* termos.

vagina [vædʒəmə] *n* *anat.* moyliq, hazna, qin.

vagrant¹ [ˈveɪgrənt] *n* *yur.* aniq mashg'ulotga ega bo'lmagan shaxs; daydi, darbadar, qo'nimsiz odam.

vagrant² [ˈveɪgrənt] *a* sayoq, daydi, beqaror, ko'chmanchi, kezib yuradigan, sayyor.

vague [veɪg] *a* **1.** noaniq, dudmol, mujmal, bilib (tushunib, anglab) bo'lmaydigan; xira, g'ira-shira, qorong'i; allaqanday; **2.** ishonchi komil emas, ishonmovchi, gumonsirovchi; ikkilanuvchi; **to be – about smth.** a) biror narsaga ishonchi komil bo'lmalik; biror narsa to'g'risida noaniq tasavvurga ega bo'lmoq; b) mujmal fikr bildirmoq.

vaguely [ˈveɪgli] *adv* noaniq, dudmollanib, mujmal qilib, bilib (tushunib, anglab) bo'lmis darajada; es-es, g'ira-shira, elas-elas, sal-pal.

vain [veɪn] *a* **1.** shuhratparast, kekkaygan, mag'rur, o'ziga bino qo'ygan, o'zini yaxshi ko'radigan, o'zini hammadan yuqori qo'yadigan; **to be – of smth.** biror narsa bilan ortiq maqtanmoq, kekkaymoq, gerdaymoq; **2.** behuda, puch, foydasiz, natijasiz; bekor zoye; **in** – behudaga, bekorga, behuda, bekor, natijasiz, henatija; o'rinsiz, zoye, befoйда.

vainly [ˈveɪnli] *adv* behudaga, bekorga,

behuda, bekor, natijasiz, henatija, o'rinsiz, zoye, befoйда.

valentine [ˈvæləntaɪn] *n* **1.** (*14 fevral, avliyo Valentin kunida tanlanadigan yoki tabriklanadigan*) qalb oshnosi, mahabb, oshiq, ma'shuq, yor yoki ma'shuqa, mahbuba; **2.** avliyo Valentin kunida sevikli yorga yo'llanadigan otkritka.

valid [ˈvælɪd] *a* **1.** ishonchli, asosli, jiddiy (ishonarli) asosga ega bo'lgan; **2.** *yur.* amaldagi, kuchini yo'qotmagan, kuchga ega bo'lgan, joriy, haqiqiy.

validate [ˈvælɪdeɪt] *v* *yur.* **1.** haqiqiy deb tan olmoq; ratifikatsiya qilmoq, tasdiqlamoq; **2.** amaliy (joriy) qilmoq; yuridik kuch bermoq.

validity [ˈvælɪdəti] *n* **1.** asoslilik, dalillilik, asoslanganlik, asoslar (dalililar) bilan tasdiqlanganlik; – **of an argument** dalilning asoslilikigi; **2.** to'g'rilik, rostlik, aniqlik; **3.** *yur.* haqiqiylik, rostlik, chinlik; yuridik kuch; **4.** amal qilish muddati.

valley [ˈvæli] *n* **1.** vodi, voha; **2.** vodiyan iborat bo'lgan, vodiydagi, vodiyy....

valour [ˈvælə] *n* (she'riyatda) jasorat, botirlik, shon-shavkat, qahramonlik.

valuable¹ [ˈvæljuəbl] *n* (*odatda: –s*) qimmatbaho buyumlar; qimmatbaho narsalar, qadrlı mollar, boyliklar; qimmatbaho zeb-ziyonatlar, javohirot.

valuable² [ˈvæljuəbl] *adj* **1.** qimmatbaho, qimmatli, qadrlı, qimmat turadigan, bahosi baland; **2.** foydali, foydasi tegadigan, muhim, ahamiyatli, zarur, kerakli; – **information** foydali ma'lumotlar.

valuation [ˌvælju'eɪʃn] *n* **1.** baho, narx; **2.** narxni (bahoni, qiymatni) aniqlash.

value¹ [ˈvæljuː] *n* **1.** ahamiyat, muhimlik; qadr, qimmat; qadriyat; **of** – muhim ahamiyatli, zarur; **of no** – qadri yo'g, hech narsaga arzimaydigan, uch pulga qimmat; **2.** (~s) qadriyatlar (madaniy, ma'naviy); **3.** baho, narx, qiymat (pul birligida); **4.** *mat.* kattalik, qiymat, miqdor.

value² [ˈvælju:] *v* **1.** baholamoq, baho bermoq, bahosini (narxini) belgilamoq; **2.** qadrlamoq, qadriga yetmoq, qadr (hurmat) qilmoq, e'zozlamoq.

value-added tax [ˈvælju: ˈædɪd tæks] *n* qo'shimcha qiymat solig'i.

valueless [ˈvælju:ləs] *a* qadrsiz, beqadr, qadri yo'q, hech narsaga arzimaydigan, uch pulga qimmat; befoyda, yaramaydigan, yaramas, bo'lmag'ur.

valve [vælv] *n* **1. tex.** klapan (suv, havo va bug' yo'lini ochib-hekitib turadigan detal yoki qopqoq); ventil, jo'mrak; **2. el.** elektron lamp; **3. anat.** (yurak) klapani.

vamp [væmp] *v* maftun etmoq, es-hushini olib qo'yimoq, yo'ldan ozdirmoq.

vampire [ˈvæmpaɪə] *n* **1.** vampir; **2.** birinning qonini so'ruvchi, qonxo'r, zolim, yovuz.

vampire bat [ˈvæmpaɪəbæt] *n* qonxo'r ko'rshapalak.

van I [væn] *n* avangard, oldingi safda boruvchi, yetakchi (ilg'or) qism; **to be in the ~/to lead the ~** boshda (oldingi safda, oldingi qatorlarda) bo'lmoq.

van II [væn] *n* **1.** furgon (yopiq kuzovli yuk tashuvchi avtomobil); **2.** yuk vagoni; tovar vagoni.

vandal [ˈvændl] *n* **1.** varvar, vahshiy, hadaviy, madaniyat dushmani, vandal (madaniy boyliklarni oyoq osti qiluvchi vahshiy odam); **2. AE ko'ch.** xuligan, bezori, qulfbuzar, o'g'ri, talonchi.

vandalise, vandalize [ˈvændəlaɪz] *v* bema'nilaracha yoki badiyatlik bilan vayron qilish yoki buzish.

vandalism [ˈvændəlɪzəm] *n* vandalizm (madaniy yodgorliklarni vahshiylik bilan vayron, oyoq osti qilish, yo'qotish); biror narsani varvarlarcha, bema'ni vayron (yo'q) qilish.

vanguard [ˈvæŋɡə:d] *n* **1.** avangard, oldingi safda boruvchi, yetakchi (ilg'or)

qism; ilg'or o'trad; **2. harb.** ilg'or o'trad; **3.** boshqarib horuvchi (yetakchi) qism, bo'gin; rahbarlik, boshqarish; **to be in the ~** oldingi qatorlarda (safda) bo'lmoq.

vanilla¹ [və'nɪlə] *n* **1.** vanil (xushbo'y mevali tropik o'simlik va shu o'simlikning pazandachilikda hamda atir-upada ishlatiladigan xushbo'y shirin mevasi); vanil tayoqchasi (ziravor); **2.** vanilli muz-qaymoq.

vanilla² [və'nɪlə] *a* vanilga oid; vanilli, vanil...

vanish [ˈvænɪʃ] *v* **1.** ko'zdan pana bo'lmoq, g'oyib bo'lmoq, yo'qolmoq, yo'qolib qolmoq, yo'q bo'lib qolmoq; **2.** qirilib (yo'q bo'lib) ketmoq, o'lib (qirilib) bitmoq, tuxumi qurimoq (qurib ketmoq).

vanity [ˈvænəti] *n* **1.** ortiqcha harakat, behuda (befoyda) urinish, behudalik, bekorlik, foydasizlik, natijasizlik, ma'nosizlik, puchlik; **2.** manmanlik, shuhratparastlik, kekkayishlik, o'ziga bino qo'yish; **3.** ayollar sumkachasi (ayniqsa kechki); **4.** upasi presslangan upadon; **5.** kosmetika (pardoz-andoz) sumkachasi; **6.** hammaga rasm bo'lgan (modadagi) narsa.

vantage [ˈvɑ:ntɪdʒ] *n* **1.** ustunlik, ortiqchilik, afzallik; **2.** foyda, naf, manfaat, bahra, kirim, daromad; **3.** foydali (manfaat keltiradigan) joy.

vantage point [ˈvɑ:ntɪdʒ pɔɪnt] *n* **1.** foydali (manfaat keltiradigan) joy; yutuq beradigan vaziyat, yutuqli holat; yaxshi ko'rinish (ko'rish) beradigan joy; **2.** nuqtayi nazar.

vaporise, vaporize [ˈveɪpəraɪz] *v* **1.** bug'lantirmoq, bug'ga aylantirmoq, qaynatib bug'ga aylantirib chiqarmoq; **2.** hug'lanmoq, bug'ga (parga) aylanmoq; **3.** purkamoq, sepmoq, sochmoq.

vaporizer [ˈveɪpəraɪzə] *n* **1.** bug'latgich, bug'ga aylantiradigan (yoki bug'laydigan) apparat; **2.** purkagich, atomi-

zator (suyuqlikni juda ham maydalab purkaydigan asbob).

vapour¹ ['veɪpə] *n* 1. bug', par; bug'-lanish, bug'lanib ketish; 2. tuman.

vapour² ['veɪpə] *v* 1. bug'lanmoq, bug'-ga aylanmoq; (bug', gaz, tutun) otmoq, otib chiqarmoq, chiqarmoq, taratmoq, sochmoq; 2. quruq safsata bilan shug'ullanmoq, gap sotmoq, safsatabozlik qilmoq; 3. maqtanmoq, maqtanchoqlik qilmoq, katta gapirmoq, chiranmoq.

varan ['væɾən] *n zool.* echkiemar.

variability [veəriə'bɪləti] *n* 1. o'zgaruvchanlik, o'zgarib turish, beqarorlik, betayinlik; 2. o'zgarish ehtimoli.

variable¹ [veəriəbl] *n* 1. *mat.* o'zgaruvchan miqdor; 2. *astr.* o'zgaruvchan yulduz; 3. *deng.* o'zgaruvchan shamol.

variable² [veəriəbl] *a* 1. o'zgaruvchan, o'zgarib (aynib) turadigan, beqaror, betayin, aynama; 2. o'zgaruvchan; ~ **quantity** *mat.* o'zgaruvchan miqdor.

variant¹ [veəriənt] *n* variant; boshqa turi (xili), o'zgargan shakli (holati); tur, xil, nav, ko'rinish; bir turi (xili, ko'rinishi).

variant² [veəriənt] *a* 1. har xil, turli, turli-tuman, xilma-xil; 2. (~ **from**) biror narsadan farq qiladigan, ajralib turadigan; biror narsaga qaraganda boshqacha, o'zgacha.

variation [veəri'eɪʃn] *n* 1. o'zgarish, o'zgartish, o'zgarib turish, o'zgaruvchanlik; 2. variant, tur, xil, ko'rinish; bir turi (xili, ko'rinishi); **to be a ~ of** biror narsaning varianti, bir turi bo'lmoq.

varicose [væriˈkɔːs] *a tib.* varikozga oid; varikoz...; ~ **veins** vena tomirlarining varikoz kengayishi.

varied [veəriəd] *a* 1. turli-tuman, xilma-xil, har xil, rang-barang, turli, turlicha, boshqa-boshqa; 2. o'zgaruvchan, almashinib turadigan; 3. (joy haqida) past-baland, o'nqir-cho'nqir.

variety [vəəriəti] *n (pl varieties)* 1.

turli-tumanlik, xilma-xillik, har-xillik, rang-baranglik; farq, tafovut; 2. (~ **of**) bir qator, bir qancha, ko'pdan-ko'p, anchagina, birtalay; **for a ~ of reasons** bir qator (qancha) sabablarga (mulohazalarga) ko'ra; 3. tur, xil, nav, ko'rinish; 4. *teatr.* varyete (yengil janrli estrada teatri); estrada konserti, estrada tomoshasi (*shuningdek*: ~ **show**).

various [veəriəs] *a* 1. turli, har xil, xilma-xil, turli-tuman, turlicha, rang-barang; **for ~ reasons** ko'p (qator) mulohazalarga ko'ra, ko'p (qator) mulohazalar bilan; **at ~ times** bir necha bor (marta), takror-takror, qayta-qayta; 2. har tomonlama (tarafflama, yoqlama), har xil, serqirra.

variously [veəriəsli] *adv* 1. har xilchasi, har xil (boshqa-boshqa, turli-tuman, rang-barang) qilib; 2. alohida-alohida, boshqalarga qo'shmasdan; 3. turli nomlar, familiyalar, laqablar va sh.k. lar ostida.

varnish¹ ['vɑːnɪʃ] *n* 1. lok; 2. jilo, sayqal; pardoz, yaltiroq, tashqi (usti) yaltiroqlik, lok qatlami; **to take the ~ off** (aybni) fosh qilmoq, oshkor qilmoq, ochib tashlamoq, niqobini olib tashlamoq; 3. sir.

varnish² ['vɑːnɪʃ] *v* 1. loklamoq, lok surtmoq (bermoq), lok bilan pardoz bermoq; 2. jilo (pardoz, sayqal) bermoq, yaltiratmoq; 3. (kamchilikni) yashirmoq, bekitmoq; (haqiqatni) bo'yab, pardozlab ko'rsatmoq.

vary [veəri] *v (pt, pp varied)* 1. o'zgar(t)moq, o'zgartirmoq, boshqacha bo'lmoq (qilmoq), o'zgarib qolmoq (ketmoq); 2. (~ **from**) bir-biridan farq qilmoq, ayrilib (ajralib) turmoq; bir-biriga to'g'ri kelmay qolmoq, har xil bo'lib chiqmoq, kelishmay qolmoq; 3. xilma-xil (turli-tuman, rang-barang) qilmoq, turli tusga (shaklga) kiritmoq.

varying [ˈveəriŋ] *a* 1. o'zgaradigan, o'zgarib turadigan, o'zgaruvchan; 2. past-baland, o'nqir-cho'nqir.

vascular [ˈvæskjələ] *a anat.* tomir(lar)-ga oid; tomirli, tomir...

vase [vɑːz] *n* 1. vaza, ko'ra; 2. amfora (ko'zasimon qo'shquloq sopol idish); idish; yumaloq (shaklli) idish; jom; 3. gul va sh.k. larning kosachasi.

vast [vɑːst] *a* 1. bepoyon, keng, behad, cheksiz; ulkan, azim, mahobatli; 2. g'oyat katta, ulkan, buyuk, zo'r; ~ **difference** katta farq; 3. ko'p sonli, soni ko'p, katta; **a ~ number of** juda ko'p, son-sanoqsiz, bir talay narsa.

vastly [ˈvɑːstli] *adv* 1. juda, juda ham, nihoyatda, g'oyat (ortiq) darajada, haddan tashqari; 2. butunlay, tamoman.

vault I [vɔːlt] *n* 1. (me'morchilikda) gumbaz, qubba; 2. yer ostidagi sag'ana (daxma); 3. (vino va sh.k. saqlanadigan) yerto'la; 4. narsalar saqlanadigan (asraladigan) joy; po'lat kamera (xona); **safety** - qimmatli narsalarni saqlaydigan joy (bank va sh.k. larda).

vault II [vɔːlt] *v* 1. (me'morchilikda) gumbaz qilib yopmoq, biror narsa ustida gumbaz qurmoq (solmoq); 2. egilmoq, qayrilmoq, bukilmok.

vault III [vɔːlt] *n* 1. sakrash, irg'ish, sapchish; 2. *sport.* langarcho'p bilan sakrash.

vault IV [vɔːlt] *v* 1. sakrab (hatlab, irg'ib) o'tmoq, hatlamoq, sakramoq, irg'imoq; 2. *sport.* langarcho'p bilan sakramoq.

vaulting buck [ˈvɔːltɪŋbʌk] *n* gimnastika uchun kozyol (eshak).

vaulting horse [ˈvɔːltɪŋhɔːs] *n* gimnastika uchun kon (eshak).

vaulting pole [ˈvɔːltɪŋpəʊl] *n* (sakrash uchun) langarcho'p.

veal [viːl] *n* buzoq go'shti.

veg [vedʒ] *n* sabzavot.

vegetable [ˈvedʒtəbl] *n* sabzavot.

vegetable [ˈvedʒtəbl] *a* 1. sabzavotga oid; sabzavot...; vegetarianlar uchun belgilangan, go'shtsiz; 2. o'simlikdan olingan (qilingan, tayyorlangan), o'simlik...; ~ **oil** o'simlik moyi (yog'i).

vegetarian [ˌvedʒətəriən] *n* et yemas, vegetarian (faqat sabzavot va sutli ovqatlarni iste'mol qiluvchi odam).

vegetarian [ˌvedʒətəriən] *a* 1. vegetarianlar uchun belgilangan, go'shtsiz; 2. o'simlikdan olingan (qilingan, tayyorlangan), o'simlik...; sabzavotdan qilingan; sabzavotli (parhez va sh.k. haqida).

vegetate [ˌvedʒətet] *v* 1. o'smoq, unmoq, rivojlanmoq, ko'karmoq; 2. ko'paymoq, hajmi kattalashmoq, yiriklashmoq, kengayib (kattalashib) ketmoq; 3. *AE* ko'klamzorlashtirmoq, ko'klamzor qilmoq, ko'klamzorga aylantirmoq; yashil daraxtlarni qo'riqlamoq.

vegetation [ˌvedʒətəriən] *n* 1. unish, o'sish; vegetatsiya; 2. o'simliklar.

vehicle [ˈviːəkl] *n* 1. avtomobil; mashina (avtotransport vositasi haqida); 2. (ifoda yoki tarqalish) vositasi yoki quroli; (g'oya) tarqatuvchi, yoyuvchi; 3. *harb.* tashuvchi (raketa, samolyot haqida); 4. uchuvchi apparat.

veil [veɪl] *n* 1. shlapaga tutiladigan va yuzni bekitib turadigan to'r; 2. yopinchiq, chodir, paranj; 3. parda, darparda, yopiladigan yoki yopilgan narsa, choyshab, biror narsani qoplab turadigan parda; 4. *ko'ch.* niqob, bahona, vaj, ro'kach; **a ~ of secrecy** maxfiylik bahonasi; **under the ~ of smth.** biror narsa himoyasi (niqobi) ostida.

veil [veɪl] *v* 1. to'r, yopinchiq bilan yopmoq; 2. chodir, paranj kiymoq; yuzni to'r bilan yopmoq; 3. yashirmoq, bekitmoq, niqoblamok, pardalamok.

veiled [veɪld] *a* 1. to'r, yopinchiq, chodir bilan yopilgan; 2. yashirin, yashi-

ringan, bekutilgan, niqoblangan; – **threat** yashirin po'pisa (do'q).

vein [veɪn] *n* 1. *anat.* vena, ko'ktomir; 2. (o'simlik hargida) tomir; 3. ton, muomaladagi tovush ohangi, usul, uslub; **in a serious** – jiddiy ohangda, jiddiy tarzda.

velocity [və'ləsəti] *n* 1. *fiz.* tezlik; 2. tezlik, chaqqonlik, ildamlilik, jadallik; **with the ~ of thought** yashin tezligi bilan, yashin tezligida.

velvet¹ ['velvɪt] *n* 1. barxit, baxmal, duxoba; 2. chiyduxoba; 3. baxmalga o'xshash mayinlik, yumshoqlik.

velvet² ['velvɪt] *a* 1. duxobadan qilingan; baxmal...; duxoba...; 2. baxmalga o'xshash mayin, yumshoq, yoqimli; ~ **skin** yumshoq (mayin) teri.

velvety ['velviti] *a* 1. baxmalga o'xshash mayin, yumshoq, yoqimli; 2. (rang haqida) quyuq, to'q.

vendor ['vendə] *n* 1. sotuvchi, savdogor, do'kondor (do'konchada, stolchada, ko'chama-ko'cha tashib savdo qiladigan); 2. *yur.* (ko'chmas mulkni) sotuvchi.

venerable ['venrəbl] *a* 1. (yosh, odam haqida) tabarruk, ulug', ulg'aygan, keksa; ~ **age** ulug' (tabarruk) yosh; 2. qadimgi, qadimiy, asrlar davomida muqaddas narsaga aylangan; 3. *din.* taqvodor, ruhoniy; avliyo.

venerate ['venərəɪt] *v* 1. yod etmoq, hurmatlamoq, izzat qilmoq, ulug'lamoq; hiror kimsa oldida bosh egmoq, ta'zim qilmoq; 2. ortiq darajada hurmat qilmoq, e'zozlamoq; ta'zim qilmoq, bosh egib (ehtiromla bilan) salom bermoq.

venereal [və'nɪəriəl] *a* *tib.* tanosil kasalliklariga oid; venerik; tanosil...; ~ **disease** tanosil kasalligi.

vengeance ['vendʒəns] *n* qasos, o'ch, intiqom, qasd; **to take ~ on smb.** birovdan qasos (qasd, o'ch) olmoq; **with a ~ a)** kutilgandan ko'proq, ortig'i hilan; b)

joni (kuchi) boricha, astoydil, juda kuchli, juda, rosa, o'lguday.

vengeful ['vendʒfl] *a* kek saqlovchi, qasos olmay qo'ymaydigan, kekni unutmaydigan, qasoskor.

venom [venəm] *n* 1. (ilon, chayonning) zahar, og'u; 2. kek, adovat, xusumat, gina, achchiq.

venomous ['venəməs] *a* 1. zaharli, og'uli; 2. yomon, yovuz; achchiq, g'azabli, g'azabnok; 3. sog'liq uchun zararli, nosog'lom, sog'lom emas, halokatli.

vent¹ [vent] *n* 1. *tex.* kirish yoki chiqish tirqishi, teshigi; ventilatsiya tuynugi; 2. (his, tuyg'ular haqida) ifoda etish, ko'rsatish; **to give ~ to** (hissiyot, g'azabga) izn, erk bermoq.

vent² [vent] *v* 1. tuynuk (tirqish, teshik) ochmoq; 2. (tutun, bug') chiqarmoq; 3. izn, erk bermoq; izhor etmoq, to'kib solmoq, sochmoq; **to ~ one's anger on smb.** birovga zahrini sochib alamdan chiqmoq.

ventilate ['ventileɪt] *v* 1. (uy, xonani) shamollatmoq, havosini yangilamoq, ventilatsiyalamoq, ventilatsiya qilmoq; 2. (havo, gaz, tutun chiqib turish uchun) klapan, tuynuk bilan ta'minlamoq.

ventilation [ventrɪ'leɪʃn] *n* ventilatsiya; (uy, xonani) shamollatish, havoni yangilash.

ventilator ['ventrɪleɪtə] *n* ventilator.

venture¹ ['ventʃə] *n* 1. qaltis ish, xavfli tashabbus; qaltis yurish-turish, xatarli sarguzasht, xavfli ish-harakat; 2. korxonona; **a joint ~** qo'shma korxonona; **at a ~** tasmollab, tavakkal qilib, tavakkaliga.

venture² ['ventʃə] *v* 1. tavakkal (tavakkalchilik) qilmoq, xavfli (qaltis) ish qilmoq; tikmoq; **to ~ one's life** hayotini xavf ostiga qo'yimoq; 2. botinmoq, jur'at etmoq, jasorat qilmoq, yurak yutmoq, yuragi dov bermoq; **to ~ an opinion** fikr bildirishga botinmoq.

V

venue ['venju:] *n* (biror tadbir o'tkazish uchun) uchrashuv joyi; harakat sodir etish (etilgan) joy.

Venus ['vi:nəs] *n* Venera (sayyora), Zuhra yulduzi.

veranda(h) [və'rændə] *n* veranda, ayvon, peshayvon.

verb [vɜ:b] *n gram.* fe'l.

verbal ['vɜ:bl] *a* **1.** og'zaki; **a ~ agreement** og'zaki kelishuv; **a ~ note** og'zaki nota, imzosiz nota; **2.** asliga muvofiq bo'lgan, so'zma-so'z qilingan, so'zma-so'z, aynan takrorlangan, aynan, lug'aviy; **3.** fe'lli, fe'l...; fe'l-dan yasalgan.

verbalise, verbalize [vɜ:bəlaɪz] *v* **1.** so'zlar bilan ifodalamoq; (fikrni) aniq ifoda qilmoq; **2.** gap sotmoq, safsatabozlik qilmoq, vaysamoq, mahmadonalik qilmoq; gapni cho'zmoq, ezmalanmoq.

verbally [vɜ:bəli] *adv* **1.** og'zaki tarzda; **2.** so'zma-so'z, aynan, asliga muvofiq, oqizmay-tomizmay.

verbatim¹ [vɜ:'beɪtəm] *a* (axborot yetkazish, tarjima haqida) so'zma-so'z qilingan, aynan takrorlangan, so'zma-so'z, lug'aviy.

verbatim² [vɜ:'beɪtəm] *adv* so'zma-so'z, aynan, oqizmay-tomizmay.

verdict ['vɜ:dɪkt] *n* **1.** *yur.* verdikt, hukm, hukmnoma, sud maslahatchilarining qarori; sud hukmi; **2.** xulosa, fikr, mulohaza, muhokama; **the popular ~** jamoat fikri, afkori omma.

verdure ['vɜ:dʒə] *n* **1.** yashil (sabza) rang, bargikaram; **2.** yashil o'simlik; (yashil) barglar, yaproqlar; **3.** (hissiyot va sh.k. haqida) yangi, toza, sof; gullash davri, (kuchga to'lgan va sh.k.) payt.

verge¹ [vɜ:dʒ] *n* **1.** chet, yoqa, chekka; **2.** *ko'ch.* chegara, chek; **to be on the ~ of smth.** biror narsaning yaqinlashish paytida (oldi, yoqasi, arafasida) bo'lmoq; **on the ~ of war** urush yoqasida,

urush bo'lay deb turibdi; **3.** (yo'lning) cheti, yoqasi; **4.** hoshiya, jiyak, mag'iz, uqa.

verge² [vɜ:dʒ] *v* **1.** (~ **on, upon**) biror narsa bilan chegaralanmoq; biror narsaga qo'shib ketmoq; **2.** (biror narsaga) yaqinlashmoq, yaqin kelmoq; **3.** (~ **to**) engashmoq, egilmoq, bukilmoq, og'moq; **4.** (Quyosh haqida) botmoq.

verifiable [vɜ:fiəəbl] *a* **1.** ustidan tekshiruv o'tkaziladigan; **2.** tasdiqlanishi, isbotlanishi mumkin bo'lgan; quruq gapdan iborat bo'lmagan, biror dalilga, faktga asoslangan.

verification [vɜ:fi'keɪʃn] *n* **1.** tekshiruv, tekshirish, nazorat; **2.** (matn va sh.k. larni) solishtirish; **3.** tasdiq, dalil, isbot; biror narsaning haqiqiyligini, chinligini, to'g'riligini aniqlash; **4.** *tex.* kalibrovka (o'lchov asboblarning aniqligini boshqa bir asbob bilan tekshirib to'g'rilash).

verify [vɜ:fi] *v* (pt, pp **verified**) **1.** tekshirmoq, tekshirib ko'rmoq, nazorat qilmoq; **2.** (matn va sh.k. larni) solishtirmoq; **3.** tasdiqlamoq, tasdiq qilmoq; biror narsaning haqiqiyligini, chinligini, to'g'riligini aniqlamoq.

veritable [vɜ:təəbl] *a* **1.** o'taketgan, borib turgan, g'irt; **a ~ swine** g'irt cho'chqa; **2.** haqiqiy, chin, rost; haqqoniy, to'g'ri.

vermilion¹ [vɜ:mɪljən] *n* och qizil, qip-qizil, to'q qizil, lolarang, alvon, qirmizi, qizil rang.

vermilion² [vɜ:mɪljən] *a* och qizil, qip-qizil, to'q qizil, lolarang, alvon, qirmizi, qizil; arg'uvon.

vermin ['vɜ:mɪn] *n* **1.** parazitlar (taxtakana, bit va sh.k.); **2.** (qishloq xo'jaligida) zararkunandalar, kushandalar, parazitlar; **3.** yirtqichlar (hayvon, qushlar haqida); zararli hayvonlar; **4.** bekorchilar, bekorchixo'jalar, yalqovlar, tanballar, takasaltanglar; xuliganlar, bezorilar.

tʃ chin /θ thin /ð the /ʃ she /ʒ usual /h he /m me /n not /ŋ king /l lip /r rat /j yet /w we

vernacular¹ [və'nækjʊlə] *n* 1. ona tili; milliy til; 2. mahalliy dialekt, sheva; 3. professional (kasbiy) til, jargon.

vernacular² [və'nækjʊlə] *a* 1. (til haqida) milliy, ommaviy; ona; 2. shu yerli, mahalliy, shu joyning (mahallaning) o'ziga xos, taalluqli bo'lgan; 3. (til haqida) so'zlashuvga oid; so'zlashuv...; 4. ona tilida yozilgan *yoki* aytilgan.

versatile ['vɜ:sətəɪl] *a* 1. har tomonlama (tarafлама, yoqlama), har xil, bittasidan ikkinchisiga oson o'tib ketadigan; **to be** ~ har tomonlama ma'lumotli odam bo'lmoq; 2. o'zgaruvchan, o'zgarib turadigan, beqaror, betayin; 3. universal, har xil ishga yaraydigan, ko'p maqsadli.

versatility [vɜ:sətɪləti] *n* 1. har tomonlamalik (tarafmalik, yoqlamalik), xilmaxillik, serqirralik; 2. o'zgaruvchanlik, o'zgarib turishlik, beqarorlik, betayinlik; 3. universallik, hartomonlama bilimdonlik.

verse [vɜ:s] *n* 1. she'r satri, she'riy satr; bayt, misra; 2. strofa, band; 3. she'r vazni; she'r shakli; 4. she'riy asar, poeziya, she'riyat, nazm; 5. kichik she'riy asar, she'r; 6. *din.* oyat.

versed [vɜ:st] *a* tajribali, tajriba orttirgan, biror narsani yaxshi biladigan, ma'lumotli, bilimli, bilimdon (~ *in*).

version [vɜ:ʃn] *n* 1. rivoyat, naql, talqin qilish, ochish, talqin; 2. bir-biridan farqli, boshqacha ishlangan ish, asar va sh.k. larning har biri; o'zgartirish, qayta ishlash; **a screen** ~ ekranlashtirish, ekranda ko'rsatishga moslash; **a stage** ~ sahna lashtirilgan asar, tomosha; 3. matn varianti (tarjima).

versus [vɜ:səs] *prep* 1. *yur., sport.* ... ga qarshi; raqib sifatida; 2. ...dan farqli o'laroq; ...bilan taqqoslaganda; farqli ravishda, nisbatan.

vertebra ['vɜ:tɪbrə] *n* (*pl* *vertebrae, vertebrae*) 1. *anat.* umurtqa suyagi, umurtqa pog'onasi; 2. *pl* umurtqa.

vertebrae ['vɜ:tɪbrɪ:] *n pl of vertebra.*

vertebral ['vɜ:tɪbrəl] *a* umurtqaga oid; umurtqa...; umurtqali, umurtqasi bor.

vertebrate¹ ['vɜ:tɪbrɪt] *n zool.* umurtqali hayvon.

vertebrate² ['vɜ:tɪbrɪt] *a zool.* umurtqali (hayvon haqida).

vertical ['vɜ:tɪkl] *a* 1. vertikal yo'nalishdagi, vertikal, tik; tepaga (yuqoriga) yo'nalgan; 2. *mat.* perpendikular; tik; 3. tik ko'tarilgan (tushgan).

verticality [vɜ:tɪkələti] *n* vertikallik, tiklik, vertikal (tik) holat.

vertically ['vɜ:tɪkli] *adv* vertikal (tik) yo'nalishda, tik, tikka, tikkasiga, tik holda.

very¹ ['veri] *a* 1. chin, chinakam, rostakam, borib turgan, ayni, g'irt, qip-qizil; 2. mutlaq, to'la, to'liq, rosa; **the** ~ **truth** chin (ayni) haqiqat; 3. xuddi, xuddi o'zi, o'zginasi, naq o'zi; **the** ~ **thing** talab qilingan narsaning xuddi o'zginasi.

very² ['veri] *adv* 1. juda, juda ham, g'oyat, nihoyatda, ortiq (nihoyat, g'oyat) darajada, bag'oyat; ~ **much** juda; 2. *orttirma sifatlari yoki qiyosiy ravishlar bilan ularning ma'nosini kuchaytirish uchun ishlatiladi:* eng; **the** ~ **best** eng yaxshi, zo'r; 3. *qiyosiy sifatlari bilan ishlatiladi:* ancha, anchagina; **to feel** ~ **much better** o'zini ancha yaxshi his qilmoq; ~ **good** juda yaxshi (soz), a'lo; yaxshi, xo'p, bo'pti, mayli (rozilik); *harb.* xo'p, xo'p bo'ladi! yes! (buyruqqa javob); ~ **well** juda yaxshi (soz), a'lo; xo'p, bo'pti, mayli, shunday bo'laqolsin.

vessel ['vesl] 1. idish; 2. kema; 3. samolyot, havo kemasi, dirijabl; 4. *anat.* tomir; **a blood** ~ qon tomiri.

vest [vest] *n* 1. ich ko'ylak; 2. *AE* nimcha, jiletka; 3. zirhli nimcha; 4. xalat.

vested ['vestɪd] *a* asosli, asoslangan, qonuniy, huquqiy jihatdan tegishli bo'lgan; **a** ~ **interest** a) qonun bilan

himoyalangan mol-mulka egalik qilish huquqlari; b) shaxsiy manfaat.

vestibule ['vestibju:l] *n* **1.** dahliz (ichkariga kiraverishdagi birinchi xona); vestibul; **2.** eshik oldi, kirish, kiraverish, tashqi hovli; **3.** (vagondagi) yopiq dahlizli tambur.

vestige ['vestidʒ] *n* **1.** iz, asar, nishon, nishona, qoldiq; **2.** zarracha bo'lsa ham belgi, alomat, ishora *yoki* asar; zig'irday narsa, asar, nishon; **not a ~ of truth** zarracha ham haqiqat yo'q; **3.** *biol.* qoldiq, rudiment.

vestment ['vestmənt] *n* **1.** sarpo, libos, kiyim, kiyim-bosh, ust-bosh; **2.** *din.* libos, rido, riza (ruhoniylarning ibodat vaqtida kiyadigan libosi).

vet I [vet] *n* *AE* „**veteran**“ *ning qisqartmasi.*

vet II¹ [vet] *n* („**veterinary**“ *ning qisqartmasi*) veterinar, mol doktori, veterinar vrach.

vet II² [vet] *v* hayvonlarni davolamoq; veterinariya ko'rigini o'tkazmoq.

veteran¹ ['vetərən] *n* veteran; ko'pni ko'rgan, tajribali askar; urush qatnashchisi.

veteran² ['vetərən] *a* **1.** (askar, matros haqida) eski, ko'pni ko'rgan, tajribali; janglarda sinalgan, sinashta bo'lgan; **a ~ officer** jangchi zobit; **2.** eski, qari, eskirgan, o'z davrini o'tab bo'lgan.

veterinary¹ ['vetənri] *n* veterinar, mol doktori, veterinar vrach.

veterinary² ['vetənri] *a* veterinariyaga oid; veterinariya...; veterinar...; **a ~ surgeon** veterinar vrach.

veto¹ ['vi:təʊ] *n* (*pl* **veto**es) **1.** veto (taqiqlash, man qilish, taqiq); **to put/ to place/ to set a ~ on/ upon smth.** biror narsani taqiqlamoq (man qilmoq); **2.** veto huquqi; **to exercise one's ~ veto** huquqidan foydalanish; **3.** taqiq, man, taqiqlash, man qilish.

veto² ['vi:təʊ] *v* (*pt, pp* **veto**ed) **1.** biror narsani taqiqlamoq (man qilmoq); **2.** taqiq qilmoq, taqiqlab qo'ymoq; **3.** (nomzod va sh.k. larni) rad qilmoq, tan olmaslik.

vex [veks] *n* **1.** o'ksitmoq, xafa qilmoq, ranjitmoq, ranj yetkazmoq, alam qildirmoq, achchiqlantirmoq, g'azablantirmoq, achchig'ini chiqarmoq; **how ~ ing!** attang!, afsus!, esizgina!; **2.** joniga (jig'iga) tegmoq, jonidan to'ydirmoq, bezor qilmoq, qiynab yubormoq.

vexation [vek'seɪʃn] *n* **1.** o'kinch, achinish, ranj, alam, g'azablanish, achchiqlanish, jahli chiqish; **2.** ko'ngilsizlik.

vexatious [vek'seɪʃəs] *a* **1.** kishiga ranj yetkazadigan, alam qiladigan, o'ksitadigan, achinarli, o'kinchli; yoqimsiz, dilni siyoh qiladigan, noxush; **2.** notinch, betinch, bezovta, tashvishli, xavotirli.

via [vaɪə] *prep* **1.** ustidan, orqali, bilan; marshruti bilan ...orqali; ...ga kirib o'tib (kema haqida); **2.** yo'li bilan, vositasi orqali, vositasi bilan, yordami bilan.

viability [vaɪə'bɪləti] *n* yashash qobiliyati, yashamollik, yashovchanlik.

viable [vaɪəbl] *a* **1.** yashashga qobil, yashovchan, yashamol; **2.** amaliy jihatdan amalga oshirsa bo'ladigan.

vibrant [vaɪbrənt] *a* **1.** titragan, titroq (ovoz), tebranuvchan (tovush haqida); **2.** jonli, kuch (g'ayrat) bilan to'la, serg'ayrat.

vibrate [vaɪbreɪt] *v* **1.** silkinmoq, tebranmoq, chayqalmoq, tebrana boshlamoq, tebranib ketmoq; **2.** ikkilanmoq, taraddudlanmoq, jur'atsizlik qilmoq; **3.** (**- at, to, with**) titramoq, zirillamoq; qaltiramoq; **to ~ with** joy xursandchilikdan qaltirab qolmoq; **4.** aks sado (rezonans) bermoq, yangramoq, jaranglamoq.

vibration [vaɪbreɪʃn] *n* **1.** vibratsiya, titrash, zirillash, tebranish; tebranma

harakat; **2.** rezonans; aks sado, uzoqdan eshitilgan (yetib kelgan) ovoz; **3.** jur'at-sizlik, qat'iyatsizlik, botinolmaslik, ikkilanish, taraddudlanish.

vice I' [vais] *n tex.* iskanja, taxtakach.

vice I² [vais] *v tex.* iskanjaga olmoq, qismoq.

vice- II [vais] *pref* vitse-; o'rinbosar, muovini; ~ **chairman** rais o'rinbosari (muovini); ~ **president** vitse-prezident.

vice versa [vais 'və:sə] *adv* aksincha, bil'aks.

vicinity [və'sməti] *n* **1.** yaqinlik, yonma-yonlik, qo'shnilik, yaqinida (yonida) bo'lish; **in the ~ of** biror narsaning yaqinida (yonida, oldida); **2.** atrof, tevarak-atrof, tevarak-atrofdagi joylar; yaqin joylashga (qo'shni) tuman; **3.** taxminiy son, miqdor va sh.k.; **in the ~ of** taxminan, taqriban, chamasi(da), -ga yaqin.

vicious [viʃəs] *a* **1.** axloqsiz, odobsiz, yomon, buzuq, yomon yo'lga kirgan; **2.** jahli yomon, battol, yovuz, qahri qattiq, shafqatsiz, rahmsiz, berahm, qahrli, zolim; **3.** badniyat, niyati buzuq, yomon niyatdagi, yomon niyat bilan qilingan.

victim [viktɪm] *n* qurbonlik, qurbon; **to fall a ~ to smth., smb.** biror narsa, kimsaning qurboni bo'lmoq; **to die/ to perish a ~ to smth.** biror narsaga qurbonlik bo'lmoq; biror narsaning qurboni bo'lmoq.

victimisation, victimization [viktɪmə'zeɪʃn] *n* **1.** tahqirlash, xo'rlash, masxaralash, masxara qilish; **2.** qurbonlik qilish; **3.** ta'qib, quvg'in; (jazo sifatida) bo'shatish, haydash.

victimise, victimize [viktɪməɪz] *v* **1.** o'z qurboni qilmoq; azoblamoq, azob hermoq, qiynamoq, aziyat chektirmoq, joniga tegmoq, jonidan to'ydirmoq, qiynab yubormoq; **2.** (tirik jonzotni) qurbonlik qilmoq; **3.** ta'qib qilmoq; (jazo sifatida) bo'shatmoq, haydamoq.

victor [vɪktə] *n* g'olib, muzaffar, yengib chiqqan (yutgan) kishi; **the ~ army** g'olib armiya.

Victorian¹ [vɪktɔ:riən] *n* qirolicha Viktoriya davri (1837-1901)dagi odam, viktorianes.

Victorian² [vɪktɔ:riən] *a* **1.** qirolicha Viktoriya davriga oid (taalluqli); **2.** ko'ch. eskicha, eski (mutaassiblik) ruhidagi, eskirib qolgan; tor, chegaralangan.

victorious [vɪktɔ:riəs] *a* g'alabaga oid, zafarli; g'alabaga olib boruvchi; muzaffar; g'olib, zafar qozongan; **to be ~ g'alaba qozonmoq, yengmoq, yengib chiqmoq, g'olib kelmoq, zafar qozonmoq; to come out ~ g'olib bo'lib chiqmoq.**

victory [vɪktəri] *n* (*pl* **victories**) g'alaba, zafar, muvaffaqiyat, yutuq; **to have, to get/ to win the ~ g'alaba qozonmoq, yengmoq, yengib chiqmoq, g'olib kelmoq, zafar qozonmoq.**

video [vɪdiəu] *a* (*pl* **videos**) televizion; televideniye bilan bog'liq bo'lgan; **a ~ recording** videomagnitafon yozuvi.

video recorder [vɪdiəu'ri:kɔ:də] *n* videomagnitafon, video.

videotape¹ [vɪdiəuteɪp] *n* tasvir va ovoz yozish uchun mo'ljallangan magnitasma.

videotape² [vɪdiəuteɪp] *v* videomagnitafonga yozmoq.

view¹ [vju:] *n* **1.** ko'rinish; manzara; **2.** (rasm yoki fotosuratlarda) tabiat manzarasi tasviri, peyzaj; **3.** ko'rinish, ko'z ilg'ash, ko'rish maydoni, doirasi; **in ~ ko'z ilg'ash darajasida; to keep/ to have smth. in ~ ko'zdan (nazardan) qochirmaslik; to come in ~ of ko'rish maydoniga (doirasiga) tushmoq; ko'rmoq, ko'rib qolmoq; 4.** fikr, nuqtayi-nazar, qarash, mulohaza; **in my ~** mening fikrimcha, nazarimda; **5.** maqsad, niyat, o'y; reja, o'ylab qo'yilgan ish; **with a ~ to doing smth.** biror narsa qilish maqsadiga.

dida; **with this** ~ shu maqsad bilan, shu niyat bilan; **6.** obzor (umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumot), qisqa xulosa, qisqacha mazmun, yakun; **7.** ko'rik, ko'rikdan o'tkazish, tekshirib ko'rish; **on** ~ ko'rish uchun qo'yilgan; **at first** ~ bir qarashdan, birinchi bor qaragandayoq; **in** ~ **of** (biror narsani) nazarda tutib, e'tiborga olib; (biror narsa) sababli, sababi bilan; **with a** - **to/with the (a)** - **of** ...maq-sadida, niyatida, ...niyati (maq-sadi) bilan; **to be in** - oldindan ko'rinmoq, sezilmoq, kutilmoq; **to be very much in** ~ har qadamda uchramoq (*duch kelmoq*); **to keep/ to have smth. in** ~ biror narsani ko'zda (nazarda) tutmoq, hisobga (e'tiborga) olmoq; biror narsaga ishonmoq, umid qilmoq, umid bog'lamoq.

view² [vju:] v **1.** ko'rib (qarab) chiqmoq, ko'zdan kechirmoq, tekshirib ko'rmoq, tekshirmoq; **2.** muhokama qilmoq; belgilamoq, baho bermoq, ...deb bilmoq (topmoq), hukm chiqarmoq; **3.** o'rganib chiqmoq, tekshirib aniqlamoq, yaxshilab ko'rib (qarab) chiqmoq.

viewer [vju:ə] n qarovchi, kuzatuvchi, tomoshabin; teletomoshabin.

viewpoint [vju:pɔɪnt] n nuqtayi nazar.

vigilance [ˈvɪdʒɪləns] n **1.** hushyorlik, sergaklik, ogohlik; sezgirlik, qulog'i dinglik, ziyraklik; **2.** *tib.* uyqusizlik, bedorlik; uyqusizlik kasali.

vigilant [ˈvɪdʒɪlənt] a **1.** hushyor, sergak, ogoh; sezgir; ziyrak; **to be** ~ **against smth.** biror narsaga nisbatan hushyor bo'lmoq; biror narsani sergak turib kuzatmoq; **2.** bedor, uyg'oq, uyqusiz, uyqusi yo'q (qochgan).

vigorous [ˈvɪgərəs] a **1.** kuchli, quvvatli, qudratli; baquvvat, dadil, tetik, bardam, bag'ayrat, g'ayratli, serg'ayrat, serharakat; faol; **2.** keskin, qat'iy, qizg'in (harakat haqida).

vigorously [ˈvɪgərəsli] adv **1.** o'zini

bardam (tetik) tutib, bo'sh kelmay, bardam, tetik, g'ayrat bilan, faol ravishda; **2.** qat'iy ravishda, keskin, qizg'in suratda.

vigour [ˈvɪgə] n **1.** kuch, quvvat, qudrat; tetiklik, bardamlilik, baquvvatlik; **full of** - jonli, tez, ildam, chaqqon, g'ayratli, serg'ayrat, serharakat, faol; **2.** (harakat va sh.k. haqida) keskinlik, qat'iylik, qat'iyat, uzil-kesillik

Viking [ˈvaɪkɪŋ] n (tarixda) Viking (qadimgi Skandinaviyada harbiy dengiz askari).

vile [vaɪl] a **1.** razil, qabih, yaramas, pastkash, palid, murdor; **2.** kishini sovutadigan, o'zidan qochiradigan, yoqimsiz, jirkantiradigan, nafratni qo'zg'aydigan; **3.** juda yomon, yoqimsiz, xunuk, bemaza, g'oyat yaramas; ~ **weather** juda yomon ob-havo.

villa [ˈvɪlə] n villa (bog'li koshona); shahar chekkasidagi uy.

village [ˈvɪlɪdʒ] n qishloq, qishloq joy; **the whole** ~ butun qishloq, qishloqning barcha aholisi.

villager [ˈvɪlɪdʒə] n qishloqlik (qishloqda yashovchi) kishi; dehqon.

villain [ˈvɪlən] n **1.** jinoyatchi, qotil, badkor, badkirdor, yaramas, **2.** salbiy qahramon, nobakor; **3.** jinoyatchi, jinoyatkor, jinoyat qiluvchi.

villainous [ˈvɪlənəs] a **1.** jinoyi, jinoyatkorona, vahshiyona, yovuzlar-cha, yovuz, jirkanch, yaramas, razil, qabih (xatti-harakat haqida); mudhish, dahshatli (jinoyat haqida); **2.** juda yomon, yoqimsiz, xunuk, bemaza.

villainy [ˈvɪləni] n jinoyatkorlik, jinoyi harakat, jinoyat, yovuzlik, vahshiylik, yirtqichlik, shafqatsizlik.

vindictive [vɪnˈdɪktɪv] a kek saqlovchi, qasos olmay qo'yamaydigan, kekni unutmaydigan.

vine [vaɪn] n **1.** bot. tok novdasi; **2.** chirmashadigan yoki yer bag'irlab

tʃ chin / θ thin / ð the / ʃ she / ʒ usual / h he / m me / n not / ŋ king / l lip / r rat / j yet / w we

o'sadigan o'simlik; **3.** chirmashuvchi poya, novda, palak.

vinegar¹ ['vɪnɪgə] *n* sirka; sirka essen-siyasi.

vinegar² ['vɪnɪgə] *v* **1.** marinadlamoq, marinadga (ziravorli sirka-moyga) bosmoq; **2.** sirka bilan yaxshilab artmoq.

vineyard ['vɪnjəd] *n* tokzor, uzumzor.

vintage¹ ['vɪntɪdʒ] *n* **1.** uzum uzish; **2.** ma'lum bir yilda ishlab chiqilgan vino; markali vino, oliy sifatli vino; **3.** ishlab chiqarilgan sana.

vintage² ['vɪntɪdʒ] *a* **1.** markali, navli, sortli, uzoq turib (saqlanib) yetilgan, turgan; **2.** eskirgan, eskirib qolgan, eski modadagi, eski bichimdagi, eskicha.

vintage³ ['vɪntɪdʒ] *v* **1.** uzum termog (uzmoq); **2.** (uzumdan) vino tayyorlamog.

vinyl ['vaɪnl] *n* kim. vinil.

viola [vi'əʊlə] *n* mus. alt (past ovozli qilli yoki puflab chalinadigan musiqa asbobi).

violate [vɪ'əʊleɪt] *v* **1.** buzmoq, izdan chiqarmoq, barbod qilmoq, bajarmaslik, rioya qilmaslik, chetga chiqmoq, qo'pol ravishda buzmoq, poymol qilmoq, oyoq-osti qilmoq; **to ~ the law** qonunni buzmoq *yoki* qo'pol ravishda buzmoq; **to ~ an agreement** bitimni buzmoq; **2.** tahqirlamoq, tahqir qilmoq, xor qilmoq, xo'r-lamoq; qattiq ranjitmoq, kamsitmoq, nafsoniyatiga (izzat-nafsiga, shaxsiyatiga) tegmoq; **3.** tinchlikni (osoyishtalikni) buzmoq, xalal bermoq, tumshuq suqmoq, aralashmoq; **4.** zo'r-lamoq, zo'ravonlik qilmoq, majbur etmoq.

violation [vɪ'əʊleɪʃn] *n* **1.** (qonunni, shartnomani) buzish, bajarmaslik, rioya qilmaslik; **2.** tahqirlash, tahqir qilish, xor qilish, xo'r-lash; haqorat, tahqir, qattiq ranjitish, kamsitish, nafsoniyatiga (izzat-nafsiga, shaxsiyatiga) tegish; **3.** zo'r-lash, nomusiga tegish; **4.** kuch qo'llash (ishlatish), kuchini ko'rsatish.

violence [vɪ'əʊləns] *n* **1.** shiddat; shiddatlilik, qattiqlik; kuch; kuchlilik, o'tkirlik, zo'rlik; vahshiylik, yovuzlik; **2.** majbur qilish, zo'r-lash, jabr, zulm; kaltaklash, do'pposlash, savalash; **to use ~** kuch ishlatmoq, majburlash chorasini ko'rmoq; **to resort to ~** zo'rlikka (zo'ravonlikka) tayanmoq; **to do ~ to smth.** biror narsani buzmoq; (qonunni) buzmoq, poymol qilmoq.

violent [vɪ'əʊlənt] *a* **1.** qattiq, juda qattiq, kuchli, shiddatli, quturgan; g'oyat kuchli; keskin, o'tkir; **in ~ contrast** keskin, borib turgan qarama-qarshilikda; **2.** zo'rlik (zo'ravonlik) bilan qilingan, amalga oshirilgan, majburiy, zo'raki; **a ~ death** qatl, o'ldirish, g'ayritabiiy o'lim; **3.** qizg'in, jo'shqin, otashin, zo'r, ehtirosli.

violet¹ [vɪ'əʊlət] *n* bot. binafsha, gunafsha.

violet² [vɪ'əʊlət] *a* **1.** binafshaga oid; binafsha...; **2.** binafsha rang, gunafsha rang, nafarmon.

violin [vɪ'əʊlɪn] *n* skripka.

violinist [vɪ'əʊlɪnɪst] *n* skripkachi, skripka chaluvchi.

violoncellist [vɪ'əʊləntʃelɪst] *n* violonchelchi, violonchel chaluvchi.

violoncello [vɪ'əʊləntʃeləʊ] *n* (*pl* **violoncellos**) violonchel (skripkasimon, katta musiqa asbobi).

viper [vɪ'ɪpə] *n* **1.** zool. qora ilon (yapaloq boshli qora ilon); **2.** yovuz *yoki* makkor odam; ilon, tili achchiq yomon odam, zahar, qumron, yaramas (odam haqida).

viral [vɪ'əʊrəl] *a* tib. virusga oid; virus orqali yuzaga keladigan, o'tadigan; virusli.

virgin¹ ['vɜ:dʒɪn] *n* **1.** qiz, iffatli qiz, ma'suma, bokira; **2.** ho'z yer, qo'riq; tegilmagan (oyoq bosilmagan) yuza.

virgin² ['vɜ:dʒɪn] *a* **1.** iffatli, pokdomon,

ma'suma, hokira; **2.** qizlik davridagi, qizlarga xos bo'lgan; **3.** toza, tabiiy, sof holda topilgan, sof (metall haqida); **4.** tegilmagan, qo'l urilmagan; **5.** ishlanmagan (haydalmagan, chopilmagan); ekin ekilmagan, ekilmay yotgan; bo'z yerga (qo'riqqa) oid; bo'z (qo'riq)...; **the ~ lands** bo'z (qo'riq) yerlar.

virginity [və'dʒɪnəti] *n* iffatlilik, ma'sumalik, bokiralik; qizlik, pokdomonlik; **to loose one's ~** iffatini yo'qotmoq.

Virgo [vɜ:ɡəʊ] *n* Sunbula (yulduz hurji va zodiak belgisi).

virtual ['vɜ:tʃuəl] *a* faktik, faktga asoslangan, haqiqiy, aniq, haqiqatda mavjud (hor) bo'lgan, chin, chinakam.

virtually ['vɜ:tʃuəli] *adv* aslida, haqiqatda, haqiqatan, amaliy jihatdan, amalda, aslini (haqiqatni) olganda, to'g'risini aytganda, gapning to'g'risi.

virtue [vɜ:tʃu:] *n* **1.** yaxshi fazilat, yaxshi xislat, saxovat, himmat, ezgu ish, axloqlilik, odoblilik; **2.** iffat, ma'sumlik, axloqiy soflik, musaffollik, to'g'rilik (ayol haqida); **3.** yaxshi sifat, ijobiy xislat yoki jihat; afzallik, ustunlik, yaxshi tomon.

virtuosi [vɜ:tʃu'əuzi] *n pl of virtuosos.*

virtuosos [vɜ:tʃu'əusəʊ] *n (pl virtuosos or virtuosi)* **1.** yuksak mahoratli, san'atkor, artist; **2.** san'atni qadrllovchi; san'at asarlari, osori atiqalar, nodir narsalarni yaxshi biladigan odam yoki kolleksioner; **3.** olim.

virtuous [vɜ:tʃuəs] *a* **1.** yaxshi fazilat-larga (xislatlarga) ega bo'lgan, saxovatli, himmatli; **2.** pokiza, iffatli, ma'suma, to'g'ri (ayol haqida); **3.** kuchli, ta'siri bor, ta'sir (kor) qiladigan, samara (foйда) beradigan, samarali.

virulence [vɪrələns; 'vɪrjələns] *n* **1.** zaharlilik, zaharli bo'lish, zahar kuchi; **2.** kek, adovat, xusumat, gina; g'azab, qahr, achchiq, yomonlik, yovuzlik, serjahlilik, badjahlilik, achchiqlanganlik.

virulent [vɪrələnt; 'vɪrjələnt] *a* **1.** xavfli, xatarli, og'ir, qo'rqinchli (kasallik haqida); o'limga (halokatga) olib boradigan, o'ldiradigan, halokatli, jiddiy; **2.** g'azabli, g'azabnok; achchiq, zardali, zaharli, zarda (zaharxanda) bilan aytilgan.

virus [vaɪrəs] *n* **1.** virus (yuqumli kasallik qo'zg'atuvchi, yuqtiruvchi mikroorganizm); **2.** (aql uchun) zararli narsa, zahar, og'u; yuqumli kasal.

visa [vi:zə] *n* **1.** viza (hukumatning boshqa mamlakat fuqarosi pasportiga uning kelish-ketishi yoki o'tishi uchun ruxsat berib qo'yadigan maxsus belgisi); **2.** viza (boshliqning hujjat ustiga yozgan ko'rsatmasi, qayd belgisi).

visage ['vɪzɪdʒ] *n* **1.** yuz, bet, bashara; chehrada aks etgan belgi; chehra; **2.** tashqi ko'rinish, qiyofa; **3.** (Oyning) ko'rinadigan tomoni.

viscose ['vɪskəʊs] *n* **1.** viskoza (sun'iy tola va sellofan tayyorlash uchun ishlatiladigan modda); **2.** viskozadan to'qilgan shoyi.

viscosity [vɪs'kɒsɪti] *n* yopishqoqlik, yelimshaklik, qovushoqlik.

viscount [vaɪkaʊnt] *n* vikont (baron bilan graf o'rtasidagi dvoryanlik unvoni).

viscous ['vɪskəs] *a* yopishqoq, yelimshak, qovushoq, cho'ziluvchan.

visé [vaɪs] *n AE* „*vice II*“ga qarang.

visibility [vɪzə'bɪləti] *n* ko'rib bo'ladiganlik, ko'zga ko'rinadiganlik, ko'rinib turadiganlik, ko'z ilg'aydiganlik, ko'rinish, ko'z ilg'ash; **poor ~** yomon ko'rinish, yaxshi ko'rinmaslik.

visible ['vɪzəbl̩] *a* **1.** ko'rib bo'ladigan, ko'zga ko'rinadigan, ko'rinib turadigan, ko'z ilg'aydigan; zohir; **2.** aniq, shakshubhasiz, ochiq-oydin ko'rinib turgan, ko'rinib (bilinib) turgan.

visibly [vɪzəbl̩i] *adv* ochiqdan-ochiq, oshkora, ochiqchasiga, sezilarli darajada.

vision [ˈvɪʒn] *n* **1.** ko'rish qobiliyati; ko'rish; ko'z, ko'rish idroki; **2.** uzoqni ko'ra bilish, uzoqni o'ylab (ko'zlab) ish tutish; oldindan ko'rish (payqash); ziyraklik, sezgirlik; **a man of ~** uzoqni ko'radigan (uzoqni o'ylab ish tutadigan) odam; **3.** orzu, xayol; tasavvurdagi ko'rinish, siy-mo, gavdalanish.

visionary¹ [ˈvɪʒənri] *n* orzu-xayollarga beriluvchi odam, xayolparast; fantazyor, fantaziya.

visionary² [ˈvɪʒənri] *a* **1.** uzoqni ko'ra biladigan, uzoqni o'ylab (ko'zlab) ish tutadigan, mulohazali; ziyrak, sezgir; oldindan ko'rish (payqash) qobiliyatiga ega; **2.** orzu-xayollarga beriluvchan, xayolparast, fantaziya; moyil; **3.** tasavvurdagi, faraz qilingan, tasavvur qilindigan, faraziy; xayoliy, noreal.

visit¹ [ˈvɪzɪt] *n* tashrif, poyqadam; qadam ranjida qilish, yo'qlash, kelib (borib) ko'rish, ko'rishga borish (kelish), huzurida bo'lish; **a goodwill ~** yaxshi (ezgu) niyatdagi tashrif; **to pay a ~ to smb./ to pay smb. a ~** biror kimsanikiga tashrif buyurmoq, qadam ranjida qilmoq, biror kimsani borib (kelib) ko'rmoq, ko'rishga bormoq (kelmoq), huzurida bo'lmoq.

visit² [ˈvɪzɪt] *v* **1.** (biror kimsani) ko'rgani (hol-ahvol so'ragani) bormoq, yo'qlamoq, yo'qlab kelmoq (bormoq); (biror kimsanikiga) yo'lakay kirib chiqmoq (o'tmoq); **2.** (biror narsani) borib (kelib) ko'rmoq, ko'rishga bormoq (kelmoq); (biror yerda) bo'lmoq; (biror yerga) bormoq; **3.** gastrolga chiqmoq (bormoq).

visitation [ˌvɪzɪˈteɪʃn] *n* rasmiy tashrif (tekshirish maqsadida).

visitor [ˈvɪzɪtə] *n* mehmon, tashrif buyuruvchi, keluvchi; tashrif buyurgan (yo'qlab kelgan) kishi, mehmon; **a ~'s book** (mehmonxonada) to'yxatga olish kitobi.

visual [ˈvɪʒuəl] *a* **1.** ko'rishga oid;

ko'rish...; ko'rish qobiliyatiga taalluqli; **2.** ko'rgazmali, ko'rsatmali; ko'zga ko'rinadigan, ko'rinarli, zohir; **a ~ aid** ko'rgazmali qurol; **3.** ko'z (yoki durbin) bilan qarab qilinadigan, ko'rish qobiliyati bilan amalga oshiriladigan.

visualise, visualize [ˈvɪʒuəlaɪz] *v* **1.** xayolan tasavvur qilmoq; tasavvurda tasvirlamoq; **2.** ko'zga ko'rinarli (zohiriy) qilmoq, ko'rintirmoq, ko'rinarli qilmoq.

visually [ˈvɪʒuəli] *adv* ko'rish orqali, ko'z (yoki durbin) bilan.

vital [ˈvaɪtəl] *a* **1.** organizm hayotiga, tiriklikka oid; hayotiy; **2.** eng hayotiy, eng ahamiyatli (zaruriy, zarur, kerakli, muhim), muhim ahamiyat kasb etadigan; **3.** (biror narsa uchun) nihoyatda zarur; **of ~ importance** birinchi darajali ahamiyatlilik, muhimlik; **4.** hayot qaynagan, jo'shqin, jonli, tez, ildam, g'ayratli, serg'ayrat, serharakat, faol, sho'x.

vitality [ˈvaɪtæləti] *n* **1.** hayotiylik, zaruriylik, zarurlik, muhimlik; yashash qobiliyati, yashamollik, yashovchanlik; **2.** jonlilik, ildamlilik, chaqqonlik; kuchquvvat, g'ayrat, g'ayrat-shijoat, g'ayratlilik, serg'ayratlik, serharakatlik, faollik; **full of ~** jonli, tez, ildam, g'ayratli, serg'ayrat, serharakat, sho'x, faol.

vitals [ˈvaɪtlz] *n* **1.** eng muhim organlar, a'zolar; **2.** (mexanizm, ta'limot va sh.k. larning) eng muhim qismi; **3.** *harb.* muhim mo'ljal (nishon) yoki obyektlar.

vitamin [ˈvɪtəmin] *n* vitamin.

vivacious [vɪˈveɪʃəs] *a* (asosan ayol haqida) quvnoq, xushtabiat, masrur, jonli, serharakat, seg'ayrat, sho'x, xushchaqchaq, quvnoq, shodmon.

vivacity [vɪˈvæsɪti] *n* **1.** jonlilik, serharakatlik, seg'ayratlik, sho'xlik, tetiklik, bardamlilik, xushchaqchaqlik, quvnoqlik, shodmonlik; **2.** (rang, yorug'lik haqida) yorug'lik, yorqinlik, porloq, yarqiroq, ochiq.

vivid [ˈvɪvɪd] *a* **1.** yorugʻ, yorqin, charaqqlagan, yarqiragan, ochiq; **2.** (tasavvur haqida) yaqqol, jonli, ifodali, qizgʻin, joʻshqin; **3.** aniq, yaqqol, yorqin, ravshan, ajoyib; **a** ~ **description** yorqin, rang-barang tasvir.

vivisection [ˌvɪvɪˈsekʃn] *n* *tib.* vivisek-siya (tirik hayvonni yoki uning organizmini yorib tekshirish).

vocabulary [vəˈkæbjələri] *n* **1.** lugʻat, soʻzlik; **2.** soʻz boyligi; soʻz tarkibi; **3.** (tilning) soʻz boyligi.

vocal [ˈvəʊkl] *a* **1.** tovushga (tovush chiqarishga) oid; tovush chiqarishga xizmat qiladigan; tovush chiqaradigan, tovushlogʻich; *tovush...*; ~ **cords** tovushlogʻich paychalar, tovush paychalari; **2.** ogʻzaki, ogʻizdaki, dahanaki.

vocalist [ˈvəʊkəlɪst] *n* vokalist, xonanda, ashulachi, qoʻshiqchi, hofiz.

vocation [vəʊˈkeɪʃn] *n* **1.** (biror narsaga) moyillik, mayl, ragʻbat, qiziqish, havas (~ **for**, **to**); **2.** mashgʻulot turi, kasb, hunar.

vocational [vəʊˈkeɪʃnəl] *a* kasbga oid, kasb bilan bogʻliq, kasbiy, professional; ~ **training** professional (kasbiy) taʼlim.

vociferous [vəʊsɪfərəs] *a* (ovoz, tovush haqida) quloqni teshadigan, qattiq, baland, shovqinli; ovozi baland (oʻtkir), baqiroq, shangʻi, vagʻ-vagʻ.

vociferously [vəʊsɪfərəsli] *adv* quloqni teshar darajada, qattiq (baland, oʻtkir) ovoz bilan, baqirib, shangʻillab, shovqin solib, vagʻ-vagʻ qilib.

vodka [ˈvɒdkə] *n* araq.

vogue [vəʊg] *n* **1.** moda; rasm; odat; **in** ~ modadagi, moda (rasm) hoʻlgan; **out of** ~ moda (rasm) boʻlmagan, modadan chiqqan, oyoqdan qolgan; **2.** taniqlilik, mashhurlik, dongdorlik; **3.** rasm, odat, urf-odat, taomil.

voice [vɔɪs] *n* **1.** tovush, ovoz, sado, sas; **2.** fikr, mulohaza, ovoz; **to have a** ~

in smth. oʻz fikrini aytish huquqiga ega boʻlmoq, (biror narsani hal qilishda) fikr bildirmoq; **to give** ~ **to smth.** biror narsani aytmoq, bayon (izhor) qilmoq; **to give** ~ **for smth.** oʻz fikrini bayon qilmoq, mulohaza bildirmoq, gapirmoq, biror narsa uchun ovoz bermoq; **3.** *gram.* nisbat; **with one** ~ yakdillik bilan, bir ovoz bilan, bir ovozda.

voice² [vɔɪs] *v* (soʻzlar bilan) ifoda etmoq, bildirmoq, aytmoq, izhor etmoq, bayon qilmoq; **to** ~ **one's protest** oʻz eʼtirozini bildirmoq.

voiced [vɔɪst] *a* **1.** (fonetikada) jarangli; **2.** (qandaydir) ovozga ega boʻlgan; **loud** ~ baland (qattiq) ovoqli, ovozi baland (oʻtkir), baqiroq, shangʻi; **soft** ~ past ovoqli, ovozi (tovushi) muloyim, quloqqa yoqadigan.

voiceless [ˈvɔɪsləs] *a* **1.** tili yoʻq, tilsiz, indamas, gapirmas; churq etgan tovush yoʻq, jimjit, sokin, sukunatli; **2.** ovozi yoʻq, ovozi boʻgʻiq (qoʻshiqchi haqida); **3.** (fonetikada) jarangsiz, boʻgʻiq (tovush haqida).

void¹ [vɔɪd] *n* **1.** boʻshliq; boʻsh joy (oʻrin); **2.** hoʻsh qolgan joy, ochiq joy, tushib qolgan joy; **to fill the** ~ boʻsh qolgan joyini, boʻsh joyini toʻldirmoq; **3.** *yur.* boʻsh bino, imorat, uy; boʻm-boʻsh bino.

void² [vɔɪd] *a* **1.** ichi boʻsh, hech narsasi yoʻq, boʻsh; **2.** boʻsh, band qilinmagan; **3.** (~ **of**) mahrum qilingan (biror narsadan); **4.** *yur.* qonuniy kuchga ega boʻlmagan, kuchi yoʻq.

volcanic [vɒlˈkænik] *a* **1.** vulqonga oid, vulqon...; **2.** (his-tuygʻular haqida) tutaqib (qizishib) turgan, jazava (gʻazab, hayajon) va sh.k. lardan oʻzini bilmaydigan, dargʻazab, quturgan, tez jahli chiqib ketadigan, tez gʻazablanadigan.

volcano [vɒlˈkeɪnəʊ] *n* (*pl* **volcanoes**) vulqon; yonar togʻ; sopka.

tʃ chin /θ thin /ð the /ʃ she /ʒ usual /h he /m me /n not /ŋ king /l lip /r rat /j yet /w we

vole [vəʊl] *n* *zool.* dalasichqon.

volition [və'liʃn] *n* iroda, istak, xohish, ixtiyor, niyat, ta'biy, ra'y; **of one's own** ~ o'z xohishi (ixtiyori) bilan, ixtiyoriy ravishda.

volley¹ ['vɒli] *n* **1.** zalp, baravariga o'q otish (uzish); **to fire a** ~ bir necha quroldan baravariga o't ochmoq; **2.** qatorasiga uzilgan o'q (pulimiyot, minomyot yoki avtomatdan); ~ **fire** yugurik o'q (tez-tez bitta-bitta o'q uzib o'qqa tutish); **3.** (~ **of**) gulduros (kulgi va sh.k. haqida); **4.** do'l; **5.** (tennis haqida) to'p uchib kelayotganda uni yerga tushirmasib beriladigan zarba.

volley² ['vɒli] *v* **1.** zalp bilan (haravariga) o'q otmoq; bir necha quroldan baravariga yoki qatorasiga o't ochmoq; **2.** do'l (kulgu, ta'nalar) bilan ko'mib tashlamoq, g'arq qilmoq, yog'dirmoq; **3.** (tennis haqida) to'p uchib kelayotganda uni yerga tushirmasib zarba bermoq.

volleyball ['vɒlibɔ:l] *n* *sport.* voleybol.

volt [vɔlt] *n* *el.* volt (elektrkuchlanishi o'lchov birligi).

voltage ['vɔltidʒ] *n* *el.* voltaj (elektr tarmog'ida voltlar bilan ifodalangan kuchlanish), kuchlanish.

voluble ['vɒljəbl] *a* **1.** sergap, ko'p gapiradigan, hech kimga gap bermaydigan, ortiqcha so'zlar ko'p, ezma, vaysaqi; **2.** silliq, ravon (nutq, uslub haqida).

volume ['vɒlju:m] *n* **1.** ko'lam, kattakichlik, hajm; miqdor, ancha, bir talay; **the ~ of trade** savdo hajmi (ko'lami); **2.** tom, jild, kitob; **3.** sig'im, hajm, kattalik, sig'imlilik; **4.** (tovushning) kuchi, balandligi; ~ **of sound** ovoznining (tovushning) balandligi, qattiqligi; **5.** ovozni balandlatib tushiradigan band (ruchka).

voluminous [və'lu:mi:nəs] *a* **1.** (nashr haqida) ko'p tomli, jildli; (kitob haqida) qalin, og'ir; **2.** (katta o'lcham haqida) hajmi katta, kattakon, kattagina, hajm-

dor, hcnihoya keng (katta), bepoyon, cheksiz; **3.** ko'p sonli, ko'p adadli.

voluntarily [vɒləntəri] *adv* **1.** ixtiyoriy ravishda, o'z ixtiyori bilan, ko'ngilli bo'lib, o'tilib chiqib; o'z xohishi (istagi) yoki tanlovi bilan; **2.** atayin, ataylab, bilaturib, ko'ra-bila, jo'rttaga, qasddan, biror maqsad bilan; **3.** o'zboshimchalik bilan, beboshlik qilib.

voluntary [vɒləntəri] *adv* **1.** ko'ngilli, o'z xohishicha, ixtiyoriy, har kimning o'z ixtiyori (xohishi) bilan qilinadigan; **2.** iroda erkinligi bo'lgan; tanlash erkidan foydalanadigan; **3.** pul (haq) olinmaydigan, bepul, tekin, pulsiz (ish haqida); ijtimoiy, jamoatga, jamoatchilikka asoslangan, xayrli, saxovat yuzasidan qilingan; beminnat.

volunteer¹ [vɒləntiə] *n* **1.** ko'ngilli, talabgor, o'z ixtiyori bilan o'tilib chiqqan; **2.** biror narsaga ixtiyoriy boruvchi talabgor, odam; ixtiyoriy ravishda o'z bo'yniga (zimmasiga) oluvchi; **3.** biror ishni tekinga bajaruvchi odam.

volunteer² [vɒləntiə] *a* **1.** ko'ngillilardan tashkil topgan, ixtiyoriy ravishda tuzilgan; **2.** ixtiyoriy, ko'ngilli; har kimning o'z ixtiyori (xohishi) bilan qilinadigan, pul (haq) olinmaydigan, bepul, tekin, pulsiz (ish haqida); xayrli, saxovat yuzasidan qilingan.

volunteer³ [vɒləntiə] *v* **1.** (o'z yordamini, xizmatini) taklif qilmoq; **to ~ to do smth.** biror narsa qilishga talabgor bo'lib (otilib) chiqmoq; **2.** o'z tashabbusi (xohishi) bilan qilmoq; **to ~ an opinion** (so'ralmagan) fikrni bildirmoq (aytmok); **3.** (armiyaga) o'z ixtiyori bilan bormoq, kirmoq; harbiy kuchlar safiga ixtiyoriy ravishda (o'z xohishi bilan) kirmoq.

vomit¹ [vɒmit] *n* **1.** qusish, qayt qilish; **2.** qusib chiqarilgan massa; qusuq, qusqi; **3.** qustiradigan (qayt qildiradigan) dori.

vomit ['vɒmɪt] *v* **1.** qusmoq, qayt qilmoq, ko'ngli aynimoq, o'qchimoq, behuzur bo'lmoq; **2.** qustirmoq, qayt qildirmoq, ko'nglini aynitmoq.

voodoo ['vu:du:] *n* **1.** sehrgarlik, jodugarlik, afsungarlik, shomonlik (asosan Vest-Indiyada); sehr, jodu, afsun; **2.** jodugar, sehrgar, afsungar; shomon; emchi, duoxon, azayimxon.

voracious [və'reɪʃəs] *a* yebto'ymas, badnafs, mechkay; ochko'z, suq; qorni to'ymaydigan, sertomoq, xo'ra, ochofat; **a** – **reader** bosh ko'tarmay o'qiydigan odam.

voracity [və'ræsi'ti] *n* yebto'ymaslik, badnafslik, mechkaylik; ochko'zlik, suqlik; sertomoqlik, xo'ralik, ochofatlik.

vortex [vɔ:teks] *n* uyurma, quyun, uyurmali qattiqshamol, bo'ron, girdob, aylanma.

vote¹ [vəʊt] *n* **1.** ovoz berish, ovozga qo'yish, ovoz; **to take a** – ovoz berishni o'tkazmoq; **to put to the** – ovozga qo'yimoq; **2.** berilgan ovozlar soni; **3.** ovoz berish huquqi; saylov huquqi; **4.** saylov bulleteni; **5.** votum (ovoz berib, qo'l ko'tarib qabul qilish, tasdiqlash).

vote² [vəʊt] *v* **1.** ovoz bermoq; ovoz berish yo'li bilan hal qilmoq yoki saylamoq; **to** – **for** yoqlab ovoz bermoq; **to** – **against** qarshi ovoz bermoq; **2.** chiqarmoq, ajratmoq (pul, mablag' haqida); **3.** bir ovozdan (yakdillik bilan) tan olmoq.

voter [vəʊtə] *n* saylovchi, ovoz beruvchi.

voting [vəʊtɪŋ] *n* ovoz berish, ovozga qo'yish, ovoz; ovoz berishda ishtirok etish.

vouch [vaʊtʃ] *v* **1.** kafil bo'lmoq, kafolat bermoq, kafilligini olmoq, ishontirmoq, garaniya bermoq, o'z ustiga (zimmasiga) olmoq (– **for**); **2.** (hujjatlar bilan) tasdiqlamoq; (dalillar bilan) asoslamoq.

voucher [vaʊtʃə] *n* **1.** yozma kafillik yoki guvohlik (shohidlik); yozma kafolat, garantiya; **2.** kafil, kafil bo'lgan kishi, guvoh, shohid; **3.** nazorat taloni.

vow¹ [vaʊ] *n* qasam, ont, va'da, so'z; qasamyod, ahd; tantanali va'da; **to make (take) a** – qasam (ont) ichmoq, so'z (va'da) bermoq, qasamyod (ahd) qilmoq; **to break a** – qasamni (ontni, qasamyodni) buzmoq, va'daning ustidan chiqmaslik.

vow² [vaʊ] *v* **1.** qasam (ont) ichmoq, so'z (va'da) bermoq, qasamyod qilmoq, tantanali va'da bermoq; **2.** tantanali suratda bildirmoq, e'lon qilmoq, hammaga bildirmoq.

vowel [vəʊəl] *n* unli (tovush yoki harf).

voyage¹ [vɔ:ɪdʒ] *n* sayr, sayohat, safar (dengiz yoki havoda); kemaada suzish, kema safari; uchish, parvoz qilish; reys, qatnov (kema, samolyot haqida).

voyage² [vɔ:ɪdʒ] *v* (dengizda, samolyotda) sayohat qilmoq, sayr (safir) qilmoq; (okeanni) kesib o'tmoq.

voyager [vɔ:ɪdʒə] *n* **1.** dengiz sayyohi, dengizda sayohat qilgan (qiluvchi) kishi; **2.** sayohatchi, sayyoh; **3.** (kema, samolyotda) yo'lovchi.

vulgar [vʌlgə] *a* odobdan tashqari, beadab; tuturiqsiz; qo'pol, dag'al, qo'rs, to'ng; odobsiz, betakalluf, surbet.

vulgarity [vʌlgə'reɪtɪ] *n* (**pl vulgarities**) **1.** odobdan tashqarilik, beadablik, qo'pollik, dag'allik, qo'rslik; qo'pol muomala, qo'rs gap; **2.** (–**ies**) tuturiqsiz (bemaza) gaplar, qo'pol gaplar.

vulnerability [vʌlnərə'bɪlətɪ] *n* **1.** darrov shikastlanadiganlik, himoyasi bo'shlik, zaiflik; **2.** adolatsizlikka chidolmaslik, gap ko'tarolmaslik, ko'ngli noziklik.

vulnerable [vʌlnərə'bəl] *a* **1.** zaif, juda nozik, yaxshi himoya qilinmagan; **2.** gap ko'tarolmaydigan, adolatsizlikka chidolmaydigan, ko'ngli nozik, jizzaki.

vulture [vʌltʃə] *n* **1.** *zool.* qirg'iy, qarchig'ay; kalxat, qoraqush; **2.** *ko'ch.* (odam haqida) qonxo'r, yirtqich, vahshiy, quzg'un.

vulva [vʌlvə] *n* *anat.* vulva, tashqi jinsiy a'zolar.

W, w

W, w [ˈdʌblju:] ingliz tili alifbosining yigirma uchinchi harfi.

wad [wɒd] *n* 1. bo'lak, parcha, yumaloqlangan narsa (paxta, g'ijimlangan qog'oz haqida); 2. *AE* hir dasta (qog'oz) pul.

wadding [ˈwɒdɪŋ] *n* 1. tiqma, to'ldirilgan, tiqilgan narsa; 2. paxtali podbivka; vatin (astar bilan avra orasiga qo'yiladigan sermomiq mato).

waddle¹ [ˈwɒdl] *n* lapanglab yurish; „o'rdak“ yurish.

waddle² [ˈwɒdl] *v* lapanglab yurmoq; oqsoqlanmoq, sudralmoq, kalovlanib (oqsab-to'qsab) zo'rg'a yurmoq.

wafer [ˈweɪfə] *n* vaflı (katak-katak yupqa pechenye).

waffle I [ˈwɒfl] *n* *AE* vaflıli tort, vaflı.

waffle II [ˈwɒfl] *v* valdiramoq, aljiramoq, vaysamoq, safsata sotmoq; bema'ni (bo'lmag'ur, bekor) gaplarnı gapirmoq.

wag [wæɡ] *v* 1. silki(t)moq, qoqmoq; chayqa(t)moq, chayqalmoq, tebrantirmoq; 2. (it haqida) dumını likillatmoq; 3. barmog'ını silkitib do'q qilmoq.

wage I [weɪdʒ] *n* (*odatda*: ~s) ish haqi (ishchılarnıki); **to draw/earn a ~** ishlab (mehnat qilib, peshana terı to'kib) topmoq, ishlab (mehnat bilan) erishmoq.

wage II [weɪdʒ] *v* olib bormoq, qilmoq; o'tkazmoq, amalga oshirmoq; **to ~ war on/against** urush olib bormoq (qilmoq); **to ~ a campaign** kampaniya olib bormoq.

waggle [ˈwæɡl] *v* 1. silki(t)moq, silki qolmoq, likillatmoq, qimirlatmoq; **to ~ one's head** bosh chayqamoq; **to ~ one's ears** quloqlarnı qimirlatmoq (qimirlatib qo'ymoq); 2. lapanglab yurmoq.

wagon [ˈwæɡən] *n* tovar (yuk) vagonı, vagon-platforma.

wail¹ [weɪl] *n* 1. ulısh, uvlash; 2. qattıq yig'i, dodlab (chingırıb) yig'lash, ho'ng-rab (o'pkası to'lib) yig'lash, bo'zlash.

wail² [weɪl] *v* 1. ulımoq, uvlamoq; uvıllamoq, ingramoq, voy-voylamoq; 2. aza tutıb yig'lamoq, ko'z yoshi to'kmoq, oh-voh (oh-zor) qilmoq, zorlanmoq, nola (fig'on) qilmoq; 3. (~ **over, about**) noli-moq, zorlanmoq, hasrat (shıkoyat) qilmoq.

waist [weɪst] *n* 1. bel; 2. lif, korsajı.

waistcoat [ˈweɪskəʊt] *n* nimcha, jiletka.

waistline [ˈweɪstlaɪn] *n* bel chızıg'i, ko'ylakning belı.

wait¹ [weɪt] *n* 1. kutısh, muntazır bo'lish, umıd qilısh, umıdvor bo'lish; 2. pistırma; **to lie in ~ for** pistırmada poylab o'tırmoq (yotmoq).

wait² [weɪt] *v* 1. (~ **for**) kutmoq, muntazır bo'lmoq, poylamoq, umıd qilımoq, ko'z tutmoq, intızor bo'lmoq; 2. kutıb turmoq, poylamoq, pistırmada turıb kuzatmoq.

waiter [ˈweɪtə] *n* ofıtsiant.

waiting¹ [ˈweɪtɪŋ] *n* kutısh, muntazır bo'lish, umıd qilısh, umıdvor bo'lish.

waiting² [ˈweɪtɪŋ] *a* 1. kutayotgan, ko'z tutgan, umıd qilgan, umıdvor; 2. payt poylaydıgan, fursat kutadıgan, poylovchi, kutuvchi.

waiting list [ˈweɪtɪŋlɪst] *n* navhatda turganlar ro'yxatı; bıror narsaga navbat; **on a ~** ro'yxatda, bıror narsaga navbatda.

waiting room [ˈweɪtɪŋru:m] *n* 1. (shıfokorning) qabulxonası; 2. (vokzalda) kutısh zalı.

waitress [ˈweɪtrəs] *n* ofıtsiantka.

waive [weɪv] *v* 1. (huquq, talabdan) voz kechmoq, kechmoq, bahrıdan o'tmoq; 2. (bıror narsadan) o'zını tiymoq, saqlanmoq.

waiver [ˈweɪvə] *n* 1. (huquq, e'tiroz, da'vodan) voz kechısh, rad qilısh; 2. rad qilganlık (voz kechganlık) haqidagi hujjat; **to sign a ~** voz kechısh haqidagi hujjatga imzo chekmoq.

wake¹ [weɪk] *n* 1. (she'riyatda) bedorlık, uxlamaslık, sergaklık, hushyorlık; 2. *din.* bayram arafasıdagi tungı ibodat.

wake² [weɪk] *v* (pt **woke**; pp **woken**) **1.** (~ **up**) uygʻonmoq, uyqudan turmoq; **2.** uygʻotmoq, uygʻotib oʻrnidan turgʻizmoq; **3.** oʻziga (hushiga) kelmoq, es-hushini yigʻib olmoq, hushyor tortmoq.

wakeful [ˈweɪkfl] *a* **1.** bedor qiladigan, uygʻoq qoldiradigan; **2.** uyqusiz, uyqu yoʻq (qochgan), bedor; ~ **night** uyqusiz tun, bedor oʻtgan tun.

waken [ˈweɪkən] *v* **1.** uygʻotmoq, uygʻonmoq, uyqudan tur(gʻiz)moq; **2.** koʻtarmoq, qoʻzgʻamoq, boshlamoq, avj oldirmoq, alanga oldirmoq.

walk¹ [wɔːk] *n* **1.** (piyoda) yurish; **2.** piyoda sayr qilish; **to go for à** ~ bir oz sayr qilgani bormoq, sayrga chiqmoq; **to take a** ~ sayr qilmoq, aylanib (oʻynab, tomosha qilib) yurmoq; **3.** qadam.

walk² [wɔːk] *v* **1.** yurmoq, piyoda (yayov) bormoq; **2.** aylanib (kezib) chiqmoq; **to ~ through** piyoda kezib chiqmoq, aylanib chiqmoq; **3.** (hayvon haqida) olib chiqmoq, sayr qildirmoq; **to ~ a dog** itni sayrga olib chiqmoq, it bilan sayr qilmoq.

walk around [ˈwɔːkəraʊnd] *phr.v* aylanib (sandiroqlab) yurmoq, kezmoq, tentiramoq, izgʻimoq.

walk away [ˈwɔːkəweɪ] *phr.v* **1.** (~ **from**) oʻzib ketmoq, orqada qoldirmoq; osongina yengmoq; **2.** (~ **with**) oʻgʻirlamoq, oʻgʻirlab ketmoq, urib ketmoq.

walk into [ˈwɔːkɪntə] *phr.v* (noxush vaziyat, pistirmaga) tushmoq, tushib qolmoq; **to ~ a trap** tuzoqqa tushmoq.

walk off [ˈwɔːkɒf] *phr.v* ketmoq; biror narsadan nari ketmoq, uzoqlashmoq, chetga (nariga) surilmoq, chetlashmoq.

walk on [ˈwɔːkɒn] *phr.v* **1.** olgʻa yurmoq (qadam tashlamoq); **2.** borishni *yoki* yurishni davom ettirmoq.

walk out [ˈwɔːkaʊt] *phr.v* **1.** biror kimsa bilan ulfatlashib yurmoq, biror kimsa bilan sayr qilmoq (~ **with**); **2.** ish tashlamoq, zabastovka qilmoq.

walk over [ˈwɔːkəʊvə] *phr.v* **1.** biror narsadan hatlab oʻtmoq, hatlamoq; **2.** yengil gʻalaba qozonmoq; **3.** (biror kimsaning hissiyotlari va sh.k. ni) toptamoq, poymol qilmoq, oyoqosti qilmoq.

walk up [ˈwɔːkʌp] *phr.v* **1.** koʻtarilmoq, yuqoriga chiqmoq; **2.** yaqinlashmoq, yaqiniga (oldiga) kelmoq (bormoq).

walking¹ [ˈwɔːkɪŋ] *n* **1.** (piyoda) yurish; **2.** yurish, qadam tashlash, oyoq olish; **3.** (piyoda yurishga moʻljallangan) yoʻl.

walking² [ˈwɔːkɪŋ] *a* **1.** sayr-tomosha qilib yurgan, aylanib yurgan, piyoda yurgan; **2.** yuradigan, yura oladigan.

walking stick [ˈwɔːkɪŋstɪk] *n* hassa.

wall¹ [wɔːl] *n* **1.** devor; **2.** shahar himoya devorlari; toʻsiq, gʻov; **3.** muhofaza, himoya (devori).

wall² [wɔːl] *a* devoriy, devorga oʻrnatiladigan, devorga ishlangan.

wall³ [wɔːl] *v* **1.** devor bilan oʻrab olmoq; **2.** (~ **off**) toʻsiq va sh.k. bilan toʻsimoq; **3.** (~ **up**) bekitmoq, bekitib tashlamoq.

wall bars [ˈwɔːlbɑːz] *n sport.* gimnastik stenka, narvon devor.

wall-chart [ˈwɔːltʃɑːt] *n* diagramma, grafik, jadval.

wallet [ˈwɒlɪt] *n* karmon, hamyon.

wallop¹ [ˈwɒləp] *n* **1.** kuchli zarba; **2.** shovqin, gumburlash, gumbur-gumbur ovoz; **with a** ~ shovqin solib, gumburlab.

wallop² [ˈwɒləp] *v* **1.** kuchli zarba bermoq, urmoq, kaltaklamoq, doʻpposlamoq; **2.** (dushmani) yer bilan yakson qilmoq, tor-mor keltirmoq.

wallpaper [ˈwɔːlpeɪpə] *n* gulqogʻoz.

wall-to-wall [wɔːl-təwɔːl] *a* polni toʻliq qoplaydigan; ~ **carpet** polni toʻliq qoplaydigan gilam.

walnut [ˈwɔːlnʌt] *n* **1.** bot. yongʻoq (daxraxti va mevasi); **2.** qizgʻish-malla rang.

walrus [ˈwɔːlrʌs] *n zool.* morj.

waltz¹ [wɔːls] *n* vals (mayin raqs turi va shu usulda yozilgan musiqa asari).

waltz² [wɔ:ls] *v* **1.** valsga tushmoq, valsga tushib gir-gir aylanmoq; **2.** (xur-sandchilik, hayajondan) gir-gir aylanmoq, raqsga tushgandek harakat qilmoq.

wander [ˈwɒndə] *v* **1.** (maqsadsiz) aylanib (sandroqlab) yurmoq, kezmoq, tentiramoq, izgʻimoq; **2.** fikrni jamlay olmaslik; idrokini yoʻqotmoq; **3.** adashib qolmoq, adashmoq, yoʻlini yoʻqotib qoʻymoq; **4.** (mavzudan) chetga chiqmoq, chalgʻimoq, boshqa tomonga oʻtib ketmoq.

wanderer [ˈwɒndərə] *n* sayohatchi, sayyoh, darbadar (yurtma-yurt) kezuvchi, daydi, darbadar.

wane¹ [wem] *n* **1.** *astr.* (Oyning) kichrayishi, kamayishi; **2.** kamayish, ozayish, pasayish, tushish; inqiroz, tanazzul.

wane² [weɪn] *v* **1.** (Oy haqida) kamaymoq, ozaymoq, oxirgi fazada (davrda, pallada) boʻlmoq; **2.** zaiflashmoq, kuchsizlanmoq; pasaymoq, pasayib ketmoq.

want¹ [wɒnt] *n* **1.** yetishmaslik, kamlik, yetishmovchilik, yoʻqchilik, yoʻqlik; **2.** muhtojlik, kambagʻallik, qashshoqlik, bechorachilik, nochorlik; **3.** (-s) ehtiyojlar, talablar, zaruratlar.

want² [wɒnt] *v* **1.** xohlamoq, istamoq, tilamoq, orzu qilmoq; **to ~ to be** boʻlishni xohlamoq; **2.** muhtojlik sezmoq, yetishmaslik; **3.** ehtiyoj sezmoq, muhtoj boʻlmoq; **4.** talab qilmoq, chaqir(tir)moq; **5.** kerak (zarur, lozim) boʻlmoq; talab qilinmoq; **6.** qidir(il)moq, izla(n)moq, axtar(il)moq.

wanted [ˈwɒntɪd] *a* **1.** politsiya tomonidan izlanayotgan, qidirilayotgan; **2.** talab qilingan, ehtiyoj sezilgan, kerakli, zaruriy.

war¹ [wɔ:] *n* **1.** urush; jangovar harakatlar; **nuclear** ~ yadroviy urush; **cold** ~ „sovuq“ urush; **at ~ with** biror kimsa bilan urush holatida boʻlish; **2.** kurash, olishuv, jang; ~ **against** *desease* kasalliklarga qarshi kurash.

war² [wɔ:] *v* **1.** urushmoq, urush olib bormoq; **2.** (- **with**, **against**) biror kimsa,

narsa bilan (biror kimsa, narsaga qarshi) kurashmoq, kurash olib bormoq.

warble¹ [ˈwɔ:bl] *n* **1.** (bulbul va sh.k. haqida) churullatib sayrash; **2.** (qushlarning) kuylashi, sayrashi; chugʻur-chugʻur.

warble² [ˈwɔ:bl] *v* **1.** churullatib sayramoq; **2.** kuylay (sayray) boshlamoq; **3.** chugʻurlamoq, chugʻur-chugʻur sayramoq.

warcraft [ˈwɔ:kra:ft] *n* **1.** jangovarlik mahorati; harbiy sanʼat; **2.** harbiy samolyot (kema).

war crime [ˈwɔ:kraɪm] *n* harbiy jinoyat.

war criminal [ˈwɔ:kɪmɪnəl] *n* harbiy jinoyatchi.

ward¹ [wɔ:d] *n* **1.** kasalxonada palatasi; kasalxonada *yoki* gospital boʻlimi; **maternity** ~ tugʻruq boʻlimi; **2.** turma (qamoqxona) kamerasi (xonasi); **3.** soqchi, qoʻriqchi, qorovul, poshon, patrul.

ward² [wɔ:d] *v* **1.** kasalxonada palatasiga joylashtirmoq; **2.** saqlamoq, qoʻriqlamoq, himoya (muhofaza, soqchilik) qilmoq.

-**ward** [-wɔd] *suff* (*shuningdek ravish vazifasida* -**wards** [-wɔdz]) *ot va ravishlardan qandaydir* yoʻnalishda, tomonga *maʼnosini anglatuvchi sifat hamda ravishlar yasaydi*; **backward** orqaga, orqa tomonga; **homeward** uyga, uy tomonga (boruvchi); **inward** ichkariga, ichkari tomonga; **westward** gʻarbga, gʻarb tomonga.

war dance [ˈwɔ:da:ns] *n* harbiycha raqs; jangchilarning yurish *yoki* gʻalabani nishonlashdan oldingi oʻyini, raqsi.

warden [ˈwɔ:dn] *n* **1.** nazoratchi, nazorat qiluvchi, nozir; (muzeyni) saqlovchi, asrovchi, qoʻriqlovchi; **2.** (maktabda) direktor; (kollejda) rektor; dekan; **3.** *AE* turma (qamoqxona) boshligʻi.

warder [ˈwɔ:də] *n* **1.** turma (qamoqxona) nazoratchisi; **2.** (muzeyni) saqlovchi, qoʻriqlovchi; **3.** soqchi, qarovul, qoʻriqchi.

wardress [ˈwɔ:drəs] *n* (turmada) nozir (nazoratchi) ayol.

wardrobe [ˈwɔ:drəʊb] *n* **1.** garderob,

kiyim shkafi; 2. kiyim-kechak zapasi, garderob, bir kishiga tegishli kiyim-kechak, ust-bosh.

ware [weə] *n* 1. savdo mollari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari; san'at asarlari; hunarmandchilik buyumlari; 2. sopol buyumlar; 3. (-ware) *murakkab so'zlar-ning tarkibiy qismi sifatida* tovarlar, buyumlar *degan ma'nolarni anglatadi*; **glassware** shisha buyumlar; shisha idish; **silverware** kumush idish-tovoq; kumushdan yasalgan buyumlar.

warehouse ['weəhaus] *n* 1. ombor, omborxonona, sklad; 2. ulgurji (ko'tara) savdo do'koni; katta chakana savdo do'koni.

wareroom ['weəru:m, -rʊm] *n* 1. ombor, omborxonona; 2. sotish uchun mollar (tovarlar) qo'yiladigan zal.

wares ['weəz] *n* tovarlar, mollar; ishlab chiqarish mahsulotlari.

warfare ['wɔ:fəə] *n* 1. urush; jangovar harakatlar; urush (jang) olib borish usullari; **to conduct** – jangovar harakatlar olib bormoq; 2. jang, kurash, to'qnashuv, ixtilof, nizo, mojaro.

warily ['weənli] *adv* ehtiyotkorlik bilan, ehtiyot qilib (bo'lib), ketini o'ylab, ehtiyotkorona, ehtiyot shart.

wariness ['weərɪnəs] *n* ehtiyotkorlik, ehtiyot bo'lib (ketini o'ylab) ish tutish.

warlike ['wɔ:lɪk] *a* 1. jangovar; 2. urush bilan bog'langan, urush olovini yoqishga qaratilgan; harbiy; urush...

warm¹ [wɔ:m] *a* 1. iliq, issiq; isigan, iligan; 2. issiqlikni saqlaydigan, issiq, qalin; – **clothes** issiq (qalin) kiyimlar; 3. sidqidildan qilingan, samimiy; **à - welcome** samimiy qabul.

warm² [wɔ:m] *v* 1. (*tez-tez ~ up*) isitmoq, ilitmoq, qizdirmoq; 2. qizimoq, isimoq, ilimoq; isinmoq, isinib olmoq; 3. (*shuningdek ~ up*) ruhlantirmoq, ilhomlantirmoq, g'ayratini oshirmoq; jonlantirmoq, tetiklashtirmoq.

warm up ['wɔ:mʌp] *phr.v* 1. isi(n)moq, ilimoq, qizimoq; isinib olmoq; 2. *sport.* harakat bilan oyoq-qo'l chigilini yozmoq, mashq (harakat) qilib tetiklashmoq, (harakat bilan) badani isimoq.

warm-blooded [wɔ:m'blʌdɪd] *a* 1. *zool.* issiq qonli; 2. (odam haqida) jahli tez, qiziqqon, jizzaki, qizg'in, jo'shqin, yuragida o'ti bor.

warmer ['wɔ:mə] *n* 1. grelka; 2. isitadigan asbob; isitkich, qizitkich.

warm-hearted [wɔ:m'hɑ:tɪd] *a* sidqidildan yaxshilik qiladigan, samimiy, ochiq ko'ngil, mehribon, rahmdil, shafqatli.

warmonger [wɔ:m'ʌŋgə] *n* urush olovini yoquvchi, militarist.

warmth [wɔ:mθ] *n* 1. issiqlik, ilqlik; 2. samimiylik, sidqidillik, samimiyat; biror kimsaga nisbatan iliq munosabat.

warn [wɔ:n] *v* 1. (~ **of**) biror narsa haqida ogohlantirmoq; (~ **against**) ogoh qilmog; 2. (~ **off, away**) biror joyga yaqin kelmaslikka (yaqinlashmaslikka, biror joydan narida turishga) buyruq bermog.

warning ['wɔ:nɪŋ] *n* 1. tanbeh, ogohlantirish; **to give a ~** ogohlantirmog; **let that be a ~ to you** bu siz uchun ogohlantirish bo'lsin; 2. (oldinda turgan biror narsadan) xabar beruvchi, darakchi.

warp¹ [wɔ:p] *n* qiyshayish, qiyshaygan joy, qiyshiq, deformatsiya.

warp² [wɔ:p] *v* qayishmoq, deformatsiyanamoq, shakli o'zgarog, qiyshaymog, qiyshayib ketmog, tob tashlamog.

warpath ['wɔ:pɑ:θ] *n* 1. urush so'qmog'i; 2. dushmanlik harakati; jangovarlik, urushga (urush olovini yoqishga) qaratilganlik; **to be on the ~** urush (kurash, jang) boshlamog.

warped ['wɔ:pt] *a* 1. qiyshaygan, qiyshiq; 2. buzilgan, buzuq, aynigan; buzib ko'rsatilgan, noto'g'ri talqin qilingan.

warrant¹ ['wɔ:rənt] *n* 1. *jur. order* (yozma buyruq, farmon, ruxsat qog'ozi), sud

farmoyishi; **a search** ~ tintuv o'tkazish uchun order; **2.** vakolat, biror ish qilish huquqiga egalik, qonuniy huquqlilik, qonuniy huquqqa (vakolatga) egalik; ~ **of attorney** ishonch qog'ozi, vakolatnoma.

warrant² [ˈwɒrənt] *v* **1.** *yur.* ruxsat (ijozat, izn) bermoq, huquq bermoq; vakolat bermoq; **2.** ishonch bildirmoq; kafilligini olmoq, ishontirmoq, kafolat bermoq; **I'll ~ (you) that...** ishonchim komilki, ...; xotirjam bo'ling, ...; sizni ishontirib aytamanki, ...; **I'll ~ he'll be late** kafolat beramanki, u kechikib keladi.

warranty [ˈwɒrənti] *n* (*pl warranties*) **1.** ruxsat, ijozat, rasmiy ruxsat, sanksiya; **2.** *yur.* garantiya, kafolat, kafillik; **under ~** kafolati bilan (ostida).

warren [ˈwɒrən] *n* quyonlar uchun xona, katalak, quyonxona.

warrior [ˈwɒriə] *n* jangchi, askar, sipoh.

warship [ˈwɔːʃɪp] *n* harbiy kema.

wart [wɔːt] *n* **1.** so'gal, chiqiq; **2.** ortiq; bo'qoq, o'simta (daraxtda), daraxt yelimi.

wartime [ˈwɔːtaɪm] *n* urush davri (vaqti); ~ **conditions** urush davri sharoitlari; **in ~** urush davrida (vaqtida).

wary [ˈweəri] *a* **1.** ehtiyotli, ehtiyotkor, ehtiyot bo'lib (ketini o'ylab) ish qiladigan; **to be ~ of smb., smth.** biror kimsadan yoki narsadan ehtiyot bo'lmoq, uzoq yurmoq, qochmoq, saqlanmoq; **2.** qulog'i ding, hushyor, sergak.

was [wɔː; wəz] *v* „**to be**“ *fe'lining o'tgan zamon 1- va 3- shaxs birlik shakli.*

wash¹ [wɒʃ] *n* **1.** yuvish, yuvinish, bet-qo'lni yuvish; **2.** (**the -**) yuvilgan kirlar; **3.** yuvindi, oshxona chiqitlari.

wash² [wɒʃ] *v* **1.** yuvmoq; yuvib tozalamoq; **2.** kir yuvmoq; **3.** yuv(il)moq, yuv(il)ib ketmoq, yuvilib tozalanmoq; **4.** (to'l-qin haqida) yuvib ketmoq, o'pirib ketmoq.

wash down [ˈwɒʃdaʊn] *phr.v* **1.** (shlang bilan) ustidan suv quymoq; (tizillab otilayotgan suv bilan) yuvib tashlamoq;

2. ustidan ichmoq, ustidan ichib (yutib) yubormoq, bostirib qilmoq.

wash out [ˈwɒʃaʊt] *phr.v* **1.** yuvilmog, yuvilib ketmoq, yuvilib tozalanmoq; **2.** yuvib (oqizib) ketmoq, o'pirib yubormog.

wash up [ˈwɒʃʌp] *phr.v* **1.** idish-tovoqni yuvmoq; **2.** *AE* yuvinmoq, yuvinib olmoq, bet-qo'lni yuvmoq.

washable [ˈwɒʃəbl] *a* yuviladigan, kirini yuvsa bo'ladigan.

washbasin [ˈwɒʃbeɪsɪn] *n* *AE* yuvinish tosi; yuvinish rakovinasini.

washed-out [ˈwɒʃraʊt] *a* **1.** rangi o'chgan, oqargan, o'ngib ketgan; **2.** charchagan, horgan, darmoni qurigan, bemador, kuchdan qolgan, sillasi qurigan.

washer [ˈwɒʃə] *n* **1.** yuvadigan mashina; yuvuvchi; **2.** *AE* kir yuvish mashinasi.

washhouse [ˈwɒʃhaʊs] *n* **1.** kirxona, kir yuvish ishxonasi; **2.** dushxona, hammom.

washing¹ [ˈwɒʃɪŋ] *n* **1.** yuvish, yuvinish; **2.** (yuvish uchun yoki yuvilgan) kirlar.

washing² [ˈwɒʃɪŋ] *a* **1.** yuviladigan, kirini yuvsa bo'ladigan; **2.** yuvadigan, yuvish..., kir yuvadigan, kir yuvish...

washing machine [ˈwɒʃɪŋməʃiːn] *n* kir yuvish mashinasi.

washing powder [ˈwɒʃɪŋpaʊdə] *n* kir yuvadigan kukun.

washing-up [ˈwɒʃɪŋʌp] *n* (ovqatlan-gandan so'ng) idish-tovoqni yuvish; **to do the ~** idish-tovoqni yuvmoq.

washout [ˈwɒʃaʊt] *n* yuvish, yuvib tozalash; chayqash, chayib tashlash.

washroom [ˈwɒʃru:m; ˈwɒʃrʊm] *n* **1.** bet-qo'l yuvadigan xona; yuvinish xonasi; **2.** *AE* hojatxona, xalajoy.

washstand [ˈwɒʃstænd] *n* umivalnik, bet-qo'l yuvgich.

wasn't [ˈwɒznt] „**was not**“ *ning qisqartmasi.*

wasp [wɒsp] *n* *zool.* ari.

wastage [ˈweɪstɪdʒ] *n* zarar, ziyon; talofot, nobudgarchilik.

waste¹ [weɪst] *n* **1.** bekor, behuda ketkizish, behuda, o'rinsiz sarf qilish; ~ **of time** vaqtni bekorga o'tkazish; **2.** axlat, chiqit, chiqindi.

waste² [weɪst] *a* **1.** (yer haqida) bo'sh, cho'lga o'xshagan, kamhosil, oriq; **2.** ortiqcha, keraksiz; o'rinsiz, behuda, bekor, bekor (zoye) ketgan, esiz; **3. tex.** ishlatilgan, ishlatilib bo'lgan, ishdan chiqqan.

waste³ [weɪst] *v* **1.** sovurmoq, isrof qilmoq, o'rinsiz sarf qilmoq, nes-nobud qilmoq; (pulni) bekorga sarflamoq; (vaqtni) yo'qotmoq; **2.** bitmoq, tugamoq, sop (tamom) bo'lmoq, ado bo'lmoq; **to ~ away** so'lmoq, qurimoq, sekin-asta o'lmoq.

wasted [weɪstɪd] *a* **1.** vayronaga (xarobazorga) aylangan, xarob bo'lgan; **2.** (sog'lik haqida) zaiflashgan, kuchizlangan, zarar yetgan; **3.** bekor, behuda ketkazilgan, behuda, o'rinsiz sarf qilingan.

wasteful [weɪstfʊl] *a* **1.** isrofgar, nobudgar, behuda sarf qiluvchi, sovurib yuboruvchi, tejab-tergashni bilmaydigan; **2.** (urush va sh.k. haqida) xarob (vayron) qiladigan, qirg'in keltiradigan.

wasteland [weɪstlənd] *n* axlatxona, axlattepa.

wastepaper [weɪstpeɪpə] *n* makulatura (chiqindi, qiyqim-siyqim qog'oz), keraksiz, qog'oz; kanselariya chiqindisi.

wastepaper basket [weɪstpeɪpəˌbɑːskɪt] *n* keraksiz qog'ozlar tashlanadigan kanselariya chelagi.

wastepipe [weɪstpaɪp] *n* suv chiqarib yuboriladigan (suvni qochiradigan) truba.

wastewater [weɪstwɔːtə] *n* oqindi suvlar, oqova suvlar.

wasting [weɪstɪŋ] *a* **1.** (urush va sh.k. haqida) xarob (vayron) qiladigan, qirg'in keltiradigan; **2.** (kasallik haqida) tinkamadorni quritadigan, kuch-quvvatni oladigan, holdan toydiradigan.

watch **I** [wɒtʃ] *n* (qo'l, cho'ntak) soat.

watch **II**¹ [wɒtʃ] *n* **1.** kuzatuv, nazorat,

nazorat qilish, qarab turish; **2.** qorovul(lar), soqchi(lar), qo'riqchi(lar), navbatchi(lar); **3.** vaxta (navbatchilik, posbonlik, soqchilik); vaxta guruhi; **to keep ~ vaxtada** turmoq, navbatchilik qilmoq.

watch **II**² [wɒtʃ] *v* **1.** diqqat bilan qaramoq, kuzatmoq, kuzatib hormoq, qarab (tomosha qilib) turmoq; **to ~ television** televizor ko'rmoq; **2.** kutib turmoq, poylamoq; yashirin (turgan holda) kutmoq, pistirmada turib kuzatmoq; **3.** kimgadir qarab (ko'z-quloq bo'lib) turmoq, qaramoq; **4.** ogoh bo'lib turmoq, ehtiyot bo'lmoq (*shuningdek ~ out*); ~ **out!**, ~ **it!**; ehtiyot (ogoh) bo'ling!, ko'zingizga qarang!

watchdog [wɒtʃdɒg] *n* **1.** soqchi it; **2.** kuzatuvchi, nazoratchi; qo'riqchi.

watchful [wɒtʃfʊl] *a* **1.** diqqatli, e'tiborli, ziyrak, kuzatuvchan; **2.** qulog'i ding, hushyor, sergak; ehtiyotli, ehtiyotkor.

watching [wɒtʃɪŋ] *n* kuzatish, kuzatib borish, nazorat, nazorat qilish, qarab turish.

watchmaker [wɒtʃˌmeɪkə] *n* soatsoz, soat ishi ustasi.

watchman [wɒtʃmən] *n* (*pl watchmen* [-men]) qorovul, soqchi, qo'riqchi; vaxtyor; **a night ~** tungi qorovul.

watchword [wɒtʃˌwɜːd] *n* parol (shartlashilgan maxfiy so'z).

water¹ [ˈwɔːtə] *n* **1.** suv; **2.** (*tez-tez waters*) suv maydoni; dengiz, okean; **3.** (*tez-tez waters*) (ma'danli) suvlar; shifobaxsh suv; **4.** organizmdan chiqadigan suyuqliklar (so'lakay, ter, yosh va sh.k.).

water² [ˈwɔːtə] *a* suvga oid, suvdagi, suvli, suv...; dengiz (daryo)ga oid, dengiz..., dengiz (daryo)da bo'ladigan.

water³ [ˈwɔːtə] *v* **1.** ho'llamoq, namlamoq, namiqtirmoq; **2.** suv bermoq (quymoq), sug'ormoq, suv sepmoq; **3.** (ko'zlar haqida) yoshlanmoq, yoshi oqib turmoq; (organizm haqida) suv, nam ajratmoq; **it makes one's mouth ~** bu so'lakayni oqizib yuboradi.

waterbird ['wɔ:təbɜ:d] *n* suv qushi.

water boots ['wɔ:təbu:ts] *n* uzun rezina etik, botqoq etigi, botqoqlikda, to'qay-zorlarda kiyiladigan etik.

waterborne ['wɔ:təbɔ:n] *a* **1.** suvda suzib yurgan, suvda suzib yurgan holda; **2.** suv, dengiz orqali tashiladigan; **3.** (infeksiya haqida) suv vositasida yuqadigan.

water carriage ['wɔ:tə kærɪdʒ] *n* **1.** suv transporti; **2.** kanalizatsiya (axlat, chiqindi va yog'in suvlari oqiziladigan quvurlar sistemasi); kanalizatsiya tarmog'i.

watercolour ['wɔ:təkʌlə] *n* **1.** akvarel (suvda qorilgan bo'yoq bilan ishlangan rasm); **2.** (-s) akvarel (suvda qoriladigan bo'yoq), akvarel bo'yoq.

water control ['wɔ:tə kənt'rɔ:l] *n* suvning sarfini nazorat qilish, tartibga solish.

water-cooled ['wɔ:təku:ld] *a* *tex.* suv yordamida sovutkichli.

water-cooler ['wɔ:təku:lə] *n* **1.** *tex.* suv sovutkich; radiator; **2.** sovuq suv solinadigan termos; suvdon-termos.

watercourse ['wɔ:təkɔ:s] *n* **1.** oqim; daryo; ariq, soy, anhor; kanal; **2.** o'zan, daryo yo'li.

water cycle ['wɔ:təsaɪkl] *n* suv velosipedi.

water economy ['wɔ:təkənəmi] *n* suv xo'jaligi.

waterfall ['wɔ:təfɔ:l] *n* sharshara, shovva, shalola; pog'onali sharshara.

water flood ['wɔ:təflʌd] *n* toshqin, suv bosish; to'fon; suv toshgan joy, ko'lob.

water-furrow ['wɔ:təfɪrəʊ] *n* zovur.

waterglass ['wɔ:təglɑ:s] *n* **1.** suv solinadigan stakan; **2.** shisha guldon.

water heater ['wɔ:təhi:tə] *n* kipyatilnik (suv qaynatadigan asbob).

watering can ['wɔ:təriŋkæn] *n* gulchelak (suv sohadigan jo'mrakli chelak).

waterless ['wɔ:tələs] *a* suvsiz, tarkibida suv yo'q bo'lgan.

waterlocked ['wɔ:təlɒkt] *a* hamma tomoni suv bilan o'ralgan.

waterlog ['wɔ:təlɒg] *v* **1.** suv bostirmoq, suv toshirmoq; (kema va sh.k. larni) suvga cho'ktirmoq, g'arq qilmoq; **2.** hotqoqlikka aylantirmoq; botqoqlikka aylantirib (yoki botqoq qilib) yubormoq.

waterlogged ['wɔ:təlɒgd] *a* **1.** suv boshgan, suv bilan to'la; **2.** botqoqlangan, botqoq bo'lib ketgan, zaxkash.

water management ['wɔ:tə mænɪdʒmənt] *n* **1.** suv resurslaridan foydalanish; suvdan oqilona foydalanish; **2.** suv xo'jaligi.

watermelon ['wɔ:təmelən] *n* bot. tarvuz.

water meter ['wɔ:təmi:tə] *n* vodomer, suv o'lchagich (suv sarfini o'lchaydigan asbob).

water mill ['wɔ:təmil] *n* **1.** suv tegirmo-ni; **2.** suv chiqaradigan g'ildirak (parrak).

water pipe ['wɔ:təpaɪp] *n* **1.** vodoprovod trubasi, quvuri; **2.** chilim.

water plane ['wɔ:təpleɪn] *n* gidrosamolyot.

water plant ['wɔ:təplɑ:nt] *n* suv o'ti.

water polo ['wɔ:təpəuləʊ] *n* sport. suv polosi, vaterpolo (suvda to'p o'yini).

waterpot ['wɔ:təpɒt] *n* **1.** suv solinadigan (sopol) idish; **2.** gulchelak (suv sohadigan jo'mrakli chelak).

water power ['wɔ:təpaʊə] *n* suv energiyasi, gidroenergiya.

waterpox ['wɔ:təpɒks] *n* tib. suvchechak.

waterproof ['wɔ:təpru:f] *n* **1.** suv o'tmaydigan (o'tkazmaydigan) plashch; **2.** suv o'tmaydigan (yuqmaydigan) mato.

waterproof ['wɔ:təpru:f] *a* suv o'tmaydigan (yuqmaydigan); suvga chidamli, suv ta'sir qilmaydigan; suvbardosh.

water ratio ['wɔ:təreɪʃiəʊ] *n* (foiz hisobida) suv tarkibi.

water-repellent ['wɔ:təreɪpelənt] *a* **1.** suv yuqmaydigan (mato va sh.k. haqida); **2.** (modda haqida) suv bilan birik (qo'shil)maydigan; suv yuqtirmaydigan, gidrofob.

water resistance ['wɔ:təreɪzɪstəns] *n*

W

suvga chidamlilik, suv ta'sir qilmaslik; suvbardosh, nam o'tkazmaslik (o'tmaslik).

water-retaining ['wɔ:təri:teɪnɪŋ] *a* suv saqlab turadigan; gidrofil.

waterside¹ ['wɔ:təsaid] *n* **1.** suvga qaragan taraf; **2.** (**the ~**) qirg'oq, sohil.

waterside² ['wɔ:təsaid] *a* **1.** qirg'oqqa, sohilga oid; qirg'oq...; sohil bo'yidagi; **2.** (ishchi va sh.k. haqida) portdagi, port...

water-ski ['wɔ:təski:] *n* suv chang'isi.

water skiing ['wɔ:təski:ɪŋ] *n* suv chang'isi sporti; **to go ~** suv chang'isida uchmoq, suv chang'isi sporti bilan shug'ullanmoq.

water sprayer ['wɔ:təsprɛɪə] *n* suv-purkagich.

water supply ['wɔ:tə səplai] *n* **1.** suv bilan ta'minlash, suv ta'minoti; **2.** suv resurslari (boylıkları).

water tank ['wɔ:tətæŋk] *n* **1.** rezervuar (suyuqlik saqlanadigan katta idish); **2.** suv solinadigan bak; **3.** suv sistemasi.

watertights ['wɔ:tətait] *n* suv o'tkazmas (nam tortmaydigan) rezina etiklar.

waterweed ['wɔ:təwi:d] *n* suv o'ti.

waterwheel ['wɔ:təwi:l] *n* suv g'ildiragi, charxpalak.

watery ['wɔ:təri] *a* **1.** suvi ko'p, sersuv, suyuq; **2.** rangsiz, oqargan, bo'zargan, rangpar; **à ~ yellow** och-sariq; **3.** yomg'ir yog'ishdan darak beradigan (bulut haqida); **4.** nam, ho'l, ivigan, nam tortgan.

watt [wɒt] *n* *el.* vatt (elektr quvvati o'lchov birligi).

watt-hour ['wɒtʃaʊə] *n* *el.* vatt-soat.

wattmeter ['wɒtmi:tə] *n* *el.* vattmetr (elektr toki quvvatini o'lchaydigan asbob).

wave¹ [weɪv] *n* **1.** to'lqin, po'rtana, baland to'lqin, dolg'a, mavj; **2.** silkitish, qoqish; **à ~ of the hand** qo'l silkitish, siltash; **3.** to'lqinsimonlik, to'lqinga o'xshashlik; **natural** -s jingalak sochlar; **4.** *fiz.* to'lqin; tebranish, tebranma harakat; **radio** -s radioto'lqinlar.

wave² [weɪv] *v* **1.** silkitmoq, qoqmoq, goh u tomon, goh bu tomon silkitmoq, o'ynatmoq; **2.** chayqalmoq, tebranmoq, hilpiramoq, pirpiramoq; **3.** (sochni) jingalak (gajak) qilmoq; (soch haqida) jingalaklanmoq, jingalak (gajak) ho'lmoq.

wave aside ['weɪvə'saɪd] *phr.* *v* **1.** biror narsaga qo'l siltamoq, qo'l siltab e'tiborsizlik bildirmoq; **2.** (taklifni) rad qilmoq, qaytarmoq, qabul qilmaslik.

waveband ['weɪvhænd] *n* (radioda) chastotalar diapazoni.

waved [weɪvd] *a* (chiziq, soch haqida) to'lqinsimon, egri-bugri, jingalak.

wavelength ['weɪvlɛŋθ] *n* *fiz.* to'lqin uzunligi.

waveless ['weɪvləs] *a* tekis, silliq (suv yuzasi haqida); tinch, sokin, to'lqinsiz.

waver ['weɪvə] *v* **1.** (alanga, sharpa haqida) chayqalmoq, hilpiramoq; (ovoz haqida) titramoq, qaltiramoq, tebranmoq; **2.** ikkilanmoq, qat'iyatsizlik qilmoq.

wavy ['weɪvi] *a* **1.** to'lqinsimon, to'lqinga o'xshash (o'xshagan); **2.** (soch haqida) jingalak; **3.** (dengiz haqida) to'lqinli, to'lqinlanib turgan, ayqirgan.

wax I¹ [wæks] *n* **1.** (asalari) mum; **2.** parafin (asosan neftdan olinadigan mumsimon mahsulot); **3.** maz, malham dori.

wax I² [wæks] *a* mumga oid, mumdan qilingan, mum...; mumlangan.

waxy ['wæksi] *a* **1.** mumga o'xshash, mumsimon; **2.** muloyim, yumshoq, bo'sh; gapga kiradigan (ko'nadigan), ko'ngli bo'sh, ko'ngilchan.

waxworks ['wækswɜ:k] *n* mumdan yasalgan figuralar galeriyasi (muzeyi).

way [weɪ] *n* **1.** yo'l; **à ~ out** chiqish yo'li; **get out of my ~** yo'lni bo'shat!, yo'ldan chetga chiq!; **to stand in one's ~** xalaqit bermoq, xalal bermoq; **to be on the ~** jo'nab (chiqib) ketmoq, yo'lga chiqmoq, yo'l olmoq; **on the ~ home** uyga ketayotganda; **2.** tomon, taraf, yoq, yo'nalish;

this -, please marhamat, bu yoqqa; **3.** masofa, oraliq; **a long ~ from home** vandan, uydan uzoqda (yiroqda); **4.** usul, yo'l, yo'sin, tariqa, tarz; (muomala, axloq) tarzi; **~ of life** hayot (turmush) tarzi; **in this** ~ shu yo'sinda, shu tariqa; **5.** imkoniyat, yo'l, vosita; **to find a - to do smth.** biror narsa qilish yo'lini, imkoniyatini topmoq; **in one's** - o'zicha, o'z bilganicha, o'ziga xos; **by the** - aytgan-cha, darvoqe, aytmoqchi, aytganday.

-ways [-weiz] *suff vaziyat, yo'nalish, harakat tarzini ifodalovchi ravishlarda uchraydi.* **longways** uzunasiga, bo'y-lamasiga; **breadthways** eniga, eniga qarab; **sideways** yondan, yon tomondan.

wayside¹ ['weisaɪd] *n* yo'l cheti, yo'l yoqasi; yo'l yoqasidagi chiziq.

wayside² ['weisaɪd] *a* yo'l bo'yidagi, yo'l ustidagi, yo'l yonidagi, yo'lga yaqin joydagi; **~ inn** yo'l ustidagi mehmon-xona; **~ trees** xiyobon; yo'l yoqasi bo'y-lab ekilgan daraxtlar.

we [wi:] *pron* biz.

weak [wi:k] *a* **1.** kuchsiz, bo'sh; zaif, oqiz, darmonsiz; mo'rt, sinuvchan, nozik, nimjon; **2.** (fe'l-atvor haqida) irodasi yo'q (bo'sh), irodasiz; jur'atsiz, qat'iyatsiz; **3.** ishonarli bo'lmagan, ishontira olmaydigan, uncha ishonchli emas; **4.** suyuq, suvli, sersuv; kuchsiz.

weaken [wi:kən] *v* **1.** kuch-quvvatdan qoldirmoq, zaiflashtirmoq, darmonsizlantirmoq, holsizlantirmoq; samarasdorlikni pasaytirmoq; **2.** kuchsizlanmoq, bo'shahmoq, kuchsiz bo'lib qolmoq; **3.** (narx, kurs haqida) pasaymoq, tushmoq.

weakening [wi:kəniŋ] *a* **1.** kuch-quvvatdan qoldiradigan, zaiflashtiradigan, darmonsizlantiradigan, holsizlantiradigan; **2.** kuchsizlanadigan, susayadigan, pasaya boshlaydigan.

weaking [wi:kliŋ] *n* irodasi sust odam, bo'shang (lapashang) odam, latta.

weakness [wi:kənəs] *n* **1.** kuchsiz (zaif) tomon, kamchilik, nuqson; kuchsizlik, zaiflik, oqizlik; mo'rtlik, sinuvchanlik; **2.** zaif joy, kamchilik, nuqson; **3.** (- for) (biror narsaga) o'chlik, berilganlik; yaxshi ko'rish, ishqibozlik.

wealth [welθ] *n* **1.** boylik, mol-mulk, dunyo, davlat; **2.** (- of) mo'llik, ko'plik, seroblik, to'kin-sochinlik, baraka.

wealthy ['welθi] *a* **1.** boy, badavlat, davlatmand; farovon; **2.** (- in) (biror narsaga) mo'l, mo'l-ko'l, serob, to'kin-sochin.

weapon ['wepən] *n* qurol, yarog', aslaha, jang qilish vositasi; **nuclear** ~ yadroviy qurol; **2.** qurol, vosita, dastak.

weaponry ['wepənri] *n* *harb.* qurol-yarog', yarog'-aslaha; qurol-yarog' ta'minoti, qurol-yarog' bilan ta'minlanganlik.

wear¹ [weə] *n* **1.** kiyinish, (kiyim) kiyish; **2.** yeyilish, yeyilib ketish, siyqalanish, eskirish, to'zish; **~ and tear** *iq.* kamomad, kamaygan qism; eskirish; **3.** kiyim, ust-hosh, ko'yalak; **4.** (-wear) *murakkab so'zlarning tarkibiy qismi sifatida* kiyim; **footwear** oyoq kiyim; **underwear** ich kiyim; **knitwear** trikotaj.

wear² [weə] *v* (pt wore; pp worn) **1.** kiymoq, kiyib yurmoq, taqib (osib, ilib) yurmoq; biror narsa bilan keyingan bo'lmoq; **2.** biror ko'rinishda bo'lmoq; biror ko'rinishga ega bo'lmoq; **to - a smile** kulmoq, jilmaymoq; **3.** eskirmoq, yirt(il)-moq, ko'p ishlatil(li)b ishdan chiq(ar)moq.

wear down ['weədaʊn] *phr.v* **1.** bardosh bilan yengmoq, yengib chiqmoq, ustun (g'olib) kelmoq; **to - opposition** qarshilikni yengmoq; **2.** eskirmoq, yirtilmoq, to'zmoq, ko'p ishlatilib ishdan chiqmoq.

wear off ['weəɒf] *phr.v* **1.** yo'q qilmoq, yo'qotmoq; **2.** o'tib ketmoq, to'xtamoq, bosilmoq, yozilmoq (og'riq, qayg'u haqida).

wear on ['weəɒn] *phr.v* **1.** sekin cho'zilmoq (vaqt haqida); **2.** achchig'ini (jahlini) chiqarmoq, asabga o'ynamoq.

wear out ['weəraʊt] *phr. v* **1.** eskir(tir)moq, yirt(il)moq, ko'p ishlati(li)b ishdan chiq(ar)moq; **2.** (sabr haqida) tugamoq, toq bo'lmoq; **3.** qattiq charchatmoq, tin-kamadorni quritmoq, holdan toydirmoq.

wearily ['wɛəri] *adv* **1.** charchatadigan holatda; zerikarli qilib, diqqatni oshirib, jonga tegib; **2.** charchab, toliqib.

weariness ['wɛərɪnəs] *n* charchaganlik, toliqqanlik, charchoq; zerikkanlik.

wearing¹ ['wɛəriŋ] *n* **1.** kiyish; kiyib (osib, taqib, olib) yurish; **2.** kiyim, ust-bosh, kiyim-kechak; **3.** yeyilish, yeyilib ketish, siyqalanish, eskirish, to'zish.

wearing² ['wɛəriŋ] *a* **1.** kiyish (taqish) uchun mo'ljalangan; **2.** qattiq (rosa) charchatadigan, holdan toydiradigan, tinkasini quritadigan; **3.** zerikarli, kishini zeriktiradigan, ziq (diqqat) qiladigan.

wearisome ['wɛərɪsəm] *a* zerikarli, kishini zeriktiradigan, ziq (diqqat) qiladigan; jonga tegadigan, bezor qiladigan.

weary¹ ['wɛəri] *a* **1.** charchagan, horgan, toliqqan, horg'in; **2.** zerikib diqqat bo'lgan (diqqati oshgan); **3.** charchatadigan, jonga tegadigan, bezor qiladigan.

weary² ['wɛəri] *v* **1.** toliq(tir)moq, charcha(t)moq, charchab qolmoq, charchatib qo'ymoq; **2.** (~ **for**) sog'inmoq, qo'msammoq; **3.** (~ **of**) sabri tugamoq, toqati toq bo'lmoq, sabr kosasi to'lmoq.

weather¹ ['wɛðə] *n* ob-havo, havo; **in all** -s har qanday ob-havoda.

weather² ['wɛðə] *a* **1.** ob-havoga oid (taalluqli); ob-havo...; **2.** meteorologik, meteorologiya...; sinoptikaga (ob-havoga) oid; sinoptik... .

weather-beaten ['wɛðəbi:tɪn] *a* **1.** po'r-tana, bo'ron, buzuq havodan shikastlangan; **2.** oftobda qoraygan; shamol yalagan, shamoldan qovjiragan.

weather forecast ['wɛðəfə:kɑ:st] *n* ob-havo ma'lumoti.

weatherman ['wɛðəmən] *n* (*pl* **weather-**

men [-men]) meteorolog, meteorologiya olimi, mutaxassis.

weave I¹ [wi:v] *n* to'qish yoki to'qilish usuli; (matodagi) naqsh, hezak, gul, rasm.

weave I² [wi:v] *v* (*pt* **wove** yoki *3-ma'noda* **weaved**; *pp* **woven** yoki *3-ma'noda* **weaved**) **1.** to'qimoq; o'rmoq, birga qo'shib to'qimoq; **2.** (bo'lmagan gapni) o'ylab chiqarmoq, uydirmoq, to'qib-chatmoq; **3.** hilanglab (*egri-bugri*, *ilon izi* yo'ldan) yurmoq, goh u yoqqa, goh bu yoqqa burilmoq; **to** - **one's way through a crowd** olomon orasidan yorib o'tmoq.

weave II [wi:v] *v* **1.** chayqalmoq, silkinmoq, tebranmoq; tebrana boshlamoq, tebranib ketmoq; **2.** silkitmoq, qoqmoq; (*bayroq bilan*) signal, ishora bermoq.

weaver ['wi:və] *n* to'quvchi, to'qimachi.

web [web] *n* **1.** o'rgimchak uyasi (*ini*) va uning har bir tolasi; *ko'ch.* girdob; **ā** ~ **of deceit** yol'on-yashiqqlar girdobi; **2.** *zool.* parda (*yupqa parda*); **3.** radio yoki television stansiyalar, temir yo'llar va sh.k. larning tarmog'i.

webbed [webd] *a* **1.** *zool.* pardasi bor, pardali; tutashpanjali (*qush haqida*); **2.** o'rgimchak uyasi bilan tortib bog'langan.

website ['websaɪt] *n* veb sahifa.

wedding ['wedɪŋ] *n* **1.** uylanish, nikoh ahdi; to'y, nikoh to'yi; **2.** nikoh to'yining yillik marosimi; **3.** ulanish, bog'lanish, birikish; qo'shilish; ~ **day** nikoh (to'y) kuni; ~ **dress** nikoh libosi; ~ **ring** nikoh uzugi.

wedge¹ [wedʒ] *n* **1.** pona; **2.** ponaga o'xshash narsa; **ā** - **of cheese** (uchburchak shaklidagi) bir bo'lak pishloq.

wedge² [wedʒ] *v* **1.** pona qoqib mahkamlamoq (*shuningdek* - **in**, - **on**, - **up**); **2.** pona bilan yormoq, pona qoqib yormoq (*shuningdek* - **apart**, - **open**); **3.** (biror joyga) suqilib (*yorib*) kirmoq.

wedged [wedʒd] *a* **1.** ponasimon, ponaga o'xshash; **2.** biror narsa orasiga qisib (*siqib*) qo'yilgan.

wedge-shaped ['wedʒʃeɪpt] *a* ponasi-mon, ponaga o'xshash.

Wednesday ['wenzdeɪ; 'wenzdi] *n* chorshanba; **on** - chorshanba kuni, chorshanba kunida.

Wednesdays ['wenzdeɪz; 'wenzdiz] *adv* chorshanba kunlari(da).

wee [wi:] *a* (shotlandcha so'z) juda kichkina, kichkinagina, zig'rday, jajjigina; **ā** - **child** kichkina bola, kichkintoy.

weed¹ [wi:d] *n* 1. begona (yovvoyi) o't; 2. suv o'ti (o'simligi).

weed² [wi:d] *v* 1. o'tamoq, o'toq qilmoq; o'tab chiqarmoq; begona (yovvoyi) o'tlarni yulib tashlamoq, yo'q qilmoq (*shuningdek* ~ **away**, ~ **out**); 2. tozalamoq, qutqarmoq, xalos (ozod) qilmoq.

weed out ['wi:d'ɑut] *phr.v* qutulmoq, xalos bo'lmoq; yo'qotmoq, yo'q qilmoq.

weedy ['wi:di] *a* 1. begona (yovvoyi) o't bosgan; o't bosgan, begona o'tlar bilan qoplangan (yer haqida); 2. nimjon, kuchsiz, zaif; **ā** - **young man** ozg'in yigit.

week [wi:k] *n* 1. hafta; **in a** ~ bir haftadan so'ng; ~ **by** - har haftada; haftama-hafta; ~ **in**, ~ **out** haftalab, bir necha hafta davomida (surunkasiga); 2. ish haftasi.

weekday ['wi:kdeɪ] *n* oddiy kun, ish kuni, begim kuni.

weekdays ['wi:kdeɪz] *adv* ish kunlari(da).

weekend [wi:k'end] *n* hafta oxiridagi dam olish kunlari.

weekends [wi:k'endz] *adv* haftaning dam olish kunlarida.

weekly¹ ['wi:kli] *n* (*pl* **weeklies**) (gazeta, jurnal haqida) haftanoma, haftalik; haftalik davriy nashr.

weekly² ['wi:kli] *a* 1. haftada bir bo'ladigan; haftalik; 2. bir haftalik, bir hafta ichida bo'lgan, bir haftaga mo'ljallangan.

weekly³ ['wi:kli] *adv* haftada bir marta.

weep¹ [wi:p] *n* 1. yig'i, yig'i-sig'i; yig'lash; ho'ngrab (o'kasi to'lib) yig'lash, bo'zlash; 2. namlik, ho'llik.

weep² [wi:p] *v* (*pt*, *pp* **wept**) 1. yig'lamoq, ko'z yoshi qilmoq; **to** - **for joy** xursandchilikdan yig'lamoq; 2. tomchilar bilan qoplanmoq; telchiramoq.

weeping¹ ['wi:pɪŋ] *n* 1. ko'z yoshi, yig'i, yig'i-sig'i; yig'lash; 2. telchirash, ter (bug') bosish, ter (bug') bilan qoplanish.

weeping² ['wi:pɪŋ] *a* 1. yig'layotgan, yig'i-sig'i qilayotgan; ko'z yoshi to'kayotgan; 2. tomchilar, namlik bilan qoplangan; telchiragan, ter (bug') bosgan.

weepy ['wi:pi] *a* 1. yig'loqi, yig'loq, chakagi ochiq, seryig'i; 2. doim yoshlanib (yoshi oqib) turadigan; yoshlantiradigan, ko'zdan yosh oqizadigan.

weigh [wei] *v* 1. chamalab (taroziga solib) ko'rmoq, (tarozida) tortmoq; 2. muayyan (biror) vaznga ega bo'lmoq; 3. (*shuningdek* ~ **up**) o'ylab ko'rmoq, mulohaza yuritmoq, baho bermoq; chamalab (taroziga solib) ko'rmoq; 4. taqqoslamoq; solishtirmoq; **to** ~ **an argument with (against) another** bir fikrni boshqasi bilan taqqoslab ko'rmoq.

weigh down ['weɪdaʊn] *phr.v* og'irlashtirmoq, vazminlashtirmoq; og'ir (vazmin) qilmoq; bosmoq, og'ir kelmoq.

weigh out ['weɪaʊt] *phr.v* (tarozida) tortmoq, tortib bermoq; tortib (qadoqlab) qo'yimoq, qadoqlamoq.

weight¹ [weɪt] *n* 1. og'irlik, vazn; **to put on** - vazni (og'irligi) oshmoq, semirmoq; **to loose** - vazni (og'irligi) kamaymoq, ozmoq, oriqlamoq; 2. qadoqtosh, tarozi toshi.

weight² [weɪt] *v* 1. og'irlashtirmoq, vazminlashtirmoq; og'irroq (vazminroq) qilib qo'yimoq; 2. (tarozida) tortmoq, og'irlikni aniqlamoq.

weight down ['weɪt'daʊn] *phr.v* 1. yuklamoq, yuk ortmoq; 2. pastga tortmoq; 3. egmoq, egib qo'yimoq, engashtirmoq; 4. og'irlashtirmoq, yuk bo'lib tushmoq.

weightless ['weɪtləs] *a* vaznsiz, vazni (salmog'i, og'irligi) yo'q, qushday yengil.

weightlessness [ˈweɪtləsənəs] *n* vaznsizlik.

weight lifter [ˈweɪtlɪftə] *n sport.* og'ir atletikachi, shtangachi.

weightlifting [ˈweɪtlɪftɪŋ] *n* og'ir atletika.

weighty [ˈweɪtɪ] *a* **1.** ishonchli, asosli, jiddiy; muhim, ahamiyatli, zaruriy; **à ~ argument** ishonchli (asosli) dalil; **2.** og'ir, vazmin, salmoqdor; zalvorli.

weir [wɪə] *n* to'g'on, g'ov; to'silgan (bo'g'ilgan) suv; obpartov, oqova ariq, suv tashlaydigan inshoot.

welcome¹ [ˈwelkəm] *n* **1.** mehmondo'stlik, mehmonnavozlik, ochiq chehra bilan kutib olish; **2.** salomlashish.

welcome² [ˈwelkəm] *à* **1.** istalgan, tilangan; uzoq kutilgan; **2.** hiror narsa qilish, biror narsadan foydalanish huquqi *yoki* ruxsatiga ega bo'lgan; **you are ~ to any book in my library** siz mening kutubxonamdan xohlagan kitobni olishingiz mumkin; **you are ~ minnatdorchilik** bildirishga arzimaydi, marhamat (minnatdorchilikka nisbatan javob).

welcome³ [ˈwelkəm] *v* **1.** (mehmonni) qutlamoq; juda yaxshi (samimiy) kutib olmoq; **2.** ma'qullamoq, tahsinlamoq, manzur ko'rmoq, ijobiy baho bermoq; **to ~ a plan** rejani ma'qullamoq.

welcome⁴ [ˈwelkəm] *int* xush kelibsiz! marhamat qiling!

welcome home [ˈwelkəmhaʊm] **1.** xush kelibsiz! (kelish bilan tabriklash); **2.** (watan, ona shahar va sh.k. ga) qaytish munosabati bilan qutlash, muborakbod etish.

weld¹ [weld] *n* *tex.* payvand choki, payvandlab ulangan joy.

weld² [weld] *v* **1.** *tex.* payvandlamoq, payvandlab biriktirmoq, ulamoq, svarka (payvand) qilmoq; **2.** birlashtirmoq, birga qo'shmoq, biriktirib mahkamlamoq.

welder [ˈweldə] *n* payvandlovchi, svarkachi, svarka (payvand) qiluvchi.

welding [ˈweldɪŋ] *n* payvandlash, payvandlab ulash, payvand qilish, svarka.

welfare [ˈwelfeə] *n* **1.** farovonlik, mo'liko'lichilik; boylik; farovon hayot; rohat-farog'at; eson-omonlik, sog'-salomatlik, bardamlik; **2.** muhtojlarga yordam, xayr-saxovat, ehson; **3.** ijtimoiy ta'minot.

well I¹ [wel] *n* **1.** quduq; buloq, chashma, sarchashma; **2.** (neft haqida) skvajina, quduq.

well I² [wel] *v* (*tez-tez ~ up*) **1.** (suv haqida) ko'tarilmoq; (ko'z yoshi bilan) to'lmoq; **2.** qaynamoq, qaynab chiqmoq.

well II¹ [wel] *n* **1.** yaxshilik, ezgulik, baxt-saodat; **to wish somebody ~** biror kimsaga yaxshilikni tilamoq; **2.** (**the ~**) sog'liq, tani sog'lik, salomatlik.

well II² [wel] *a* **1.** sog', sog'lom, tani sog', sihat-salomatligi yaxshi; **2.** yaxshi, yaxshigina, tuzuk, durust, qoniqarli ahvolda; **3.** joyida, tartibda; **all is ~** hamma narsa joyida, hammasi yaxshi.

well II³ [wel] *adv* **1.** yaxshi, a'lo, juda yaxshi, juda soz; **2.** yaxshilab, yaxshigina; diqqat bilan, e'tibor bilan; **3. quyidagi birikmalar bilan ishlatiladi: as ~** bundan tashqari, ...ning ustiga, ustiga-ustak; shuningdek, shu bilan birga, ham; **as ~ as** shuningdek, shu bilan birga, ham; qo'shimcha qilib; bundan tashqari, jumladan; nafaqat ... balki, ...ham; **pretty ~** deyarli, qariyb; **~ done** juda yaxshi (soz)!

well II⁴ [wel] *int* **1.** (*hayron bo'lish, ikkilanish, rozilik, yengil tortish, qoniqish hissi va sh.k. larni anglatadi*) nahotki, rostdanmi, yo'g'-e; ha, xo'p, mayli; obbo, ana xolos; **2.** (*bo'linib qolgan gapni yana davom etishda yoki biror mulohaza bildirishda kirish so'z sifatida ishlatiladi*) demak, shunday ekan, shunday qilib, alqissa, binobarin.

well- [wel] *pref* murakkab so'zlarda quyidagi ma'nolarni anglatadi: **1.** yaxshi; **well-preserved** yaxshi saqlangan; **2.** so'zga yaxshi, yaxshilik degan ma'noni beradi; **well-natured** xushfe'l.

well-acted [wel'æktɪd] *a* yaxshi o'y-nalغان, ijro etilgan (pyesa haqida).

well-becoming [welbɪ'kɑmɪŋ] *a* mos, muvofiq, munosib, loyiq, to'g'ri keladigan.

well-behaved [welbr'heɪvd] *a* o'zini yaxshi tutadigan; odobli, axloqli, xushfe'l.

well-being [wel'bi:ɪŋ] *n* 1. sog'liq, tani sog'lik, salomatlik; 2. farovonlik, mo'l-ko'lbchilik, boylik, farovon hayot, (moddiy jihatdan) ta'minlik; gullash, yashnash, taraqqiy etish, rivojlanish, ravnaq topish.

well-bred [wel'bred] *a* 1. tarbiyali (*yaxshi tarbiya ko'rgan, ayniqsa, oilada*); 2. tarbiyali odamga xos bo'lgan; 3. (hayvon haqida) zotdor, zotli, nasldor.

well-built [wel'bilt] *a* 1. qaddi-qomati (bo'y-basti) kelishgan, xushbichim, biror tarzda yaxshi tuzilgan; 2. yaxshi qurilgan, qurilishi yaxshi.

well-cooked [wel'kukt] *a* 1. (taom haqida) yaxshi tayyorangan; 2. = **well-done**.

well-deserved [wel'dɛz:vd] *a* xizmat ko'rsatgan.

well-done [wel'dɒn] *a* 1. yaxshi (muvaffaqiyatli) qilingan; 2. yaxshi (obdan) qovurilgan, qovurib pishirilgan.

well-dressed [wel'drest] *a* yaxshi kiyingan *yoki* kiyinadigan; yasangan, bezangan, yasan-tusan, olifta, bashang; bashang (orasta) kiyingan.

well-educated [wel'edʒuketɪd] *a* yaxshi bilimli, o'qimishli, ma'lumotli; bilimdon.

well-fed [wel'fed] *a* yaxshi hoqilgan, boqib semirtirilgan, bo'rdoqi, semiz, semirib ketgan, moy boylagan.

well-founded [wel'faʊndɪd] *a* 1. asoslangan, asosli, dalillarga asoslangan; 2. poydevori puxta (mustahkam) ishlangan.

well-informed [welɪn'fɔ:md] *a* bilimdon, bilag'on, bilarmon; keng va chuqur ma'lumotli, aql-zakovatli

wellingtons [welɪŋ'tɒnz] *n* rezina etiklar.

well-kept [wel'kept] *a* yaxshi (durust) saqlangan.

well-known [wel'nəʊn] *a* 1. taniqli, mashhur, dongdor, nomdor, atoqli, nom chiqargan, dong taratgan; 2. (dalil va sh.k. haqida) hammaga ma'lum.

well-meant [wel'ment] *a* yaxshi niyat bilan qilingan *yoki* aytilgan.

well-timed [wel'taɪmd] *a* o'z vaqtida (zarur paytda, mavridida) qilingan, bo'lgan; o'rinni, jo'yali (qilingan).

well-to-do [wel'tə:du:] *a* davlatmand, boy, badavlat, to'q, farovon.

well-wisher [wel,wɪʃə] *n* boshqalarga yaxshilik istovchi odam, xayrixoh, do'st.

well-worn [wel'wɔ:n] *a* 1. juda eskirgan, titilgan, to'zigan; 2. ko'p chaynalgan, siyqasi chiqqan, siyqalashib ketgan.

Welsh [welʃ] *a* Uels yoki uelsliklarga oid; uelscha, uelslik, Uels...

Welsh² [welʃ] *n* 1. (the ~) uelsliklar; 2. uels tili, uelscha til.

Welshman [welʃmən] *n* (*pl Welshmen* [welʃmɛn]) uelslik kishi; Uelsda tug'ilgan kishi, uelslik.

Welshwoman [welʃ,wʊmən] *n* (*pl Welshwomen* [welʃ,wɪmɪn]) uelslik ayol, Uelsda tug'ilgan ayol, uelslik.

welter¹ [wɛltə] *n* aralash-quralashlik, boshi-keti yo'qlik, chalkashlik; **a - of confused ideas** fikrlardagi chalkashlik.

welter² [wɛltə] *v* 1. ag'anab (dumalab) yotmoq, u yoqdan hu yoqqa dumalamoq, ag'anamoq, tipirchilamoq; (loy, balchiq va sh.k. larga) burkanmoq; 2. botmoq, ko'milmoq, berilmoq, mukkasidan ketmoq.

went [went] *v pt of go².*

wept [wept] *v pt, pp of weep².*

were [wɜ:; wə] *v* „to be“ fe'lining o'tgan zamon 1-, 2- va 3- shaxs ko'plik shakli hamda „to be“ fe'lining istak mayli: **I wish I - you** men sizning o'rningizda bo'lib qolishni istardim.

west¹ [west] *n* 1. g'arb; kun botish tomon; 2. g'arbiy qism; 3. (the West) G'arb, g'arbiy shtatlar, AQShning

g'arbiy qismi; 5. *siyos.* G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari; 6. g'arbiy shamol, g'arb shamoli.

west² [west] *a* 1. g'arbiy, g'arbdagi, g'arb tomondagi; g'arb...; ~ **wind** g'arbiy shamol, g'arb shamoli; 2. g'arb tomonga qaragan; g'arbgacha chiqadigan.

west³ [west] *adv* 1. g'arb tomonga, g'arbdagi, g'arbiy yo'nalishga; 2. (shamol haqida) g'arbiy, g'arbdan esgan.

west-bound ['westbaund] *a* (poyezd va sh.k. haqida) g'arb tomonga boradigan, harakat qiladigan.

western I ['westən] *n* kovhoylar haqidagi film.

western II ['westən] *a* 1. g'arbiy, g'arbdagi, g'arb...; 2. g'arbdagi joylashgan; 3. g'arbgacha chiqadigan, g'arb tomonga qaragan; 4. (shamol haqida) g'arbdan esgan; 5. (roman, film va sh.k. haqida) kovboycha, kovboy(lar)...

Western-European ['westənjuərə'pi:ən] *a* G'arbiy Yevropaga oid, G'arbiy Yevropa ...

westerner ['westənə] *n* 1. G'arbdagi yashovchi odam; 2. (**Westerner**) *AE* AQShning g'arbiy shtatlarida tug'ilgan yoki yashovchi kishi.

westward ['westwəd] *a* 1. g'arbiy (yo'nalish haqida); g'arbgacha yo'nalgan; g'arb tomonga qaragan; 2. g'arb tomonga qarab harakat qiladigan.

westwards ['westwədz] *adv* g'arb tomonga, g'arbgacha, g'arbiy yo'nalishga.

wet¹ [wet] *n* 1. namlik, ho'llik, zaxlik, zaxkashlik; nam, zax; 2. yomg'irli ob-havo; **in the** ~ yomg'irda, yomg'ir ostida.

wet² [wet] *a* 1. nam, ho'l, sernam, zax, zaxkash; 2. yomg'irli, seryomg'ir, yomg'ir (yog'ingarchilik) ko'p bo'lgan.

wet³ [wet] *v* 1. ho'llamoq, namlamoq, ho'llab (namlab) olmoq (qo'yimoq), namiqtirmoq; 2. ivimoq, nam bo'lmoq, jiqqa ho'l bo'lmoq, ivib ketmoq.

whale [weɪl] *n* 1. *zool.* kit; 2. (hajm yoki sifat jihatdan) mashhur, mislsiz; **to have a** ~ **of a time** vaqtini a'lo o'tkazmoq.

whaling ['weɪlɪŋ] *n* kit ovi, kitlarni ovlash; kit ovlash sanoati.

wharf [wɔ:f] *n* 1. verif (kemalar quriladigan yoki ta'mirlanadigan korxonasi); 2. pristan (kemalar to'xtaydigan joy).

what¹ [wɒt] *a* 1. *to 'g'ridan-to 'g'ri savollarda a*) qanday?, qanaqa?, qanday turdagi? ~ **papers do you read?** siz qanday gazetalarni o'qiyasiz? ~ **sort of man is he?** u qanday odam?; **b**) qancha?, necha?; ~ **time is it?** soat necha?; 2. *ergash gap orqali ifodalangan so'roq va ergash gaplarda a*) qanday; **he told me** ~ **book he needs** u menga o'ziga qanday kitob kerakligini aytdi; **b**) nechta, qancha; **I know** ~ **money he paid** men uning qancha pul to'laganini bilaman; 3. *undov gaplarda a*) qanday, qanaqa; naqadar, munchayam, ~ **a pity!** esizgina!, esiz!, atlang-a!, qanday afsus!; ~ **an idea!** ana fikru — mana fikr! qanday ajoyib fikr!

what² [wɒt] *pron* birlik va ko'plikdagi fe'llar bilan ishlatiladi **A so'roq** 1. *to 'g'ridan-to 'g'ri savollarda a*) nima? qanday? ~ **is it?** bu nima?; ~ **do you mean?** siz nimaning nazarda tutayapsiz?; ~ **is it made of?** bu nimadan yasalgan?; ~ **are you talking about?** siz nima haqida gapirayapsiz?; ~ **is his name?** uning ismi (familiyasi) nima?; ~ **is he like?** uning ko'rinishi qanday?; ~ **is the news today?** bugun qanday yangiliklar bor?; ~ **kind of ...?** qanday ...?; qanday turdagi?; ~ **the matter?** nima bo'ldi o'zi?; nima gap?; **b**) kim?; ~ **is he?** (kasbi bo'yicha) u kim?; u nima bilan shug'ullanadi?; ~ **do you take me for?** siz meni kim deb o'ylayapsiz? **d**) nechta?, qancha?; ~ **did you pay for it?** bu uchun siz qancha to'ladingiz?; bu sizga qanchaga tushdi?; ~ **is the time?** soat necha?, hozir soat necha bo'ldi?;

tʃ chin /θ thin /ð the /ʃ she /ʒ usual /h he /m me /n not /ŋ king /l lip /r rat /j yet /w we

e) *emotsional-kuchaytiruv*: **so ~?** xo'sh, nima bo'пти?; **~ next?** xo'sh, keyin nima bo'ldi?; **2.** (**– did you say? yoki – is it? ning o'rni**, *qisqargan shaklda*) nima? a?

B *bog'lovchi; ergash gap va ergash gap orqali ifodalangan so'roqlarda* **1.** nimani ... ganini, ...gan narsasini; ...gan narsa; **he does not know ~ she wants u** uning nimani xohlayotganini bilmaydi; **he is sorry about ~ has happened u** sodir bo'lgan narsadan afsusda; **2.** kim bo'lishini; **I know ~ she shall be** men uning kim bo'lishini bilaman; **3.** nechta (qancha) ...ganini; **I'll ask him ~ he paid** men uning qancha to'laganini so'rayman.

what³ [wɒt] *int* (*hayrat, ko'ngil qolish, g'azab va sh.k. larni ifodalaydi hamda tez-tez savoldan oldin ishlatiladi*) nima?!; xo'p, zap, rosa...!; va...!; ana...!; **–? You can't nima!** nima (qanday)?! Siz kela olmaysiz!?!; **~ the hell!** e, jin ursin!

whatever¹ [wɒtəvə] *a* **1.** qanday bo'lmasin, qanaqa bo'lmasin; **~ orders he may give they must be obeyed u** qanday buyruqlar bermasin, ular bajarilishi kerak; **2.** har qanday, har qanaqa; **3.** qanaqa bo'lsa ham; qaysi biri bo'lmasin, baribir.

whatever² [wɒtəvə] *pron* **1.** nima bo'lmasin, nima bo'lsa ham; **~ happens, he is safe** nima sodir bo'lmasin, u xavfdan holi; **2.** har qanday, har qanaqa, xohlagan, istalgan; **take ~ you like** sizga yoqqan hamma narsani oling; yoqtirgan har qanday narsani oling.

whatman [wɒtmən] *n* vatman (chizma-chilik qog'ozi) (*shuningdek ~ paper*).

whatsoever [wɒtsəʊvə] *emotsional-kuchaytiruv* = **whatever**¹ va **2**.

wheat [wi:t] *n* **1.** *bot.* bo'g'doy; **~ ears** bo'g'doy boshoglari; **a field of –** bug'doyzor, bug'doy ekilgan yer; **spring –** bahori bug'doy; **winter –** kuzgi bug'doy; **– bran** bug'doy kepagi; bug'doy uning kepagi; **2.** = **weat corn**.

wheat-bread [wi:tbrɛd] *n* bug'doy non.

wheat corn [wi:tko:n] *n* g'alla, don.

wheel¹ [wi:l] *n* **1.** g'ildirak, charxpalak, chamberak; **2.** rul chamberagi, rul; shturval; **3.** falakning gardishi, taqdir charxi (*shuningdek Fortune's –*); **4.** (ip yigiradigan) charx; **6.** *tex.* tishli q'ildirak, shesterna.

wheel² [wi:l] *v* **1.** (zambilg'altak va sh.k. larni) g'ildiratmoq, itarib yurgizmoq, (zambilg'altak va sh.k. larda) tashimoq; **2.** g'ildiramoq; g'ildiraklarda harakat qilmoq; **3.** aylanmoq; buralmoq, burilmoq.

wheelbarrow [wi:l'bærəʊ] *n* zambilg'altak, tachka.

wheelchair [wi:ltʃeə] *n* **1.** bemorni tashish uchun mo'ljallangan kolyaska; **2.** nogirontar aravachasi.

wheeze [wi:z] *v* husht-hushtlab (chiyillab) nafas olmoq; pishillamoq, pish-pish qilmoq, harsillamoq.

wheezy [wi:zi] *a* pishillayotgan, pish-pish qilayotgan, xirillayotgan.

when¹ [wen] *n* (qanday, qaysi) vaqt; sana; **since – has she been ill?** u qaysi vaqtdan (qachondan) beri kasal?; **until ~ can you stay?** siz qachongacha (qaysi paytgacha) qolishingiz mumkin?

when² [wen] *adv* **1.** *so'roq* qachon?; **– can you come?** siz qachon kela olasiz?; **2.** *bog'lovchi* qachon; **I don't know – I shall come** qachon kelishimni bilmayman; **now is ~ I need him most** aynan hozir u menga har qachongidan ham zarur; **3.** *nisbiy* ...gan; **the day – I met you** sizni uchratgan kun; **Sunday is the day – I am least busy** yakshanba kuni men eng kam band bo'ladigan kun.

when³ [wen] *cj* **1.** *payt ergash gap va oborotlarni boshlab beradi va quyidagi ma'nolarni anglatadi:* **a)** *bir vaqtda sodir bo'ladigan ish-harakatni* qachon, qachon bo'lmasin; *hiror ish harakat sodir bo'lganda (bo'layotganda); ~ he lis-*

tens to music, he falls asleep qachon musiqa eshitmasin, u (har doim) uxlab qoladi; **it was ten minutes to nine – he returned** u qaytib kelganda, soat sakkizdan o'n daqiqa o'tgan edi; **b) biror narsadan oldin sodir bo'lgan ish-harakatni** biror narsa qilib bo'lingandan keyin; biror narsa bo'lgan zahoti, bilanoq, zamon; ...ganda; **you can go – the work is done** ish qilib bo'linganda, ketishing mumkin; **I shall see you – I return** qaytib kelganimsa, siz bilan ko'rishaman; **d) biror narsadan keyin sodir bo'ladigan ish-harakatni** va o'shanda, o'shandagina; **he remained in the army until 1986, – he left the service** u 1986 yilgacha armiyada qoldi, shundan so'nggina iste'foga chiqdi; **2. to'siqsiz yoki zidlovchi ergash gap hamda oborotlarni boshlab beradi** (garchi) -sa ham; biror narsa bo'lishiga qaramasdan, biror narsa bo'lishidan qat'i nazar; **how dare you blame me – you are just as much to blame?** o'z aybingiz menikidan kam bo'lmay turganda, meni ayblashga qanday haddingiz sig'di?; **3. shart ergash gap hamda oborotlarni boshlab beradi** agar, mobado, modomiki; **how convince him – he will not listen?** modomiki u eshitishni ham xohlamas ekan, uni qanday qilib ko'ndirish mumkin?

whence [wens] *adv* **1. so'roq a)** qaysi joydan, manbadan? qayerdan?; **– does he come?** u qayerdan (qaysi joylardan)?; **b)** qanday? qanday qilib? qanday sababga ko'ra?; **– all this confusion?** nima sababdan huncha chalkashlik?; **2. bog'lovchi** qayerdan, qaysi manbadan; **tell me – you come** menga qayerdan ekanligingizni aytin; **3. nisbiy** qayerdan, qaysiki; **return – you came** qayerdan kelgan bo'lsang o'sha yoqqa qayt; **4. birikmalarda: from – qayerdan?; do you know from – he comes?** uning qaysi joy-

danligini (qayerdan kelganini) bilasizmi? **whenever**¹ [wen'e:və] *cj* **1.** qachon bo'lmasin; **come – you like** har qanday paytda (istagan paytingizda) keling; **2.** har gal (safar) biror narsa bo'lganda; **– I see him I think of you** har gal uni ko'r-ganimda, men siz haqingizda o'ylayman.

whenever² [wen'e:və] *adv* **kuchaytiruv** qachon endi, qachon axir; **– did you find time to write?** yozishga qachon vaqt topdingiz axir?; **– will he arrive? He's very late** u qachon keladi endi? U juda kechikayapti.

where¹ [weə] *n* **AE** (voqea sodir bo'lgan) joy; **the – and when of his birth are unknown** uning tug'ilgan joyi va sanasi noma'lum; **the – and how of the accident** hodisaning joyi va holati; **the –s and whens are important** buning qayerda va qachon sodir bo'lganligi muhim.

where² [weə] *adv* **1. so'roq a)** qayerda?; qanday joyda?; **– are you?** siz qayerdasiz?; **b)** qayerdan?; qanday joydan?; **– does he come from?** u qayerdan?; **d)** qayerga?; **– are you going?** siz qayerga borayapsiz?; **2. nisbiy b)** ...gan, ...digan; **that is the place – he lives** mana u yashaydigan joy; **the place – I am sitting** men o'tirgan joy; **the countries – it never snows** hech qachon qor yog'maydigan mamlakatlar; **b)** ...gan, ...digan joy; **I can see it from – I am** uni bu yerdan ko'rayapman; **d)** (va) u yerda; **we came home, – we had dinner** biz uyga keldik va uyda tushlik qildik.

where³ [weə] *cj* **o'rin ergash gaplarni boshlab beradi** ...gan, ...digan (joydan, joyga); **stay – you are** turgan joyingizdan qimirlamang; **I don't know – to begin** qayerdan boshlashni bilmayapman; **go – you please** istagan joyingizga boring.

whereabouts¹ [weə'əbaʊts] *n* turgan (joylashgan, o'rtnashgan) joyi, o'rmi; makon, manzilgoh, qarorgoh, manzil; **her present – are (is) a secret** uning hozigi paytdagi manzilgohi sir saqlanadi.

whereabouts² [weəə'baʊts] *adv, cj* 1. *so'roq qayerda?, qayerga?, qaysi joyga yaqin?; ~ did you put it? siz buni qayerga qo'ydingiz?; ~ are you? qayerdasiz axir?; 2. bog'lovchi qayerda, qayerga; don't know even ~ to look for him* hattoki uni qayerdan izlashni ham bilmayman.

whereupon [weəə'pʌn] *cj* ...dan so'ng, ...sababli, tufayli, natijasida; **I explained the matter, ~ he laughed heartily** men nima gapligini tushuntirdim, shundan so'nggina u chin yurakdan kulib yubordi.

wherever¹ [weə'evə] *adv so'roq* 1. qayerda?, qayda?, qani?; ~ **is he?** u qani endi?; 2. qayerga?, qayga?; ~ **are you going at this time of night?** bunday kech paytda qayerga ketayapsiz?.

wherever² [weə'evə] *cj* 1. har qanday joyda; qayerda bo'lmasin, qayerda bo'lsa ham; ~ **he is, he always does well** qayerda bo'lmasin, u hamma yerda o'zini yaxshi tutadi; 2. qayerga bo'lmasin, qayerga bo'lsa ham; **he will get lost ~ he goes qayerga bormasin**, u albatta adashib qoladi.

whether [weðə] *cj* 1. (*tez-tez ~ ...or not; ~ ...or ~*) *quyidagilarni boshlab beradi:* a) *ergash gap orqali ifodalangan so'roqni; ... lish yoki ... maslik; he asked ~ he could help* u uning yordam bera olish yoki olmasligini so'radi; b) *ikkilanish, gumonsirash, tanlash kabilarni ifodalovchi egali, to'ldiruvchili, atributiv yoki predikativ ergash gaplarni; -mi; he is in doubt ~ he should wait* u kutishim kerakmi yoki yo'qmi, deb ikkilanayapti; **it matters little ~ we go or stay** ketamizmi yoki qolamizmi, bu uncha muhim emas; **I don't know ~ it is true or not** hu rostmi, rostmasmi bilmayman; 2. (*odatda ~... or no(t)*) *shart-to'siqsiz ergash gaplar yoki oborotlarni boshlab beradi; -mi; ~ he comes or not, we shall leave* u keladimi yoki yo'qmi, biz ketamiz.

whetstone [wetstəʊn] *n* qayroq(tosh).

which¹ [wɪtʃ] *a* 1. *to'g'ridan-to'g'ri savollarda* qanday?, qaysi?; ~ **book did you choose?** kitoblardan qaysi birini tanladigiz?; **I'm going with the girls.** — **Which girls?** men qizlar bilan ketayapman. — **Qaysi qizlar bilan?; 2. ergash gap orqali ifodalangan so'roq va ergash gaplarda** a) qanday, qaysi; **say ~ chapter you prefer?** aytinchí, sizga qaysi boh ko'proq yoqdi?; ~ **Miss Smith do you mean, the younger or the elder one?** qaysi Smit xonimni nazarda tutayapsiz, kichiginimi yoki kattasini?; b) qaysiki; **unday, shunday; he stayed here two weeks, during ~ time he never left the house** u bu yerda ikki hafta bo'ldi va butun shu vaqt mobaynida uydán biror marta ham chiqmadi; **he was told to apply to a police station, ~ advice he followed** unga politsiyaga murojaat qilishni aytishdi, va u shunday qildi ham; d) har qanday, har qanaqa, istagan, xohlagan; ...gan narsa; **take ~ of these books you please** o'zingizga yoqqan har qanday kitobni oling.

which² [wɪtʃ] *pron* *birlik va ko'plikdagi fe'llar bilan ishlatiladi:* **A so'roq; tanlash imkoniyati bilan bog'liq bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri savollarda** (...lardan) kim?; (...lardan) nima?; (...lardan) qaysi biri?; qanday?, qanaqa?; ~ **employees took their vacation in July?** xizmatchilardan kim iyul oyida dam olgan?; ~ **will you take, tea or coffee?** siz nima ichasiz, choymi yoki qahvami?; ~ **of the girls (books) do you like best?** qizlardan (kitoblardan) qaysi biri sizga ko'proq yoqadi?

B bog'lovchi; ergash gap orqali ifodalangan so'roq va ergash gaplarda kim; nima; qaysi; **tell me ~ of you did that?** menga aytinchí, sizlardan qaysi biringiz buni qildi?; **will you advise me ~ to take?** (ulardan) qaysi birini olishni menga maslahat bera olmaysizmi?

D nisbiy ...gan, ...digan; **take the book** ~ **is on the table** stol ustida yotgan kitobni oling; **the places to ~ we are going** biz hozir boradigan joylar.

whichever [witʃevə] *pron A bog* 'lovchi qanday (qanaqa) bo'lmasin, haribir; nima bo'lishidan qat'i nazar; har qanday (qanaqa), istalgan; ~ **you choose, you will have a good bargain** qaysi birini tanlashingizdan qat'i nazar, haribir siz yutasiz; ~ **comes in first receives the prize** birinchi bo'lib kim kelishidan qat'i nazar, sovrinni oladi.

B nisbiy 1. qanday (qanaqa) bo'lmasin, haribir; ~ **way he turned he saw nothing but sand** qaysi tomonga (qayerga) qaramasin, u hamma yoqda faqat qumni ko'rardi; **2.** har qanday, har qanaqa, istagan, xohlagan; **take ~ suit you like best** sizga to'g'ri keladigan, xohlagan kastumingizni oling.

whiff [wɪf] *n 1.* esish, oqim; **ā ~ of fresh air** toza havo oqimi; **2.** hid (*ayniqsa yoqimsiz*); **ā ~ of garlic** sarimsoq hidi; **3.** (shamol, o'qning) g'uvillashi, g'iz-g'iz etgan ovozi.

whiffle [ˈwɪfl] *v 1.* bir oz shiddat bilan esmoq; **2.** guvillab (g'uvillab) turmoq, g'uvillamoq, shuvillamoq.

whiffy [ˈwɪfi] *a* yoqimsiz hidli, hadbo'y; **the dog is ~** itdan hadbo'y hid kelayapti.

while¹ [waɪl] *n* vaqt; vaqt oralig'i; **a long (a short) ~** uzoq (qisqa) vaqt; **in a little ~** tezda, tez orada, hademay, hash-pash deguncha; **ā ~ ago** hozirgina, yaqindagina, hali, boya; **after a little ~** ko'p o'tmay, tez orada, darrov, bir oz fursatdan so'ng; **for ā ~** vaqtincha, bir oz fursatga; **we must rest for a ~** biz bir oz dam olib (nafasni rostlab) olishimiz kerak.

while² [waɪl] *prep* ...gacha; ~ **then** o'sha paytgacha.

while⁴ [waɪl] *cj 1.* quyidagi ma'nolarni ifodalovchi payt ergash gaplarni bosh-

lab beradi: a) harakat, jarayonlarning sodir bo'lish paytida nimadir yuz bergan holatni; vaqtida, paytida; ...gan paytda; ...ganda; ~ (he was) reading he fell asleep o'qiyotgan paytda u uxlab qoldi; **he had an accident ~ (he was) coming here** bu yoqqa kelayotgan paytda u baxtsiz hodisaga uchradi; **b) biror ish-harakatning boshqa bir ish-harakat bilan bir vaqtda kechishini** ...da; ...ganda; ~ **there's life there's hope** yashab turgan ekanman — umid qilaman; ~ **(he was) here, he studied a great deal** bu yerda bo'lganda, u ko'p shug'ullanardi; **2. qarshi qo'yish (qiyoslash) ma'nosini ifodalovchi gaplarni boshlab beradi** shu bilan bir vaqtda; holbuki, vaholanki; esa, bo'lsa; **one of the sisters was in white, ~ the other was all in black** opasingillardan bittasi oq kiyimda, boshqasi esa boshdan-oyoq qora kiyimda edi.

whim [wɪm] *n 1.* injiqlik, xarxasha, tantliqlik, g'alati qiliq; ~ **s of fate** taqdirning injiqliklari; **2.** doimiy (barqaror) emaslik, o'zgaruvchanlik, beqaror.

whimper [ˈwɪmpə] *v 1.* angillamoq, vangillamoq, g'ingshimoq (it haqida); **2.** zorlanmoq, nolimoq; hiqillamoq, hiqillab yig'lamoq.

whine [waɪn] *v 1.* angillamoq, g'ingshimoq, uvlamoq (it haqida); **2.** zorlanmoq, nolimoq; shikoyat (hasrat) qilmoq.

whip¹ [wɪp] *n 1.* o'rma qamchi; qamchi; xipchin, xivich, savag'ich; **2.** krem, ko'pirtirilgan shirinlik.

whip² [wɪp] *v 1.* urmoq, savalamoq, qamchilamoq; **2.** ko'pchitmoq, ko'pirtirmoq (qaymoqni, tuxum oqini).

whip up [ˈwɪpʌp] *phr. v* ildamatmoq, qadimini tezlashtirmoq, tez yurishga majburlamoq, (tez yurgizish-haydash uchun) qamchilamoq, savalamoq.

whipping [ˈwɪpɪŋ] *n* savalash, qamchilash; urish, kaltaklash.



whirl¹ [wɜ:l] *n* 1. aylanish, aylanma harakatga kelish; aylanishlar; 2. uyurma, quyun; girdob, aylanma; 3. gangish, esan-kirash, dovdirash.

whirl² [wɜ:l] *v* 1. aylantirmoq, buramoq, aylanma harakatga keltirmoq; 2. aylanmoq (bosh haqida); gangib (esankirab, dovdirab) qolmoq.

whirlpool [ˈwɜ:lpu:l] *n* girdob, aylanma.

whirlwind [ˈwɜ:lwind] *n* uyurma, quyun, girdob; dovul, boʻron.

whirr¹ [wɜ:] *n* (mashinalar) shovqini; (hasharotning) gʻoʻngʻillashi, vizillashi.

whirr² [wɜ:] *v* (mashina va sh.k. haqida) shovqin solmoq; gʻoʻngʻillamoq, vizillamoq; chirillamoq, chigʻillamoq.

whisker [ˈwɪskə] *n* 1. (hayvonlarda) moʻylov; 2. (-s) bakenbarda, chekka soqol (erkaklarda).

whiskey [ˈwɪski] *n* (*pl* *whiskeys*) viski (irlandcha yoki amerikacha).

whisper¹ [ˈwɪspə] *n* 1. shivirlash, pichirlash, pichir-pichir (shivir-shivir) gap; **to speak in a** - shivirlab (pichirlab) gapirmoq; 2. ovoza, duv-duv gap, mish-mish; 3. (barglar, shamol va sh.k. larning) shitirshitiri, shitirlashi, shildirashi.

whisper² [ˈwɪspə] *v* 1. shivirla(sh)moq, shivirlab (pichirlab) gapirmoq, shivirshivir (pichir-pichir) qilib gapirishmoq; 2. pichirlab aytmoq, qulogʻiga yetkazmoq, chaqimchilik qilmoq, gap tashimoq, gʻiybat qilmoq; 3. (barglar, shamol va sh.k. haqida) shitirlamoq, shildiramoq.

whistle¹ [ˈwɪsl] *n* 1. hushtak ovozi; 2. hushtak.

whistle² [ˈwɪsl] *v* 1. hushtak chalmoq; hushtak bilan kuy chalmoq; 2. hushtak chalib chaqirmoq (*shuningdek* - **up**); 3. gʻuvillab (shuvillab) oʻtib ketmoq.

white¹ [waɪt] *n* 1. oq rang (tus); oqlik, oppoqlik; 2. (tuxum, koʻzning) oqi; 4. oq tanli, oq (odam); oq badan; 5. (shaxmat, shashkada) oqlar, oq donalar.

white² [waɪt] *a* 1. oq, oppoq; toza, ozoda; 2. oq, oq badan, oq tanli; 3. rangi oʻchgan, rangsiz, oqargan.

white³ [waɪt] *v* (devorni) oqlamoq; (choy-shab, yostiq jildi va sh.k. ni) oqartirmoq.

white-collar [ˈwaɪtˈkɒlə] *a* kanselariya uchun belgilangan, kanselariya ..., idora...; **a** - **worker** xizmatchi.

the Whitehall [ˈwaɪthɔ:l] *n* ingliz hukumati.

the White House [ˈwaɪthaus] *n* 1. Oq uy (AQSh prezidentining qarorgohi); 2. AQSh hukumati.

whiten [ˈwaɪtn] *v* 1. oqlamoq, oqqa boʻyamoq, oqartirmoq; 2. oqqa aylanmoq; oʻngib (oqarib) ketmoq, rangini yoʻqotmoq.

whitener [ˈwaɪtnə] *n* oqartirgich (oqartiradigan maxsus modda, vosita).

whiteness [ˈwaɪtnəs] *n* 1. oqlik, oppoqlik; oq rang (tus); 2. tozalik, ozodalik; 3. rangsizlik, rangi oʻchganlik, rangparlik.

whitewash¹ [ˈwaɪtwɒʃ] *n* oqlash; oqlash uchun ohakli qorishma.

whitewash² [ˈwaɪtwɒʃ] *v* oqartirmoq, oqqa boʻyamoq, oqlamoq.

whitish [ˈwaɪtɪʃ] *a* 1. oqqa moyil, oqish, oqimtir; 2. rangi oʻchgan (ketgan), rangsiz, oqargan.

whiz [wɪz] *v* gʻuvillab (shuvillab, chinqirib) oʻtib ketmoq.

whiz kid [ˈwɪzki:d] *n* olgʻir, uddaburon, yulduzni benarvon uradigan.

whizz¹ [wɪz] *n* 1. (kesib oʻtilayotgan havoning) gʻuvillashi, shuvillashi, husht-husht ovozi; - **of bullets** oʻqlarning gʻuvillashi, gʻiz-gʻiz etgan ovozi; **to go with a** - gʻuvillab, shuvillab oʻtib ketmoq; 2. *AE* olchoq, usta odam; olgʻir, uddaburon; **he is a** - **at football** u futbolni qoyillatib oʻynaydi.

whizz² [wɪz] *v* (havoni kesib oʻtayotib) gʻuvillamoq, shuvillamoq, husht-husht qilmoq; (nayza, oʻq haqida) gʻuvillab (shuvillab, chinqirib) oʻtib ketmoq.

who¹ [hu:] *pron* (**whom**) *birlik va ko'plikdagi fe'llar bilan ishlatiladi; so'roq* 1. *to 'g'ridan-to 'g'ri savollarda a)* kim?; *- is speaking?* kim gapirayapti?; *whom did you see?* kimni ko'rdingiz?; *of whom are you speaking?* kim haqida gapirayapsiz?; *- are ready to follow me?* mening ketimdan borishga kimlar tayyor?; **b)** *emotsional-kuchaytiruv:* kim (qanday); *- is he to be so honoured?* u kim bo'libdiki, uni buncha izzat qilishadi?; **d)** (*„whom“ning o'rnida*): *~ do you want?* sizga kim kerak?, siz kimni izlayapsiz?; *~ were you talking to?* siz kim bilan gaplashayotgandingiz?; 2. *yaxshi eshitilmagan yoki tushunarsiz odam ismi o'rnida:* **Mr.** *~ did you say?* uning familiyasi kim, deb aytdingiz?

who² [hu:] *cj* **A bog'lovchi; ergash gap orqali ifodalangan so'roq va ergash gaplarda a)** kim, kim ekanligini; **did he know ~ I was?** mening kimligimni u bilardimi?; **ask him ~ found this** buni kim topganligini undan so'ra; **b)** *emotsional-kuchaytiruv:* *- do you think you are?* siz, o'zingizcha, o'zingizni kim deb o'ylayapsiz?; **d)** (*„whom“ning o'rnida*); **I know ~ he is thinking of** men uning kim haqida o'ylayotganini bilaman.

B nisbiy a) ...gan, ...digan (*odatda bevosita aniqlanuvchi so'zdan keyin keladi*); **the man ~ was here is an artist** bu yerda bo'lgan odam — rassom; **he does not know the people ~ live next door** u o'zining yonida yashaydigan odamlarni bilmaydi; **b)** u, ular; o'sha, o'shalar; **he struck his opponent, ~ promptly returned the blow** u raqibga zarba berdi, va u ham tezda zarbaga javob berdi.

whoever [hu:'evə] *pron* (**whomever**) **A bog'lovchi;** kim bo'lsa ham, kim bo'lmasin, kim bo'lishidan qat'i nazar; *- you may be, sir, I am deeply grateful to you* kim bo'lishingizdan qat'i nazar, janob, men

sizdan chuqur minnatdorman; **B nisbiy** 1. ...gan kishi; har qanday kishi; *~ comes shall be welcome* kim kelmasin, u aziz mehmonimiz bo'ladi; *~ finds it may keep it* huni topgan kishi uni o'zida olib qolishi mumkin; 2. (*„whomever“ning o'rnida*): **go and fetch ~ you like** borib istagan odamingni boshlab kel.

whole¹ [həʊl] *n* 1. butun (bir butun, yaxlit) holdagi narsa; **the ~ and the parts** butun narsa va qismlar; **four quarters make a ~** to'rtta chorak bir butunni tashkil qiladi; **the ~ of** hamma, barcha, butun; bor, jamiki; 2. *birikmalarda:* **as a ~** hammasi bo'lib; **on the ~** umuman aytganda, xullasi kalom; **in ~** to'laligicha, butunligicha, butun holda, butunlayin; **in ~ or in part** butunlayin yoki qisman.

whole² [həʊl] *a* 1. **ā** butun, but, yaxlit; to'liq, to'la; **ā ~ number** *mat.* butun son; **to swallow it** ~ (chaynamasdan) butunlay yutmoq; **b)** barcha, butun, hamma, bor, bari, jamiki; **the ~ world** butun dunyo, olam; **ā ~ series of battles** bir qator janglar; **he has eaten the ~ lot** u hamma narsani yeb qo'ydi; **I want to know the ~ truth** men bor haqiqatni bilmoqchiman; 2. zarar (shikast) topmagan, eson-omon, sog'-salomat; **I hope you will come back** ~ umid qilamanki, siz eson-omon qaytib kelasiz.

wholesale¹ [həʊlseɪl] *n* ulgurji (ko'tara) savdo.

wholesale² [həʊlseɪl] *v* ulgurji (ko'tara) savdo qilmoq; ko'tarasiga sotib olmoq yoki sotmoq.

wholesaler [həʊlseɪlə] *n* ulgurji (ko'tara) savdo qiluvchi savdogar.

wholly [həʊlli] *adv* to'laligicha, butunligicha, butun holda, butunlayin; to'la, to'liq, butunlay, tamoman, tamomila.

whom [hu:m] *pron* (*„who“ning obyektiv kelishigi*) kimni (kimlarni); qaysisini, qaysisiga; kimga (kimlarga).

whomever [hu:m'evə] „**whoever**“ning obyektiv kelishigi.

whoof¹ [wuf] v akillamoq, vovullamoq, hurmoq; xirillab vovullamoq, qichqirmoq.

whoof² [wuf] *int* vov-vov!

whoop¹ [hu:p, wu:p] *n* ko'kyo'tal.

whoop² [hu:p, wu:p] v qotib-qotib yo'talmoq, qattiq yo'tali tutmoq.

whooping cough ['hu:pɪŋkɒf] *n tib.* ko'kyo'tal, qotib-qotib yo'talish.

whoosh¹ [wuf] *n* (kesib o'tilayotgan havoning) g'uvillashi, shuvillashi, husht-husht ovozi.

whoosh² [wuf] v 1. (o'q, tosh va sh.k. haqida) g'uvillab, shuvillab o'tib ketmoq; 2. (avtomashina va sh.k. larda) yelmoq, yeldek uchmoq.

whore [hɔ:] *n* sayoq (suyuqoyoq) xotin, fohisha, buzuq, g'ar.

whorl [wɜ:l] *n* bir o'ram (spiral); (chig'anoq va sh.k. larda) gajak shaklida o'ralgan narsa, o'ram.

whose [hu:z] *pron A so'rog; to'g' ridan-to'g'ri savollarda:* kimning?; ~ **umbrella is this?** bu kimning soyaboni?; ~ **daughter are you?** siz kimning qizisiz?; **B nisbiy; aniqlovchi ergash gaplarda:** ...gan, ...digan; **this is the person for ~ sake he did it** u mana shu odam uchun shu ishni qilgandi; **the pupil ~ work I showed you** men ishini sizga ko'rsatgan o'quvchi.

whosoever [hu:səu'evə] *pron (whomsoever)* kim bo'lsa ham, kim bo'lmasin; kim bo'lishidan qat'i nazar; ~ **you are...** siz kim bo'lmang (siz kim bo'lishingizdan qat'i nazar); **whomsoever they chose will have this right** ular kimni tanlab olmasin, shu huquqqa ega bo'ladi.

why [waɪ] *adv 1. so'rog:* a) nega?, nima-ga?, nima uchun?, nima sababdan?, nima asosda?; ~ **did you do that?** nima uchun (nimaga) siz buni qildingiz?; ~ **so?** nima uchun?, nima sababdan?; ~ **not?** nega shunday bo'lmas ekan?; b) nima qildi?,

nimaydi?, nima uchun so'rayapsiz?; **are you ill?** — **No, ~?** siz kasalmisiz? — Yo'q, nimaydi?; 2. a) *nisbiy:* nima uchun; **I can think of no reason ~ you should not go** nima uchun bormasligingizni tushuna olmayapman; **this is (the reason) ~ I left so early** mana shu sababli men ertaroq ketdim; b) *bog'lovchi:* nima uchun; **I don't know ~ they are late** hilmayman, nima uchun ular kechikayapti.

wicked ['wɪkɪd] *a 1.* yovuz, yomon, badjahl, battol, jahldor, qahrli, g'azabli; axloqsiz, odobsiz, buzuq; 2. sho'x, o'yin-qaroq; makkrolikka (hiylaga) oid; makrli.

wickedly ['wɪkɪdli] *adv* xusumat (kek) bilan, dushmanlik ko'zi bilan, yomon, yovuz; axloqsizlarcha, buzuqlarcha.

wickedness ['wɪkɪdnəs] *n 1.* adovat, xusumat, gina, buzuqlik, yomon xulq; 2. nojo'ya harakat; yovuz (jinoiy) harakat, jinoyat, yovuzlik, vahshat.

wide¹ [waɪd] *a 1.* keng, katta, yirik; 2. eni ...li, (qandaydir) eng ega bo'lgan; 3. keng, katta ko'lamdagi, ko'lamdor; ulkan, buyuk; 4. katta ochilgan (ko'zlar haqida).

wide² [waɪd] *adv* keng, katta; lang.

widely ['waɪdli] *adv* keng, katta; keng ko'lamda, har tarafлама; ~ **known** ham-maga ma'lum.

wide ['waɪdn] v kengay(tir)moq, keng (katta) och(il)moq, yir(il)moq; tarqa(t)moq, yoy(il)moq.

wide-open [waɪd əʊpən] *a* lang ochilgan; katta (keng) ochilgan.

wide-range [waɪd'reɪndʒ] *a* keng diapazonli, doirali.

wide-ranging [waɪd'reɪndʒɪŋ] *a* keng, katta, yirik, keng masshtabli, keng ko'lamdagi, keng miqyosli.

widespread ['waɪdspred] *a 1.* keng tarqalgan; 2. keng yozilgan, katta ochilgan.

widow ['wɪdəʊ] *n* beva, yesir, tul (xotini); **to become a ~** beva qolmoq, eri (yoki xotini) o'lib, tul (yesir) bo'lib qolmoq.

widowed [ˈwɪdəʊd] *a* eri (yoki xotini) o'lib, tul (yesir) bo'lib qolgan, beva (tul) qolgan, beva.

widower [ˈwɪdəʊə] *n* beva kishi.

width [wɪð] *n* 1. kenglik, en; (qarash-larning) kengligi; 2. bir en mato, eni bu-zilmagan bir bo'lak mato.

wife [waɪf] *n* (*pl wives*) 1. xotin; rafiqa, qalliq; 2. (-wife) murakkab so'zlarning tarkibiy qismi sifatida: **house-wife** uy bekasi; **fishwife** baliq bilan savdo qiluv-chi ayol; **midwife** akusherka, doya.

wifely [ˈwaɪfli] *a* xotinga munosib (lo-yiq) bo'lgan, yarashadigan.

wig [wɪɡ] *n* 1. parik, yasama soch; 2. parik kiygan mansabdor kishi (sudya va sh.k.); katta amaldor.

wiggle¹ [ˈwɪɡl] *n* tebranish, chayqalish, chayqatish; silkitish.

wiggle² [ˈwɪɡl] *v* 1. tebratmoq, tebran-moq, chayqatmoq, chayqalmoq; silkit-moq, silkinmoq; 2. yorib o'tmoq (tiqilib, suqilib), tiqilib kirmoq, itarib-surib o'tmoq.

wigwam [ˈwɪɡwæm] *n* 1. vıgvam (Shi-moliy Amerika indeyslarning o'tovsi-mon kulbasi, chaylasi); 2. kulba, kichik uy.

wild¹ [waɪld] *n* (*odatda: -s*) qalin, chal-kash o'rmon, changalzor, chakalakzor.

wild² [waɪld] *n* 1. yovvoyi, vahshiy; 2. yovvoyi, madaniylashtirilmagan, qo'lga o'rgatilmagan, asov; 3. ishlanmagan (haydalmagan, chopilmagan); ekin ekil-magan, ekilmay yotgan, bo'z yerga oid, bo'z..., qo'riq...; 4. (dengiz, ob-havo ha-qida) bo'ronli, dovulli; 5. ko'ch. kuchli, shiddatli, qattiq; tiyib (jilovlab) bo'lmay-digan; aqldan ozgan, telba, jinni.

wilderness [ˈwɪldənəs] *n* 1. kishi qo'li tegmagan joy, tabiat qo'yni; bokira tabiat; 2. cho'l, dasht, sahro, biyobon; **a voice in the ~** bekor ketgan urinish, behuda harakat, hech kim quloq solmagan gap.

wildfowl [ˈwaɪldfaʊl] *n* ovlanadigan yovvoyi parrandalar.

wild geese [ˈwaɪldgiːz] *n pl of wild goose.*

wild goose [ˈwaɪldˈɡuːs] *n* (*pl wild geese*)

1. yovvoyi g'oz; 2. **wild geese** yollanma askarlar (ishchilar); ~ **chase** behuda qu-vish; erishib bo'lmaydigan narsa orqasi-dan quvish.

wildlife [ˈwaɪldlaɪf] *n* jonli tabiat.

wild rose [ˈwaɪldrəʊz] *n bot.* na'matak, itiburun.

wilful [ˈwɪlfʊl] *a* 1. o'jar, qaysar, tutgan joyini kesadigan, o'zboshimcha, xohla-ganini (ko'ngliga kelganini) qiladigan; 2. g'arazli; atayin (bilaturib) qilingan, jo'rttaga (qasddan) qilingan.

wilfully [ˈwɪlfəli] *adv* 1. o'jarlik bilan, qaysarlik qilib, o'zboshimchalik bilan, xohlaganini (ko'ngliga kelganini) qilib; 2. atayin, ataylab, bila turib, jo'rttaga.

will I [wɪl] *n* 1. iroda; 2. xohish, istak, ixtiyor, niyat, iroda; **God's ~** Allohning irodasi (xohishi); 3. vasiyat, vasiyatno-ma; oxirgi istak.

will I² [wɪl] *v* 1. xohish bildirmoq; xohlamoq, istamoq, ixtiyor etmoq, niyat qilmoq; 2. biror his tug'dirmoq (uyg'ot-moq); majbur qilmoq, zo'r'lamoq; 3. va-siyat qilmoq (qilib aytib ketmoq).

will II [wɪl] *v* 1. (*kelasi zamon 2 va 3-shaxs birlik hamda ko'plik son shaklini yasovchi yordamchi fe'l*): **he - take it tomorrow** u buni ertaga oladi; 2. (*xush-muomalalik bilan maylni ifodalash uchun ishlatiladi*): ~ **you help me?** menga yordam bera olmaysizmi?; 3. (*biror narsaning sodir bo'lishi muqar-rar ekanlikni ifodalashda qo'llanila-di*): **accidents - happen** baxtsiz hodisa har bir kishida sodir bo'lishi mumkin; **boys - be boys** o'g'il bola baribir o'g'il bola-da; 4. (*sig'imni ifodalash uchun ishlatiladi*): **this car - hold three people** bu mashinada uchta odam ketadi.

willing [ˈwɪlɪŋ] *a* 1. tayyor, rozi, shay, mayli (rag'bati) bo'lgan, moyil, tarafdor;

tʃ chin / θ thin / ð the / fʃ she / ʒ usual / h he / m me / n not / ŋ king / l lip / r rat / j yet / w we

2. ixtiyoriy, ko'ngilli, har kimning o'z ixtiyori bilan qilingan; 3. serharakat, tirishqoq, g'ayratli.

willingly ['wɪlɪŋli] *adv* 1. jon deb, bajonidil, mamnuniyat bilan, tayyor (rozi, shay) bo'lib; 2. ixtiyoriy ravishda, o'z ixtiyori bilan, ko'ngilli bo'lib, otilib chiqib, birov majbur qilmasdan.

willingness ['wɪlɪŋnəs] *a* tayyorlik, shaylik.

willow ['wɪləʊ] *n bot.* tol.

willowy ['wɪləʊi] *a* 1. ingichka va egiluvchan; **à** – **figure** xushbichim gavda; 2. tolzor bo'lib chakalakzorga aylangan *yoki* tolzor qilingan.

wily ['waɪli] *a* hiylakor, ayyor, quv, mug'ombir, aldanchi, makkor, dog'uli; **à** – **fox** ayyor tulki.

win¹ [wɪn] *n* 1. *sport.* yutuq, sovrin, g'alaba; 2. yutib olingan pullar, yutuq.

win² [wɪn] *v* (pt, pp **won**) 1. yutmoq, yutib olmoq; g'alaba qozonmoq, g'olih chiqmoq, ustun chiqmoq; 2. mukofot olmoq; 3. xizmatlari bilan sazovor bo'lmoq, erishmoq; qozonmoq, qo'lga kiritmoq.

wince [wɪns] *v* (og'riqdan) burushmoq, tirishmoq; (qo'rquv, nafratdan) chekinmoq, o'zini chetga olmoq, chetga qochmoq.

winch¹ [wɪntʃ] *n tex.* chig'ir (yuqoriga yuk ko'taradigan mashina).

winch² [wɪntʃ] *v* chig'ir yordamida ko'tarmoq.

wind I [waɪnd] *n* 1. shamol, sabo, shabada; 2. nafas, dam; **second** – ikkinchi nafas (*sport.* mashqlarda ma'lum vaqtdan so'ng nafasning rostlanishi); 3. bod, ichak gazlari; 4. hid, is, bo'y; **to get the** – of isidan (hididan) bilmoq, iskamoq.

wind II¹ [waɪnd] *n* 1. bir buram, bir o'ram; 2. buriq, muyulish.

wind II² [waɪnd] *v* (pt, pp **wound**) 1. aylanib (egri-bugri, ilon izi, ilang-bilang bo'lib) ketmoq; buralib-buralib ketmoq; 2. o'ramoq, o'rab qo'ymoq, kalava qil-

moq, chulg'amoq; 3. o'ralmoq, o'ralib olmoq, chirmashmoq; 4. (*shuningdek* – **up**) buramoq (soatni); burab taranglatmoq (musiqiy asbob torini, simini); 5. aylantirmoq (dastakni).

wind into ['waɪndɪntə] *phr.v* suqilib kirmoq; **to – smb.'s favour** aldam-qaldam yo'llar bilan ishonchini qozonmoq, aldashulda pinjiga kirib olmoq.

windbag ['waɪnbæg] *n* sergap odam, ezma, vaysaqi, quruq mahmadona (saf-sataboz, quruq gap sotuvchi) odam.

windbreak ['waɪnbreɪk] *n* ihota qiluvchi daraxtzor; (shamol dan himoya qilish uchun) g'ov, to'siq.

windfall ['waɪndfɔ:l] *n* 1. daraxt tagiga to'kilgan mevalar; shamol yerga to'kkan mevalar; 2. kutilmagan baxt, omad; ko'zda tutilmagan foyda, daromad.

winding¹ ['waɪndɪŋ] *n* 1. ilang-bilang (egri-bugri, ilon izi) joy, burilgan (egilgan) joy; buriq, muyulish; 2. o'ram, kalava, koptok; 3. *el.* obmotka, chulg'am.

winding² ['waɪndɪŋ] *a* 1. ilang-bilang, egri-bugri, ilon izi; aylanib (ilon izi, ilang-bilang bo'lib) ketgan; aylanma harakat qiladigan, ilang-bilang aylanib boradigan; 2. aylanma, burama, spiralsimon.

wind instrument ['waɪnd ɪnstrəmənt] *n* puflab chalinadigan musiqqa ashoi.

windmill ['waɪndmɪl] *n* shamol tegirmon.

window ['wɪndəʊ] *n* 1. deraza, darcha, oyna; tuynuk; 2. (do'konda) vitrina; 3. teshik, tuynuk, tirqish, yoriq.

windowpane ['wɪndəʊpeɪn] *n* deraza oynasi.

window-shopping ['wɪndəʊʃɒpɪŋ] *n* vitrinadagi tovarlarni qarab yurish (ularni sotib olish niyatisiz); **to go** – xarid qilmasdan do'konlarni aylanib yurmoq.

window sill ['wɪndəʊ sɪl] *n* derazatokcha (derazaning tokchasi), deraza rafi.

wind power ['waɪnd paʊə] *n* 1. shamol energiyasi; 2. shamol energetikasi.

windproof ['windpru:f] *a* shamol o'tkazmaydigan, shamol kirmaydigan.

windscreen ['wɪndskri:n] *n* (avtomobil-da) old oyna, shamol to'sadigan oyna.

windscreen wiper ['wɪndskri:n waɪpə] *n* (avtomobil-da) oynatozalagich.

windshield ['wɪndʃi:ld] *n* **1.** shamolga qarshi to'siq, g'ov; **2.** = **windscreen**.

windswept ['wɪndswɛpt] *a* **1.** shamoldan himoyalalmagan (to'silmagan); shamol xarob (vayron) qilishi mumkin bo'lgan; **2.** (ayollarning taralgan sochi haqida) hurpaygan (paxmaygan); **ā** - **appearance** pala-partish, tartibsiz, to'zigan ko'rinish.

windy ['wɪndi] *a* **1.** shamolli, izg'irinli; **ā** - **day** shamolli kun; **2.** shamol tegadigan, uriladigan; **3.** ko'p gapiradigan, gapni cho'zadigan, sergap, ezma; so'zamol.

wine¹ [waɪn] *n* vino, musallas, may, sharob, boda.

wine² [waɪn] *v* **1.** ichmoq, otmq, qadah ko'tarmoq; **2.** vino (musallas) ichirmoq, vino bilan siylamoq, mehmon qilmoq.

wing [wɪŋ] *n* **1.** (qushlar, hasharotlar, samolyotdagi) qanot; **2.** avtomobilning qanoti (g'ildirak tepasidagi); **3.** gruppirovka, guruh, qanot; **4.** *sport*. chekkadagi hujumchi.

wingspan ['wɪŋspæn] *n* qanotlar yozilgandagi uzunlik.

wink¹ [wɪŋk] *n* **1.** ko'z qisish, ko'z qisib imo-ishora qilish, ko'z bilan imlash; **2.** ko'z ochib yumguncha o'tadigan vaqt, lahza, on, fursat; **in the** ~ bir onda (lahzada).

wink² [wɪŋk] *v* **1.** ko'z bilan imlamoq, ko'z qismoq, uchirmoq, ko'z qisib imo-ishora qilmoq; **2.** miltillamoq, miltillab ko'rinmoq; signal (xabar) bermoq.

winner ['wɪnə] *n* g'olib, muzaffar, g'olib (yutib) chiqqan kishi, laureat.

winning ['wɪnɪŋ] *a* **1.** yut(adi)gan, g'olib chiqadigan (chiqqan); **2.** jozibador, jozibali, yoqimli, dilbar, dilrabo; **ā** - **smile** yengadigan jilmayish.

winter¹ ['wɪntə] *n* qish; **in** ~ qishda, qish faslida.

winter² ['wɪntə] *a* **1.** qish va qish oylari bo'ladigan, qishki; qish...; **ā** - **day** qishki kun; **2.** kuzgi, kuzda ekilgan (ekiladigan); - **wheat** kuzgi bo'g'doy.

winter³ ['wɪntə] *v* qishlamoq, qishlab qolmoq, qishni o'tkazmoq.

wintertime ['wɪntətɑɪm] *n* qishki payt, qishki fasl; **in** ~ qishki paytda, qishda.

winter sports ['wɪntə'spɔ:ts] *n* sportning qishki turlari.

wintry ['wɪntri] *a* qishki, qishlik..., qish...; sovuq, juda sovuq, ayozli.

wipe¹ [waɪp] *n* artish, artib olish (qo'yish, tozalash, tashlash); **to give smth.** a - biror narsani artmoq, artib tashlamoq.

wipe² [waɪp] *v* artmoq, artib olmoq (qo'y-moq, tozalamoq, tashlamoq), yaxshilab artmoq; (ko'z yoshlarini) artib qo'y-moq.

wipe away ['waɪpə'weɪ] *phr.v* artmoq, o'chirmoq, artib (sidirib yoki o'chirib) tashlamoq, artib qo'y-moq.

wipe out ['waɪpə'ɔ:ut] *phr.v* yer yuzidan supurib tashlamoq; yo'q qilmoq, bitirmoq, tugatmoq, qirib tashlamoq.

wipe up ['waɪp'ʌp] *phr.v* artib tozalamoq, artib tashlamoq, artib quritmoq; (idish-tovoqni) artib tozalamoq.

wiper ['waɪpə] *n* sochiq; gubka, latta; tozalash (artish) uchun ishlatiladigan material (latta, paxta va sh.k.).

wire¹ [waɪə] *n* **1.** (ingichka) sim; **2.** telefon aloqalari simlari; **3.** *AE* telegramma.

wire² [waɪə] *v* **1.** sim bilan biriktirmoq, ulamoq; **2.** simlarni yotqizmoq (o'tkazmoq) *yoki* montaj qilmoq; **to** - **up a house** uyg'a elektr o'tkazmoq; **3.** *AE* telegramma jo'natmoq, telegramma bermoq.

wireless I ['waɪələs] *n* radio; radio-priyomnik.

wireless II ['waɪələs] *a* simsiz, simi yo'q.

wiring ['waɪərɪŋ] *n* elektr tarmoq, elektr simlari tarmog'i.



wiry [ˈwaɪəri] *n* (tana haqida) chayir, tomirlari boʻrtib chiqqan, qotma, qotmadan kelgan.

wisdom [ˈwɪzdəm] *n* **1.** donishmandlik, donolik, oqillik; zakovat, hikmat; **2.** aql bilan (oʻylab) ish qilish, mulohazakorlik; toʻgʻri (sogʻlom) maʼno, mazmun, magʻiz.

wisdom tooth [ˈwɪzdəmtu:θ] *n* aql tishi.

wise [waɪz] *a* **1.** donishmand, dono, oqil, oqilona; **2.** aqlli, fahm-farosatli, farosatli, idrokli, es-hushli; oʻylab (aql bilan) ish qiladigan, bamaʼni, mulohazali; zehni, zehni oʻtkir; **3.** bilimdon, bilarmon, bilagʻon, maʼlumotli, xabardor, yaxshi biladigan; **to be none the ~r** biror narsadan hech narsani tushunmaslik.

-wise [-waɪz] *suff* *holat ravishlarini yasaysi:* **anywise** biror tarzda; **likewise** singari, oʻxshab, oʻxshatib; **stepwise** qadam-baqadam; **crosswise** biri ustiga ikkinchisini koʻndalang qoʻyib, kesishtirib.

wisely [ˈwaɪzli] *adv* **1.** oqilona, donolik bilan, donolarcha; **2.** aql bilan, oʻylab, aql (miyani) ishlatib, mulohaza qilib.

wish¹ [wɪʃ] *n* **1.** tilak, istak, xohish; **2.** iroda, xohish, buyruq, amr; **3.** iltimos, soʻrov, oʻtinch.

wish² [wɪʃ] *v* **1.** istak (tilak) bildirmoq, (amalg oshmaydigan istakni) tilamoq, xohlamoq; **2.** orzu qilmoq, tilamoq, istamoq, xohlamoq; **3.** (biror kimsaga biror narsa) tilamoq; **to ~ smb. well** biror kimsaga yaxshilik tilamoq; **4.** salom bermoq; **to ~ smb. good morning** biror kimsaga xayrli tong tilamoq.

wish for [ˈwɪʃfo:] *phr.v* istamoq, tilamoq, xohlamoq; intilmoq, tirishmoq, urinmoq; **to ~ happiness** baxtga intilmoq.

wishbone [ˈwɪʃbəʊn] *n* qushlarning toʻsh suyagi.

wishful [ˈwɪʃfl] *a* **1.** istalgan, orzu qilgan, koʻngildagi; **~ thinking** istalgan narsani chin, amaliy, deb qabul qilish; **2.** istovchi, orzumand, ishtiyoqmand.

wisp [wɪsp] *n* **1.** bir bogʻ, tutam, dasta (pichan, poxol); **2.** tizillab otilayotgan, oqayotgan narsa; **a ~ of smoke** siyrak tutin, kuchsiz tutun oqimi; **3.** supurgicha, chupurgi, choʻp dasta.

wistful [ˈwɪstfl] *a* **1.** sogʻingan, qoʻmsagan; allaqanday xohish *yoki* oʻkinchli ifodalaydigan *yoki* xohlaydigan; **2.** gʻamgin, qaygʻuli, maʼyus, parishon; oʻychan, xayolchan, orzu-xayollarga choʻmgan (nigoh, jilmayish haqida).

wistfully [ˈwɪstfəli] *adv* **1.** sogʻinib, qoʻmsab, achinib, oʻkinib, biroz havas bilan; **2.** oʻychan, orzu-xayollarga choʻmib.

wit [wɪt] *n* **1.** gapga toʻn kiydirib gapirish, gapga ustalik, qochirim, piching, hazil-mutoyiba; **2.** qochirimga usta odam, hazil-mutoyibachi, askiyaboz, soʻzamol; gapga usta odam; **3.** aql, zakovat, fahm, idrok, zehn; **quick ~ fahmi** (zehni) oʻtkirlik, ziyraklik; **to have the ~ to do smth.** biror narsa qilishni tushunib yetmoq.

witch [wɪtʃ] *n* **1.** jodugar ayol (xotin), yalmogʻiz, alvasti; **2.** dilrabo, dilbar; maftun (shaydo) qiluvchi.

witchcraft [ˈwɪtʃkra:ft] *n* **1.** sehrgarlik, jodugarlik; jodu, amal; **2.** dilrabolik, kishini maftun (shaydo) qiladigan narsa, fusunkor joziha (tarovat).

witchdoctor [ˈwɪtʃˌdɒktə] *n* shomon, sehrgar, ruhoni (ayrim xalqlarda).

with [wɪð] *prep* **1.** (*tez-tez together ~*) bilan, bilan birgalikda (*ish-harakatni birgalikda qilishni ifodalashda*); **2.** vobitasida, yordamida, yordami bilan (*birgalik kelishigi bilan ifodalanadi*): **to cut ~ a knife** pichoq bilan kesmoq; **3.** (*biror narsaning oʻziga xos belgisini ifodalab*, „*ega boʻlgan, koʻrsatadigan*“, *degan maʼnolarni beradi*): **a house ~ a green roof** yashil tomli uy; **4.** (*qoplash, toʻldirish yoki sigʻimni anglatishda ham birgalik kelishigi bilan ifodalanadi*): **covered ~ dust** chang bilan qop-

langan; **5.** (*homiyligida, foydasiga*): **to agree ~ smb.** biror kimsa bilan bitimga (murosaga) kelmoq; **6.** hiror narsaga nisbatan; **to be patient ~ smb.** biror kimsaga nisbatan sabrli bo'lmq, chidamoq; **7.** (*taqqoslaganda ishlatiladi*): **to compare one thing ~ another** bir narsani boshqasi bilan taqqoslamq.

withdraw [wið'drɔ:] v (pt **withdrew**; pp **withdrawn**) **1.** tortib olmoq, nari tortmoq, olib qochmoq; siltab orqaga tortmoq; **2.** ketmoq, ketib qolmoq, jo'namoq, jo'nab ketmoq; **3.** olib ketmoq, qaytarib olmoq; (*iste'moldan, muomaladan va sh.k. lardan*) chiqarmoq, chiqarib tashlamq, qaytib olmoq; **to ~ deposits** omonatlarni qaytarib olmoq; **4. harb.** (qo'shinlarni) olib ketmoq, uzoqlashtirmoq; **5. (~ from)** odatni tashlamq, tark etmoq.

withdrawal [wið'drɔ:əl] n **1.** tortib olish, nari tortish, olib qochish; siltab orqaga tortish; **2.** chiqarish, chiqarib tashlash; **3.** qaytarib olish; (*va'da va sh.k. dan*) qaytish, tonish, inkor qilish; **4.** bekor qilish, yo'q qilish; (*nomzodlik va sh.k. ni*) olib tashlash; **5.** (*shartnomadan, ishtirokchilar tarkibidan*) chiqish; **6. harb.** chekinish; jangdan chiqish (*shuningdek ~ from action*); qo'shinlarni olib chiqib ketish; **7.** odatni tashlash, tark etish.

withdrawn I [wið'drɔ:n] a odamlarga aralashmaydigan, odamovi, damduz, xayolga cho'mgan (odam haqida).

withdrawn II [wið'drɔ:n] vpp of **withdraw**.

withdrew [wið'dru:] v pt of **withdraw**.

wither [wiðə] v **1.** (gullar haqida) so'limoq, so'lib qolmoq, qovjiramoq; **2.** ozdirmoq, ado (tamom) qilmoq, ozdirib-to'zdirib yubormoq; kuchdan qoldirmoq; **3.** zaiflashmoq; kamaymoq, kamaya bormoq, ozaya boshlamq.

withering [wiðəriŋ] a **1.** halokatli, falokatli; nobud (*vayron-talqon*) qiluvchi,

xarob (halok) qiladigan; **2.** g'azabli, bir qarab jonini oladigan (*nigoh*); nafratli, yerga kirgizib yuboradigan (*tanbeh*).

withheld [wið'held] v pt, pp of **withhold**.

withhold [wið'həuld] v (pt, pp **withheld**)

1. biror narsani rad qilmoq, qaytarmoq, yo'q demoq, ayamoq, darig' tutmoq; biror narsadan o'zini tiymoq (*tutmoq*), saqlamoq; **2.** yashirmoq, bekitmok, sir saqlamoq; indamay (*og'iz ochmay*) ketmoq; **to ~ information** ma'lumotni yashirmoq; **3. AE** (*maoshdan*) ushlab, tutib, chegirib qolmoq.

within¹ [wið'm] adv **1.** ichkarida; ichkari tomondan; **2.** ko'nglida, ko'ksida, ichida, o'zida, fikrida, xayolida; **to keep one's thoughts ~ o'z fikrini** (*xayolini*) ichida sir saqlamoq; **he was outwardly calm, but raging** ~ u sirdan xotirjam ko'rinardi, ammo ko'ksi g'azabga to'lgan edi.

within² [wið'm] prep **1.** ichida, ichkarisida, ichkari tomonida; **2. ... dan ko'p emas, atrofida, chegarasida;** **3.** biror vaqt mobaynida, ichida; (*-dan*) kechiktirmasib.

without [wið'au't] prep **1. biror kimsa, narsaning yo'qligini ifodalaydi:** biror narsasiz, be-; **to do (to go) ~ smth.** biror narsasiz eplamoq, eplashirmoq, amal-lamoq, epini (*ilojini*) qilmoq; **he can not walk ~ stick** u hassasiz yura olmaydi; **2. ish-harakatning sodir etilmasligini ifodalaydi:** ...masdan, ...masib; agar ...masa (*gerundiy yoki fe'ldan yasalgan ot oldidan*); **she sat ~ moving** u qimirlamasdan o'tirdi; **she will not come ~ being invited** agar taklif qilishmasa u kelmaydi; **3. birikmalarda: ~ regard** hisobga olmasdan, nazarda tutmasdan; e'tiborga olmasdan; ~ **exception** mustasnosiz, istisnosiz; **it goes ~ saying** o'z-o'zidan tushunarli (*ma'lum*).

withstand [wið'stænd] v (pt, pp **withstood**) **1.** biror ta'sirga berilmaslik, o'zini tiyib (*tutib*) qolmoq; chidash (*bardosh*)

bermoq; 2. *tex.* qarshisida turib, unga bardosh bermoq; qarshi turmoq, chidamoq, bardosh bermoq.

withstood [wiðstʊd] *v pt, pp of withstand.*

witness¹ [ˈwɪtnəs] *n* 1. oʻz koʻzi bilan koʻrgan kishi, guvoh, shohid; 2. guvohlik koʻrsatmasi, guvohning aytgani; guvohlik, shohidlik; 3. biror narsaning tasdiqʻi, isboti, dalili; **to bear ~ to** (biror narsaning) guvohi, shohidi boʻlmoq, (biror narsani) tasdiqlamoq, isbotlamoq.

witness² [ˈwɪtnəs] *v* 1. (biror narsaning) guvohi, shohidi boʻlmoq; 2. (sud va sh.k. larda) guvohlik koʻrsatmalarini bermoq; guvoh sifatida soʻzga chiqmoq; 3. guvohlik bermoq; dalil (tasdiq, isbot) boʻlib xizmat qilmoq.

witness box [ˈwɪtnəsboks] *n* (sud zalida) guvohlik koʻrsatmalarini beradigan joy.

witness stand [ˈwɪtnəsstænd] *n* AE „**witness box**“ga qarang.

-witted [-ˈwɪtɪd] *suff murakkab soʻz-larning tarkibiy qismi sifatida: qandaydir aqlga ega boʻlgan; dull-witted anqov, befarosat, esi past, aqli kalta; **quick-witted** tez tushunadigan, aqli (kallasi) yaxshi ishlaydigan, fahmi (zehni) oʻtkir.*

witticism [ˈwɪtɪsɪzəm] *n* qochirim, piching, hazil-mutoyiba, chiston.

witty [ˈwɪtɪ] *a* soʻzamol, gapga usta, aqlli, dono.

wives [waɪvz] *n pl of wife.*

wizard [ˈwɪzəd] *n* 1. jodugar, sehrgar, afsungar; 2. = **witchdoctor**; 3. misli koʻrilmagan qobiliyatlarga ega boʻlgan odam, *ayniqsa* maʼlum bir soha boʻyicha.

wizardly [ˈwɪzədli] *a* 1. sehrlı, sehrlaydigan, sehrgarlikka xos boʻlgan, sehrgarlik...; 2. ajoyib, juda yaxshi (soz), maf-tun etadigan, maftunkor, fusunkor.

wizardry [ˈwɪzədri] *n* 1. sehrgarlik, jodugarlik; afsun, sehr, jodu; 2. ajoyib qobiliyatlar.

wizen [ˈwɪzn] *v* 1. (oʻsimliklar haqida)

soʻlimoq, soʻlib qolmoq, qovjiramoq; 2. (odam haqida) ozmoq, oriqlamoq, ozib-toʻzib ketmoq; 3. (teri haqida) ajin hosmoq.

wizened [ˈwɪznd] *a* 1. (oʻsimliklar haqida) qurib, soʻlib qolgan, qovjiragan; 2. ozgʻin, oriql, novcha (odam haqida); 3. (teri haqida) burushgan, ajin bosgan, burushiq.

wobble¹ [ˈwɒbl] *n* 1. tebranish, silkinish, chayqalish; qimirlab (likillab) turish; 2. titrash, qaltirash, titroq; **with ~ in one's voice** ovozi titrab, titroq ovozd.

wobble² [ˈwɒbl] *v* 1. chayqalmoq, silkinmoq, tebranmoq, qimirlamoq, liqillamoq, lopillamoq; 2. qatʻiyatsizlik (jurʻatsizlik) qilmoq, ikkilanmoq; 3. titramoq, qaltiramoq, titroq bosmoq.

woe [wəʊ] *n* 1. qaygʻu, gʻam, dard-alam, dogʻ; baxtsizlik, musibat, kulfat, ofat; **a tale of ~** achinarli (qaygʻuli) qissa; 2. (-s) musibatlar, kulfatlar, koʻngilsizliklar, koʻngilsiz voqealar.

woeful [ˈwəʊfʊl] *a* 1. qaygʻuli, gʻam-hasratli, alamli, gʻamgin, achinarli, motamsaro; 2. ayanchli; oʻta achinarli, qaygʻuli, hasratli; xafa qiladigan, rangitadigan.

woke [wəʊk] *v pt, pp of wake².*

woken [ˈwəʊkn] *v pp of wake².*

wolf [wʊlf] *n (pl wolves)* 1. *zool.* boʻri, qashqir; 2. shafqatsiz, berahm odam; **to cry ~ yolgʻondakam** trevoga (qiy-chuv, toʻs-toʻpolon) koʻtarmoq; **~ in a lamb's skin** qoʻy terisiga burkangan boʻri.

wolves [ˈwʊlvz] *n pl of wolf.*

woman [ˈwʊmən] *n (pl women* [ˈwɪmm]) 1. xotin, xotin kishi; ayol; 2. xotin-qizlar, ayollar (jinsi); 3. biror kasb egasi boʻlgan ayol, xotin (*odatda soʻz birikmalarida uchraydi*); **a ~ doctor** shifokor ayol (xotin); 4. (erkak haqida) xotinchalish, xotinnamo.

womanhood [ˈwʊmənɦud] *n* 1. xotin qizlarning balogʻatga yetishi; 2. ayollik xislatlari, sifatleri; nazokat, zarofat; 3. xotin-qizlar, ayollar.

womanish [ˈwʊmənɪʃ] *a* 1. xotin-

qizlarga oid, xotin-qizlarcha, ayollarga xos bo'lgan; xotin-qizlar..., ayollar...; **2.** xotinchalish, xotinnamo; xotinlarga xos bo'lgan, xotincha.

womankind ['womənkəɪnd] *n* xotin-qizlar, ayollar (jinsi).

womanly ['wʊmənli] *a* xotinlarga xos latif (nozik, mayin, muloyim, yumshoq); katta ayollarga yarashadigan *yoki* xos bo'lgan.

womb [wʊ:m] *n anat.* bachadon.

wombat ['wɒmbæt] *n zool.* wombat.

women ['wɪmɪn] *n (pl of woman); ~'s page* ayollar uchun sahifa (jurnalda).

womenfolk ['wɪmɪnfəʊk] *n 1.* xotin-qizlar, ayollar (jinsi); **2.** (oilaning) xotin kishilari, xotin-qizlari.

won [wɒn] *v pt, pp of win*².

wonder¹ ['wʌndə] *n 1.* mo'jiza; hayratga soladigan (ajoyib) narsa; **to work** ~s mo'jizalar ko'rsatmoq, ajoyib ishlar qilmoq; **it is no ~, it is little** ~ ...bo'lsa ajab emas (ajablanarli joyi yo'q); ...bo'lsa hayratlanmasa ham bo'ladi; **2.** hayron bo'lish, tong (qoyil) qolish, ajablanish, hayratda qolish; hayrat, mahliyolik.

wonder² ['wʌndə] *v 1.* qiziqsinmoq, birlashni xohlamoq; o'ziga-o'zi savol bermoq; **I ~ if** qiziq, ...; **2. (-at)** hayratda (hayron, tong, qoyil) qolmoq, ajablanmoq, hayron (qoyil) bo'lmoq, mahliyo bo'lib qolmoq; **I - !** bilmadim, bilmasam (*ikkilanish va ishonchsizlikni ifodalaydi*).

wonderful ['wʌndəfʊl] *a 1.* ajoyib, juda ham yaxshi, juda soz; **2.** kishini hayron qoldiradigan, mahliyo qilib qo'yadigan.

won't [wəʊnt] „**will not**“ning qisqartmasi.

wood [wʊd] *n 1.* yog'och (material); yog'och-taxta, taxta-yog'och; **2. (~s)** kichkina o'rmon, daraxtzor; **3.** o'tin.

woodcutter ['wʊdkʌtə] *n 1.* daraxt (yog'och) kesuvchi; **2.** yog'och o'ymakori, naqqoshi.

wooded ['wʊdɪd] *a* serdaraxt, daraxtzor, o'rmonli.

wooden ['wʊdn] *a 1.* yog'och..., yog'ochdan qilingan (yasalgan, ishlangan); **2.** harakatsiz, qotgan; o'lik, jonsiz, ruhsiz; **3.** miyasi yo'q, esi past, kaltafahm, to'mtoq, anqov, befahm, befarosat.

woodland ['wʊdlənd] *n* o'rmon, daraxtzor; o'rmonli (serdaraxt, daraxtzor) joy.

woodpecker ['wʊdpekə] *n zool.* qizilishton.

woodwinds ['wʊdwindz] *n* yog'ochdan yasalgan puflab chalinadigan misiq asboblari (orkestrda).

woodwork ['wʊdɜ:k] *n 1.* yog'ochdan yasalgan buyumlar (mebel va sh.k.); **2.** duradgorlik ishlari; **3.** (qurilishning) yog'ochdan yasaladigan qismlari.

woodworm ['wʊdɜ:m] *n 1.* yog'och qurti lichinkasi; **2.** yog'och qurtining yog'ochni shikastlashi; mebel qurtining izi.

woody ['wʊdi] *a 1.* serdaraxt, daraxtzor, o'rmonli; **2.** daraxtga oid, daraxt...; yog'ochdan yasalgan (qilingan, ishlangan); yog'och...

woof [wʊf] *n* vovillash, akillash, uvillash, hurish.

wool [wʊl] *n 1.* jun, yung, qo'y juni; **2.** jun kalavasi, jun ipi; jun gazlama; **a ~ suit** jun kastum; **3.** jundan tikilgan kiyim; **4.** vata, momiq; **glass** - shishadan tayyorlangan momiq.

woollen ['wʊlən] *a* jundan tikilgan (qilingan, tayyorlangan), jun (yung)...

woolly¹ ['wʊli] *n* jundan tikilgan (qilingan, tayyorlangan) narsa (sviter va h.k.).

woolly² ['wʊli] *a 1.* jundan tikilgan (qilingan, tayyorlangan), jun (yung)...; ~ **socks** jun paypoq; **2.** tushunib bo'lmaydigan, mujmal, xira (o'y-fikrlar haqida); ~ **mind** miyadagi fikrlarning chalkashligi.

woolly-headed ['wʊli'hedɪd] *a* (odam haqida) noaniq fikrlaydigan; aqli yo'q, beaq, aqlsiz, kaltafahm.

word¹ [wɜːd] *n* **1.** soʻz, kalima; **in a/one** – qisqasi, xullas, xullas kalom, qisqasini aytganda; **in a few** –s bir necha soʻzlar bilan, qisqacha qilib; **2.** gap, suhbat; **to have a – with smb.** biror kimsa bilan gaplashib koʻrmoq; **3.** xabar; yangilik, maʼlumot; **to send** – bildirmoq, maʼlum qilmoq, xabar qilmoq; **4.** vaʼda, ahd, soʻz; soʻz berish, lafz; **to give/ to pledge one's** – (chin) soʻz hermoq; **a man of his** – bir soʻzli odam, vaʼdasida turadigan odam; **to be as good as one's** – soʻzida (vaʼdasida) turmoq, vaʼdaga vafo qilmoq; **5.** parol (shartlashilgan maxfiy soʻz); shior.

word² [wɜːd] *v* soʻzlar bilan ifodalamoq; soʻzlarni terib gapirmoq; aniq ifoda qilmoq, taʼriflamoq, taʼriflab bermoq.

wording [ˈwɜːdɪŋ] *n* aniq ifoda qilish, taʼriflash, aniq taʼrif; fikr bildirish usuli.

wordplay [ˈwɜːdpleɪ] *n* soʻz oʻyini.

word processor [ˈwɜːdˈprəʊsesə] *n* matnlarga ishlov berish protsessori, matn protsessori.

word processing [ˈwɜːdˈprəʊsesɪŋ] *n* **1.** matnga elektron usulda ishlov berish; **2.** (zamonaviy orgtexnika vositalari bilan) hujjatlarni operativ, tez va epchillik bilan tayyorlash.

wordy [ˈwɜːdi] *a* **1.** ortiqcha (keraksiz) soʻzlari koʻp, choʻzilib ketgan, ezma; **2.** ogʻzaki, dahanaki.

wore [wɔː] *v pt of wear*².

work¹ [wɜːk] *n* **1.** ish; mehnat; **easy** – oson (yengil) ish; **hard** – qiyin (mushkul) ish; **2.** ish, yumush; **a job of** – ish, vazifa; **3.** xizmat, vazifa, ish; **at** – ishda, ishga; **out of** – ishsiz; **4.** ish (xizmat) joyi; **5.** buyum, mahsulot; asar, ijod; insho; ish; **à** – **of art** sanʼat asari; **à** – **of genius** genial ish.

work² [wɜːk] *v* **1.** ishlamoq, mehnat qilmoq, ish qilmoq; **to** – **a lot** koʻp ishlamoq, koʻp mehnat qilmoq; **to** – **hard** qattiq (astoydil) ishlamoq; **to** – **at smth.** biror narsa ustida ishlamoq; **2.** yollanib ish-

lamoq, xizmat qilmoq; **3.** ishlab chiqmoq; **to** – **the soil** yerga ishlov bermoq; **4.** taʼsir koʻrsatmoq, taʼsir qilmoq (etmoq), kor qilmoq; **5.** harakat qilmoq, ishlamoq; soz boʻlmoq; **6.** (motor va sh.k. haqida) harakatga kelmoq, yurmoq, yurib ketmoq.

work on [ˈwɜːkɒn] *phr.v* taʼsir etmoq (qilmoq, koʻrsatmoq), taʼsirini oʻtkazmoq.

work out [ˈwɜːkaʊt] *phr.v* **1.** hisoblamoq, hisoblab chiqarmoq; hisoblash yoʻli bilan aniqlamoq; **2.** (rejani) ishlab chiqarmoq; (hujjat va sh.k. larni) tuzmoq.

work up [ˈwɜːkʌp] *phr.v* **1.** ishlov bermoq, pardoqlamoq; yakuniy koʻrinishga keltirmoq; **2.** qoʻzgʻamoq, uygʻotmoq, yuzaga keltirmoq, tugʻdirmoq, zoʻraytirmoq, avj oldirmoq, alanga oldirmoq.

workable [ˈwɜːkəbl] *a* **1.** ishlasa boʻladigan; ishlov berishga yaraydigan; **2.** bajarish mumkin boʻlgan, amalga oshirsa boʻladigan, real; – **scheme** amalga oshirsa boʻladigan reja.

workaday [ˈwɜːkədeɪ] *a* har kungi, kundalik.

workaholic [ˈwɜːkəhɒlɪk] *n* mehnatga tashna kishi.

workbench [ˈwɜːkbentʃ] *n* verstak, dastgoh.

workbook [ˈwɜːkbʊk] *n* **1.** mashqlar toʻplami; **2.** ish daftari.

workday [ˈwɜːkdeɪ] *n* oddiy kun, begim kuni; ish kuni.

worker [ˈwɜːkə] *n* **1.** ishlovchi, ish qiluvchi; **2.** xodim, ishchi, xizmatchi; **3.** koʻp ishlaydigan, mehnatkash, zahmatkash, ishchan (segʻayrat) odam.

workforce [ˈwɜːkfoːs] *n* **1.** ishchilar; xodimlar, xizmatchilar; **2.** ishchi kuchi.

working [ˈwɜːkɪŋ] *a* **1.** ishlaydigan, ishlovchi, ishchi, ish...; **2.** ishga yaraydigan; **3.** ish (ishlash) uchun moʻljallangan (kun); **4.** ishlayotgan, mehnat qilayotgan.

working party [ˈwɜːkɪŋ ˌpɑːti] *n* komissiya; ishchi guruh.

workings ['wɜ:kɪŋz] *n* (mashina va sh.k. larning) ishlash prinsipi.

workload ['wɜ:kkləʊd] *n* 1. ish normasi, me'yor; 2. ish nagruzkasi (yuki, og'irligi).

workman ['wɜ:k mən] *n* (*pl* **workmen** [-men]) ishchi (asosan malakali).

workmanship ['wɜ:k mənʃɪp] *n* 1. mohirlik, ustalik, mahorat, san'at; 2. parдоз berish, ishlov.

works I ['wɜ:ks] *n* (mashina, soatlar-ning) mexanizmi.

works II ['wɜ:ks] *n* zavod, fabrika; (ta' mirlash) ustaxonasi, korxonasi.

worksheets ['wɜ:kʃi:t] *n* 1. (maktabda) yozma topshiriqlar; 2. so'rovnoma.

workshop ['wɜ:kʃɒp] *n* 1. ustaxona, ish-xona, sex; 2. to'g'arak; studiya; seminar.

world¹ [wɜ:ld] *n* 1. jahon, dunyo, olam, koinot, yer yuzi, yer-ko'k; **to come into the** ~ tug'ilmoq, dunyoga kelmoq; 2. butun dunyo, olam; hamma, barcha; **the whole** ~ **knows about it** bu haqida butun dunyo (hamma) biladi; 3. muhit, doira, olam; **a** ~ **of art** san'at olami; 4. (tabiat, hayvonot va sh.k. da) olam, dunyo, saltanat; **the animal** ~ hayvonot olami; 5. juda ko'p, ancha, bir talay, behisob, sonsanoqsiz; **a** ~ **of faults** bir talay kamchiliklar; **a** ~ **of money** mo'may daromad.

world² [wɜ:ld] *a* 1. butun dunyoga taalluqli bo'lgan, dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan, jahon (dunyo) miqyosidagi, (butun) olam (jahon, dunyo)...; olamshumul, jahonshumul; **a** ~ **record** jahon rekordi; 2. butun dunyoni qamrab olgan.

world community [wɜ:ld kəmju:nəti] *n* jahon hamjamiyati.

world-class [wɜ:ldklo:s] *a* birinchi darajali, a'lo darajali, dunyo (jahon) miqyosidagi, eng yaxshi (yuqori), jahon...; **a** ~ **player** jahon miqyosidagi o'yinchi.

world-famous [wɜ:ldfeiməs] *a* jahonga mashhur bo'lgan, olamga tanilgan, olamshumul, butun dunyo biladigan.

worldly ['wɜ:ldi] *a* 1. el-yurtga oid; dunyoviy; 2. turmushda bo'ladigan, amaliy, amaldagi; ~ **wisdom** hayotda orttirilgan donishmandlik; 3. hayotiy (dunyoviy) ne'matlarni yaxshi ko'radigan.

world war [wɜ:ldwɔ:] *n* jahon urushi.

worldwide¹ [wɜ:ldwaɪd] *a* butunjahon, jahon miqyosidagi; butun dunyoga tarqalgan (yoyilgan).

worldwide² [wɜ:ldwaɪd] *adv* butun jahonda, butun yer yuzida.

worm¹ [wɜ:m] *n* 1. *zool.* qurt, chuvalchang; 2. nochor (ojiz) odam, bechora, haqir shaxs; 3. *tex.* chervyak (qo'chqaroq, shesterna), chervyakli vint.

worm² [wɜ:m] *v* 1. emaklamoq, o'rma-lamoq, sudralib yurmoq; emaklab o'tib olmoq; **to** ~ **one's way** o'rmalab (emaklab) yurmoq (o'tmoq); 2. suqilib kirmoq, kirib (o'tib) olmoq (~ **into**).

worm-eaten [wɜ:m,i:tn] *a* 1. qurt yeb tashlagan; qurt yegan, qurt tushgan; qurtlagan (olma va sh.k. haqida); 2. eskirgan, eskirib qolgan, ko'hna; mog'orlagan, mog'or bosgan.

wormlike [wɜ:mლაიკ] *a* 1. qurtsimon, qurtga o'xshash; 2. sudralib yuruvchi, imillagan (odam haqida).

worn [wɔ:n] *v pp of wear*².

worn out [wɔ:n'əʊt] *phr. v* eskirmoq, yirtilmoq, ko'p ishlatilib ishdan chiqmoq; quvvatdan ketmoq, keksaymoq.

worn-out [wɔ:n'əʊt] *a* 1. eskirgan, to'zgan, eskirib ishdan chiqqan; kiyib (ishlatilib) ado qilingan; 2. juda charchagan, horg'in, tinkasi qurigan, holdan toygan.

worried [wə'riɪd] *a* bezovta bo'lgan, hayajonlangan, hayajonga tushgan; bezovta, hayajonli, tashvishli, xavotirli, betinch, notinch; beorom.

worrysome [wə'risəm] *a* 1. tashvishga (vahimaga) soladigan, bezovta qiladigan; 2. xavotir olishga, tashvishlanishga, hayajonlanishga moyil.

worry¹ [ˈwʌri] *n* (*pl worries*) **1.** bezovtalik, ovoragarchilik, urinish; iztirob, hayajon, tashvish, vahima, xavotir(lik); **2.** (-ies) tashvishlar, ko'ngilsizliklar; **money** – pul tashvishlari.

worry² [ˈwʌri] *v* (*pt, pp worried*) bezovta qilmoq (bo'lmoq), urin(tir)moq, ovora qilmoq (bo'lmoq), hayajonlan(tir)moq, to'lqinlan(tir)moq, hayajonga, iztirobga solmoq (kelmoq, tushmoq).

worrying [ˈwʌriŋ] *a* tashvishga soladigan, tashvishli.

worse¹ [wɜːs] *a* **1.** („bad“ va „ill II“ning *qiyosiy darajasi*) yomonroq, battarroq, yaramasroq; **so much the – for smb.** biror kimsa uchun undan battar (yana battarroq); **to make matters** – bularning hammasi yetmagandek (bu ko'ngilsizliklarning ustiga ustak); **what is** – shunisi yomonki, yomon tomoni shundaki; **2.** (bemor haqida) yanada og'irlashgan, mazasi qochgan; **to go from bad to** – yanada yomonlashmoq (og'irlashmoq).

worse² [wɜːs] *adv* **1.** („badly“ning *qiyosiy darajasi*) yomonroq, battarroq; **2.** yana ham kuchliroq, ko'proq.

worsen [ˈwɜːsn] *v* **1.** yomonlash(tir)moq, og'rlash(tir)moq, battar qilmoq (bo'lmoq); **2.** birovni yomonlamoq, qoralamoq, birovning g'iybatini qilmoq (yomon tomonini ko'rsatib bermoq).

worship¹ [ˈwɜːʃɪp] *n* **1.** hurmatlash, hurmat qilish, qadrlash, hurmat qilib bosh egish, ta'zim (sajda) qilish; **2. din.** ibodat, topinish, sig'inish; din, e'tiqod, mazhab; ibodat qilish, namoz; **Your Worship** (shahar hokimi, sudyaga murojaat qilishda) Janoblari.

worship² [ˈwɜːʃɪp] *v* **1.** ixlos qo'ymoq, juda hurmatlamoq, izzatlamoq, qadrlamoq, bosh egmoq, ta'zim qilmoq; **2.** had-dan tashqari (juda) sevmoq, sidqidildan yaxshi ko'rmoq, topinmoq, sajda qilmoq; xudo deb bilmoq; **3. din.** (cherkovda,

masjidda) ibodat qilmoq, sig'inmoq, duo qilmoq, namoz o'qimoq; cherkovga, masjidga qatnamoq.

worshipper [ˈwɜːʃɪpə] *n* ibodat qiluvchi, sig'inuvchi, ibodatga qatnovchi dindor kishi, namozxon.

worst¹ [wɜːst] *n* **1.** eng yomoni, eng battari; **at the** – hech bo'lmaganda, hech iloji qolmaganda.

worst² [wɜːst] *a* **1.** („bad“ va „ill II“ning *orttirma darajasi*) eng yomon, eng battar, eng og'ir; **2.** ashaddi, o'taketgan, uchchiga chiqqan, eng yovuz, eng kuchli; **the – kind of** eng zararli (yomon), ashaddi, o'taketgan, uchchiga chiqqan.

worst³ [wɜːst] *adv* **1.** („badly“ning *orttirma darajasi*) hammasidan yomon; **2.** hammasidan ko'ra, ayniqsa; hammasidan kuchliroq; **3.** eng oz, eng kam, eng, hammasidan ko'ra kamroq; **the – loved** eng yomon ko'rilgan, sevimagan.

worth¹ [wɜːθ] *n* ahamiyat, mohiyat, e'tibor; muhimlik; qadr-qimmat, e'tibor, obro'; **a man of** – hurmatli odam; **to be of no** – hech qanday ahamiyatga ega bo'lmaslik, hech narsaga yaramaslik.

worth² [wɜːθ] *a* **1.** turadigan, arziydigan, arziguli; (qandaydir) narxga *yoki* qiymatga ega bo'lgan; – **the money** (xarid haqida) arziydigan, foydali; **2.** (diqqat-e'tiborga) arziydigan, arzirli, arziguli.

worthless [ˈwɜːθləs] *a* **1.** hech narsaga arzimaydigan; hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan; **2.** (odam haqida) nokerak, hech keragi yo'q, foydasiz, keraksiz, uch pulga qimmat; yaramas, bo'lmagur.

worthwhile [ˈwɜːθwaɪl] *a* arziguli, (diqqat-e'tiborga) molik, arzirli, ma'noga ega.

worthy [ˈwɜːði] *a* **1.** (~ of) arzirli, arziydigan, loyiq, munosib, sazovor; – **of praise** maqtashga arzirli, maqtovgaga sazovor (loyiq); **it is** – of note that ...shuni aytish kerakki, ...; shu narsa diqqatga sazovorki, ...; **2.** (-worthy)

murakkab so'zlarning tarkibiy qismi sifatida: **a)** yaroqli, layoqatli; yaraydigan; **seaworthy** suzishga yaraydigan; **b)** arzirli, arziydigan, loyiq, munosib, sazovor; **praiseworthy** maqtovga sazovor bo'ladigan, maqtasa bo'ladigan, maqtashga loyiq; **noteworthy** e'tiborga arzirli, e'tibor bersa arziydigan.

would [wəd; wud] *v* **1.** „**will**“ning o'tgan zamon shakli; **2.** yordamchi fe'l sifatida: **a)** to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapning bosh gapida o'tgan zamon bilan moslashgan kelasi zamoni ifodalash uchun xizmat qiladi: **she thought she – succeed** u muvaffaqiyatga erishaman deb o'yladi; **b)** shart ergash gapli qo'shma gapning bosh gapida istak maylining 2- va 3- shaxs shakllarini yasashga xizmat qiladi: **he ~ be surprised if we came** agar biz kelsak u ajablangan bo'lar edi; **3.** xohish, istakni ifodalaydi: **I ~ rather stay at home** men bajonidil uyda qolgan qolgan bo'lar edim; **4.** o'tgan zamonda odat bo'lib qolgan ish-harakatni ifodalaydi: **every day we – go for a walk** biz har kuni sayrga chiqar edik; **5.** xohish, istakni xushmuomalalik bilan bildirishni ifodalaydi: **~ you like to see it?** uni ko'rishni istaysizmi (xohlaysizmi)?

wound I' [wu:nd] *n* **1.** yara, jarohat; **2.** ruhiy dard, alam, qayg'u, hasrat; ranj, ranj-alam, xafagarchilik, dilsiyohlik, haqorat, tahqir; **à ~ to one's vanity** izzati nafsiga (nafsoniyatiga) tegish.

wound I' [wu:nd] *v* **1.** yarador qilmoq, jarohatlamoq; **2.** og'ritmoq; tegib ketmoq, ranjitmoq, xafa qilmoq, alam qildirmoq.

wound II [waund] *v* *pt, pp of wind I'*.

wounded ['wu:ndid] *a* **1.** yarador, yaralangan, yarador bo'lgan, jarohatlangan; **2.** ranjigan, xafa bo'lgan, izzati nafsini og'rigan, tahqirlangan, xo'rlangan.

wove [wəuv] *v* *pt of weave I'*.

woven ['wəuvn] *v* *pp of weave I'*.

wow [wau] *int* **1.** zo'r!, qoyil!, ajoyib!, juda zo'r (soz)!; **2.** obbo!, e, attang!, afsus!

wrangle [ˈræŋɡl] *v* **1.** tortishmoq, ay-tishmoq, gap talashmoq; jon-jahd bilan bahslashmoq; **2.** bahsda himoya qilmoq, yoqlamoq; **3.** hayvonlarni, ayniqsa otlatni o'tlatmoq.

wrap' [ræp] *n* **1.** issiq (qalin) ro'mol, ro'molcha, durra; sharf, bo'yinbog', nakidka, yopqich; **2.** katta, qalin jun ro'mol, ko'rpa, adyol; **3.** o'rov, jild, o'rov qog'ozi, narsa o'raydigan qog'oz; upakovka.

wrap' [ræp] *v* **1.** o'ramoq, chulg'amoq, o'rab qo'yimoq (olmoq, bermoq); solmoq, joylamoq, saranjom qilmoq (*shuningdek – about, – around, – up*); **2.** o'ramoq, burkamoq, o'rab (burkab) qo'yimoq; **3.** (*shuningdek ~ up*) yashirmoq, bekitmoq.

wrap up [ˈræpʌp] *phr.v* o'ramoq, chulg'amoq, o'rab qo'yimoq (olmoq, bermoq); burkamoq; **to ~ oneself up** o'ralmoq, burkanmoq, o'ralib (burkanib) olmoq.

wrap up into [ˈræpʌpɪntə] *phr.v* biror narsaga butun vujudi bilan berilib (sho'ng'ib) ketmoq, mukkasidan ketmoq.

wrapper [ˈræpə] *n* superoblojka, muqova(ning) jildi.

wrapping [ˈræpɪŋ] *n* o'raydigan yoki o'raladigan material; **~ paper** o'rov qog'ozi, narsa o'raydigan qog'oz.

wrath [rɒθ] *n* g'azab, nafrat, qahr, jahl, jaholat, achchiq.

wrathful [ˈrɒθfʊl] *a* g'azabli, darg'azab, badjahl, achchig'i tez, jahli chiqqan, g'azablangan; achchiqlangan, quturgan.

wreath [ri:θ] *n* **1.** gulchambar; bargak; **2.** (oltin va sh. k. dan yasalgan) toj; **3.** (tutun va sh.k. dan hosil bo'lgan) halqa.

wreathe [ri:ð] *v* **1.** (gulchambar) to'qimoq, qilmoq; **2.** o'ramoq, chirmamoq, chulg'amoq, o'rab olmoq (qo'yimoq); **3.** buralib-buralib ketmoq, chirmashmoq, o'ralmoq, chirmalmoq; **4.** (tutun va sh.k.

haqida) pag'a-pag'a bo'lib, burqirab (buralib-buralib) chiqmoq.

